

## NURJAHON ISMOILOVA

# PSIXOLOGIK TRENING ASOSLARI



**NURJAHON ISMOILOVA**

# **PSIXOLOGIK TRENING ASOSLARI**

## **O'QUV QO'LLANMA**

**Toshkent  
“INNOVATSIYA-ZIYO”  
2019**

Сканировано с CamScanner

**UDK:15.010  
BBK:88.3  
I-36**

**Ismoilova Nurjahon.  
Psixologik trening asoslari/o'quv qo'llanma/. Toshkent:  
"INNOVATSIYA-ZIYO", 2019, 244 b.**

**Taqrizchilar:**

**B.M.Umarov – psixologiya fanlari doktori, professor  
N.I.Xalilova – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGINING 2019-YIL 2-NOYABRDAGI 1023-SONLI BUYRUG'IGA  
ASOSAN NASHRGA TAVSIYA ETILGAN**

**ISBN 978-9943-6212-3-7**

**© Ismoilova N., 2019  
© "INNOVATSIYA-ZIYO", 2019**

## I. PSIXOLOGIK TRENING HAQIDA TUSHUNCHА. UNING MAQSAD VA VAZIFALARI

### 1.1. Trening haqida tushuncha

Keyingi yillarda jamiyatdagi insonlar salomatligi muammosi davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi bilan birga quvonarli hol shundan iboratki, har bir kishi o'z salomatligiga nisbatan ongli munosabatda bolmoqda. Salomatlik deganda nafaqat jismoniy balki, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "...har tomonlama, ya'ni ham jismonan, ham ruhan, ham ma'nan" soglom bo'lishiga e'tibor berilayotganligi bizning yutugimizdir.

Psixologiyada shaxsga boigan e'tibor nihoyatda katta bo'lib, buning birlgina isbotini "shaxs" atamasining o'zinigina ilmiy jihatdan talqin etuvchi 50 dan ortiq ta'riflar mavjudligi bilan izohlash mumkin. Shunga qaramasdan shaxs rivojlanishi, shaxs barkamolligiga berilgan tushunchalar anchagina tarqoq holda bo'lib, turli psixologik maktablar bu tushunchani turlicha talqin etadilar. Lekin ularning barchasi shaxs barkamolligining asosida ruhiy salomatlik yotishini ta'kidlashgan.

Barcha davrlarda, barcha xalqlarda insoniyat va jamiyatning asosiy boyligi, qadriyati sifatida jismoniy va ruhiy salomatligi tan olingan. Qadimdanoq jismoniy va ruhiy salomatlik tabiblar va faylasuflar tomonidan insonning erkin faoliyat yuritishi hamda kamolotining asosiy sharti sifatida tushunilgan.

Insonni bio-energo-informasion tizim sifatida qaraladigan bo'lsa, bu piramidal tizim tana, psixika va ruhiy elementlardan tashkil topgan mukammallik sifatida qabul qilinadi. Bu uchlikdan bittasining buzilishi butun bir tizimning barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, inson salomatligining qay darajadaligi ko'pgina omillarga: nasliy, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va hatto sog'lijni saqlash tizimiga ham bog'liqdir. Butunjahon sog'lijni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, 10-15 % oxirgi omil (sog'lijni saqlash tizimi)ga bog'liq, 15-20 %ini - genetik omillar, 25 %ini - ekologik omillar va 50-55 %ini esa - insonning hayot tarzi belgilab beradi. Shunday qilib, inson salomatligining qay darajada bo'lishi asosan insonning o'zigagina bog'liq bo'lib, uning hayot tarzi, qadriyatlari, ustakovkalari, ichki dunyosi va atrofdagilarga boigan munosabati asosiy rol o'ynaydi. Bugungi kunda mutaxassislar tomonidan otkazilayotgan aksariyat treninglar aynan shu sohaga qaratilgan bo'lib, ularning soni juda ko'pdir. Kitob rastalariga chiqarilayotgan kitoblarning bir qismi treninglarning qanday o'tkazilishi, trenerga qo'yiladigan talablarga doir ma'lumotlar bilan boyitilgandir. Ulardan foydalanish uchun ularni ma'lum bir klassifikasiyaga keltirish, umumlashtirish lozim bojadi. Shunga ko'ra, zamonaviy adabiyotlar tahlili asosida trening haqida aniq bir ma'lumotga ega bo'lish mumkin boladi.

Ma'lumki, trening atamasi bugungi kunda juda ko'p ishlatalrlioqda. Hatto bu atama bugungi kunning eng urf bo'lgan va ommaviy lashgan atamalaridan bin bolib qoldi desak, xato boTmaydi.

Bugungi kunda odamlar orasida trening atamasini tushunishda ikki xil yondashuv mavjud bo'lib, birinchi toifadagilar aksariyat shu sohadan xabardor bo'lgan kishilardir. Ular treningni istalgan hayotiy muainmolami yecha oladigan "sehrli tayoqcha" sifatida qabui qilishadi, ikkinchi toifadagilar esa bu sohadan xabardor bolmagan yoki bu sohani tan olmaydiganlar bolib, ular treningni vaqt va mablag'ni bekorga sarflashdan boshqa narsa emas, deb tushunishadi.

Hatto bir xil maqsadda oikazilgan maium bir trening mashg'ulotida ishtirot etgan bitta guruhdagi kishilaming treningga bergen bahosi ham turlicha bo'lishi kuzatiladi.

Xo'sh, trening nima o'zi? Bu atama treningda bir marotabagina ishtirot etgan kishi uchun hech qanday ta'riflashsiz tushunarlidir. Treningda ishtirot etmaganlar uchun esa bu atamani tushuntirish anchagina murakkab kechadi. Treningda ishtirot etmagan kishiga trening haqida gapirib berishni go'yoki yetilib pishgan olchani yemagan kishiga uning mazasi va ta'mini tushuntirishga hai\*akat qilishga qiyoslash mumkin, ya'ni uning mazasini to'liqligicha tushuntirib boimaydi va buni shu mevani yeb Wrgandagina bilish mumkin, xolos. Xuddi shuningdek trening haqida bilish, uni nima ekanligini his qilish uchun hech boimaganda bir marotaba trening mashg'ulotlarida ishtirotchi sifatida qatnashib ko'rish lozim.

### 1.2. Treningga berilgan ta'riflarning mazmuni

Treningga ta'rif berish yoki uni tushuntirishda turli mualliflar tomonidan turlicha

yondashuvlar mavjuddir. Masalan, GJ.Makshanov «Trening - bu amaliy psixologiyaning faol metodlariga asoslangan psixologik ta'sir amaliyotidir» deydi.

S.V. Petrushina esa bu atamaga quydagicha tavsif beradi: “Trening - ijtimoiy- psixologik kompetentlikni rivojlanishiga qaratilgan guruhiy amaliy psixologiya sohasidir”.

O.Gorbushinaning fikriga ko'ra, “Trening - bu shaxsni o'zgartirishga qaratilgan va hissiyotlarga boy bo'lgan mashg'ulotdir”

Treningni klassik psixologiya yo'nalishiga ko'ra ma'nosi shunday: “Shaxsning o'zini anglashi, guruhlarda shaxslararo munosabatlar va muloqotga kirishish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan guruhiy metodlar yig'indisidan iborat bo'lgan mashg'ulot”.

Treningni psixologik ta'sir sifatida qaragan L.A.Petrovskaya shunday ta'riflaydi: "Butun bir trening mashg'uloti yoki har bir alohida mashg'ulot o'zaro ta'sirlardan iborat bo'padi. O'zaro ta'sir metodlari guruh^oki shaxsda ma'lum bir o'zgarishlarni hosil qilishga yo'naltirilgandir".

Trening atamasini tushuntirishda quydagicha qarashlar ham mavjuddir;

Trening tushunchasi ta'lim, rivojlanish va o'qitish tushunchalari yordamida aniqlashtiriladi. O'qitish va trening tushunchalarini bir-biri bilan aralnshlirish kerakmas, lekin ayrim paytda trening o'qitishning ma'lum bir shakli Imoblansa, ba'zida esa o'qitishni treninglar orqali amalga oshirilishi ko'pchilik tomomdan tan olinadi.

Shulami hisobga olgan holda, trening tushunchasini o'qitish, rivojlunish kabi tushunchalar bilan uzviy bogTiq ekanligini ta'kidlash mumkin. Shunday ekan, trening o'qitishning bir usuli sifatida rasmiy ta'limning O'rnini bosish uchun enias, balki uni toTdirish uchun xizmat qiladi. Agar treningni mashq sifatidu lushunilsa, u holda ta'limiy faollikning shakllaridan biri hisoblanadi va ta'lim dnturiga kirib boradi. Aynan shu ma'noda u oliy ta'limdan keyingi taTimning turli tizimlurkla ham keng qo'llaniladi.

Ammo sof psixologik ma'noda psixologik treninglar yuzasidun ish olib borgan mutaxassislamning fikrlari boshqacharoq boTib, ulaming aksuriyali trening mashg'ulotlari o'yin va mashqlar orqali amalga oshirilishigu huiuda trening jarayonida ko'nikma, malakalar hosil qilinishiga e'tibor qaratganlar. Jumladan,

I Vachkovning fikriga ko'ra, “Shaxsni barkamollashtiruvchi treninglar - bu psixologik ta'siming ma'lum bir yo'nalishi boTib, guruhiy ishning faol usullarini qodlash asosida o'tkaziladi”. Devid Li esa: “Trening tushunchasining mohiyatini “Guruhiy treninglar - ikki yoki undan ortiq kishilar ishtirot etadigan va ishtirotchilarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilishga qaratilgan har qanday larayondir”, deb tushuntiradi.

Yana bir ta'rif: “Trening - insonning bilimlari, ko'nikmalari va ustanovkalarini rivojlantiruvchi rejalahtirilgan va tizimga solingen o'qitish mashg'ulotlari bo'lib, bu

mashg'ulotlar natijasida inson bir yoki bir necha faoliyatni birvarakayiga bajara olish yodlarini o'rganadi”

Psixologiya tarixida trening o'qi-tishning keng tarqalgan shakli faol ijtimoiy-psi-xoogik treninglar bo'lib, L.A.Petrovs- kiy ijtimoiy-psixgik treningga ta'rif berar ekan, uni quydagicha izohlaydi: “Trening - shaxslararo munosabatlardagi ijtimoiy ustanovkalar, tajribalar, bilim, ko'nikma va malakalami rivojlantirishga qaratilgandir, shuningdek, u muloqotda kompetentlikni rivojlantirish vositasi hamdir”

G.A.Kovalev esa treningni “...ijtimoiy psixologik o'qitishning aktiv ijtimoiy didaktik yo'nalishidir”, deb ta'riflaydi.

Trening — guruhiy ishlashning faqatgina informasiyalar almashishning intensiv shakli bo'lib qolmasdan, balki ishtirotchilarda shaxsiy tajriba va amaliy ko'nikmalami shakllantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotdir. Trening jarayonida turli xil muammo va vaziyatlami “o'ynash” natijasida bu vaziyatlami tahlil qilish, o'ziga xos tajribaga ega bo'lish asnosida ishtirotchilar hayotdagi ayni shu vaziyatlarda nima qilish kerakligini anglab oladilar.

Trening termini ingliz tilidagi “train”, “training” so'zlaridan olingan bo'lib, ko'plab ma'nolarga ega, ya'ni: o'qitmoq, tarbiyalamoq, mashq (trenirovka) qilmoq kabi ma'nolarga ega. Xuddi shunday ko'p ma'nolilik treningning ilmiy talqiniga aynan mos keladi.

Trening so'zining lug'aviy ma'nosi “mashq qilish”, “takrorlash” ma'nolarini bildirsada,

psixologik trening haqida gap ketganda, bu atama ko‘pchilik tomonidan “muammolaming yechimi topiladigan mashg‘ulot” sifatida qabul qilinishini yuqorida ta’kidlab o‘Tdik. Bu sohada ish olib borgan olimlarning fikrlaridan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, aslini olganda trening mashg‘ulotlari kishilaming muammolarini hal qilmaydi, balki shu muammolaming asosini taxlil qila olish uchun lozim bo‘igan ko‘nikma va malakalami hosil qiladi. Ya’ni, bizningcha **TRENING - shaxsda mavjud bo‘lgan yoki vujudga kelishi raumkin bo‘Tgan muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘Tgan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish maqsadida turli xil o‘yin va mashqlar orqali o‘tkaziladgan mashg‘ulotdir.**

Trening — bu guruhiy faoliyatning intensiv shakli bo‘Tib, unda asosiy urg‘u ma’lumotlami uzatishga emas, balki ishtirokchilarda shaxsiy tajriba va ko‘nikmalami hosil qilishga qaratiladi. Buni shunday tushunish mumkinki, treningda turli xil vaziyatlar va muammolarni o‘yin orqali o‘zida sinab ko‘rar ekan, shaxs egallayotgan tajribasi orqali real hayotdagi vaziyatlarga anchagina moslashuvchanroq bo‘lib boradi. Qisqacha aytganda, psixologik trening shaxsga turli hayotiy vaziyatlarda zo‘riqmasdan harakat qilishga yordam beradi.

Bundan tashqari, ijtimoiy iqtisodiy yo‘nalishdagi treninglar ham mavjud bo‘Tib, ular ayrim tashkilotlaming rejalshtirilgan faolligini oshirishga, tashkilot ishchi- xodimlarining kasbiy bilimlarini oshirishga, kasbiy ko‘nikmalarini yaxshilashga yoki tashkilotning maqsadli faoliyati talablariga mos keluvchi attityud (ustanovka)lar modifikasiyasini o‘zgartirishga hamda jamoaning ijtimoiy xulq-atvorini korreksiyalashga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar tizimidan iborat bo‘Tadi.

### 1.3. Trening mashg‘ulotining maqsad va vazifalari

Har qanday trening maqsad qo‘yishdan boshlanadi. Treneming amalga oshiradigan ishlari, gumhni treningga tayyorlash va trening mashg‘ulotni o‘tkazish ~ bluilinghamming hammasi dastlabki qo‘yilgan maqsad atrofida shakllanadi va rivojlanadi. Shuming uchun dastlabki maqsad qanchalik aniq shakllantirilgan bois, qanchalik iimq tarzda yetkazib berilsa va barcha ishtirokchilar tomonidan qabul qilinsa - mana \*liu narsa treningda erishilgan yutuqning nechog‘lik yuqori darajada ekanligini Mgilib beradi. Aynan erishilgan yutuqning maqsadga bog‘liqlik mutanosibligi Miutaxasislaming ta’kidlashlaricha, yutuqning 80% maqsadning qanchalik aniq shakllantirilganligiga bog‘liqidir.

Yaxshi shakllantirilgan maqsadning tarkibiy qismiari quydagilardan iborat bo‘Tishi mumkin:

1. Maqsad erishsa bo‘Tadigan bo‘Tishi kerak. Ya’ni trener qo‘yilgan maqsadning lulijasini ko‘ra olishi lozim. Masalan, Hindiston fuqarosi bo‘gan odam o‘z oldiga AySh prezidenti bo‘lish maqsadini qo‘yishiga o‘xhash noaniq natijali maqsadlar ijo‘yish trciingni samarsizligiga olib keladi.

2. Maqsadni shakllantirishni shunday boshlash lozimki, uning natijasi maksimal durajada trenerga bogiiq bo‘lsin. Bittagina odamga o‘z ta’sirini o‘tkaza olmaydigan kishi butun bir guruhga o‘z ta’sirini o‘tkazishi va ulaming o‘zgarishiga sabab bo‘lishi unchalik ishonarli hoi emasligini hamma biladi.

3. Maqsad qo‘yishda va unga erishishda har doim aniq va eng kichik vazifaiardan boshlash lozim. Shuning uchun birinchi maqsad eng qisqa muddatda crishish oson bo‘Tgan maqsad bo‘Tishi kerak. Bunda albatta global hayotiy inaqsadlamni emas, balki kichkina kundalik maqsadlamni qo‘yishdan boshlagan ma‘qulroq.

Barcha mashg‘ulotlar kabi har bir trening mashg‘uloti o‘zining maqsadiga va shundan kelib chiqib ma’lum bir vazifalariga ham ega bo‘Tadi. Treningni maqsadi va vazifalariga aniqlik kiritishga harakat qilamiz, odatda, psixologik treninglaming maqsadlari qo‘yilgan muammoga bog‘Tiq holda shakllantiriladi. Treninglarda quydagicha maqsadlar qo‘yilishi kuzatiladi:

- Shaxsda muloqotchanlik ko‘nikmalarini hosil qilish;
- Hayotdagi qarama-qarshiliklarini to‘g‘ri tushuna olish va tahlil qilishga o‘rgatish;
- Shaxsning ichki holati (ruhiyati)ni o‘zgartirishga erishish;

-Shaxs kamoloti uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalami hosil qilish;

- Favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila olish ko‘nikmasini hosil qilish va h.k.

Treningda vazifa sifatida har bir tanlab olingen muammo yuzasidati ma'lum jihatlar nazarda tutiladi. Lekin umumiyl holda psixologik treninglaming vazifalariga quyidagilami kiritish mumkin:

- Guruh a'zolarining bir-birlari bilan tanishuvini tashkil etish;
- Guruh a'zolari bilan birqalikda normalarga amal qilishga o'rganish;
- Guruh a'zolarining muammolarini gapirtirishga sharoit yaratish;
- Guruh a'zolari o'rtasida o'zaro do'stona muhit yaratish;
- Guruh a'zolarining o'zaro jipsligini, ahilligini ta'minlash;
- Guruh a'zolarida turli xil hayotiy ko'nikma va malakalami hosil qila oluvchi mashg'ulotlar tashkil etish.
- Guruh a'zolarining "qayta aloqa"sinu tashkil etish.

#### 1.4. Psixologik treningga murojaat etuvchilar guruhi

Hozirgi davrda odamlar orasida psixologik muammolar duch kelish va bu muammolar natijasida ruhiy zo'riqishlar, asabiylashish hollari nisbatan ancha ko'p kuzatilayotganligi sir emas. Bunday ruhiy zo'riqish va asabiylashishlar natijasida insonlarda turli xil hayotiy muammolar, jumladan, shaxslararo munosabatlaming buzilishi, yurak-qon tomir hamda asab lizimi kasalliklarining vujudga kelayotganligi ko'pchilikni. ayniqsa keng jamoatchilikni, shuningdek aynan psixolog mutaxassisami ham tashvishga solayotganligi bejiz emas. Aytish mumkinki bunday asabiylashish holatlari turli darajadagi zo'riqishlar natijasida vujudga kelmoqda.

Bugungi kunda asabiylashish holati kuzatilayotgan va buning natijasida muammolami hal qilish imkonini izlab psixologik trening guruuhlariga murojaat etayotgan quyidagi guruhlami alohida ajratish mumkin:

### II. Bolalar guruhi:

1. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilar (guruhlarga moslasha olmaslik, tarbiyachilar va guruhdoshlari bilan kelishmovchiliklar, nazorat ostida bo'lishni istamaslik kabilar);
2. Kichik muktab o'quvchilar (maktabga moslasha olmaslik, o'qituvchilar va tengdoshlari bilan munosabatlarda qiyinalish, uy vazifalarini bajarishni istamaslik kabilar);
3. O smirlar (yosh fiziologiyasi va psixologiyasi bilan bog'liq barcha muammolar).

### III. Kattalar guruhi:

1. Ish joylarida (rahbar va xodimlar orasidagi) muammolar;
2. Oilada (er-xotin, qaynona-kelin, ota-onva farzandlar orasidagi) muammolar;
3. Keksalar orasida (psixologik o'zgarishlar natijasida kuzatiladigan) muammolar.

Yuqorida sanab o'tilgan guruhlaming o'ziga xos jihatlari bilan bog'liq holda kelib chiqadigan turli xil muammolar mavjud bo'lib, bu muammolami hal etish imkonini topa olmaslik natijasida psixologik maslahat va psixologik korreksiyaga inuhtoj bo lib qoladigan bir necha xil guruhlaming vujudga kelayotganligi keyingi yillarda mutaxassislar tomonidan tez-tez kuzatilmoqda. Bulami quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

1. Muloqotchanlik ko'nikma va malakalari yetarli bo'lмаган kishilar gumhi.  
■ Iqtisodiy yetishmovchilik bilan bog'liq muammolardan siqilgan kishilar gumhi.  
■ O'z yaqinlarini yo'qotish azobini yenga olmayotgan kishilar gumhi.
2. Turli baxtsiz hodisalardan keyin ruhiy zo'riqishlami boshidan kechirayotgan kishilar gumhi.
3. Begona joyga ko'chib kelib, tub aholining bosimidan siqilgan kishilar gumhi.
4. Rahbarlar tomonidan yoki o'zidan kattalar tomonidan shaxsiyatiga tegilgan hollarda siqilishga duch kelgan kishilar gumhi.
5. Yangi o qish yoki ish joyiga moslasha olmasdan siqilishga duch kelgan kishilar gumhi.
6. Chekish, ichish, narkotik moddalar iste'mol qilishdan qutila olmaslikdan siqilayotgan kishilar gumhi.

Yuqorida sanab o'tilgan muammolami hal etishning asosiy yoilaridan biri sifatida bugungi kunda mutaxassislar psixologik trening deb ataluvchi o'yin v mashqlar to'plamidan iborat mashg'ulotlardan foydalanishni tavsiya etishmoqda.

Nazorat savollari

4. Psixologik trening haqida qanday fikrlar mavjud?
5. Treningni maqsad va vazifalariga nimalar kiradi?
6. Trening haqida O.Gorbushinaning ta'rifi qanday?
7. Sof psixologik ma'noda psixologik treningga kimlar ta'rif bergan?

Mustaqil ish mavzuiari

- II. Rus psixologiyasida trening haqidagi fikrlami tizimlashtiring
- III. O'zbekistonda trening sohasi bilan bog'liq ishlarni o'rganing
- IV. Psixologik treninglaming hozirgi zamon uchun axamiyati va zarurligi.

T estlar

2. TRENINGni maqsadi - bu ...
9. \*Muommolami hal qilish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar hosil qilish
10. Muammoning oldini olish uchun zarur bo'lgan bilimlarni oshirish
- V) Muammolaming yechim variantlarini ishlab chiqishga o'rgatish
- G) Muammodan chiqishga o'rgatish
3. Shaxsda mavjud bo'lgan yoki vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolaming yechimini topish uchun zarur bo'lgan, ko'niknia va malakalarni hosil qilishga karatilgan, o'yin, bahs-munozaralardan iborat bo'lgan mashg'ulot. Ushbu izoh qaysi faoliyatga tegishli?
  - A) \*Trening
  - B) Psixoprofilaktika
  - V) Psixokorreksiya
  - G) Psixogimnastika
4. «Trening bu amaliy psixologiyaning faol metodlariga asoslangan psixologik ta'sir amaliyotidir», deb treningga ta'rif bergan olimni aniqlang
  - A) ()Gorbushina
  - B) I. A.Petrovskiy
  - V) S.V.Petrushina
  - \*G.I.Makshanov
4. Treningga quyidagicha tavsif bergan olimning nomi: "Trening - ijtimoiy- psixologik kompitentlikni rivojlanishiga qaratilgan guruhiy amaliy psixologiya suluisidir"
  - A) O.Gorbushina
  - B) G.I.Makshanov
  - V) \*S.V. Petrushina
  - G) L. A.Petrovskiy

## II. TRENING TARIXI

### 2.1. Qadimgi manbalarda trening elementlariga oid fikrlar

Trening guruhlari qanday yuzaga kelganligini bilish bu soha mutaxassislari uchun ham qiziqarli, ham zarurdir. Bu boradagi ma'lumotlami o'rganish asosida iicciing guruhlarining yuzaga kelish tarixini yoritishni davrlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Shunga asosan trening tarixi qachonga borib taqalishini tahlil ijilish muhimdir. Manbalaming tahlili asosida aytish mumkinki, qadimda ham treningni mazmun-mohiyatiga yoki uning qaysidir elementlariga mos keluvchi ayrim likrlar mavjud bo'lganligini ko'rish mumkin. Shuning uchun, dastlab, antik davr maTumotlariga nazar tashlaymiz.

Bizga ma'lumki antik davr faylasuflarining dastlabki qarashlari bir qator lanlarga asos solinishiga turki bo'lgan. Aynan antik davr faylasuflari va allomalarining fikrlari bugungi kundagi deyarli barcha fanlaming uzoq o'tmishini ochib bergani holda, mavjud fanlar asosida bugungi kunda o'rganilayotgan qonuniyatlar o'sha davrda ham mavjud bo'lganligini va ularning boshlang'ich nuqtasi antik davrga borib taqalishini juda ko'p fanlar isbotlab bergen.

Xuddi shunday xulosani aynan trening va uning mohiyati haqida ham aytish mumkin. Antik davr faylasuflari tomonidan "trening" termini ishlatilmagan bo'lsada, lekin o'sha davr mutafakkirlarining asarlarida insonlarda turli hayotiy vaziyatlar va muamrnolarga nisbatan ko'nikma va malakalami hosil qilish borasida fikrlar bildirilgan. Ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh

avlodni hayotda chidamli, matonatli, o‘z kuchiga ishonadigan qilib tarbiyalash uchun jismoniy mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi ta’kidlanadi. Agar bu fikrlami psixologik trening asoslari bilan bog‘laydigan bo‘lsak, trening jarayonida psixogimnastik mashqlar (aynan jismoniy harakatlар orqali o‘tkaziluvchi mashg‘ulot qismijdan foydalanish orqali ishtirokchilar o‘z hayotida sodir boiayotgan turli vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l topishga, qiyinchiliklами o‘zi hal qilishga, to‘g‘ri qaror chiqara olishga yordam beruvchi ko‘nikma va malakalami hosil qilishagi. Aynan shunga oid fikrlar qadimgi manbalarda ham aks etgan.

Bundan tashqari qadimgi manbalardan o‘qib bilishimiz mumkinki, qadimgi Rimda ma’lum bir hududga tegishli muammolarni hal etish uchun oqsoqollar kengashlari tuzilgan va ular kengash muhokamasida dumaloq holatda o‘tirishgan. Bu holatda o‘tirish trening o‘tkazishning muhim jihatlarida ta’kidlangan dumaloq stul shaklida o‘tirishga asos solgan bois, ehtimol. Yana bir misol, qadimgi Rimda ritsarlaming yig‘ilishlari ham dumaloq stol atrofida bo‘lih o‘tgan. Bu ham yuqoridaq holatni ifodalashga asos boiadi. Bu fikrlarda aynan fanning asoslari hamda unga tegishli qonuniyatlar ochib berilganligini ko‘rish mumkin.

Shu o‘rinda antik davr faylasuflaridan biri, qadimgi yunonistonlik idealistik fikrlar targ‘ibotchisi, faylasuf va olim Axastu (384-322)ning fikrlarini keltirib o‘tish mumkin. Arastuning fikricha, insonda insoniy go‘zal fazilatlar hosil qilish va unda ezgu xulq-odat hamda ko‘nikmalarni tarkib toptiriup uchun muntazam o‘tkaziladigan jismoniy mashqlar bo‘lishi zarurdir. Har bir kishi shunga odatlanishi, buning uchun esa unda doimiy harakat va istak bo‘lishi lozim. Buning natijasida odatiy ko‘nikishdan axloqiy xatti-harakatlar hosil boiadi va xulq-atvor ko‘nikmalari paydo boiadi.

Qadimgi Spartada ham shunga o‘xshash fikrlar mavjud bo‘lib, spartaliklar o‘z farzandlarining jismoniy jihatdan baquwat va sog‘lom bo‘lishi uchun ulami turli mashqlar, o‘yinlar bilan chiniqtirganlar. Spartaiklar o‘z farzandlarini jismoniy mashqlar orqali sovuqqa, ochlikka, og‘riqqa bardoshli qilib tarbiyalashga harakat qilishgan. Ahamiyatlari tomoni shundaki, ular jismoniy mashqlami bajarish jarayonida bolaiami olti-yetti nafarlik guruhlarga bo‘lib ishlaganlar va har bir guruhga alohida vazifalar bergenlar. Bundan ko‘zlangan maqsad - guruhdagi bolalar oitasida o‘zaro bir-birlariga bo‘lgan ishonchni shakllantirish, shuningdek o‘zaro qoilab- quvvatlashga erishish ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat bo‘lgan.

Alovida ta’kidlash lozim, spartaliklarda ta’limning asosiy qismini harbiy gimnastika mashqlari egallar bo‘lib, bu mashqlar o‘ta qiyinligi bilan ajralib turgan. Buning sababi esa qadimdan maiumki, qadimgi spartaliklar o‘zlariga baquwat va jismonan sogiom jangchilami tayyorlashga harakat qilishgan.

Antik davr faylasuflarining ilk fikrlari mazmun va mohiyat jihatdan ham, maqsad va vazifa jihatdan ham hozirgi zamon trening mashg‘ulotlariga toia mos keladi. Bu bilan antik davrlarda trening mashg‘ulotlari o‘tkazilgan degan, xulosaga kelish, noto‘g‘ri albatta. Lekin aynan antik davr faylasuflarining ilk qarashlarida o‘yin va masbqlaming inson hayotiga va ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlab o‘tilgan.

## 2.2. Sharq allomalarining guruuhlar bilan bogiiq fikrlari

Navbatdagi bosqich sharq uyg‘onish davri allomalarining qarashlari boiib, ular ham o‘z asarlarida guruhiy hamjihatlik, hamkorlik va birlik shaxsda bir qator xislatlami vujudga keltirishini bayon etishgan. U lardan A.Farobi, Ibn Sino, M.Sa‘diyning fikrlarini quyida tahlil qilamiz.

**Abu nasr Farobi (873-950)** o‘rta asr ijtimoiy-falsafiy fikrlar taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan mutafakkir boiib, Farobi o‘z asarlarida inson kamoloti uning xulq- atvori va axloqiga alohida e‘tibor bergen, shu bilan bir qatorda hech bir inson kamolotga, muvaffaqiyatga yolg‘iz o‘zi erisha olmasligini ta’kidlagan. Shuning uchun u boshqalar bilan hamkorlikda bo‘lishga, o‘zgalaming ko‘magi va ishonchiga har doim ehtiyoj sezishini ta’kidlaydi. Kishilaming o‘zaro hamkorlik qilishlari uchun esa ularga ishonchli yo‘lboshchi kerak. Farobiyning qarashlarida urg‘u berilgan yo‘lboshchi va uning jamoani boshqarishini hozirgi kundagi trening jarayonidagi trener va ishtirokchilar o‘rtasidagi munosabatga qiyoslash mumkin.

**Abu Ali ibn Sino (980-1037)** buxorolik qomusiy olim o‘z asarlarida kamolotga erishishning birinchi me’zoni ma’rifat egallashdan iboratligini, shuningdek bu maqsadga erishish uchun inson

qiyinchiliklardan qo‘rmasligi zamrligini aytib o‘tadi. Abu Ali ibn Sino bolani maktabda o‘qitish va tarbiyalash zarurligini qayd etish bilan birga bola jamoada o‘qitilishi lozimligini ham alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, agar o‘quvchi jamoada o‘qisa zerikmaydi, bir-biridan ortda qolmaslik uchun ilgariga harakat qiladi, buning asosida esa insondagi musobaqalashish istagi rivojlanishi yotadi, bundan tashqari bolalar birgalikda bo‘lganlarida ular o‘zaro bir-birini hurmat qilishga o‘rganadilar, do‘splashadilar, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda bir-birlariga ko‘mak-lashadilar. Bulaming barchasi trening jarayonida ishtirokchilarda yuzaga keltirilishi lozim bo‘lgan ko‘nikma va malakalarga aynan mos keladi.

Ibn Sino bolani jamoada o‘qitish haqida fikr yuritar ekan bolada o‘z shaxsiy fikrini bayon etib bcra olish ko‘nikmasini shakllanlirish lozimligini ham ta’kidlab o‘tadi. Bola jamoada o‘qir ekan moslashuvchan, o‘z fikriga ega shaxs bo‘lib kamolga yetadi. Allomaning fikriga ko‘ra, bolalar jamoasini o‘qitishni jismoniy mashqlar bilan uyg‘unlikda, birgalikda olib borish zarurdir. Chunki bular bolaning barkamol - ham jismonan, ham aqlan yetuk bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan omillardir.

**Muslixiddin Sa’diy** hijriy 580 yilda tug‘ilgan. U o‘zining “Guliston” asarida kamolotga intiluvchi shaxs jasurlik, epchillik, chaqqonlik, mardlik xislatlarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi. Buning uchun inson yoshligidan boshlaboq jismoniy tarbiya va kunlik badan tarbiya bilan shug‘ullanmog‘i zarur. Negaki, jismoniy mashqlar insonning yetuklikka, axloqiy kamolot bilan uyg‘un bo‘lishiga olib keladi, deydi. Jismoniy yetuklik insonda mustahkam iroda va xarakter xususiyatlarini vujudga keltiradi, deb ta’kidlaydi.

Muslixiddin Sa’diy Sheroyalarida jismoniy jihatdan chiniqishning inson salomatligini ta’minalashda katta ahamiyatga ega ekanligini, shuningdek insonning o‘z kuchi va irodasiga bo‘lgan ishonchi, ko‘ngil xotirjamligi bilan yashash zavqi uning har qanday mashaqqatlarga bardosh bera olishini la’minlovchi omil ekanligini ko‘rsatib beradi.

Demak, uning fikrlarida ham aynan trening sohasidagi qonuniyatlarga mos keluvchi mohiyat mavjudligini ko‘rish mumkin.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, trening guruhlari o‘z-o‘zidan yuzaga kelmagan. Ulaming assosi qadimgi manbaiarga borib taqaladi.

### 2.3. Guruhiy terapiya elementlarining vujudga kelishi

Keyingi asosiy bosqich trening gumhlarining uzoq xorijda rivojlanishi tarixi bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlarga oiddir.

Uzoq xorij psixologik adabiyotlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, guruhlarda irening o‘tkazish borasidagi ishlar dastlab psixologik ma’no-mazmunga ega bo‘lmagan. Bu sohada olib borilgan ishlar dastlab tibbiyot bilan bog‘liq holda yuzaga kela boshlagan.

XVIII asrda Fransiya va Venada psixiatriyaga katta e’tibor qaratilgan bo‘lib, uning zamirida trening guruhlariga xos ayrim jihatlamining rivojlanganligi ma’lum.

Psixosomatik kasalliklar bilan og‘rigan bemorlar guruhini bir joyda davolashga harakat qilgan dastlabki tadqiqotlardan biri sifatida avstriyalik psixiatr Frank Anton Messer (1734-1815y.y) va amerikalik shifokor Djozef Prattning (1930y) olib borgan ishlari diqqatga sazovordir.

Bemorlar bilan ishslash jarayonida olimlamining ikkalasi ham guruhiy terapeya usulini qo’llagan holda o‘z kasallarini davolashga harakat qilganlar. Lekin ular dastlabki paytlarda o‘z bemorlarini guruhiy davolashning faqat iqtisodiy jihatdan foydali ekanligini anglaganlar xolos va ular guruhda ish olib borishning psixologik jihatlariga e’tibor ham berishmagan.

Guruhlamining inson psixologik sog‘ligiga ijobji ta’sir qilishi avstraliyalik olim Frank Anton Messer tomonidan olib borgan tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. U Parijda turli xil somatik hamda psixik kasallikka chalingan bemorlami davolash bilan shov-shuvli mashhurlikka erishgan. F.A.Messer atmosferadagi ko‘rinmas magnitli flyuidlar inson salomatligiga ta’sir qiladi, flyuidlar ta’sirida har qanday muvozanatning buzilishi kasallikni chaqiradi, deb ishongan. Uning fikriga ko‘ra, davolash jarayoni flyuidlami shifokor bemorga berishi bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun, ya’ni bemorlarga flyuidlami berish uchun u kasallarni bitta guruh topishning yagona usuli, o‘qitishning yangi shakli — psixologik treninglar ekanligi ko‘pchilik mutaxassislar tomonidan ta’kidlandi.

AQShda bu boradagi ishlarini davom ettiruvchilardan bin bo‘lgan - Trigant Barrouning

ishlarini tahlil qilish mumkin. T.Barrou 1925 yildayoq psixoanaliz atamasidan ko'ngli to'lmasdan, guruhiy tahlil (gruppovoy analiz) atamasini fanga kiritgan. Bunda u odamlami tushunish va ulami chuqurroq o'rganish uchun ular birga bo'ladigan ijtimoiy guruhlami o'rganish lozimligini qayd etgan.

Guruhiy terapeya haqida gap ketganda zamonaviy guruhiy terapiyaga birinchilardan bo'lib o'z hissasini qo'shgan olim, psixodrammaning asoschisi Ya.Morenoning xizmatlari haqida gapirmaslikning imkoniy yo'q. 1931 yilda Moreno guruhiy terapeya bo'yicha birinchi mutaxassislik jurnaliga asos soldi. "Imprompti" deb nomlangan bu jumal ko'p yillar mobaynida nashr etib kelindi, keyinchalik nomi o'zgarib "Group Psychotherapy" nomini oldi: 1932 yilda Ya.Moreno birinchi bo'lib psixoterapeya atamasini fanga kiritdi. Bugungi kunda bu termin keng doiradagi yondoshuvlami anglatish uchun ishlatsada, Moreno bu atama orqali jamiyatdagi insonlami sotsiometrik baholash va shaxsiy tanlovlari asosida yangi guruhga birlashtirish metodini tushuntirgan, Ya.Moreno 1942 yilda birinchi bo'lib guruhiy psixoterapevtlaming professional uyushmasini tashkil qildi.

Xuddi shu yili germaniyalik I.G.Shuls o'z-o'zini ishontirish va o'ziga rhanan ta'sir ko'rsatish orqali ichki ruhiy zo'riqishni bartaraf etish uchun autogen trenirovkalaming klassik variantini ishlab chiqadi va Garvarddagagi biznes matabida sinov maqsadida o'tkazib ko'radi

1947 yilda AQShda birinchi milliy trening labaratoriysi ochiladi. 1948 yilda Amerikada G.S.Altshuller tomonidan yaratuvchanlik masalalarini yechish nazariyasi ishlab chiqiladi va aynan mana shu nazariyalar asosida Boku shahrida treninglar olib boriladi. Bu treninglarda zamonaviy trening elementlaridan foydalangan holda ijodiy tasawurlami rivlojlantiruvchi treninglar o'tkaziladi.

**2.5. Guruhiy terapiyaga gumanistik yo'naliшning ta'siri** XIX asr boshlarida tibbiyot sohasida ish olib borgan psixiatr olimlardan biri F.Pinel tomonidan Parijda psixiatriya sohasida olamshumul o'zgarishlar amalga oshiriladi. Pinel ruhiy kasalxonadagi bemorlami - og'ir hayotiy sharoitlar natijasida ruhiy kasallikka chalinganlami - qiyinchilikdan xalos etish maqsadida o'z qaramog'iga oladi va ular bilan ruhiy davolash muolajalarini o'tkaza boshlaydi. O'sha davrda ruhiy kasallar qo'l va oyoqlari bog'lab qo'yilgan holda davolanar edi. I'nel bunga qarshi chiqadi va ulami davolash bilan o'zi shug'ullana boshlaydi.

Oradan bir qancha vaqt o'tib, F.Pinehiing qo'llagan muolajasi natijasida ayrim bemorlarda ijobjiy o'zgarish)ar ro'y berayotganligi kuzatiladi. F.Pinel qo'llagan muolajaning siri shunda ediki, u bemorlar bilan birgalikda o'tirib, ular nima qilsa shuni takrorlaydi, shu yo'sinda dastlab ulami o'rganadi, bu jarayonda bemorlar ham unga o'rganib qolishadi. Natijada bemorlar Pinelga ergasha boshlaydi, uning aytganlarim so'zsiz bajarishadi, bu esa albatta, o'zining ijobjiy ta'sirini ko'rsatadi. F.Pinelning ruhiy kasallar bilan ishlash jarayonidagi eng katta kashfiyoti - bemorlarga mehr ko'rsatish bo'lgan.

Bu borada olib borilgan ishlardan yana biri sifatida E.Krepelinning tadqiqotini sanash mumkin. 1883 yilda E.Krepelin tomonidan to'laqonli tizimli kurs joriy etiladi. Bu kursni tashkil etgan E.Krepelin va kursni olib borgan mutaxassislar psixik buzilishlar va nevrozlamni davolashda gipnozdan foydalanish lozimligini ta'kidlaydilar. Ulaming fikricha, gipnozning aynan guruh ichida o'tkazilishi natijasida ko'pgini psixik buzilishlami davolash mumkin bo'ladi. Uning fikricha, gipnozni katta tajribaga ega bo'lgan va mohir mutaxassis asalga oshirishi lozim. XIX asming boshlarida J.Eskirol birinchi bo'lib insonnnig psixik buzilishi va emotsiyal hayotini taqqoslagan holda o'rganib, ular o'rtasida bog'lanish mavjudligini hamda gallyusinasiya va illyuziya o'rtasidagi farqni ajratishga muvaffaq bo'ladi. Shundan keyin u psixik buzilishlarga xos bo'lgan terminlar ustida ish olib boradi va asosan shezofreniyani davolashga bel bog'laydi.

Eskirolning fikricha, nafaqat shezofreniya, balki boshqa psixik buzilishlarda ham bir xil kasallikka chalingan bemorlami birgalikda, bitta guruhga to'plab davolansa, ular bir-birlariga ijobjiy ta'sir ko'rsatishadi. Eskirol shuni alohida ta'kidlab o'tadiki, agar ulami davolovchi mutaxassis ularga yaxshi munosabatda bo'lib, mehr ko'rsatsa, har qanday buzilishning davosi bor.

1922 yilda Amerikalik psixofiziolog R.D.Djeykobson yuqoridaq ishlami davom ettirgan holda asab bilan bog'liq psixik zo'riqishlami yengillatish maqsadida tizimli rivojlantiruvchi relaksasiya muolajalarini o'tkazishni tavsiya etadi. U ham mashg'ulotlami o'tkazish jarayonida

mutaxassining bemorlar bilan teng munosabatda boiishini yoqlaydi.

Shunday qilib, yuqoridaq tadqiqotlar nitajasida guruhiy terapeyada mutaxassisning (bugungi kun uchun treningda trenerning) roli katta ekanligiga asos solingan.

XX asming 50-60 yillarida guruhlar bilan ishlovchi psixoterapevtlar soni oshdi. Dogmatik psikoanalizga keskin qarshi chiqqan, psixologiyada gummanistik yo'naliшhning asoschisi hisoblangan Karl Rodjers shulardan biri edi. Uning ishi boshqalardan shunisi bilan farqlanadiki, u guruh boshqaruvchisini mutaxassis yoki mijozni davolovchi shifokor emas, balki, ishtirokchilar bilan teng bo'lgan, ular bilan o'zaro teng munosabatda bo'la oluvchi sherik sifatida qaraydi. K.Rodjers o'z yondashuvlarda terapiya va konsultasiyani mijozlarga qaratgan. Guruh boshlig'i (hozirgi trener)ning xulq-atvori psikoanaliz talab qilgandek intrapsixik insaytga emas, balki guruh a'zolarining o'zaro munosabatiga qaratilgan bo'Mishini, uning boshqaruvi esa demokratik usulda boiishini ta'kidladi. Rodjers guruh rahbariga mutaxassis sifatida emas, balki "men va sen" o'zaro munosabatining teng qirrali sherigi, ya'ni munosabat yaratuvchisi sifatida qaragan. Nodirektiv usuldagagi psixoterapeya psixoterapevtning mijozda chuqur shaxsiy o'zini anglashni kuzatishga, bu esa guruh ishlarda yangi-yangi yondashuvlaming yaratilishga olib keldi. 1960 yillarda K.Rodjersning gumanistik psixologiya an'anasiga mos holda ijtimoiy va hayotiy ko'nikmalami shakllantiruvchi treninglar o'tkazihni boshlanadi. Bu treninglar o'qituvchi va menedjerlaming kasbiy malakalarini va tayyorgarligini oshirish maqsadida amalga oshirilgan. Hayotiy ko'nikmalami shakllantirish yuzasidan olib • borilgan treninglarda ishtirokchilarga yo'nallirilgan uchtu asosiy modeldan foydalanilgan.

Birinchi model hayotiy ko'nikmalaming 7 xil turini o'z ieliigii oлган boiib, bular:

- muommolami yecha olish;
- muloqotchanlik;
- o'ziga ishonch vauni saqlab turish;
- tanqidiy tafakkur;
- qat'iyatlilik;
- "Men" - konsepsiyasini rivojlantirish;
- o'zini boshqara olish ko'nikmalaridir.

Ikkinci model treningni asosiy maqsadi sifatida hayotiy ko'nikmalaming 4 kategoriyasini o'z iehiga oladi. Bular:

- shaxslararo muloqot;
- salomatiikni asrash;
- qaror qabul qilish;
- muammolami yechish ko'nikmalaridir.

Uchinchi model quyidagi 4 ta ko'nikmani o'z iehiga oladi:

- o'z hissiyotlarini nazorat qilish;
- shaxslararo munosabatlar va o'zini tushunish;
- o'zini iqtisodiy himoya qilish; o'zini qo'llab-quvvatlash ko'mkmalarini hosil qilishga qaratilgandir.

## 2.6. K.Levinning guruhiy terapiyaga qo'shgan hissasi

Guruhiy terapeya ishlarini tashkil qilish borasida Kurt Levin ham ish olib borgan bo'lib, u o'z tadqiqotlari natijasida shunday xulosaga keladi: "Kishilarning individual xususiyatlarini aniqlashda ulami alohida-alohida tekshirgandan ko'ra, hammasini bitta guruhga jamlab tekshirish osonroq kechadi". K.Levin kishilarning xulq-atvori va ustakovkalarida yuzaga keladigan o'zgarishlar ular bilan alohida ishlaganda emas, balki ulami ma'lum bir guruhlarga birlashtirib ishlaganda samaraliroq bo'lganligini alohida ta'kidlaydi. Shunga ko'ra u quyidagi xulosani beradi: "Shuning uchun odamlar o'zlaridagi ustakovkalami o'zgartirishlari yoki xulq-atvoming yangi shakllarini vujudga keltirishlari uchun atrofdagi odamlar ularga nisbatan qanday munosabatda bo'lishiga qarab harakat qilishlari lozim"

Guruhiy terapeyaning muvoffaqiyatini ta'minlovchi sabablardan yana biri shuki - o'yin va mashqlar jarayonidagi hissiy munosabatlar natijasida ishtirokchilaming bir-biriga bo'lgan munosabati nihoyatda iliq bo'ladi. Shu bilan birgalikda, trening guruhlarida inson o'ziga nisbatan

boshqalar tomonidan iliq munosabatni, ishonchni, mehmi va o‘zaro yordam hamda hamkorlikka bo‘lgan moyillikni his qiladi.

K.Levin guruh psixologiyasi ustida ish olib borish jarayonida, samarali o‘zgarisblami arnalga oshirish uchun individual holatda emas, balki guruhiy holatda trening o‘tkazishni ma’qul deb topadi va inson “o‘zini o‘z ko‘zi bilan emas, balki atrofdagilaming ko‘zi bilan ko‘rishga harakat qilishi kerak”, - degan fikmi ilgari suradi. Shunga ko‘ra, uning shogirdlari tomonidan muloqot jarayonida kompitentlikni oshirish yuzasidan dastlabki treninglar olib borilgan. Bunday trening guruhlari AQShning Bettel shahrida tashkil etilgan va ular keyinchalik T - guruh nomini olgan. Ular olib borgan faoliyatning asosida quyidagi g‘oya yotadi: “Ko‘pchilik odamlar guruhlarda yashaydi va ishlaydilar, lekin ular ko‘pincha bu guruhda qanday ishtirok etayotganligi, atrofidagi odamlar ularga qanday ko‘z bilan qarayotganligi, ulaming xulq-atvori va xatti-harakatlariga nisbatan qanday munosabat bildirayotganligi haqida o‘ylab ham ko‘rmaydilar”.

K.Levin va uning shogirdlari tomonidan guruhlararo munosabatlar sohasida olib borilgan ishlar AQShda trening bo‘yicha milliy laboratoriyaning tuzilishiga asos bo‘ldi. Bu laboratoriyada bazaviy ko‘nikmalami hosil qilish bo‘yicha olib borilgan ishlar natijasida T-guruh amaliyoti rivojlandi. Bu guruhda rahbarlar, menedjerlar, siyosiy liderlar ishtirok etib, ularda shaxslararo o‘zaro munosabatda samarali muloqot o‘matish, boshqarish, nizolami hal qilish va guruhlami jipslashtirish ko‘nikmalari shakllantirildi. Ba‘zi T-guruhlar esa insonning hayotiy qadriyatlarini o‘zgartirishga, o‘/iga to‘g‘ri baho berish va o‘ziga nisbatan ijobiy hislarini kuchaytirishga yo‘naltirilgan edi. Bunday T-guruhladan biri 1954 yilda tashkil etilgan bo‘lib ular senzitiv guruhlар deb nomlangan. 1970 yillarda Leypsig va Yen universitetlarida Monfret Forverg rahbarligi ostida ijtimoiy-psixologik trening usuli ishlab chiqildi. Bu trcningda sahna ko‘rinishi elementlarini o‘z ichiga olgan rolli o‘yinlardan foydalanildi, ulaming maqsadi samarali muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan edi.

## **2.7. Psixokorreksion guruhlarning rivojlanishi**

Mutaxassisiaming ta’kidlashicha, muammoga duch kelgan kishilaming l.u‘pchiligi davolovchi vrach yoki mutaxassis (trener) bilan emas, balki guruhdagi ishtirokchilar bilan o‘z muammolarini o‘rtoqlashish, muammolarini guruhdagilarga gapirib berish, ulaming bergen fikrlari, maslahadari bilan muammolami hal qilishni istar ekan. Chunki guruhiy munosabatlar har bir ishtirokchida qulaylik hissini vujudga keltiradi. Shu yo‘nalishda olib borgan tadqiqotlari natijasida D.Lekin (1972) psixokorreksion guruh ishtirokchilari uchun umumiy bo‘lgan 6 ta jarayonni ajratib ko‘rsatadi:

1. Hissiyotlami ifodalash yengil kechadi;
2. Guruhga taalluqlilik hissi tug‘iladi;
3. O‘zini-o‘zi namoyon qilishga m as‘ullik sezadi;
4. Xulq-atvoming yangi ko‘rinishlarini o‘zlashtiradi;
5. Shaxslararo munosabatlami solishtirishda guruh bilan birga xulosa chiqaradi;
6. Guruhni boshqarishda ma’lum bir lideming javobgarligi his qilinadi.

Bu jarayonlar deyarli barcha psixokorreksion guruhlarda olib boriladigan ishlarda kuzatilgan.

Psixokorreksion guruhlami muammoning yechilishiga qarab bir qancha gtiruhlarga ajratish mumkin. Bular: - rahbarlami tayyorlash; - shaxslararo munosabat ko‘nikmalarini o‘rgatish; - shaxsni barkamollashtimvchi; - turli xil mhiy zo‘riqishlami bartaraf etuvchi.

Trening guruhining rivojlanishiga A.Everettning hissasi. Trening gurahlarining rivojlanishiga hissa qo‘schan ishlardan yana biri A.Everett nomi bilan bog‘liqidir. 1968 yilga kelib AQShning Texas shtatida birinchi marta Aleksandr Everett “Aql dinamikasi” deb nomlangan kompleks trening dasturini o‘tkazgan va keyinchalik aynan mana shu nom ostida Everett shirkati vujudga kelgan. A.Everettning sa’yi harakatlari natijasida turli noinda o‘tkaziladigan treninglar vujudga kela boshladi. Mazkur treninglar “Xarakatni anglash”, ”Gumhiy samaradorlik”, ”Liderlik amaliyoti” kabi nomlar bilan mashhur bo‘lgan eng samarali treninglar edi.

“Aql dinamikasi”ning keng rivojlanishida diniy va shaxsiy rivojlanish asos bo‘lib xizmat qiladi. Everett Angliyadan ketish chog‘ida o‘z ishining falsafasini o‘rganar ekan, Edgar Keysining

Yegiptologiya va Silva metodlarini tubdan o'rganadi. Natijada amaliy mashqlardan tashkil topgan to'rt kunlik trening o'tkazadi. Tez orada Aleksandr Everett o'z ishining taqdimotini namoyish qilish uchun Kalifomiyaga taklif etiladi va bu yerda juda katta shuhrat qozonadi. Buning natijasida "Aql dinamikasi" shtab kvartirasi 1970 yilda San Fransiskoga ko'chib o'tadi. Oxirgi to'rt yil ichida trening nafaqat AQShda balki boshqa davlatlarda ham o'z ishini davom ettirdi. Bu vaqt ichida trening guruuhlarida 4 kunlik "O'z -o'zini tahlil qilish" va "Autotrening" mashg'ulotlari o'tkazildi.

1971 yilda Vener Erxard tomonidan "Erxard seminar trening" (EST)giga asos solinadi va "Forum" shirkati vujudga keladi. Ko'p vaqt o'tmay bu uyushma butun dunyo bo'ylab markazlar barpo etgan, "Landmark Forum" korporasiyasiga aylantirildi. Mazkur korporasiya AQSh, Yevropa, Avstriya, Afrika va Osiyoda o'z markazlarini ochadi.

## **2.8. Rossiyada trening guruuhlarining rivojlanishi**

Rus psixologiyasida ham ijtimoiy psixologik trening o'ziga xos tarzda keng ko'lamda rivojlantirilgan va bu borada juda ko'p ishlar amalga oshirilgan. Rossiyada treninglaming vujudga kelishi bevosta Amerikalik A.Everett nomi bilan bog'liqidir. Tinib-tinchimas A.Everett o'z faoliyatini to'xtatmaydi. U 1974 yilda sharq falsafasi va dinini o'rganish maqsadida Rossiya va Hindistonga sayohat uyushtiradi. 1977 yilda Everett birinchi bor Rossiyada "O'z-o'ziga yoT" ("Put κ sebe") dasturi bilan seminar trening o'tkazadi, Everettning mazkur treningi to'liq ikki kunga mo'ljallangan edi. Bundan tashqari A.Everett "Hayot", "Sevgi", "Yorug'lilik" kabi dasturlari bilan olib boriladigan yetti kunlik meditasion trening dasturlarini ham o'tkazadi.

Psixolog Nina Yurevna Xryasheva 1982 guruhlarda ijtimoiy-psixologik treninglami o'tkazish bo'yicha Leypsigdan kelgan mutaxassislar - professor M.Forverg va uning turmush o'rtog'i Troud Albekoga shogirdlikka tushadi. Bu orada L.A.Petrovskiy va Yu.N.Emilyanovlar ham o'z treninglarini tajribadan o'tkaza boshlaydilar. Ular o'tkazadigan treninglar ishlab chiqarish, ta'lim, sog'liqni saqlash tashkilotlari, davlat boshqaruvidagi rahbarlar, majburiy boshqaruv uyushmalari, korxona tashkilotlari xodimlarining kompetentligini oshirish maqsadiga yo'naltirilgan edi.

Rossiyada ijtimoiy psixologik treninglarga bag'ishlangan dastlabki monografiya 1982 yilda L.A.Petrovskiy tomonidan nashr etilgan bo'lib, unda ijtimoiy-psixologik treninglaming nazariy va uslubiy aspektlari yoritib berilgan.

XX asming 90-yillarida Rossiyada turli mavzular va yo'nalishlarda guruhiy treninglar o'tkazishning rivojlanishi kuzatiladi. 1990 yilda S.I.Makshanov kreativlik treninglari dasturini ishlab chiqishni boshlaydi. 1998 yilda uning "Trening psixologiyasi" nomli monografiyasi nashrdan chiqdi. So'ngra u "O'ziga ishonch" nomli trening dasturini ishlab chiqadi.

Bu borada Rossiyada amalga oshirilgan ishlardan eng asosiysi 1993 yilning mart oyida trening institutining tashkil topganligi bo'lib, uning tashkil etilishidan asosiy maqsad trening sohasidagi mutaxassislami tayyorlash va bu sohani yanada rivojlantirishdan iborat edi. Mutaxassislami tayyorlash uchun 3 bosqichdan iborat bo'lgan metodik mashg'ulotlar o'rgatilar edi.

Ushbu institutda jamlangan tajribalar asosida 2001 yil Sankt-Peterburgda chop etilgan 3 bobdan iborat "Treningda psixogimnastika" deb nomlangan kitob ham nashr etildi. Bu kitobda institut xodimlari tomonidan ko'p yillar davomida to'plangan treninglar, psixologik mashqlar, turli xil chet el adabiyodaridan olingan va mutaxassislaming o'zlarini tomonidan o'ylab topilgan trening mashg'ulotlari jamlangan.

## **2.9. Transformasion treninglaming rivojlanishi va inqirozga yuz tutishi**

Transformasion treninglai birinchi bor 1989 yil Rossiyada "Layfspring" xayriya jamg'armasi fondi va Rossiya ilmiy akademiyasi homiyligida o'tkazilgan. "Layfspring" jamg'armasining asoschilari Amerikalik Djon Xenli va uning rafiqasi Kendis Xenli edi. Rossiyada birinchi trening o'tkazilishidan bir yil oldin amerikalik bir guruh turistlar Rossiyaga sayohat uyushtirishadi. Turistlar orasida Kendis Xenli ham bor edi. Sayohat jarayonida ularda yaxshi bir fikr tug'iladi, ya'ni ular "Layfspring treningi"ni Rossiyada ham o'tkazishni rejalashtirishadi. 1989 yilda. "Layfspring treningi" Rossiyada ham o'tkaziladi. Trening juda samarali o'tadi va natijada ular Moskvada "Layfspring" - Hayot bahori xayriya jamg'armasini ham tashkil etishadi. Bundan ilhomlangan Kendis Xenli Moskva, Sankt-Peterburg, Odessa va Rigada ham o'z vakolatxonalarini ochadi.

Natijada Rosiyada tranformasion treninglar yuzaga kela boshiaydi. Bu orada AQShdan trenerlar kelib Rossiyada mutaxassis trenerlarni tayyorlov kursini ochishadi. Trenerlar ichida birinchi bitiruvchilar Roman Tixonov, Ivan Maurax, Valodya Shubinlar bo‘lgan.

1995 yilga kelib Amerikalik va Rossiyalik “Layfspring” jamg‘armasining boshqaruvchilar o‘rtasida siyosiy va iqtisodiy borada o‘zaro kelishmovchiliklar kelib chiqadi. Natijada jamg‘arma tugatiladi. Rossiyadagi vakolatxonani Amerikalik trener Lisa Kreo boshqardi. Uning Mehrmuruvvat va ta’lim-tarbiya dasturidan tashkil topgan shirkatida Roman Tixonov trener sifatida faoliyat boshiaydi.

Rossiyadagi birinchi “Layfspring”da kelishmovchiliklar davom etib u ikkiga ajratiladi.

#### **1- Layfsprng - (Hayot bahori)**

#### **2- Ilxomlanish nuqtasi**

Ilxomlanish nuqtasini “Layfspring”da faoliyat yuritayotgan Amerikalik eks-trener Lisa Kreo boshqaradi. U bilan birga bir nechta malakali trenerlar va Vladimir Gerasichev ham shirkatga ishga o‘tib ketadi. Natijada 1997 yilda Rosiyadagi “Layfspring” ikkinchi marta inqirozga yuz tutadi. Endi “Layfspring”dan faqatgina ofis va nom qolgan edi.

Oradan bir qancha vaqt o‘tib “Layfspring”da Denis Persi tomonidan biznes treninglar o‘tkazila boshlandi. Vaqt o‘tib “Layfspring”ning nomi “Kelajakka qadam” norm bilan o‘zgartirildi. Ko‘p o’tmasdan “Ilxomlanish nuqta”si ham inqirozga yuz tutadi. Uning asosiy trenerlaridan biri V.Gerasichev shirkatdan ketadi va o‘zining “Forum” shirkatiga asos soladi va uni ham o‘zi boshqara boshiaydi

1997 yil oxiriga kelib, Moskvada “Layfspring” treninglarini turlicha interpitasiya uiluvchi 5ta shirkat faoliyat yurita boshiaydi. Bular: 1 . “Layfspring” № 1 - tashkilotchi Kendis Xenli, direktor Roman Tixonov, trenerlar boshlig‘i bosh trener Ivan Maurax.

2. “Layfspring” №2 tashkilotchi va bosh trener biznes trening o‘tkazuvchi Svetlana Chumakova.
3. “Kelajaka qadam” tashkilotchi va bosh trener Vladimir Shubin.
4. “Ilhomlanish nuqtasi” tashkilotchi va bosh trener Lisa Kreo - ular shaxsiy rivojlanish dasturi bo‘yicha treninglar o‘tkazadi.
5. “Forum” tashkilotchi Volodya Gerasichev bosh trener Vladislav Novgorodsev boshchiligidagi “shaxsiy rivojlanish” dasturi bo‘yicha treninglar o‘tkazadi.

1998 yilning oxiriga kelib “Layfspring” korporasiyasi yana bitta trener tayyorladi, bu Stiven Karon edi. Korporasiya Sankt-Peterburg, Qozon va Novgorodda o‘z filiallami ochdi. 1999 yilga kelib Layfspring o‘z filiallarini mustaqil ravishda ocha boshladi. Bu davrga kelib Lisa Kreo o‘z “Ilxomlanish nuqtasi” shirkati faoliyatini tugatib, AQShga qaytib ketdi.

2000 yilda trener Ivan Maurax “Forum” shirkatiga ishga o‘tdi. “Kelajakka qadam” shirkati esa Kiev, Riga, Odessada o‘z faoliyatini mustaqil tarzda olib bordi. 2000 yilning yozida Roman Tixonov “Avatar” bitiruvchilar bilan qo‘shma guruh ochdi va ular yoshlami ta’limga moslashuvini ta’minalash maqsadida Vip treninglar hamda diniy rivojlantiruvchi seminar treninglar o‘tkazish uchun dasturlar ishlab chiqishdi. 2002 yilda “Forum” direktori va tashkilotchisi o‘rtasida o‘zaro kelishmovchiliklar yuza kelganligi sababli mazkur shirkat o‘z faoliyatini tugatdi.

Shu yili Vladislav Novgorodsev va Igor Aleksandrovlar birgalikda “Dunyo atirguli” nomli trening markazini ochdi. Bu markaz o‘z oldiga shaxsning har tomonlama rivojlanishini maqsad qilib qo‘yadi. Rossiyada bugungi kunda eng samarali treninglar o‘tkazib kelyotgan bir qancha shirkatlar mavjud: “Layfspring” va “Avatar” - Roman Tixonov; “Kelajakka qadam” - Tatyana Pogasova; “Forum” - Ivan Maurax va Valodya Gerasichev; “L”- Klass - Yekaterina Mutovkina; “Dunyo atirguli” - Vladislav Novgorodsev, Igor Aleksandrov.

Hozirda Rossiyada psixologik va korporativ treninglaming rivojlanishi yuqori bosqichda bo‘lib, bu borada ular juda katta tajribalarga erishmoqdalar.

## **II BOB BO‘YICHA TOPSHIRIQLAR**

Nazorat savollari

1. Antik davrdagi trening haqidagi fikrlarning mohiyati qanday boigan?
2. Sharq mutafakkirlarining treningga oid fikrlarini izohlang

3. AQShda trening laboratoriyasi qachon tashkil bo'lgan?
4. Rossiya treninglaming boshlanishiga kim asos solgan?
- Mustaqil ish mavzulari
1. Sharq mutafakkirlarining qarashlarida treningga oid fikrlami tahlil qiling
  2. Xorij psixologiyasida trening tarixiga oid adabiyotlami tahlil qiling
  3. O 'zbekistonda qaysi y o 'nalishlarda treninglardan foydalanishini tahlil qiling Testlar
  1. AQShda birinchi milliy trening labaratoriysi qachon ochiladi?
- A) \*1947 yilda  
 B ) 1957y  
 V) 1937 y  
 G)1967y
2. Jangchilarni tayyorlashda jismoniy mashqlardan foydalanish lozimligi qaysi mamlakatda urf bo'lgan
- A) Rim  
 B) \* Sparta  
 V) Gresiya  
 G) Rossiya
3. Bolalarni guruhlarda yig'ib o'qitish lozimligini qaysi oiim ta'kidiagan
- A) M.Sa'diy  
 B) \*Ibn Sino  
 V) Kaykovus  
 G) Farobi
4. Birinchi bor kasallarni guruhda yig'ib ishlagan tadqiqotchi kim?
- A) J.Moreno  
 B) Dj Pratt  
 V) \*Mesmer  
 G) A.Everett
5. Birinchi bor guruhiy analiz atamasini ishlatgan olim kim?
- A) A.Everett  
 B) \*J.Moreno  
 V)Mesmer  
 G) Dj Pratt
6. Birinchi bor aql dinamikasi treningini ishlatgan olim kim?
- A) Dj Pratt  
 B) \*A.Everett  
 V) Mesmer  
 G) J.Moreno
7. Trening mashgulotiari o'tkaziladigan xona qanday bo'lishi kerak?
- A) \*Mashgulot o'tkazga mo'ljallab maxsus jihozlangan va izolyatsiyalangan bo'lishi kerak  
 B) Sinf, auditoriya yoki xonadondagi biror xona bo'lishi mumkin  
 V) Biror tashkilotning izolyatsiyalangan maxsus tadbirlar zali bo'lishi kerak  
 G) Muhimi akvarium bo'lishi kerak, qolgan narsalar trening o'tishiga xalaqit bermaydi

### **III. TRENINGNI TASHKILIY BOSQICHI**

#### **3.1. Guruhni tashkil etish bosqichi.**

Ma'lumki har qanday jarayonni tashkil etishda ma'lum bir bosqichlar mavjud bo'ladi va mana shu bosqichlarga amal qilingan holda jarayon tashkil etilishi inashg'ulotning samarasini ta'minlaydi. Xuddi shuningdek, har qanday psixologik treninglami tashkil etishda ham quyidagi 4ta bosqichga asoslanib mashg'ulotni tashkil etish maqsadga muvofiqi, aks holda trening mashg'ulotlari samarasiz tugashi mumkin.

1. Tashkiliy bosqich.
2. Boshlang'ich bosqich.
3. Asosiy bosqich.

#### 4. Yakuniy bosqich.

Yuqorida sanalgan barcha bosqichlaming o‘ziga xos muhim jihatlari mavjud bo‘lib, quyida shu haqda so‘z yuritamiz.

Birinchi bosqich tashkiliy bosqich bo‘lib, bu bosqichda treningni boshlashgacha bo‘lgan barcha jihatlar qamrab olinadi. Bu bosqichda trener o‘ziga xos bo‘Tgan 3ta holatni hisobga olishi lozim bo‘Tadi. Bular quyidagilardan iborat:

- Guruhni yig‘ish yoki tashkil etish;
- Treningni tashkil etishda muhim jihatlar;
- Trening dasturi va rejasini tuzish.

**Guruhni yig‘ish.** Bu qism trening guruhini yig‘ishga qaratilgan bo‘ib, bunda , quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish talab etiladi.

Ma’lum bir psixoiogik muammolar yuzasidan murojaat etgan kishilar bilan shug‘u llanish uchun tashkil etiladigan trening guruhlarini y ig ‘ishdan a w a l ular bilan i individual suhbatlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Chunki guruh ishtirokchilarining kimligi, ulaming xarakter-xususiyatlarini bilish trenerga butun guruh haqida ma’lum bir xuloaga klisht imkoninin beradi. Bu esa trening mashg‘ulotining datur va rejasini tuzishda, mashg‘ulot jarayonida qo’llaniladigan usullami tanlashida qo‘l keladi. Qolaversa, har bir ishtirokchining motivasiyasini yaxshi bilish ham trener uchun zarurki, aks holat ulaming guruhni tark etishiga olib kelishi mumkin. Bu esa trening samarasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ko‘pgina trenerlar ishtirokchilami tanlab olishda taxminiy kuzatuv o‘tkazish bilangina cheklanadilar, xolos. Afsuski, bunday kuzatishlar guruhda kim qanday ishtirokchi bo‘Tishini aniqlash uchun yetarli maTumotlami bera olmaydi. Bundan tashqari, bunday taxminiy kuzatishlar trenemi noto‘g‘ri xulosalarga olib kelishi ham mumkin, chunki guruhiy psixoterapiyaning natijasi, ya’ni samarasasi faqat psixoterapevt yoki trenerga emas, balki ishtirokchilaming shaxsiga ham bog‘liqdir.

Mutaxassislamning qayd etishicha, guruhga eng ko‘p foydasi tegadigan ishtirokchilar ham ba’zida, vaqtidan ilgari guruhdan chiqib ketishi va bunga turlicha mnillar sabab bo‘lishi mumkin ekan. Jumladan, ishtirokchida turar joyning o‘zgarishi, vaqt muommosi yoki guruhga nisbatan qiziqishning yo‘qolishi kabilar.

Ishtirokchilaming guruhni tark etish sabablarini o‘rganish maqsadida Dj.Yalom ( 1966 y) tomonidan 9 ta trening guruhlari kuzatilgan. Natija quyidagicha bo‘gan: 97 nalar ishtirokchidan 37 nafari guruhni vaqtidan ilgari tark etgan. Chiqib ketgan i.slihrokchilaming fikrlari so‘ralganda, ular buning sababini tashqi omillar bilan bogTiqligini, guruhga bog‘iq bo‘magan, lekin guruhda ishtirok etishdan ko‘ra umhimroq muommolar ekanligini qayd etishgan.

Ishtirokchining guruhdan ketish sabablari tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilib, quyidigicha izohlar berilgan.

1. Ishtirokchilar guruhda yuzaga keladigan o‘zi uchun yoqimsiz bo‘gan rmotsiyalardan, o‘z-o‘zini namoyon qilish va yaqin munosabat o‘matishdan qo‘rqib i|ochishlari mumkin.

2. Chiqib ketgan ishtirokchining shaxslararo xulq-atvori guruhdagi boshqa a’zolarining xulq-atvoriga mutloq teskari bo‘ishi mumkin.

3. Guruhni tark etish o‘zini namoyon qilishni, ochilishni xohlamaslikdan kelib i liiqqan bo‘ishi mumkin.

4. Guruhdagi boshqa ishtirokchilar uning muommolariga ijobiyl munosabat bildira olinaslikdan qo‘rqish bo‘ishi mumkin.

Agar yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qiladigan bo‘sak, guruhga keladigan ishtirokchilami diagnostika qilish, ulaming shaxs xususiyatiariga e’tibor lierish, tanlash kerak bo‘Tadi.

Ayniqsa, maxsus muammolar doirasida tashkil etiladigan trening mashg‘ulotlari uchun guruhni yigTshda trener yoki uning guruhda birga ishlaydigan yordamchisi guruhga qabul qilinadigan har bir ishtirokchi bilan individual suhbat olib borishi maqsadga muvofiqdir. Bu suhbatdan maqsad guruhning har bir a’zosining motivini aniqlash orqali oldindan guruh motivasiyasini aniqlab olishdan iboratdir.

Individual suhbat jarayonida ishtirokchiga asosan quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi: Sizda, oilaviy (ota-onangiz, turmush o‘rtog‘ingiz, farzandingiz yoki boshqalar bilan) yoki ishda (rahbar yoki hamkasblaringiz bilan) qanaqadir muammolar bormi? Treningda ishtirok etishga sizni nima majbur qilyapti? Treningdan nima kutyapsiz? Trening sizga nima beradi deb o‘ylaysiz?

Bundan tashqari ishtirokchining individual-pisixologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida psixologik metodikalardan (Ksttel, Lyusher testi, Sub’ektiv nazorat darajasini aniqlash metodikasi (SND) va turli proekтив testlardan) foydalanish mumkin. Ba’zi hollarda (agar ishtirokchilarning psixikasi va xulqida jiddiy o’zgarish borligi sezilsa) MMPI so’rovnomasining moslashtirilgan shaklidan foydalanish ham maqsadga muvofiq bo’ladi. Individual suhbat natijasida trener guruhning har bir a’zosi haqida m a i u m bir informasiyaga ega b o i i s h bilan birga, guruhning umumiy ahvoli haqida ham tasawurga ega bo’ladi. Bu ma’lumotlar unga guruhning muammosi yuzasidan o’tkaziladigan trening dasturini tuzishda katta ahamiyatga ega boiadi.

Individal suhbat oxirida trener iloji boricha bo‘lajak ishtirokchining “Men haqimda nima deya olasiz?”, “Test natijasi qanaqa chiqdi?” degan savollariga javob berishdan qochishga harakat qilishi lozim. Chunki bunday matumotlaming ishtirokchi hukmiga havola etilishi ishtirokchida turli o’zgarishlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Trening gumhlarini yig‘ ishda yana quyidagi holatlami ham hisobga olish lozim: - Psixologik trening mashg‘ulotlarida (nogironlar bilan o’tkaziladigan maxsus treninglami hisobga olmaganda) tashqi jismoniy kamchilikka ega boigan va psixik holatida buzilishlar bo‘lgan kishilar ishtirok etmasligi lozim. Negaki, bunday holatlarda aynan shunday kamchilikka ega boiganlarda aks ta’sir etish ehtimoli kuchliroq boiishi har qanday mutaxassis uchun tushunarli bo’sa kerak.

- Trening mashg‘ulotlari uchun moijallangan gunihlarga imkon boricha, muammosi bir xil bo‘tgan ishtirokchilami to‘plash kerak.

- Trening ishtirokchilari iloji boricha bir-biriga notanish boiishlari lozim.

- Har b ir ishtirokchi o‘zi uchun o‘zi pul t o i a s h i shark Bu hoi ishtirokchilarning treningda qatnashishidagi tashkiliy jarayonlarda yordam beradi va ulaming motivasiyasini kuchaytiradi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, bu jarayonlami tashkil etish trenerdan katta mahoratni, ayniqsa psixologik bilim, ko’nikma va malakani ham talab etadi. Shuning uchun trener shaxsiga qo’yiladigan talablar doirasida bunga ham e’tibor qaratish lozim.

### **3.2. Treningni tashkil etishda muhim jihatlar.**

Trening mashg‘ulotlarining samarali o’tishini ta’minalash uchun uni tashkil etishda bir qancha muhim jihatlarga e’tibor berish lozim boiadi. Quyida mana shu rnuhim jihatlar nimalardan iboratligini ko’rib o’tamiz.

Trening mashg‘ulotiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o’tkazish jarayonida trener quyidagi muhim jihatlami hisobga olishi maqsadga muvofiq:

Trening mashg‘ulotlarining davomiyligi quyidagicha boiishi maqsadga muvofiq: 1. Haftasiga 4-5 kun, bir kunda 8 soatdan mashg‘ulot o’tiladi (orada 30 yoki 60 minut tanaftus beriladi). Bu eng samarali natija beradigan trening mashg‘uloti hisoblanadi.

2. Haftasiga 2-3 kun, bir kunda 4-5 soat mashghiiot oiiladi. O‘rtacha samarali natija beradi.

3. Haftasiga 1 kun, 3-4 soatdan mashgiilot oikaziladi. Bunday davomiylikda tashkil etilgan trening mashg‘ulotlari kamroq samara berishi kutiladi.

Trening o’tkaziladigan xona. Har bir ishtirokchi xonada o‘zini erkin his etishi uchun lozim boigan barcha sharoitlaming boiishi treningni samarastni ta’minlovchi omillardan biri hisoblanadi. Shuni hisobga olgan holda trening mashg‘ulotlan o’tkaziladigan joy shinam, keng, erkin harakatlanishga moijallangan, kerakli anjomlar bilan jihozlangan boiishi tavsiya etiladi. Xonaning bir qismida dumaloq shaklda qo’yilgan stullar, bir qismida yumshoq mebel o’nndiqlari, 2-3 dona stol, akvarium, devorda 1-2 dona manzarali tasvir aks ettiriigan rasmlar, imkon darajasida gullar boiishi tavsiya etiladi. Bulardan tashqari mashg‘ulot jarayonida foydalanish uchun magnitofon, televizor, videopleer, proektor, kompyuter jihozlari bo’lishi ha’m lozim. Xonada ishtirokchilaming orasiga to‘sinq bo‘tadigan ortiqcha jihozlar (stol, stullar) bo’imasligi maqsadga muvofiqlidir.

Trening o’tkaziladigan xona albatta izolyatsiyalangan (ajratilgan) bo‘lishi shart, ya’ni begona shaxslar ularni bezovta qilmasligi va ular ham boshqalarga halaqit bermasligi kerak. Chunki trening

mashg'ulotlari hissiyotlarga boy jarayon hisoblanib, aynan bunday bolatda kimningdir oddiygina eshikni ochib qarashi ham trener yoki ishtirokchilami bu hissiyotdan chiqarib yuborishi, ular diqqatining boiinshiga sabab bo'ishi mumkin.

Bundan tashqari guruhdagi doimiy bahs-munozaralar, o'yin va mashqlar natijasi bo'lgan shovqin atrofdagilarga xalaqit bermasligi kerak.

Bunday sharoitlami yaratish albatta, har bir treneming imkon darajasidan kelib chiqadi. Shuning uehun bunday xonaga ega boTmagan holatlarda trening o'tkazish mumkin emas, degan xulosaga kelish noto'g'ri. Oddiy jihozlanmagan xonada ham guruh a'zolarini doira shaklida joylashtirilgan stullar qo'yib yoki yerga gilam solingan holda o'tirib ham trening mashg'ulotlarini olib borilishi mumkin bo'ladi. Trening jarayonida asosiy e'tibor ishtirokchilaming doira shaklida o'tirishiga qaratilishi kerak. Doira shaklida o'tirishning afzalligi sbundaki, hamma ishtirokchilar bir-birining borligini his qiladi va bir-birini ko'rib turishiga imkon yaratiladi. Bu esa ishtirokchilarda bir-biriga boTgan e'tiboming ortishi bilan birga mashg'ulotlarga diqqat bilan munosabatda boiish hissini, shuningdek o'zaro ishonch, o'zaro qiziqish kabi muhim holatlami vujudga keltiradi. Bundan tashqari, doira shaklida o'tirish boshlovchi va ishtirokchilar orasida ham tenglik boTishiga olib keladi va ulaming o'zaro erkin muloqotda bo'lislariha imkon beradi. Ayniqsa, o'smirlar guruhi bilan ishlaganda, ular qarshisida o'qituvchi emas, o'zlar b ilan b ir qatorda o'tirishga treneming bo'lishi o'smirlarda haqiqiy tenglikni His etishga yordam beradi. Bu orqali guruh a'zolarining haqiqiy ijtimoiy tengligini ta'minlovchi psixologik muhit (iqlim) yaratiladi.

Xorijda ba'zi trening xonalari oddiy gilamlar to'shalgan va ishtirokchilar gilamlaming ustida o'tirgan holda mashg'ulotlar tashkil etiladigan holatlar ham bo'ladi. Lekin bizning mintalitetimizda bunday holda trening mashg'ulotlarini o'tkazish ayrim noqulayliklami (ayniqsa qarama-qarshi jins vakillaridan tashkil topgan guruhlarda) keltirib chiqarishi mumkin.

Trening jarayonida guruh a'zolari soni 8-10 kishidan 19-20 nafargacha bo'ishi ma'qul variant hisoblanadi. Mutaxassislaming ta'kidlashlaricha, eng ideal, ya'ni trener uehun ishlash yengil va yuqori samaraga erishish mumkin bo'gan guruh 13-15 kishidan iborat boTgan guruhdir. Buni shunday izohlash mumkinki, ishtirokchilar ko'p boTgan guruhlarda quyidagi istalmagan holatlar sodir bolishi mumkin: vaqt ko'p ketishi, zerikishning paydo bo'ishi, o'zaro ishonch muhitining tarkib topishi qiyinlashuvi, samimiylikning susayishi kabilar. Aksincha guruh a'zolarining soni (12 kishidan) kam bo'gan alohida guruhlarda esa ishtirokchilar bir-birlaridan tez zerikishlari ehtimoli mavjud. 13-15 kishilik guruhda esa guruh a'zolari va trener bir- birlarini tezroq tushunishi va ulaming ahillashishlari oson kechganligi kuzatilgan.

Ayrim hollarda, ayniqsa o'quv-treninglarda tavsiya etilgan songa nisbatan ko'proq ishtirokchilar bilan mashg'ulot o'tishga ham to'g'ri kelib qoladi. Agar guruhda ishtirokchilar soni 25 kishidan ortib ketsa dastur va mashqlar ishtirokchilami bir nechta guruhlarga bo'gan holda o'tkaziladi, ammo bunda k o'p vaqt talab etiladi va ishtirokchilaming diqqati boTinadi. Shuning uehun aynan psixologik treninglar uehun bunday holatda mashg'ulot o'tkazish tavsiya etilmaydi, chunki bu nafaqat kutilgan natijaga erishishga halaqit beradi, balki ishtirokchilaming noroziligiga ham olib kelishi mumkin. Bu esa treneming statusiga putur yetkazadi.

Treningda ishtirokchilaming jinsi masalasi ham mashg'ulot o'tish va uning samarasiga ta'sir nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Trening guruhi tuzilish jihatdan geterogen (ikki xil jins) boTishi kerakmi yoki gomogen (bir jinsli) boTishi kerakmi degan savol mutaxassislamani qiziqtiradigan savollar sirasiga kiradi.

Mutaxassislaming fikriga ko'ra, vazifasi emotsional qo'llab-quwatlashdan iborat boTgan va bir xil jins vakillaridan iborat qisqa muddatli guruh ishtirokchilari bir-biriga o'xshashga intilishadilar hamda bu yaxshi natija beradi. Aksincha, maqsadi ishtirokchilarda shaxslararo o'zaro tushunishni shakllantiruvchi uzoq muddatli trening gumhlarida turli jins vakillarining bo'lgani yaxshi.

Ishtirokchilar o'rtasida jins borasida o'xshashlik va farqlami ajratishga nisbatan bildirilgan fikrlarda haligacha qarama-qarshiliklar mavjud va yagona xulosaga kelinmagan. Aksariyat mutaxassislar geterogen guruhlaming tarafdiridir. Ulaming fikriga ko'ra, geterogen guruhlaming

samarasi shundaki, bunday guruhlarda ishtirokchilar shaxsiy muammolarini hal etishi va ulami yengishga erishlari mumkin.

J.Kellermenning fikriga ko‘ra guruhlarda emotsiyal holatni yaratish va ishtirokchilaming muommolarim hal qilishda ijobiliylikka erishish uchun geterogenlikka intilish kerak. Ayrim mutaxassislaming fikriga ko‘ra “...guruh qanchalik geterogen bo‘lsa, guruhdagi shaxslararo munosabatlar ham shunchalik yuqori darajada bo‘ladi”.

Ishtirokchilar orasida ayol va erkaklar soni imkonlari boricha teng (masalan, 7 ta ayol 6 ta erkak yoki 6 ta ayol 8 ta erkak) boiishi trening guruhlarda ijobiy muhit yaratilishiga olib kelishi tajribalarda isbotlangan. Chunki qaysidir jins vakili ko‘proq va qaysisidir kam boTishi guruhning o‘zaro erkin munosabatda boTishiga va ular orasida ishonch muhitining vujudga kelishiga xalaqit berishi mumkin. Bundan tashqari guruhda erkaklar sonining ko‘p (masalan, 10ta erkak 5ta ayol) bo‘lishi olib borilayotgan babs-munozaralarda erkaklarcha munosabatning ustun bo‘lishiga, aksincha holat (masalan, 12 ta ayol 4-5 ta erkak) esa ayollarga xos fikrlaming ustunlik qilishiga olib kelish ehtimolini oshiradi. Natijada treneming kutilgan natijaga erishishi qiyinlashadi va trening samarasini pasayish ehtimoli yuqori bo‘ladi.

Trening ishtirokchilarining yoshi borasida ham mutaxassislar orasida tortishuvlar mavjud. Aksariyat holatlarda trening ishtirokchilarining yoshi iloji boricha taxminan teng boiishi, ya’ni ular orasidagi farq 4-5 yoshni tashkil etishi maqsadga muvofiq ekanligi ta’kidlanadi. Lekin o’tkaziladigan trening mashg‘ulotining maqsadiga va hal etiladigan muammolariga qarab turli xil yoshdagi ishtitokchilami taklif etish ham foydadan holi boimaydi (masalan, qaynona-kelin, ota-onalar va farzand, pedagog va o‘quvchi nizolari).

Amerikalik mutaxassis Lekinning fikricha, guruhdagi yosh va boshqa jihatdan farqlar o‘zaro munosabatlarda namoyon boiishi mumkin, masalan, “keksa bir ishtirokchi qolganlar uchun “qariya” degan unvon bilan “taqdirlanishi”, qora tanli ishtirokchi esa oq tanlilar uchun kuzatish ob’ektiga aylanishi mumkin (Lakin 1972).

Bu misol bizning mentalitetimizga xos boimasada, lekin bizda ham guruh ishtirokchilaridan maium bir farqi bilan keskin ajralib turadigan kishilami guruhga taklif etmaslik maqsadga muvofiqli. Qolaversa, alohida qayd etish lozim, 50-55 yoshdan kattalar uchun trening mashg‘ulotlari juda katta va ahamiyatli ta’sirga ega boimasligi va ular kutganchalik natija bermasligi ham mumkin.

### **3.3. Trening uchun dastur va rejaning ahamiyati**

Har qanday trening samarali o‘tishi uchun dastlab uning dastur va rejasi ishlab chiqilishi lozim. Dastur va reja trener uchun muhim ish quollaridan biri boiib, uning qanchalik mukammal tuzilganligi treningni samarasini ta’minlaydi.

Trening dasturini tuzishda quyidagi kriteriyalmi hisobga olish kerak:

1) Tanlangan mashq va o‘yinlar umumiyligi treninglaming maqsadiga (u necha kun davom etishidan qat’iy nazar) va aynan shu mashg‘ulotning maqsadiga toiiq mos kelishi lozim;

2) Bajarilishi lozim boigan mashq va o‘yinlaming ketma-ketligi guruhiy o‘zaro ta’siming rivojlanishi va guruhiy dinamikaning mexanizmlaridan kelib chiqib tanlanishi kerak;

3) Ishtirokchilaming guruhda ishlashga bo‘lgan motivasiyasini hisobga olish lozim.

Buni shunday izohlash mumkinki, bir guruh uchun tayyorlangan dastur ikkinchi bir guruh uchun tayyorlangan dasturga mutloqo o‘xshamasligi mumkin (mutaxassislar uchun tayyorlangan dastur bilan reklama xarakteriga ega bo‘lgan dastuming farqi boTadi, albatta). Qolaversa, bitta dastur asosida o’tkazilgan mashg‘ulot o‘zining kechishi bilan ikki xil guruhda bir-biridan farq qilishi mumkin.

Ayrim hollarda ikkita dastur tuzishga t o ‘g ‘ri keladiki, buning sabablari quyidagicha:

1) dastuming haddan ortiq rasmiy yoki murakab holda tuzilishi ishtirokchilarda tushunmovchiliklarga va ulaming guruhiy faoliyatda ishtirok etish motivini b o ‘g ‘ishga olib kelishi mumkin;

2 ) agar trener dasturini o ‘z ishini reklama qilish maqsadida tuzgan bo‘lsa. U

holda trener o'zini trening jarayonida katta imkoniyatlardan mahrum etadi. Ya'ni trening uchun mos kelmaydigan mashq va o'yinlar samaradorlik ko'zlangan treninglar uchun mos kelmaydi va trening ishtirokchilari uchun yolg'onidakam o'tkazilayotganligi fosh bo'lib qoladi, natijada trener guruhdagi kichik o'zgarishlarga ham o'ta sezgirlik bilan munosabatda bo'lsada ulaming ishonchini qozona olmaydi; 3) qiziqarli, yorqin, esda qoluvchi, ixcham, axborotlarga boy bo'Tgan va ham reklama, ham motivasion maqsadlarni qamrab olgan dasturgina o'ziga ko'plab ishtirokchilami qamrab olishi mumkin.

### **Mavzu: «Talabalarda muloqotchanlik sifatlarini oshirishga qaratilgan trening» mashg'ulotining dasturi**

Maqsad: Ishtirokchilarda shaxslararo muloqotchanlik ko'nikmalarini hosil qilish va o'zaro ahillikni oshirish.

Vazifalar:

1. Guruh a'zolarini o'zaro tanishtirish, ya'ni ularga bir-birlari haqidagi ma'lumotlar bilan almashinish imkonini yaratish;
2. Guruhda o'zaro ahillik muhitini yaratish;
3. Ishtirokchilar holati va kayfiyatlarini barqarorlashtirish;
4. Guruh ishtirokchilarini bir-birlarini yaxshiroq tushunishga hamda hamkorlikda ishslashga o'rgatish;
5. Guruh a'zolari o'rtasida o'zaro samimiylilik muhitini yaratish.

Qoidalar:

- Yagona mikrofon qoidasi (kimni qo'lida mikrofon bo'lsa o'sha odam gapiradi);
  - Faollik qoidasi (rolli vaziyatlarda har bir kishi o'ziga mavjud bilim, ko'nikma va malakasidan foydalanish);
- “Shu yerda va hozir” qoidasi (trening qatnashchilarining his-tuyg'ulari, kechinmalari va munosabatlarmi trening doirasida ko'rib chiqish va ulami kelajak yoki o'tmish bilan bogiamaslik kerak);
- Reglament qoidasi (Trening qatnashchilar o'z ftkrlarini aniq, lo'nda, qisqa bayon etishlari kerak);
- Sirlilik qoidasi (mashg'ulot jarayonidagi barcha kechinmalar guruhdan tashqaridagi chiqishi mumkin emas).

### **MASHG'ULOTNING BORISHI:**

#### **I. KIRISH.**

1. Guruhiy normalarni ishlab chiqish.

Maqsad: mashg'ulotning samaradorligini ta'minlash.

2. «Koptokni uzatib yubor» o'yini

**Maqsad:** ishtirokchilarga bir-birlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishlan uchun imkon yaratish va ulaming o'rtasidagi baremi olib tashlash.

O'yinning borishi. Ko'rsatma: Qatnashuvchilar davra b o'lib o'tiradilar. Trener «Mening ismim . . . Men . . . xislatga egaman. Men . . . yaxshi ko'raman (xohlagan narsa yoki kishini aytish mumkin)» - deydi va koptokni istalgan biror kishiga qarab otadi. Koptokni ilib olgan ishtirokchi ham o'z navbatida o'zini shunday tanishtiradi va koptokni boshqa ishtirokchiga uzatadi. O'yin barcha ishtirokchilar o'zlarini tanishtirib bo'lgunlariga qadar davom etadi.

3. “Kutuvlar daraxti” mashqi

Maqsad: Ishtirokchilaming treningdan kutayotgan natijalarini aniqlash

Ko'rsatma: Hozir hamma tarqatilgan meva-qog'ozlarga o'zining mashg'ulotdan nima kutayotganligini yozadi va doskadagi daraxtgaga shu «meva»larini yopishtiradi.

#### **II. ASOSIY QISM.**

1. "Buzuq telefon" mashqi.

Maqsad: Ma'lumot uzatishdagi buzilishlami anglashga o'rnatish. Ma'lumotni anglangan holda idrok qilish va faol tinglash uslubini o'zlashtirish.

Yo'riqnomalar: Ushbu mashqda 6 kishi ishtirok etadi. Bunda 5 kishi xonadan tashqarida turadi,

1 kishi xonada qoladi. Trener xonada qolgan odamga og'zaki topshiriq aytadi. Bu odam iloji boricha hamma topshiriqni eslab qoladi va ikkinchi (xonadan tashqarida turganlardan biriga) odamga aytadi. Ikkinchi odam uchinchisiga, uchinchisi to'rtinchisiga va h.k. Qolganlar ma'lumotlar qanday uzatilishini kuzatib turdi. Keyin jarayon muhokama qilinadi.

Mashq so'ngida odatda maTumotning buzilishi kuzatiladi. MaTumotlaming bir kishidan ikkinchi kishiga o'tishi natijasida u qanchalik o'zgarib ketishi paydo bo'ladigan mish-mish gaplarga asos bo'Tishi aytib o'tiladi.

2. "Avtobusda" o'yini Maqsad: Talabalarda muloqot madaniyatini shakllantirish, shaxslararo munosabatlami ijobiy rivojlantirish.

Ko'rsatma: Ishtirokchilardan biri avtobusdagi bezori rolini o'ynaydi, qolganlar esa yoiovchilar. Bezori avtobusdagi ikkita o'rindiqni egallab olib, biriga o'zi o'tiribdi, biriga esa magnitofonini qolgan. U hech kimga joy bermoqchi emas. Ishtirokchilaming har biri bezori bilan til topishib uning yoniga o'tirishga harakat qilib ko'rishi kerak. Shart shuki — maqsadga janjalsiz erishish lozim.

3. "Yomg'ir» psixogimnastik mashqi

Maqsad: Ishtirokchilar o'rtasida samimiylilik, iliqlik muhitini yaratish.

Ko'rsatma: Ishtirokchilar aylana shaklida turib olishadi. Bunda jimlik hukm surishi kerak. Trener «hozir siz yomg'ir tovushini eshitasiz, lekin buning uchun mening harakatiarimni takrorlashingiz kerak», - deydi. Trener o'rtada turib har bir ishtirokchining oldiga keladi va muayyan harakatlami bajarib ko'rsatadi. Harakatlar: Kaffلامি bir-biriga ishqalash; Barmoqlami qirsillatish; Tizzalami shapatilash; Tizzilami shapatilab, oyoqlami do'ppilatish; Qarsak chalib tamomlash.

4. "Avlodlar o'rtasidagi nizo" o'yini

Maqsad: Talabalarda muloqot madaniyatini shakllantirish, shaxslararo munosabatlami ijobiy rivojlantirish.

Ko'rsatma. Bunda uch kishi ishtirok etadi — yigit, qiz va katta yoshli odam. Avlodlar o'rtasida " Eh, hozirgi yoshlar..." qabilida taqlid uyushtiriladi. Yigit va qizning vazifasi: imkon boricha xushmuomalalik bilan nizodan qochish. Ishtirokchilar orasidan tanlangan jyuri a'zolari har bir talabaning harakatini baholab boradi.

5. "Ma'lumotni so'zsiz uzatish" o'yini

Maqsad: Talabalarda noverbal muloqot sifatlarini shakllantirish

Ko'rsatma: "Hozir bir kishi xonadan tashqariga chiqib turadi, qolganlar esa unga qanaqa ma'lumotni aytish lozimligi haqida kelishib olishadi. Men uni chaqiraman, shunda butun guruh imo-ishora, turli qiliqlar va yuz harakatlari bilan unga shu informasiyani uzatishga harakat qilishadi. Chaqirilgan odamning vazifasi — guruh unga aytmoqchi bo'layotgan ma'lumotni anglab olishdan iborat".

### III. YAKUNIY QISM

I. "Shirin tilak" mashqi Maqsad: talabalarga o'zaro bir-birlari bilan xushmuomala bo'lish sirlarini o'rgatish.

Ko'rsatma: Hozir har bir ishtirokchi o'zining o'ng tomonidagi shergiga shirin tilak aytadi.

2. Qayta aloqa

Maqsad: Ishtirokchilaming kutuvlari amalga oshganlik darajasini aniqlash.

Ko'rsatma: Hozir har bir kishi quyidagi savollarga og'zaki javob beradi: "Men bugun treningdan. . Barcha ishtirokchilar gaplarini shu jumladan boshlab, o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashadilar.

Trener ishtirokchilaming fikrlarini diqqat bilan tinglashi va ularga ishtiroklari uchun minnatdorchilik bildirib, mashg'ulot yakunlanganligini e'lon qilishi kerak.

Har qanday trening mashg'ulotini tuzishdan oldin trener trening mashg'ulotlarini o'tkazishning nazariy asoslari bilan tanishgan bo'lishi maqsadga muvofiqki, bu uninj tuzayotgan dastur va rejasining guruh uchun mosligini va pirovard natijada treningrt samarasini ta'minlaydi.

### III BOB BO'YICHA TOPSHIRIQLAR

Nazorat savollari

1. Treningni tashkiliy bosqichida nimalami hisobga olish zarur?
  2. Treningni tashkil etishda individual suhbatning ahamiyati qanday?
  3. Trening o'tkaziladigan xona qanday bo'lishi kerak?
  4. Ishtirokchilaming soni, jinsi, yoshi qanday bo'lishi lozim?
- Mustaqil ish mavzulari
1. Trening o'tkazishdamuammo va motivasiyalami aniqlash.
  2. Trening jarayonida individuallikka amal qilish
  3. Adabiyotlar asosida trening guruxini yig'ishga oid ma'lumotlami tahlil qiling
  4. Tashkiliy qismni tashkil etishda dastur va reja yuzasidan ma'umotlami tahli qiling
- Testlar
1. Trening samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi vaqt qays qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
- A) 1 haftada 2-3 kun, 10soat  
 B) \* 1 haftada 4-5 kun, 8 soat  
 V) 1 haftada 2-3 kun, 4-5 soat 46  
 G) 1 haftada 1-2 kun, 5 soat
2. Ishtirokchilar tarkibi qanday bo'lishi kerak?
- A) \*Guruh muammosi oddiydan murakkabgacha bo'lishi mumkin  
 B) Guruh muammosi bir xil bo'lishi kerak  
 V) Guruh muammosi turli xil bo'lishi yoki bo'lmasligi ahamiyatsiz  
 G) Guruh muammosi emas trening o'tilishi muhim ahamiyat kasb etadi.
3. Treningda necha yoshdagilar uchun samara ko'proq bo'ladi?
- A) 30 yoshdan kattalar uchun  
 B) 50 yosh oraligidagilar uchun  
 V) \*50 yoshgacha bo'lganlar uchun  
 G) Kichik va katta yoshdagilar

#### **IV. TRENINGNI BOSHLANGTCII BOSQICHI**

##### **4.1. Treningni birinchi kuni**

Trening mashg'ulotlarini olib borishning 2-bosqichi boshlang'ich bosqich deb nomlanadi va mashg'ulotning birinchi kunida o'tkaziladigan quyidagi qismlami o'z ichiga oladi:

1. Guruhiy normalami ishlab chiqish qismi
2. Tanishuv qismi
3. Kutishlami aniqlash qismi.

Har qanday trening treneming qisqacha ma'lumot berishi bilan boshlanadi. Bunda u treningni maqsadi, vazifalari, shuningdek, ishtirokchilar egaltashi mumkin bo'lgan natijalar haqida gapiradi. Ya'ni bu jarayonda ishtirokchilarga trening haqida tushuncha, uning qanday tashkil qilinishi, o'tkazilishi va ishtirokchilar trening oxirida qanday natijalarga erishishi mumkinligi tushuntiriladi.

**Guruhiy norma (tamoyil, qoida)iarni ishlab chiqish.** Trening mashg'uloti boshlanganidan va treneming qisqacha tushuntirishlaridan so'ng dastlabki tashkil etiladigan qism— guruhiy normalami ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan qismdir.

Guruhiy normalami qabul qilishdan maqsad - guruhdha mashg'ulotning dastlabki soatlaridanoq samimiylilik, o'zaro ishoncb, o'zaro hurmat muhitini vujudga keltirish va eng asosiysi mashg'ulotning samarasini ta'minlashdan iboratdir. Guruhiy normalani ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida guruh a'zolari bilan bu normalarga albatta rioya qilish kerakligi to'g'risida kelishish va guruhnинг har bir ishtirokchisining roziligin olish kerak. Buning uchun ularga qoidalarga rioya etish treningni maqsadiga erishish va qulay psixologik iqlimning yaratilishida katta ahamiyatga ega ekanligini tushuntirish lozim.

Guruhiy normalar trener bilan guruh ishtirokchilarining hamkorligida ishlab chiqilishi shart. Guruhiy normalami ishlab chiqishda trener "Aqliy hujum" usulidan foydalangan holda fikrlar yig'ishishi maqsadga muvoftqdir. Mashg'ulot jarayonida qanday qoidalarga amal qilish lozimligi to'g'risida guruh a'zolarining o'zi takliflar, fikrlar berishi, bunda ma'lum bir fikmi berayotgan ishtirokching bu fikming trening uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini izohlashi maqsadga muvofiqdir, shundan so'ng ishtirokchilar bilan uning taklifi qabul qilinadi yoki rad etiladi.

Ayrim hollarda, agar ishtirokchilar orasidan fikr bildiruvchilar topilmasa, vaqtini yo‘qotmasdan treneming o‘zi yo‘naltiruvchi fikr sifatida birorta normani taklif etishi ham foydadan holi bo‘lmaydi.

Trening mashg‘ulotlari jarayonida guruhdagi ishlami tashkil qilishga doir normalar quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

**Intizom ga qa t‘iy rioda qilish y o k i “0 - 0 qoidasi ” normasi.** Bunda har b ir guruh a ’zosi m a sh g ‘u lo tg a o ‘z vaqtida kelishi, o ‘z vaqtida ketishi kerakligi zarurligini his etishi lozim va bunga qat’iy amal qilishi kerak. Chunki trening mashg‘ulotiga biror- bir ishtirokchi kechikib qolsa, mashg‘ulot qoidasiga ko‘ra mashg‘ulotni boshlash mumkin emas, shuning uchun butun guruh kechikkan ishtirokchini kutishiga to‘g‘ri keladi. Bunday holning sodir bo‘Tishi esa ayrim ishtirokchilaming jahlini chiqarishi, g‘ashiga tegishi, mashg‘ulotlaming to‘xtab qolishi va turli noroziliklarga olib kelishi mumkin.

**“Maxfiylik”yoki “Sir saqlash” normasi.** Trening jarayonida bayon etilgan kimningdir, aniqrog‘i guruhdagi biror-bir ishtirokchining hayotiga oid ma’lumotlar, fikrlar, hissiyotlaming ifodalanishi, o‘yin va mashqlami bajarish jarayonida noqulay holatlarga tushib qolishlar trening doirasidan chetga chiqmasligi lozim. Negaki kishining shaxsiga oid bunday ma’lumotlaming mashg‘ulot chegarasidan chetga chiqishi uning uchun turli kutilmagan tnoxushliklami keltirib chiqarishi mumkin.

**“Shu yerda va hozir” normasi.** Guruhdagi muomala-munosabat mashg‘ulot jarayoniga bevosita aloqador, ya’ni ayni payt bilan bog‘liq bo‘lishi zanir. Hattoki ishtirokchilardan birortasi o’tgan zamondagi voqeani hikoya qilayotganda ham, iming shu yerda va ayni paytda nimani his qilayotganligi muhim ahamiyat kasb etishini unutmaslik lozim. Bundan tashqari, ham trener, ham har bir ishtirokchi o‘zining har qanday muammolarini unutib, o‘zini faqat “shu yerda va hozir” holatida his qilishi trening samarasini uchun asosiy omillardan biridir.

**Fikrni birinchi shaxs tomonidan bayon etish normasi.** Bunda doimo mulohazalar “Menimcha...”, “Mening fikrimcha...”, “Mening o‘ylashimcha...” qabilida bayon etilishi maqsadga muvofiqligi uqtirilishi kerak.

**“Yagona mikrofon” normasi.** Biror ishtirokchi o‘z fikrini bildirayotganida, boshqalar unga diqqat bilan quloq solishi va uning gapini bo‘Tmasligi, bir-birining shaxsini o‘zaro hurmat qilishi lozim. Kimdir gapirayotganida boshqa birovning unga quloq solmasligi so‘zlovchining shaxsiyatiga tegishi va u keyingi bahslarda o‘z munosabatini bildirishdan bosh tortishiga olib kelishi mumkin. Bu esa trening samarasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimolini keltirib chiqaradi.

**“Trenningda boshidan oxirigacha qatnashish” normasi.** Bu norma ishtirokchilarda mas’uliyatni vujudga keltirish uchun zarur bo‘lgan tamoyildir. Agar ishtirokchilardan kimdir biror kun, hatto biror soat mashg‘ulotni qoldiradigan bo‘Isa, bu nafaqat uning o‘zi, balki guruh uchun ham, trener uchun ham mashg‘ulot effektining pasayishiga olib keladi. Umuman ishtirokchilar bir-birlariga do‘stona munosabatda bo‘lishi, bir-birlarining hissiyotlarini hurmat qilishlari kerak. Agarda ketishi kerak bo‘lib qolsa albatta trener va guruhni ogohlantirishi lozim.

**“Ixtiyorilik” normasi.** Trening mashg‘ulotida o‘z mulohazalarini bayon etish, inunozaralarda, o‘yin va mashqlarda ishtirok etishda ixtiyorilikni joriy qilish muhim ahamiyatga ega. Ya’ni jarayonlarda ishtirokchilar ixtiyoriy ishtirok etmasdan biri- biriga “mulozamat qilishi” vaqtning yo‘qotilishi va muhitning buzilishiga olib keladi.

**“Vaqtni tejash” yoki “Reglamentga rioda qilish” normasi.** Guruh ishtirokchilari trening mashg‘uloti davomida fikrlarini imkon qadar qisqa, lo‘nda ifodalashi, muvzusi doirasidan chetga chiqib ketmasligi lozim. Chunk gapni aylantiravcrish, gapni uzoqdan boshlab olib kelish, bir tikmi qayta-qayta takrorlayvcrish kabi hollar guruh ishtirokchilarining g‘ashiga tegishi bilan birga treningda eng qirnniatli bo‘lgan vaqtini bekorga sarflanishiga olib keladi. Bu esa ishtirokchilaming noroziligiga va ular orasida do‘stona muhitning buzilishiga olib kelishi mumkin

**“Shaxsni baholamaslik” normasi.** Trening mashg‘ulotlari jarayonida har bir ishtirokchi o‘z fikr-mulohazalarini va hissiyotlarini bayon qilishi mumkin, biroq bunda boshlovchi va qolgan ishtirokchilar hikoyadagi vaziyatningina muhokama qilishlari hamda so‘zlovchining o‘sha paytdagi xulq-atvori, xatti-harakatini baholashdan qochishlari kerak. Masalan, “o‘sha paytda siz jahlg‘a

berilmasligingiz yoki bunday demasligingiz kerak edi" kabi jumlalaming qo' llanilishi ishtirokchining e'tiroziga sabab bo'lishi bilan birga qolgan ishtirokchilar o'z fikrlarini va muammolarini bayon etishda ochiq gapirishdan tortinishlari mumkin. Shuning uchun, "bunaqa vaziyatda men bunday qillardim yoki degan bo'lardim" kabi variantlarda so'zlashish yoki fikrini bildirish so'raladi.

Yuqorida sanab o'tilgan normalaming barchasi hamma treninglarda qo'llanilishi shart emas. Normalarni qabul qilishda guruhning tuzilishi, trening mashg'ulotning davomiyligi kabilar ham e'tiborga olinishi maqsadga muvofiqdir.

Sanalgan normalardan tashqari trener tomonidan quyidagilar alohida ta'kidlab o'tilishi shart:

- Birovning fikrini umuman noto'g'ri deb hisoblagan yoki unga qo'shilman holatda ham uning gapini bo'lishga, to'xtatib qo'yishga yoki ustidan kulishga hech kimning haqqi yo'q.
- Ishtirokchilar bir-birini masxaralashi yoki g'ururiga tegadigan gaplar aytishi mumkin emas.
- Ishtirokchilar ham, boshlovchi ham, agar savol uning shaxsiy hayotiga tegishli bo'lsa, javob bermaslik huquqiga ega.
- Boshlovchiga savollar va fikrlar anonim tarzda berilish imkoniyati yaratilishi shart. Lekin bu haddan tashqari chegaradan chiqish imkonini bermasligi, ya'ni boshlovchining shaxsiyatiga tegish kabilarga yo'l qo'yilmasligi ta'minlanishi kerak.

Normalarni mashg'ulot o'tkazishdan avvalroq katta qog'ozga yozib, xonaga osib qo'yish yoki guruh a'zolari bilan birgalikda "Aqliy hujum" usuli orqali aniqlashtirib olish maqsadga muvofiq.

Bu trener va ishtirokchilar orasidagi birinchi guruhiy kelishuv hisoblanadi. Bunda shu narsa muhimki, har bir kishining fikrini albatta eshitish, nima uchun bu tamoyilga xayrixohligi yoki noroziliginiz izohlashini so'rash lozim. Tamoyillami tasdiqlashni ovozga qo'yish kerakmas. Chunki agar kimdir guruhning fikriga norozi bo ladigan bo'lsa, uni ko'ndirishga harakat qilish yoki guruh boshqa qarorga kelishi lozim bo'ladi. Uning fikrini inobatga olmaslik esa guruhdagi pisixologik iqlimga salbiy ta'sir etishi aniq. Ya'ni fikri inobatga olinmagan ishtirokchida norozilik holati paydo bo'ladi va bu uning treningdagi butun ishtiroki davormida noroziliginamoyon qilib, qolganlarga xalaqt berishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari agar bu shaxs o'zini past baholovchi shaxs boisa, unda ruhiy tushkunlik, o'z-o'zini baholashning pasayishi va h.k.lar ham paydo bo'lish ehtimolini tug'diradi.

#### **4.2. Treningda tanishuvni tashkil qilish**

Trening mashg'ulotining birinchi kunida o'tkazilishi lozim bo'lgan asosiy qismlardan biri - guruh a'zolarining bir-biri bilan va trenerlar bilan tanishuvdir. Bu qism trener tomonidan taklif etiladigan turli xil o'yinlar orqali amalga oshiriladi. Demak, tanishuvni turli xil usulda tashkil etish mumkin, lekin tanishuv qismining inohiyati bitta bo'Tadiki, har bir ishtirokchi o'zini shu guruhda boshqalar qanday tanishini yoki uni qanday nom bilan atashlarini istasa, o'zini shunday tanishtirishi mumkin. Tanishuv boqichini tashkil etishda guruhda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan quyidagi 3 ta tipik vaziyatga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Bular:

❖ Ishtirokchilar bir-birlari bilan mutloqo notanish bo'lishi va trener ham ulami tanimasligi holati.

❖ Ishtirokchilar bir-birlarini yaxshi tanishi, lekin trener ular uchun umuman yangi odam - notanish bo'lishi.

❖ Ishtirokchilar ham trener ham o'zaro tanish bo'lgan holat.

Birinchi xolatda tanishuv qismi ancha vaqtga cho'ziladi. Chunki bu jarayonda quyidagi ba'zi muhim vazifalami aniqlash zarur boiadi:

- Trener va ishtirokcbilar bir-bir!ari bilan tanishib ismlarini eslab qolishiari kerak;
- o'zaro bir-birlarini qo'llab-quvvatlashni bis qilishlari kerak;
- ishtirokchilaming o'zlarini namoyon qilishlariga sharoit yaratish kerak.

Bu bosqichni trener va ishtirokchilaming shunchaki bir-birlarining ismini bilishi bilan bog'iq bo'Tgan rasmiyatçilik deb qabul qilmaslik kerak. Ishtirokchilaming tanishuv qismi - ulaming o'tkazilayotgan mashg'ulotga va ayni paytdagi muhitga moslashish jarayoni boiib, ulardag'i hayajon va noqulaylik holatlarini bartaraf etishning eng qulay va samarali yo'lidir.

Mashg'ulot avvalida trener o'zini auditoriyaga tanishtirib, qaysi tashkilot yoki umotlami

(yoqtirgan rangi, qiziqishlari va h.k.) aytadi. Trener haqida ishtirok- chilarda paydo bo'lgan ilk tasawur keyingi ishlar natijasiga, trener va guruh a'zolari o'tasidagi munosa- batlar xarakteriga va albatta, mashg'ulotning yakuniga, samaradorligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Tanishuvda ishtirokchilar imkon darajasida doira shaklida yoki aynan bir-birlariga yuzlangan holatda o'tirishlari tavsiya etiladi. Chunki bunday o'tirish ular orasida samimiylik muhitini yuzaga keltirib, o'zaro munosabatlami jipslashtiradi.

Tanishuv qismini tashkil qilish uchun juda ko'plab o'yinlar mavjud bo'Tsada, umuman trening jarayonlarida quyidagi usullar ko'proq qo'Tlanilishi mutaxassislar tomonidan qayd etib o'tilgan.

**1. Intervyu usuli.** Bunda ishtirokchilar trener tomonidan juftliklarga bo'lib chiqiladi. Juftliklarga bo'inganlaridan so'ng ular bir-birlaridan intervyu oladilar.

Buning uchun ularga 10-15 minut vaqt beriladi. Bii vaqt davomida ular bir-birlaridan ipinday ma'lumotlami so'rashlari lozimligi trener tomonidan tavsiya etilgan savollar asosida boTishi yoki ishtirokchilaming o'z ixtiyoriga, istagiga havola etilishi ham imimkin. Sheriklar bir-birlari to'g'risida ma'lumot to'plab boTganlaridan so'ng har bir juftlikni navbat bilan maxsus joyga taklif etiladi va har bir ishtirokchi o'zining slierigini guruh a'zolariga iloji boricha batafsilroq tarzda tanishtirishi lozim bo'Tadi.

Bu usulning qulayligi shundaki, butunlay notanish bo'Tgan kishilar orasida o'zini noqulay his etayotgan ishtirokchilar o'zlarini uchun biringchi tanish orttirish unkoniga ega bo'adilar.

**2. Videoyozuv (videotasma) usuli** — bunda trener tomonidan har bir ishtirokchi alohida jihozlangan xonaga taklif etiladi va u guruh a'zolariga o'zi haqda uimalami aytib berishni istasa, shuni gapiradi. Barcha ishtirokchilar o'zi haqdagi ma'Tumotlami videotasmaga tushirib boTganlaridan so'ng, ulaming hammasi xonaga taklif etiladi va tasma yozuvi qo'yib beriladi.

Bu usulning qulayligi shundaki, u tortinchoq, o'ziga past baho beruvchi yoki turli sabablar bilan o'zini boshqalarga tanishtirishni istamaydigan ishtirokchilar bilan lanishuvni tashkil etishda juda qulaydir.

**3. Kartochkalar usuli** — har bir ishtirokchi trener tomonidan tarqatilgan maxsus kartochkaga o'zi to'g'risida nima ma'lumotni berishni istasa, o'shani yozadi. Kartochkalami tablichkaga o'xshatib hamma o'z oldiga qo'yib qo'yishi, oldiga yoki orqasiga ilib olishi ham mumkin. Hamma bir-birining kartochkasini o'qib o'zaro lunishadi.

Tanishuv qismida ishtirokchilar bir-birlarining ismini bilish bilan birga, har bir ishtirokchi o'zining ismi, hayotidagi muhim narsalar haqida o'ylab ko'rish va buni ovoz chiqarib aytish imkoniga ega bo'Tadi.

"Qor uyumi" o'yini orqali tashkil etiladigan tanishuvlarda esa guruhdagi qo'shnisining aytganini takrorlash uchun eshitishning, avniqsa o'zidan oldingi kishini eshitishming qiyinligini his qilish imkonи beriladij. Ko'pchihk ishtirokchilar o'zidan oldingi ishtirokchi nima deganligini eshitmaydi, chunki u eshitishdan ko'ra o'zi nima deyishi kerakligi haqida o'ylaydi. Muhokamada trener tomonidan ishtirokchi "diqqat markazida" bo'lganida o'zini qanday his qilganligi so'raladi.

Ko'pincha treninglarda tanishuv jarayonida ishtirokchilardan ismini aytish bilan birga muloqotga kirishish jarayoniga salbiy va ijobiy ta'sir etuvchi jihatlarini ham aytib o'tish so'raladi, bu ma'lumot trener uchun har bir ishtirokchining individual jihatlarini bilishga ham xizmat qiladi.

#### **4.3. Ishtirokchilarning kutishlarni aniqliash.**

Trening mashg'ulotiga kelayotgan har bir ishtirokchi o'z muamolarining hal bo'lishini kutib mashg'ulotga umid bilan kelishi sir emas. Buni bilgani holda trener tanishuvdan so'ng guruh a'zolarining har biridan treningdan nimalar kutayotganligini so'rab chiqadi. Bu qismning ahamiyatli jihat shundaki, ishtirokchiga o'z muammosini gapirtirishga dastlabki turtki berilishi bilan birgalikda trener ularning kutishlarini bilib olganidan so'ng shunga muvofiq o'zining dasturi va rejasiga o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

Kutishlarni aniqliash bosqichida guruh a'zolari aylana bo'ylab o'tir- ganlari holda o'zlarining treningdan nima kutayotganligini, o'zini xavo- tirga solayotgan holatlar yoki ularga yoqmayotgan jihatlar yuzasidan e'tirozlarini aytib chiqishlari so'raladi.

Trener barcha ishtirokchilarning fikrlarini ularga baho bermasdan, muhokama qilmasdan, hayron bo'T- masdan, xayrioxhlik bilan eshitishi va har bir ishtirokchiga o'z kutuvini boshqalar

bilan baham ko'rgani uchun minnatdorchilik bildirishi lozim.

Mana shu jarayonlar to'liq bajarib bo'linganidan so'nggina guruh ishlash uchun tayyor hisoblanadi va trener asosiy mashg'ulotlami boshlashi mumkin. Ya'ni asosiy bosqich - ishni olib borish bosqichiga o'tish mumkin bo'ladi.

#### **IV BOB BO‘YICIIA TOPSHIRIQLAR**

Nazorat savollari

1. Treningni birinchi kuni nechta bosqichdan iborat?
2. Guruhiy normalar nima chun qabl qilinadi?
3. Tanishuvda necha xil holat kuzatiladi?
4. Ishtirokchilarning kutuvarlari aniqlashdan maqsad nima?

Mustaqil ish mavzulari

1. Sheriklararo muloqot umatishda ijtimoiy-psixologik treninglaming zarurligini tahlil qiling
2. Trening jarayonida shaxsning mulokotchanligini oshirish muammosiga oid adabiyotlarga

taqriz yozing

Testlar

1. Har qanday treningni samaradoriigi... bog'liq.  
A) Trener tomonidart 1- kun qanday tashkil qilinishiga  
B) Ishtirokchilarning kimligiga  
V) Ishtirokchilarning kayfiyati yaxshiligiga  
G) Oradagi tanaffusning mavjudligiga
2. Guruxiy normalar qachon qabul qilinadi?  
A) Normalar xar kuni vaziyatga karab uzgartiriladi  
B) Treningni birinchi ktmida  
V) Trening boshlanishidan 1 kun oldin tayyorlanadi  
G) Normalar trening rejasi tuzilganda tuzilishi shart
3. Treningni birinchi kunida amaiga oshiriladigan qismlar to‘g‘ri berilgan qatorni aniqlang.  
A) Tanishuv, kutish, kuzatish  
B) intervyu, tanishuv, sir saqlash  
V) \*Kutish, tanishuv, guruhiy normalar  
G) Guruhiy normalar, sir saqlash, kutish
4. Tanishuv qismi qachon o’tkaziladi  
A) Ikkinci va uchinchi kun  
B) Faqat birinshi kun  
V) Oxirgi kun  
G) \*Birinshi kun va har kun boshida
5. Tanishuvni kim o’tkazadi  
A) Guruxdagilar  
B) Chetdan kelganlar  
V) \*Trener va yordamchisi  
G) Raxbarlar
6. Ishtirokchilarning kutuvalari qachon aniqlanadi  
A) Ikkinci va uchinchi kun  
B) \*Birinchi kun va har kuni kun boshida  
V) Faqat birinchi kun  
G) Oxirgi kun ;  
7. Ishtirokchilarning kutuvalari qachon oxirigi nuqtaga yetadi?  
A) Birinchi kun va har kuni kun boshida  
B) Ikkinci va uchinchi kun  
V) \*Oxirgi kun  
G) Faqat birinchi kun
8. Ishtirokchilarning kutuvarlari kim aniqlaydi

- A) Chetdan kelganlar
  - B) Guruxdagilar
  - V) \*Trenr va yordamchisi
  - G) Raxbarlar
9. Kutishlar bosqichida... nazarda tutiladi.
- A) Ishtirokchilarning bir-birini kutishi
  - B) Trener nimanikutayotganligi
  - V) ishtirokchilarning treningdan nima kutishi
  - G) Trenerning ishtirokchilardan nima kutishi

## **V. TENINGNIASOSIY BOSQICHI**

### **5.1.Trening mashg‘ulotlarini olib borish usullari.**

Treningni asosiy bosqichi bu trening mashg‘ulotlarining boshlang‘ich bosqichi tugaganidan to yakuniy bosqich boshlangungacha davom etadi. Bu davrda ishtirokchilar bilan asosiy ish olib boriladi. Mana shu jarayondaularning muammolari bilan ishlanadi va ular uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalami shakllantirishga qaratilgan ish olib boriladi.

S.Staut o‘zining “Trening o‘tkazish metodlari” deb nomlangan ilmiy ishida trening mashg‘ulotlari jarayonida qo‘llaniladigan faollik turlarini o‘zida mujassam ctgan quyidagi ro‘yxatni keltirgan: ma’ruza, demonstrasiya, individual maslahat, diskussiya, rolli o‘yinlar, muammoli holatlar to‘plami, trening o‘yinlari, kompyuter dasturli treninglar, interaktiv video dasturlar, mustaqil ta’lim uchun treninglar bo‘yicha qo‘Tlanma, konkret vaziyatlar (keys-bosqichlar), ish joyida instruksiya berish, dasturli ta’lim, proektni guruhlardagi ish va hokazo. Bu usullaming barchasidan treningda foydalanishni maslahat bergen muallifning fikriga ko‘ra bular o‘qitishning bir xil boimagan shaklda tashkil qilish uchun kerak bo‘ladigan usullar to‘plami bo‘lishi ham mumkin.

Har qanday trening mashg‘ulotlarini olib borishda samaradorlikka erishish uchun eng avvalo ishtirokchilar orasida samimiylig, ochiqlik, o‘zaro ishonch muhitini yaratish lozim bo‘Tadi. Bular amalga oshmasdan turib, treningdan ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Bunday muhitini yaratish esa boshlovchidan katta mahorat talab etish bilan birgalikda trening jarayonida qo‘llaniladigan usullarga ham bog‘liq bo‘ladi. Bunday usullar sirasiga "ta’limning noan’anaviy usullari" deb nom olayotgan va bizning ta’lim tizimimizga ham keng kirib kelayotgan usullar kiradi. Ular quyidagilardir: ma’ruza, aqliy hujum, bahs-munozara, psixogimnastik mashq, o‘yinlar, rolli o‘yinlar, psixodramma, SWOT - tahlil, guruhlarga bo‘lib ishlash, keys metodi. Bulardan tashqari maqsadga va vaziyatga qarab muammoli vaziyatlami tahlil etish usuli ham qo‘llaniladi.

Endi ushbu usullami har birini alohida-alohida yoritib beramiz.

### **5.2. Treningda “Ma’ruza” usuli va uni tashkil etish**

Eng umumiyo‘ ko‘rinishda ma’ruza - bu ma’ruzachi-trener tomonidan ma’lumotning verbal taqdim etilishi. Bunda ma’ruzachining vazifasi - o‘z bilimlarini guruhga yetkaza olishdan, guruhning vazifasi esa shu bilimlarni qabul qilish va yodda saqlab qolishdan iboratdir. Ma’ruza passiv jarayon hisoblanib, bu jarayonda guruh a ’zolarining bir-birlariga o ‘zaro ta ’sir ko‘rsatish imkoniyati bo‘lm aydi yoki ju d a kam bo‘lishi mumkin.

Garchi hozirda kompyuter texnologiyalari yuksak darajada rivojlangan bo‘lsada, zamonaviy treninglaming asosini ham ma’ruzalar tashkil etadigan holatlami ko‘rish mumkin. Shu jihatdan, aytish mumkinki, ma’ruzalar ayrim hollarda noto‘g‘ri va samarasiz qo‘llanilib kelinmoqda. Buning sababi ko‘pchilikning fikricha, ma’lum bir sohada juda keng doiradagi bilimlarga ega bo‘Tgan inson ushbu bilimlarni boshqalarga yetkaza olishga ham layoqatlidir, deb hisoblanadi. Lekin fan yuzasidan chuqur bilimga ega bo‘lishning o‘ziga ushbu bilimlarni qiziqarli va samarali yetkaza olish qobiliyatining ko‘rsatkichi hisoblanmaydi.

Barcha auditoriyalardagi kabi trening guruhalarda ham muvoffaqiyatli produktiv suhbat yoki ma’ruzaning asosi - ishtirokchilar bilan barqaror aloqa o‘matish hamda ushbu sohadagi kompetentlikdir. Bunday uyg‘unlik ma’ruzani monologga aylantirmaslikni kafolotlaydi, shuningdek uni qiziqarli jarayonga aylantirishga imkon beradi.

Bunday yondoshuvni muvaffaqiyatli qo'llash uchun har qanday trener yaxshi ma'rutzachi uchun zarur bo'lgan quyidagi malakalami o'zida rivojlantirishi lozim:

1. Auditorianing ehtiyojlarini aniqlash. Guruh bilishi lozim boigan ma'lumotning chegaralarini oldindan aniqlab olish zarur. Lekin bu oson ish emas, negaki, ko'pincha aynan bitta dasturga kelgan kishilaming har birida o'ziga xos kutishlar, ustanovkalar va ehtiyojlar mavjud bo'ladi. Malakali trener aynan shu qiziqishlaming kesishish sohalarini topishi hamda ushbu ehtiyojAMI maksimal darajada qondiruvchi usulda treningni o'tkazishi lozim.

2. Trening natijasida ishtirokchilar erishadigan natijalami ulaming manfaatlariga mos kelishini tushuntirib bera olish. Chunki har qanday inson qachon biror narsadan manfaatdor boTishiga ishonch hosil qilsa, o'shandagina treningda qiziqib ishtirok etadi. Bunday manfaatlar ishtirokchilar uchun moddiy manfaatlar cmas, balki kasbiy o'sish, oila va ishdan qoniqish darajasining ortishi, atrofdagilar tomonidan tan olinish kabilar bo'lishini ularga tushuntira olish lozim.

3. Bilimlar darajasini tekshirish. Shuni hisobga olish lozimki, trening ishtirokchilari kuchli qiziqish va yuqori motivasiyaga ega bo'lsalarda, o'zları lushunmagan narsalami hech qachon o'rgana olmaydilar. Shuning uchun trener ina'ruzadan oldin ulaming bilim darajasini aniqlab olishi zarur. Bilimlaming darajasini tekshirish o'zida ikkita elementni saqiyaydi. Bulami trener albatta hisobga olishi zarur. U l a r :

A) Trener avvalo guruh ishtirokchilari kimlardan tashkil topganligini, ya'ni ular shunchaki qiziqish asosida kelgan insonlarmi yoki o'z faoliyat sohasida ma'lum bir obro'ga va maqsadga ega insonlarmi ekanligini bilib olishi kerak. Bunday ma'lumotga ega boTish trenerga ma'ruzani qanday murakkablikda tashkil etishni aniqlash imkonini beradi.

Agar ishtirokchilaming bilim darajasi juda past bo'Isa, u holda trener auditorianing e'tiboridan butunlay mahrum boTishi mumkin.

Agarda aksincha holat bo'lib, trener guruh uchun beriladigan ma'lumotni juda ko'paytirib yuborsa, guruhni zeriktirib qo'yishi mumkin. Shuning uchun u aynan "oltin nuqta"ni topishi zarur.

B) Trener guruhning idrok etish va qabul qilish xususiyatlarini hisobga olishi lozim. Ma'ruba jarayonida jargonlar va o'ta professional so'zlar, atamalami qoilamaslik kerak. Maxsus terminlardan foydalanish lozim bo'lgan vaziyatlarda esa, albatta ulaming ma'nosini osonroq tushuntirib berish lozim.

Ishtirokchilar tomonidan ma'lumotlaming yaxshi idrok etilishi va o'zlashtirilishi uchun quyidagi usullami qoTlash mumkin:

- Materialni tizimlashtirish.

Mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishga sarf qilingan vaqt hech qachon zoe ketmaydi, ya'ni ma'ruzani tizimlashtirishga ketgan vaqt ishtirokchilar xotirasida qabul qilingan ma'lumotning saqlanib qolinishini yaxshilashi mumkin.

• Ma'ruba ketma-ketlik asosida tuzilgan boiishi lozira. Agar berilayotgan maiumot murakkab boisa, u holda trener har bir qadamni o'ylab, ma'lumotni guruhga asta-sekin yetkazishi kerak. Agar materialni qo'shimcha ma'lumotlar bilan mustahkamlash zarur boisa, o'rganilayotgan mavzuning tarixiy asoslarini ham ko'rib chiqish kerak. Ma'lumot yaxshi o'zlashtirilishi uchun uni bir necha qismlarga boiib olish zarur.

- Ma'lumotni mustahkamlash.

Ma'ruzaning asosiy joylarini takrorlash zarur. Bunday qilish ma'ruzaning asosiy bandlarini aniqlashtirishga va ulami yana bir karra ta'kidlab o'tishga yordam beradi.

##### 5. Guruhning diqqat konsentrasiyasini hisobga olish.

Mutaxassislar diqqat konsentrasiyasining optimal davri 20 daqiqa ekanligini ta'kidlashgan, ammo ba'zida bu vaqtini 40 daqiqagacha uzaytirish mumkin. Bunda ma lumotni yetkazib berish uslubi, tempi bevosita rol o'ynaydi. Bu jarayonda trenerga quyidagi maslahatlar asqotishi mumkin: ma'lumotni tizimlashtirishning eng oson usuli - uni quyidagi uchta blokka ajratib olishdir:

> Kirish

> Asosiy qism

^ Xulosa Kirish qismi quyidagi ma'lumotlar o'z ichga oladi:

- Trener kim?

- U nima uchun bu yerda?
- Nima uchun aynan shu trener ushbu guruh bilan mashg'ulot olib borayapti?
- Guruhga murojat etishning maqsadlari o Trening mavzusining dolzarbligi
- Mashg'ulot so'ngida ishtirokchilar erishadigan natijalaming ulaming manfaatlariga mosligi.
- TaTimning rejalashtirilgan strukturasi
- Ishchi tushunchalami aniqlash va kiritish
- Rejadagi berilishi lozim boTgan bilimlar va mavzuning qisqacha tarixi

Asosiy qism o‘z ichiga treningni asosiy jihatlarini qamrab oladi. Ularning har biri ketma-ket muhokama etiladi.

Xulosada o‘tilgan mavzuning tahlili, mavzuning asosiy jihatlarini takrorlash, o‘tilgan mavzu bilan ishtirokchilaming keyingi faoliyatini bogTovchi natijalami umumlashtiriladi.

Ma’ruza uchun material tanlash. Materialning saralab tanlab olinishining qo’shimcha afzalligi shuki, oson va qiziqarli material guruhni jonlantiradi. Bu esa berilayotgan ma’lumotning o‘z “manzil”iga yetib borganidan dalolat beradi. Odatiy gap-so‘zlar tez unutiladi, aksincha emotsiyalarga boy, mulohazaga undovchi so’zlar uzoq vaqt davomida muhokamaning asosi bo‘lib qolaveradi va yana yangi g’oyalaming paydo boTishiga asos boTadi. Buning uchun materialni murakkablashtirish shart emas, shunchaki umum qabul qilingan nuqtai nazarga qarshi bo’lgan argument (asoslar)ning boTishi kifoya.

Ma’ruzani bayon etish dinamikasi. Ma’lumotni dinamik va dramatik bayon etish - aynan bir xil jarayon emas. Salbiy emas, balki ijobjiy jihatlarga urg’u berish zarur. Berilayotgan ma’lumotlar entuziazm quvvatini olib kelishi va auditoriyani jonlantirishi kerak (Buning uchun quyidagiga o’xshash iboralami qoilash maqsadga muvofiq: “Bir qiziqarli savol bor - ki...”; “Ishonchim komil, sizlaming ko’phililingizga qiziq - ki . . . ”En g qiziqarli ixtirolardan b i r i... ”). Quyidagi usuldagagi jumlalar esa guruhga boTgan salbiy munosabatni bildirib turadi: “Men ... deb hisoblayman”, “A gar sizlar shunga qodir boTganingizda e d i . . . ”.

Guruhning diqqatini jalb etishning eng samarali usullaridan biri ritorik savollar berish hisoblanadi. Bunday savollar javob berishni talab qilish maqsadida emas, balki so’zlovchining fikrlashini rivojlantirish maqsadida beriladi. Shunday savollarga misollar: “Bunday vaziyat har birimiz bilan boiishi mumkin”, “Sizlar ham balki qachondir shunday qilishni istagan boiishingiz mumkin - ku?”, “... boigan paytlarda sizning kayfiyatningiz ko’tariladi, to’g’rimi?” bu kabi savollar guruhiy tafakkur larayonini stimullashtiradi hamda ko’pincha ishtirokchilaming diqqatini tortadi.

Vizual qoilab-quvatlash. Ishtirokchilaming qiziqishini oshirish uchun qoilaniladigan yana bir metod ma’mzaning asosiy jihatlarini turli illyustrasylar bilan o’tkazish. Slaydlar, yozuvlar, flip-chartlardan foydalanish qo’shimcha stimul hisoblanadi. Chunki u ko’rish idrokini chaqiradi va javob reaksiyasini chaqiradi.

Trening guruhlarda ma’ruza metodining afzalliklari:

- > Katta guruhlarda ishslashning qulay usuli.
- > Katta xarajatlami talab yetmaydi.
- > Mazmunini tizimlashtirish mumkin.
- > Mazmunini nazorat etish mumkin.
- > Vaqtini aniq taqsimlashning imkonini mavjud Ma’mzaning kamchiliklari: > Qabul qilishning passivligi
- > O’zaro ta’siming mavjud emasligi
- > Trenerga talablaming ko’pligi (treneming shaxsiy sifatlariga qo’yiladigan jiddiy talab);
- > Ma’ruza mas’uliyatli jarayon bo‘lib, trener va auditoriyadan o zisha yarasha kuch-quwatni talab etadi.

### **5.3. "Aqliy hujum" (breystorming) usuli**

Trening jarayonida eng ko’p qo’llaniladigan usullardan biri Aqliy hujum usulidir. Aqliy hujum munozaraning eng erkin shakli hisoblanadi. Bu usulning asosiy vazifasi — g’oyalar generasiyasini ta’minlashdan iborat boTib, ishtirokchilar taklif etayotgan fikr va qarorlar hech qanday tahlilsiz va muhokamasiz qabul qilinadi. Bu shunday usulki, ta’limdagidan farqli o’Taroq, muhokama qilinayotgan mavzu yuzasidan har bir ishtirokchi o‘z fikrini va qarashlarini bildirishi

shart. Trener esa har bir javob variantlarini diqqat bilan tinglashi va e'tirozsiz qabul qilishi zarur.

Bunda muhimi bildirilayotgan fikrga balm berish emas, balki ulaming hammasini qabul qilish va har bir ishtirokchi aytayottan fikmi doska yoki flipchart qog'ozga yozib borishdir. Aynan shu usuldan treninglarda juda ko'p foydalaniladi. Chunki bu usul ishtirokchilaming o'z mustaqil fikrini bildira olishining eng qulay yo'lidir. Bu usuldan trening mashg'ulotining boshidayoq foydalanish maqsadga muvoftqidir. Ayniqsa, guruh kayfiyatini bilish, ulaming bilim darajasini aniqlab olish va treningdan nima kutayotganliklarini bilib olishda "Aqliy hujum" - eng qulay usul hisoblanadi. Aqliy hujum natijasida olingen ma'lumotlar guruh bilan olib boriladigan keyingi ishlar uchun yo'llanma bo'lishi mumkinligini ham trenerlar unutmasliklari kerak. Ya'ni guruhning keyingi ishlari jarayonida guruhning yoki aynan kimningdir awalgi bildirgan fikriga qaytish, aynan guruhning vakuniy xulosasiga qarab ish yo'nalishini o'zgartirish kabilalar shular jumlasidandir.

Bu usulning trening jarayonida foydali jihatlari ko'p boiib, u ayniqsa quyidagi hollarda juda qo't keladi:

- nozik va munozarali savollami muhokama qilish uchun;
- o'ziga ishonmaydigan ishtirokchilami munozaraga tortish va ulami qiziqtirish uchun;
- qisqa vaqt mobaynida ko'proq fikr yig'ish uchun.

"Aqliy hujum" usulining muvaffaqiyati ikkita asosiy prinsipga amal qilinishiga bog'i. Birinchi prinsip, energetika nazariyasi bilan bog'iqdirdi. Uning mohiyati quyidagicha: insonlar individual holda ishlagandagiga nisbatan guruhiy, birgalikdagi faoliyatda ijobjiy va yaxshi g'oyalar tez va oson paydo bo'tadi. Negaki guruhda kimdir tomonidan bildirilgan "yaroqsiz" g'oya butun guruh tomonidan qo'shimcha fikrlar bilan to Idiriladi va qayta ishlab chiqiladi. Demak, bu prinsipga asosan, gurubdagilaming fikrlariga "hujum" qilinsa, ulardan yaxshi va original g'oyalar ko'p chiqadi.

Ikkinci prinsipga ko'ra, agar guruh g'oyalar generasiyasi holatida bo'lsa, u holda o sha kreativ tafakkumi turli sabablar bilan to'xtatish kerak emas. Chunki bunday holat yangi-yangi g'oyalaming yuzaga kelishiga asos boiadi.

Aqliy hujumning afzallikkabi:

- Ijodiy tafakkurni rivojlantiradi
- Standart tafakkur chegaralaridan chiqib ketishga imkon beradi
- Oddiy, lekin chiroyli g'oyalar yuzaga kelishi oson amalga oshadi.

Aqliy hujumning afzallikkabi qatoriga yana uning oson tushuniladigan va oson qoilaniladigan usul ekanligini hamda u yuqori texnologiyali asbob-uskunalami yoki uzoq muddatli o'qitishni talab qilmsligini, shuningdek uning natijalarini osonlik bilan baholash mumkinligini ham qayd etish mumkin.

Aqliy hujumning o'ziga xos kamchiliklari ham mavjud bo'lib, ular:

Ishtirokchilaming qatnashishida noqulayliklar mavjudligidir, ya'ni "Aqliy hujum" da guruhning barcha a'zolari qatnashishlari shart bo'I gam uchun fikr bildirish jarayonida gapirmaydigan, tortinchoq ishtirokchilar o'zlarini noqulay his qilishlari yoki hech kimda taklif, fikr, g'oyaning bo'lmasligi guruh va trenerning noqulay sukunatda vaqt o'tkazishiga olib kelishi mumkin.

Aqliy hujum treningda muammolarni hal etish, qaror qabul qilish, ijodiy tafakkumi rivojlantirish maqsadida qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir. U ishtirokchilarda tinglash ko'nikmalarini rivojlantiradi va jamoani tuzishda foydali bog'lovchi elementni ta'minlaydi. "Aqliy hujum" usulini o'tkazish o'ziga xos bosqichlarga bo'linadi va bu bosqichlarga amal qilish har bir trenerdan talab etiladi.

"Aqliy hujum"ni o'tkazish bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Trener "Aqliy hujum" mavzusini tag'dim qiladi.
2. Tag'dim qilingan mavzu yuzasidan fikr-mulohazalarini o'ylab olish uchun ishtirokchilarga vaqt beriladi.
3. Tag'dim qilingan mavzu yuzasidan fikr-mulohaza bildirish uchun ishtirokchilarga imkon beriladi.
4. Bildirilgan barcha fikr-mulohazalar maxsus qog'oz yoki doskaga yozib boriladi.

5. Muhokama yakunida guruhda turli fikrlilikdan yagona fikrga kelinadi.

Shuningdek, aqliy hujum usulini o'tkazishning 3 ta qoidasi ham mayjud:

1. Barcha fikrlami e'tirozsiz qabul qilish va har bir ishtirokchiga aytilgan fikri uchun minnatdorchilik bildirish.

2. Fikrlami yozib olayotganda birorta ham fikrni tashlab ketmaslik, ya'ni har bir ishtirokchi bildirgan fikmi albatta yozib borish.

3. Bildirilgan fikrlami yakunlash va yagona qarorga kelish uchun har bir ishtirokchidan uning rozi yoki rozi emasligini so'rash shart.

"Aqliy hujum"ning samaradorligi uchun albatta ana shu qoidalarga rioya qilish lozim. "Aqliy hujurri'ning asosiy qoidasi — bildirilgan barcha g'oyalarni hech bir e'tirozsiz qabul qilishdir. Shu sababli trener ishtirokchilar tomonidan bildirilgan fikrlami diqqat bilan tinglab borishi va yo'naltirib turishi lozim. Bu qoidaga amal qilmaslik guruh kayfiyatining tushishi va o'zaro ishonch ruhining so'nishiga olib kelishi mumkin.

Trener ishtirokchilar tomonidan bildirilayotgan taklif va fikrlami yozib olayotganda e'tiborli boTishi va ulardan birortasini ham tushirib qoldirmasligi kerak. t hunki ba zan ishtirokchi o'z tortinchoqligini yoki o'zidagi uyalish hissini yengib, fikrini hayajon bilan bildiradi va o'zi bildirayotgan fikr barchaning diqqatini tortadi liamda muhokama qilinayotgan fikrlar ichida eng yaxshisi boTadi, deb ishonadi. Agar uning fikriga trener yoki ishtirokchilar tomonidan ozgma e'tiborsizlik qilinsa, u buni Menga e tibor qilishmadi, demak mening fikrim ulami qiziqtirmaydi", degan ma'noda tushunishi va "ichimdan top", "indamaslik" kabi "kasallik"lariga chalinib qolishi ham mumkin.

Bildirilgan barcha fikrlami ma'lum bir guruhga va shaklga keltirish bosqichiga o tayotganda boshlovchi albatta ishtirokchilardan uning fikriga rozi yoki rozi emasligini yoxud boshqacha tushunib qolmaganligini so'rashi kerak, agar norozilik yo'ki tushunmovchiliklar boTsa, bunga albatta aniqlik kiritish lozim bo'ladi.

Aqliy hujumning natijasi — turli xil g'oyalar, fikrlar, mulohazalar yig'indisidan yagona fikrga kelish boTsa, asosiy maqsad - ishtirokchilaming faol ishslashini la minlashdan iborat. Shuning uchun trening davomida aqliy hujum natijalariga tez- ioz murojaat qilib turish kerakki, bunda ishtirokchilar o'zlarining faol harakatlari uatijasini, ulardan keyinchalik ham foydalanilayotganligini ko'rishlari kerak, bu esa ularda "Nima keragi bor edi, bu gaplaming?" kabi savollar tug'ilishining oldini oladi.

#### **5.4. Bahs-munozara usuli.**

Hozirgi zamon ta'lim jarayonida keng qoTlanilayotgan noanaviy ta'lim usullaridan yana biri bahs-munozara usulidir. Bu usui trening mashg'ulotlarida ham yaxshi samara berishi ko'pgina mutaxassislar tomonidan qayd etilgan. Bu usulning ma'nosи - trener va ishtirokchilar O'rtasida fiklar, qarashlar, bilimlammg erkin holda verbal ayiriboshlashuvadir.

Baxs-munozarani katta guruhlarda o'tkazsa ham boTadi, lekin u kichik guruhlarda, ayniqla trening gumhlarida o'tkazilsa ko'proq foyda beradi. Muammoni gumhda muhokama qilish ishtirokchilarga nafaqat o'zaro fikr almashish, balki muhokama etilayotgan mavzu haqida aniq ma'lumotlar olish, o z hissiyotlari va nuqtai nazarlarini ifoda etish imkoniyatini ham beradi. Bahs-munozara boshlanishidan oldin trener tomonidan muhokama etiladigan mavzuga doir biror-bir hikoya yoki voqeа aytib berish ishtirokchilarda uning "ildizi"ni ilg'ab olishga turtki bo lishi bilan birga munozara jarayonining yaxshi o'tishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Munozara — trening usuli sifatida, faqat bitta savol yoki mavzu bilan cheklanadi hamda ma'lum bir tartibda tuziladi. Eng muhimi shuki, har bir ishtirokchi o z nuqtai nazariga ega bo'lishi va boshqalaming fikrlarini hurmat qilishi shart. So'zlayotgan ishtirokchining gapini bo'lib qo'yish ta'qylanadi. Ko'p hollarda munozaralar emosonal sohani qo'zg'atib qo'yishi mumkin, ammo bu holatni bahslashuvga aylanib ketishiga yo'l qo'yish kerakmas. Hamma ishtirokchilar umumiy maqsadlarga erishishga intilganlaridagina munozara amalgalashish mumkin. Munozara samarali boTishi uchun ishtirokchilar bazaviy bilimlarga ega bo'lishlari kerak. Bu bilimlar ireningda ishtirok etishdan oldingi hayotiy tajribadan olingan bo'lishi yoki dastur talablariga taqdim etilgan ma'lumotga tayangan bo'lishi mumkin. Bu usuldan foydalanish jarayonida vaqtning taqsimlanishi

va tayyorgarlikka alohida e tibor qaratish lozim. Trener munozarani boshlashdan avval ishtirokchilarga vaqtning cheklanganligini va bahslashish uchun qancha vaqt ajratilganligini aniq aytishi kerak. Chunki vaqtning cheklanishi muhokamaning tempini oshiradi va uni jonlantiradi. Bu esa munozaraning qizg'in o'tishi va zaruriy xulosalarga erishishni kafolatlaydi.

Bahs-munozarani tashkil etishdan oldin uni rejalashtirish ham katta ahamiyatga, ega. Munozaraning barcha jihatlarini oldindan rejalashtirib bo'lmaydi. Ammo mavzuning taxminiy eskiz (chizma)larini tayyorlab qo'yish mumkin. Unda:

- Mavzu bilan tanishtirish;
- Munozaraning chegaralarini o'rganish,
- Munozaraning maqsadini demonstrasiya (namoyish) qilish
- Munozaraning mavzusiga oid qo'shimcha maTumotlami taqdim etish.
- Munozarani boshqarish uchun bir qator asosiy savollami tayyorlab qo'yish.

Trener bu jarayonda ijobjiy muhitni yaratish uchun mas'uldir. Istalgan mavzudagi baxs-munozarani o'tkazishda trenerning roli vositachi roliga juda yaqin turadi. Trener guruhni asta-sekin munozaraga olib kirishi lozim. Bunda u ochiq savollardan loydalanishi maqsadga muvofiq. Ishtirokchilar o'rtasida o'zaro fikrlar almashinuvি boshlanganidan so'ng esa trener munozarani hech kirdi tomonidan monopollashtirilmasligini, ya'ni hech kimning yakka hokimlik, ustunlik qilishga Itarakat qilmasligini ta'minlashi kerak. Agar keltirilayotgan ma'lumotlar shubhali bo Isa, u holda trener so'zlovchidan izoh so'rashi, yoki juda yuzaki aytib o'tilgan likrlarga oydinlik kiritishni so'rashi lozim. Trener, muhokama etilayotgan savollaming barchasi mavzuga oid bo'Tishini hamda guruhlaming mavzudan chetga chiqib ketmaslini nazorat qilishi zarur. Munozara so'ngida trener guruh tomonidan aytilgan bandlami umumlashtirishi hamda erishilgan xulosalami yakunlashi kerak.

Trening guruqlarida bahs-munozara o'tkazayotganda qoida sifatida i|uyidagilami e'tiborga olish kerak:

- Biror ishtirokchi o'z fiknni bayon etayotganida boshlovchi uni bo'lib qo'yishga yoki uning fikri noto'g'riligini isbotlashga va o'zming so'zini o'tkazishga harakat qilmasligi kerak. Chunki bu beriladigan keyingi savolga butun guruhning yoki ko'pchilikning javob berishdan bosh tortishiga olib kelishi mumkin.

- Savol berilganidan so'ng ishtirokchilami shoshiltirmaslik, javobni o'ylab olishlari uchun vaqt berish lozim. Lekin bunda ular berilgan savol ustida ko'p o'ylanmasliklariga ham e'tibor berilsa, mashg'ulotning bir xil tempda va qiziqarli o'tishiga sharoit yaratiladi.

- Trener iloji boricha "ha", "yo'q" javoblariga eltuvchi savollar bermaslikka harakat qilishi lozim.

- Ishtirokchilami gapirtirish uchun savollar tushunarli, aniq va lo'nda tuzilgan bo'lishi kerak.

Muayyan masalalarda guruhiy munozaralardan foydalanish muammoning turli yechimlarini topishda asqotadi. Munozara ishtirokchilaming muhokama qilinayotgan mavzuga qiziqishini oshiradi, ularga o'z fikrini bayon qilish va boshqalaming fikmi eshitishiga imkon beradi. Bundan tashqari, munozara davomida muammo yechimining turli yo'llari topiladi, guruhning birlashishiga va o'zaro mustahkamianishiga asos solinadi.

Treningda guruhiy munozara har bir ishtirokchining muayyan nmsalaga oid tushuncha va qarashlarini aniqlab olish usuli sifatida ishlataladi. Misol uchun, ishtirokchilaming "Oilaviy hayot va mas'uliyat", "Oilada sevgi va jinsiy munosabatlar", "OITSga ongli munosabat", "Er-xotin munosabatida nizoli vaziyatlar" kabi mavzulardagi fikrlarini bilish qiziqarlidir. Shunda muammo yechimlarini topish ham osonlashadi.

### **Munozara metodining afzalliklari:**

A) Tushunilganlikni namoyish etish.

Munozara metodi guruh a'zolarining muhokama etilayotgan muammo yoki mavzuni qay darajada tushunishini ko'rsatib beradi. Shuningdek, bu usul guruh a'zolariga o'z nuqtai nazarini, ustanovkalarini yana bir bor tasdiqlashga yoki inkor etishga imkon beradi. :

B) Bilimlaming faol tarzda uzatilishi.

Munozara metodi ma'ruzaga nisbatan ancha uzoq muddatli foyda beradi. Xususan,

muhokama qilinayotgan mavzu yuzasidan guruhdagi ishtirokchilarda qarama-qarshi ustanovkalar, fikrlar, qarashlaming bo'lishi munozara metodida juda qo'l keladi. Boshqalaming fikrlari bilan kelisha olmayotgan insonlarga ma'ruzaga nisbatan munozara ko'proq ta'sir etadi.

V) Faol o'zaro munosabat.

Bahs-munozara guruhning yuqori faollik darajasini talab etadi. Kundalik hayotdagi odatiy hollarda ba'zi kishilar muhokamalarda ishtirok etmasligi tabiiy hoi, bunday kishilar trening guruhlarida ham mavjud bo'ladi. Lekin muhokama etiladigan mavzu guruhga mos holda tanlangan bo'lsa, u holda yakkalanib qolgan ishtirokchilar ham beixtiyor munozaraga qo'shilib ketadilar.

Munozara metodining kamchiiiklari:

A) Mavzudan chetlanib ketish ehtimoli ko'p boMadi.

Berilgan mavzudan uzoqlashish, butunlay boshqa mavzuga o'tib ketib qolish hollari ko'p bo'ladi. Shuning uchun guruhnini kerakli yo'naliishda ushlab turish uchun munozara boshlanishidan oldin asl muammoni va munozara shartlarini takrorlab o'tish zarur.

B) Kuchli guruhga tobe' bo'lib qolish.

Munozaraning sifati ma'lum darajada guruh a'zolarining bilim va tajribalari bilan belgilanadi. Shuning uchun trening ishtirokchilarining tanlovini amalga oshirishda taxminan teng (imkoniyatlari) ishtirokchilami yig'ishga ahamiyat berilishi lozim. Aks holda bahsni o'z qo'liga olgan guruhning fikriga qolgan guruh a'zolari ham tobe bo'la boshlashlari mumkin.

V) Noto'g'ri pozitsiyaga qattiq ishonib qolishi mumkin.

Munozara kimningdir narsa-hodisalarga turlicha nuqtai nazar bilan qarashiini ifodalashga imkon yaratadi. Ammo shunday bo'iishi ham mumkinki, guruh a'zosi o'z shaxsiy fikriga bildirilgan qarama-qarshi fikr oldida noiloj qolib, noto'g'ri fikmi astoyidil himoya qilayotgan guruh yoki ishtirokchiga ishonib qolishi ham mumkin. Trening jarayonida trener munozara o'tkazishning quyidagi bosqichlarini bilishi lozim:

1. Yo'naltirish bosqichi — bunda munozara mavzusi tanlanadi, maqsad aniqlanadi, ishtirokchilar tomonidan bildirilgan tushuncha, fikr, mulohazalar asosida ish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar yig'iladi.

2. Vaqtni boshqarish bosqichi — bunda trener mavzuni e'lon qilish, ish shakiini tushuntirish va zaruriyatga qarab ishtirokchilaming fikrini yo'naltirib turish uchun vaqtni oldindan taqsimlashi zarur.

3. Baholash bosqichi — muhokama davomida barcha fikrlami eshitib bo'Tgandan so'ng, ulami tartib bilan asosli tarzda va hamkorlikda baholash juda muhimdir.

4. Tugallash bosqichi — bunda munozara yakunlari sarhisob qilinadi. Guruhiy munozara jarayonida trener guruhda ishonch muhitini yaratish uchun mas'uldir. Shuning uchun u bir paytning o'zida ikkita rolni — ham trener, ham ishtirokchi rolini o'tashga burchlidir. Va oxirida trener yagona xulosani e'lon qiladi, ishtirokchilarga minnatdorchilik bildiradi.

Trening jarayonida ahs-munozara usuli ishtirokchilami yanada yaqindan bilish imkonini ham beradi, bu ishtirokchilar orasidagi o'zaro munosabatlarga vu treneming ular bilan munosabatlariga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Bahs-munozarani tashkil etish, o'tkazish va ayniqsa, uni yakunlashda trenerdan katta mahorat hamda psixologik savodxonlik talab etiladi.

### 5.5. "Keys metodi"

So'nggi yillarda trening kurslarida keys metodidan foydalanish ommalashmoqda. Ko'pincha ushbu metodni qoilashda ishtirokchilarga qandaydir vaziyatlaming tanlovini amalga oshirish taklif etiladi. Bu vaziyatlar hayotiy yoki tasavvurdagi vaziyatlar bo'lishi mumkin.

Keys metodi qoilanilishining asosiy 3ta variant! mavjud:

1. Muommoni diagnostika qilish

2. Bir yoki bir nechta muommoni diagnostika qilish hamda ishtirokchilaming ularni hal etish usullarini ishlab chiqish.

3. Muommoni hal etish borasida amalga oshirilgan ishlaming ishtirokchilar tomonidan baholanishi (muommo va uning hal etilishi yohiqnomada ko'rsatilgan boidi).

Hal etishning mos varianti tanlanganidan so'ng keys metodini bir masala yoki masalalar to'plami uchun qoilash mumkinligi aniqlanadi. Ushbu masalalaming murakkabligiga qarab bu

metod 30-60 daqiqalik qisqa mashq ko‘rinishida yoki ancha keng hajmda o’tkaziladi. Ba’zi holatla Tda birorta muhim vaziyatni o‘rganish uchun bir necha kun davom etuvchi kurs o‘tkazilishi ham mumkin. Ushbu variantlarning har birida trening mashg’ulotidagi ma’lumotlar muammo ko‘rinishida beriladi. Ushbu ma’lumotlar dokumental shaklda (masalan, xabar) yoki verbal, vizual vositalar yordamida taqdim etilishi mumkin.

Maslahatlar:

> Kerakli (mos keluvchi) materialni tanlab olish.

Keys metodi uchun tanlab olingan material muommolami aks ettirishi kerak. Bu muommolar bilan ishtirokchilar reallikda to‘qnashishlari mumkin. Material ma’lumotlari hajmi ortib ketsa guruh ishtirokchilari qynalib qoladilar. Qo‘srimcha ma’lumotlami har doim kechroq taqdim etish mimkin boidi.

> Alternativlaming mavjudligi.

(“Altemativ” - “o‘rnini bosuvchi”, “zaxira” kabi ma’noni bildiradi) Tanlab olingan masala yetarlicha keng hajmli boiishi darker. Masalaning turli yechimlari boiishi kerak. Faqatgina bitta “to‘g‘ri” javobga ega boigan muommolar ushbu metod uchun kam samarali hisoblanadi. Guruh qanchalik katta bois, mashg’ulotni o‘tkazish shunchalik noqulay boidi. Keys metodi yordamida optimal (maqbul) natijalami olish uchun guruhdagi ishtirokchilar sonini ontagacha chegaralash kerak. Agar guruh katta bo‘lsa, uni bir nechta mayda guruhchalarga boiish lozim. Har bir guruheha berilgan muomonning bitta jihatli bilan shug‘ullanadi. Muammoni raqib jamoaga nisbatan tezroq hal etishni har bir guruhga taklif qilib, bu metodga musobaqa elementini kiritish mumkin.

Keys metodining afzallikkari:

- Realizm

- Bosimning minimallashtirilishi.

Keys metodi yordamida murakkab, emosonal muhim masalalami real hayotdagi tavakkalchiliklar ostida emas, balki qulay trening sharoitlarida hal etishni o‘rganish imkoniyati paydo boidi.

-Faol o‘zaro ta’sir.

Keys metodining kamchiliklari:

-Yechimga olib boruvchi har bir qadamni aniqlash, tahlil qilish va chandalashni o‘rganish keys metodining eng katta afzallikkalaridan biri hamda shu vaqtning o‘zida uning kamchiligi hamdir.

Treningda muammoni yecha olgan kishi real hayotda uni yecha olmasligi ohumoli katta. Chunki real hayotda unga yetarlicha vaqt, bilimlar va xavfsiz sharoitlar yaratilib berilmagan boidi. Bulaming barchasini ishtirokchilarga tushuntirish lozim. Chunki ular o‘z ish joylarida uchraydigan muvaffaqijutsizliklarga tayyor boiishlari kerak.

-Xulosalaming boimasligi.

Vaqtinchalik boigan ramkalar guruhga qandaydir arnaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon yaratib bermaydi. Shuning uchun bulaming barchasi guruhda umumiyoq qoniqmaganlik tuyg‘usining paydo boiishiga sabab boidi.

- Ishonchlik.

Reallikka ehtiyoj - keys metodining zaruriy shartidir. Bu metod yordamida bajariladigan mashg’ulotlar real vaziyatdagidek bo‘lishi shart.

Qo’llanilishi. Metodni kichik guruhlarda yoki katta guruhniga guruhchalarga bo‘lgan holda qo‘llash mumkin. Ushbu metod analistik qobiliyatni rivojlantirishga yo‘na!tirilgan dasturlarda ko‘proq samarador hisoblanadi. Bu trening qarorlar qabul qilishdagi muammolami hal etish uchun, muzokaralami olib borishdagi muammolami, xodimlar jamoasi (personal) bilan o‘zaro munosabatdagi muammolami hal etish uchun o‘tkaziladi.

Qo’llanilishdagi boshqa sohalar:

• menejment (boshqaruv)

• savdo ishi

• ma’muriyat

“SWOT - Tahlil (Kuchli tomonlari, kuchsiz tomonlari, imkoniyatlar, xayjarlar)” usuli. Bu usul aqliy hujumning strukturasiga qo‘srimchadir. Buning uchun filip-chart qog‘ozni to‘rt qismga bo‘lib

va ularga muhokama qilinayotgan mavzimining kuchli, kuchsiz tomonlari; imkoniyatlari va xavfli jihatlarini yoritish topshrig'i beriladi. Masalan, biznes sohasiga oid mavzuni tahlil qilish uchun guruh biznesning kelajakdagi imkoniyatlari muhokama qilinishi mumkin.

Kuchli va kuchsiz tomonlar ko'p hollarda ichki omillar sifatida qabul qilinadi, imkoniyatlar va xavfli tomonlari esa tashqi omillar sifatida muhokama qilinadi. Yuqoridagi qismlar aniqlangandan keyin, kichik guruhlar shu qismlar ustida ishlashi mumkin.

## V BOB BO‘YICHA TOPSHIRIQLAR

Nazorat savollarri

1. Treningda qo'l liganligidan asosiy sullami sanang

2. Ma'ruza usuli nima chun kerak?

3. "Aqliy hujum" usulining qulayliklari nimalardan iborat?

4. "Bahs-munozara"ni tashkil etish bosqichlarini aytib bering

Mustaqil ish mavzulari

1. Ma ruza usuli asosida shaxsni barkamollashtiruvchi treninglarga tahlil yozing

2. "Aqliy hujum" usulidan foydalanish yuzasidan tahlil yozing

3. "Baxs-munozara" usulidan foydalanib, ma'lum bir mavzuni tahlil qiling

Testlar

1. Ishtirokchilar o'rtaida to'siqni olib tashlash maqsadida qaysi usul qo'llaniladi

A) Aqliy hujum

B) \*Muzyorar

V) Intervyu

G) Baxslashish

2. Nima uchun Uzbek mintalitetida kartochkalar yelkaning orqa qismiga qadaladi?

A) \*Xijolatchilikni keltirib chiqarmaslik uchun

B) Tartib shunday bulgani uchun

V) Buni mintalitetga aloqasi yo'q

G) Chunki yelkaning oldini qismida boshqa yorliqlar yopishtirilgan bo'ladi

3. Ishtirokchilar orasida samimiylilik, ochiflik, o'zaro ishonch muhitini yaratish nima uchun kerak?

A) Muammolami hal qilish uchun

B) Ishtirokchilarda trenerga nisbatan hurmatni oshirish uchun

V) Bunday muxitni yaratish shart emas, multimi trening.

G) \*Samaradorlikka erishish uchun

4. Noan'anaviy usullar jamlanmasiga kiruvchi «Aqliy hujum» usuli yana qanday nomlanadi?

A) G'oyalalar yig'ish

B) Bahs- munozara

V) Keys

G) Savol-javob

5. Guruhnmg bilira darajalarini aniqlab olish va trerangdan nimalar kutishayotganini bilish tichun qaysi usulni qo'llash kerak?

A) Bahs-munozara o'tkazish kerak

B) Psixogimanstik mashq o'tkazish kerak

V) \*Aqliy hujum usulini qo'llash kerak

G) Qor uyumi usulini qo'Tlash kerak

6. Bahs-munozarani tashkil etish bosqichlari necha bosqichdan iborat?

A) \*3

B ) 6

V) 5

G) 4

7. Treningda bahs-munozara bosqichlari to'g'ri berilgan qatorini aniqlang.

1. Yo'naltirish,
  - 2.Kuzatish,
  3. Vaqtai boshqarish,
  4. Nazorat qilish,
  - 5.Baholash,
  - 6.Tugallash,
  7. Latifa aytish
- A) 1,4,5,6  
B) \*1,3,5,6  
V) 2,3,4,5  
G) 2,4,6,7
8. Trening davomida trener ishtirokchilarning har bir aytgan fikri uchun...  
A) \*Minnatdorchilik bildiradi  
B) Kofe taklif qiladi  
V) Gul beradi  
G) Maqtab qo'yadi
  9. Nozik savollar qaysi usulda muhokama qilinadi?  
A) \*Aqliy hujum  
B) Baxs- munozara  
V) Psixogimanslikmashq  
G)o'yin

## **VI. TRENINGDA PSIXOGIMNASTIK MASHQLARDANFOYDALANISH**

### **6.1. Psixogimnastik mashq usuli haqida tushuncha**

Psixogimnastik mashq usuli — trening jarayonida ishtirokchilami faollashtirish, kayfiyatini ko'tarish, ular orasida o'zaro ishonch va samimiylit muhitini yaratish maqsadida psixogimnastik mashqlar usulini qoTlash taktikasidir. Trening mashg'ulotlari jarayonida trening jarayonida qo'llaniladigan psixogimnastik mashqlami ham aksariyat hollarda (bizning muhitimizda) "o'yin" atamasi bilan atash yoki adashtirish hollari bo Tib turadi. Masalan, "Mevali salat" psixogimnastik mashq boTsada, uni o'yin deb atash va "Hozir Sizlar bilan "Mevali salat" o'yinini o'ynaymiz", deb murojaat qilinadi. Shuni hisobga olgan holda, psixogimnastik mashqlaming o'yindan ajratib turadigan alohida jihat - bu harakatning mavjudligi ekanligini qayd etib o'tish lozim. Trening jarayonida psixogimnastik mashqlami o'tkazishning o'ziga xos jihatlari mavjud boTib, ulami bilish ha bir mutaxassis uchun zarurdir.

Trener psixogimnastik mashqlami o'tkazishdan oldin va o'tkazish jarayonida ou usulning ayrim o'ziga xos muhim jihatlariga albatta amal qilishi lozim. Ya'ni o'z mashg'ulotining samarali boTishini istagan trener psixogimnastik mashqni tanlash va o'tkazishdan oldin quyidagi 4 xil holatni hisobga olinishi kerak boTadi:

Birinchi navbatda trener psixogimnastik mashqni o'tkazishi natijasida gunihda qanday holat vujudga kelishi e'tibor qaratishi lozim. Buni shunday izohlash mumkinki, har qanday psixogimnastik mashqni o'tkazish natijasida guruhda asosan ikki xil holat kuzatiladi.

- a) butun guruhning holati o'zgarishi;
- b) guruhdagi har bir ishtirokchining holati o'zgarishi.

Agar, kundalik hayotda gimnastika - tanamizning salomatligi uchun bajariladigan mashqlar to'plami ekanligini hisobga olsak, u holda psixogimnastik mashqlar - bizning psixikamizni, ya'ni ruhiyatimizni sogTomlatirish uchun xizat qiluvchi mashqlar to'plami ekanligini tahlil qilish mumkin. Demak, psixogimnastik mashqlar o'tkazilganidan so'ng eng awalo, guruhdagi har bir ishtirokchining holati o'zgarishi - uning kayfiyati ko'tarilishi, o'z muammolarini unutib, quvnoq holatga o'tib qolishi, faollandishi, eng asosiysi guruhiy isblarga tayyor bo'lib qolishi kuzatiladi. Bundan esa butun guruhning holati ham ijobiy tomonga o'zgaradi, degan xulosaga kelish mumkin.

Ikkinchı navbatda, psixogimnastik mashqni o'tkazayotgan trener guruh taraqqivotning qaysi bosqichida turganligini hisobga olishi kerak. Buni bilishning zaruriyati shundaki, guruh ishtirokchilari qanchalik jipslashgan bo Isa, o zini erkin sezsa, o'tkazilayotgan mashqlar tahlikasiz, normada o'tadi va treneming kutiigan natijaga erishishi osonlashadi. Ayniqsa guruh a'zolarining tana kontaktlariga oid bo'lган va ko'zni yumib bajariladigan mashqlarga e'tibor qaratish muhim, negaki bunday mashqlaming bevaqt o'tkazilishi guruhda zo'riqish yoki norozilik holatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

Trener hisobga olishi zarur bo'Tgan uchinchi holat кип vaqtidir. Aun boshlanishida guruhda ishchanlik, ahillik, o'zaro ishonch muhitini yaratuvchi mashqlami o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bu - guruhning ayni paytdagi ishga taalluqli bo'lмаган tashvish va muammollarini unutishga olib keladi va guruh a'zolari "hozir va shu yerda" sharoitini his qilishadi. Bundan tashqari, ishtirokchilaming butun diqqat-e'tiborini va aqliy faoliyatini safarbar etishi uchun imkon tug'iladi. Kunning ikkinchi yarmida esa charchoqni tarqatadigan, hayajonli his-tuyg'ulami yumshatishga olib keladigan mashqlarni o'tkazish tavsiya etiladi. "Tushgacha ochlikka qarshi, tushdan so ng uyquga qarshi kurashish kerak" — bu har qanday treneming oltin qoidasi bo'lishi kerak.

To rtinchidan, trener psixogimnastik mashqni O'tkazishda yo 'riqnomaga c 'tibor qaratishi kerak.

Yo'riqnomalar (instruksiya). Trening jarayonida o'tkaziladigan psixogimnastik mashqlaming asosiy samaradorligini ta'minlovchi qismi - yo'riqnomalar deyiladi. Mashqning samaradorligi yo'riqnomaning aniq, puxta, oydin va ixcham tuzilganligiga bog'liq bo'Tib, u o'zida yetarli darajada zarur axborotlami ifoda etishi shart. Trener yo'riqnomani ortiqcha tafsilot va tushuntirishlar bilan to'ldirmasligi kerak. U qanchalik aniq, qisqa, tushunarli bo'lsa, psixogimnastik mashq shunchalik samarali o'tadi va kutiigan natijani beradi.

Treneming yo'riqnomani tushuntirish uchun sarflagan vaqt mashqni bajarishga ketgan vaqtga nisbatan kamroq vaqtini olsa, bunday yo'riqnomani risoladagidek yo'riqnomalar deyish mumkin. Trener yo'riqnomani tushuntirish davomida har bir ishtirokchi bilan ko'z orqali kontakt o'matishi kerak. Bu esa ishtirokchilaming c tiborini oshirish, diqqatini jalb etish va ulami yaxshiroq tushunishga olib keladi. Irener ishtirokchilardan yo'riqnomaning tushunarli yoki tushunmaganlik holati bo'lганligini so'rashi shart.

Yo'riqnomalar hamma uchun tushunarli bo'lганligi va ishtirokchilar nitua qilishni hi lib olganligiga ishonch hosil qilgandan keyingina trener mashqni bajartirishga kirishishi mumkin. Agar mashqni bajarish jarayonida yo'riqnomani kimdir yaxshi lushunmagan bo Isa, u holda mashqni bajarishni to'xtatish va yo'l qo'yilgan xatoni tuzatish lozim bo'ladi.

## 6.2. Psixogimnastik mashqlarni O'tkazishda trenerga tavsiyalar.

Treneming o zi psixogimnastik mashqlami bajarishda qatnashishi kerakmi? degan savolga javob izlanadigan bo'lsa, aytish mumkinki, bu savolga mutaxassislar lomonidan berilgan javoblarda aniq ko'rsatma berilgan emas. Lekin bu borada mutaxassislar tomonidan qayd etilgan ayrim ko'rsatmalar mavjudki, ulami alohida la'kidlab o'tish mumkin:

- Trener kunning 1-yarmida o'tkaziladigan qisqa psixogimnastik

mashqlarda imkoniyatiga qarab ishtirok etishi kerak, ayniqsa kun boshida. Buni hatto qoida sifatida qabul qilish ham mumkin. Imkoniyat deganda esa bitta odam trener bo'lib ishlashi qiyinligi bois har doim yordamchi trener bo'lishi kerakligi nazarda tutiladi.

• Ishtirokchilaming toq yoki juft soni talab qilinadigan psixogimnastik mashqlarda guruhni todirish uchun qatnashishi mumkin. Lekin bu trener shunday holatdagi barcha mashqlarda albatta qatnashishi shart degani emas. Treneming psixogimnastik mashq jarayonidagi asosiy vazifasi mashqda ishtirok etish emas, balki guruhni tartibga solib turish va ulaming ruhiyatida sodir bo'layotgan o'zgarishlami kuzatishdan iboratligini hech qaysi trener unutmasligi kerak.

• Agar trenerdan mashqni nazorat qilib turish talab etilsa, u mashq bajarishda qatnashmaydi. Ayniqsa ko'zni yumib bajariladigan mashqlarda treneming qatnashmasligi guruh ishtirokchilarining

dadil bo'lishiga olib keladi, shu bois bunday mashqlarda trener ishtirok etmasligi lozim.

Psixogimnastik mashqlarni tashkil etishda trener quyidagi tamoyillarga amal qitishi lozim:

• Birinchidan. psixogimnastik mashqlaming mantiqiy tuzilishiga e'tibor berish kerak. Bunda "oddiydan murakkabga" prinsipi amal qilishi kerak. Kam harakat mashqlardan faollashtiruvchi mashqlarga va aksincha holatlarga o'tib turish kerak.

• Ikkinchidan. ishtirokchilarni psixogimnastik mashqlarni bajarishga tayyorlab olish jarayoniga e'tibor berishi kerak. Ishtirokchilarga shunchaki, "Kelinglar o'ynaymiz" deb psixogimnastik mashqlarni boshlab bo'lmaydi.

• Uchinchidan. trener o'ziga xos darajada juda katta psixogimnastik mashqlarlar "zaxirasi" ga ega bo'lishi lozimki, bu unga turli xil vaziyatlarda asqotadi.

### **6.3.Trenerning emotsional ta'sirchanlik qobiliyati**

Trener o'zidagi istak-xohishni aniq namoyon qilish orqali ishtirokchilarni psixogimnastik mashqni boshlashga qiziqtirishi lozim. Psixogimnastik mashqni boshlash uchun qilingan taklif jonli, quvnoq tarzda aytishi va ishtirokchilarni harakatga keltirishi kerak. Guruhdan psixogimnastik mashqni boshlashga bo'lgan xohishini so'rash tavsiya etilmaydi, chunki ko'pchilik ishtirokchilar uchun bu noodatiy hoi bo'lib, ular psixogimnastik mashqga qatnashishdan bosh tortishi mumkin. Shuning uchun guruhnini tanlash imkoniyati (ya'ni "xohlasangiz qatnashing, xohlamasangiz o'ynamasligingiz mumkin" kabi vaziyatiida qoldirmaslik kerak. "Albatta o'ynaymiz" degan qaror — yagona qaror bo'lishi kerak!

Trener psixogimnastik mashqlarni o'tkazish va uning samaradorligiga erishish uchun yana quyidagilami ham bilishi lozim.

Psixogimnastik mashqning jadalligi va sur'ati. Trener psixogimnastik mashqning borishini, uning jadalligi va sur'atini ham aniqlab olishi muhimdir. Agar psixogimnastik mashq cho'zilib ketadigan bo'lsa, uni tezlatishga, ishtirokchilarni qiziqtirish uchun esa mashqni ko'tarinki ruhda tugatishga harakat qilish zarur.

Qiziqtirish va sirlitik (mashqqa jaib qilish). Ba'zi hollarda trener psixogimnastik mashqni boshlashdan va mashq qoidalarini tushuntirishdan oldin ishtirokchilarni qiziqtirish uchun ularga hozir qiziqarli mashq o'tkazilishini, ular bunday mashqni hech qachon bajarmaganliklarini sirli tarzda ta'kidlashi maqsadga muvofiqdir.

Bahslashish (Musobaqalashish) Kattalarda ham va bolalar ruhiyatida ham musobaqalashishga bo'lgan moyillik kuzatiladi. Ana shu moyillikdan foydalangan holda trener ishtirokchilarda psixogimnastik mashqga xos kayfiyatni vujudga keltirish uchun guruhrlar o'rtasida raqobat hissini uyg'otishi yaxshi natija beradi. Masalan, "Qayta qurish", "Mumyo" yoki "Minora" kabi psixogimnastik mashqlarda, agar trener topshiriqni musobaqa holatida tashkil qila olsa, (ya'ni "qani qaysi guruh tezroq bajaradi?" ga o'xshagan ko'rinishlarda bersa), psixogimnastik mashq jadalroq va qiziqarliroq o'tadi. Albatta, barcha psixogimnastik mashqlarda bu taktikani qo'Tlash maqsadga muvofiq emas, biroq o'rni kelganda foydalanish yaxshi natija beradi.

### **6.4. Psixogimnastik mashqlarni to'xtatish va muhokama qilish.**

Treninglai davomida qo'llaniladigan psixogimnastik mashqlar ishtirokchilar uchun qiziqarli va g'ayri oddiy bo'lganligi uchun odatda ko'pchilik ishtirokchilar ulaming uzoqroq vaqt davom ettirilishini istaydi. Lekin bu treneming rejasi buzilishiga va trening samarasining pasayishiga olib ketishi mumkin. Shuning uchun trener har bir mashqni vaqtida to'xtatish va muhokama qilish texnikasini puxta egallashi zarur.

Trener psixogimnastik mashqning qanday borishini oldindan aytib beradi va uning vazifasi vaqtini kuzatib borishdan iborat bo'Madi. Shunga asosan u mashqning tugashini guruhga maTum qiladi. Lekin ko'pincha mashqni o'tkazishning chegarasini oldindan aniqlab bo'lmaydi, bunda asosiy e'tibor guruh a'zolari o'zlarini qanday his qilishi, ulaming mashqni bajarish jarayoniga qanchalik berilganligi va qiziqqanlik darajasini hisobga olishga qaratiladi.

Bu borada umumiy qoida shunday: ishtirokchilarning psixogimnastik mashqdan qoniqishi yuqori darajaga yetganda, uni yakunlash kerak. Trener guruh ishtirokchilarining holatidagi

o‘zgarishlami diqqat bilan kuzatishi va ana shunday" daqiqani payqab olishi kerak bo‘Tadi. Bu daqiqa shundan iboratki, bir tomondan mashqning maqsadi uchun va uning muhokamasi uchun yetarli materiallar yig‘iladi, boshqa tomondan esa guruhning ko‘pgina ishtirokchilari mashqni bajarishni davom ettirish niyatida bo‘lib va uni tugatishga rozilagini ham izhor etadilar.

Psixogimnastik mashqning yakunida albatta muhokama jarayonini o‘tkazish shart. Bunda quyidagi tavsiyalarga amal qilinishi lozim bo‘Tadi: Agarda mashqni o‘tkazishdan maqsad ko‘proq va mazmunli axborot olishga yo‘naltirilgan bo‘Isa, demak uning muhokamasiga ham shuncha ko‘p vaqt sarflanadi. 80

Bu vaqtda ulaming mashqning tag-zamirida yotgan mantiqni anglash borasidagi fikilari so raladi va treneming o‘zi ham mashqning asl mohiyatini o‘chib bemvchi fikrlami bildiradi (Masalan, “Mevali salat” mashqi zamirida insонning yashash uchun kurash instinkti yotishi kabi).

Agar mashqning maqsadi guruhi a‘zolarining holati qay darajada o‘zgarganligini bilishga qaratilgan bo‘lsa, u holda muhokama jarayonida: "Siz o zingizni qanday his qilyapsiz?", "Hozir kayfiyatningiz qanday?" kabi qisqa savollar beriladi. Bunday sharoitda aksariyat holatlarda “kayfiyatim ko‘tarildi”, “mazza qildim, zo r bo‘ldi, faollandim”, “tetiklashdim” kabi ijobjiy va hissiy javoblar beriladi va shu bilan chegaralaniadi. Ba’zi hollarda esa ishtirokchilaming aniq bir holatini ko‘rgan boshlovchi o‘zi ham ularga quyidagicha gap qotishi mumkin: "Ko‘rib turibmanki, hammangiz xushvaqtisiz, demak endi keyingi murakkab ishlarga ham o tish mumkin, Men ko‘ryapmanki, hamma tabassum qilayapti, menimcba kayfiyatlar yaxshi, demak, mashg‘ulotni davom ettirish mumkin" va h.k.

Guruhlarda birgalikda o‘tkaziladigan psixogimnastik mashqlarda g‘olib va mag lublarbo Imasligi va hech kim o‘zini yakkalanib qolganday xis qilmasligi kerak, aksincha psixogimnastik mashqdan asosiy maqsad bu — vaqtixushlik qilishdir va u mashq ishtirokchilarida umumiylilik, mushtaraklik hissini vujudga keltirishi lozim Psixogimnastik mashqiar bolalarda ham, kattalarda ham boshqalarga ishonch, diqqatni jamlash, kirishimlilik va o‘zaro muloqot kabilarga ko‘nikma, malakalar hosil qiladi. Shu tarzda mashqiar ishtirokchilaming nafaqat aqliy jihatdan, balki umuman shaxs sifatida rivojlanishiga ham katta yordam beradi.

Shuningdek, psixogimnastik mashqiar ishtirokchilami uzoq davom etgan zo‘riqtiruvchi mashg‘ulotlar yoki noxush hayotiy vaziyatlardan so‘ng o‘zini tiklab olishiga yordam beradi. Trener yodda tutishi kerak bo‘lgan holatlardan yana biri mashg‘ulotning boshlang‘ich bosqichida guruhdagi barcha ishtirokchilar ham mashqlarda ishtirok etishni istayvermaydilar va ulami majburlash kerak emas. Lekin bu ulaning xohishini qondirish kerak, deani ham emas. Trener ulami turli usullar bilan qiziqtirishi va mashqdagi ishtirokini ta‘minlashi lozim. Odatda tajribalarda shu narsa isbotlanganki, bunday ishtirokchilar bitta psixogimnastik mashqda qatnashsalar, o‘z- o‘zidan keyingi mashqlarda ham ishtirok etishni istab qoladilar. Shuningdek, treneming har doim yelib-yugurib harakat qilishi ishtirokchilami faol bo‘lishga undash bilan birgalikda, guruhda xush kayfiyat, do‘stlik muhitini yaratishga ham yordam beradi.

Psixogimnastik mashqning oxiri doimo qandaydir emotsional ahamiyatga ega bo‘lishi kerak. Ya’ni psixogimnastik mashq oxirida albatta ikki xil holat kuzatilishi zamr: birinchidan, ishtirokchilarda ko‘tarinki kayfiyat kuzatilishi lozim. Ikkinchidan, psixogimnastik mashqdagi o‘zaro munosabatlardan mantiqiy yakun kelib chiqishi kerak.

## VI BOB BO‘YICHA TOPSHIRIQLAR

Nazorat savollari

1. Psixogimnastik mashq o‘tkazishning ahamiyati nimada?
2. Psixogimnastik mashqlami o‘tkazishda nimalami hisobga olish lozim?
3. Psixogimnastik mashq qachon to‘xtatiladi? 4. Psixogimnastik mashq qanday muhokama etiladi?

### Mustaqil ish mavzulari

1. Faollashtimvchi psixogimnastik mashqqa misollar yozing
2. O‘zaro ishonch muhitini yaratuvchi psixogim nastik mashlarga misollar yozing
3. Guruhni jipslashtiruvchi psixogimnastik mashlarga misollar yozing

## Testlar

1. Biror psixogimnastik mashq o'tkazishda oldin ishtirokchilarga... beriladi
  - A) \*Instruksiya
  - B) Tarqatma material
  - V) Qog'oz va mchka
  - G) Tushuncha
2. P s ix o g im n a stik m a s h q i a r n im a u c h u n o 't k a z i l a d i ?
  - A) Gimnastika qilishni o'rgatish uchun
  - B) Ishtirokchilar orasida ijobiy muhit yaratish uchun
  - V) Guruhni boshqa muhitdan qaytarish uchun
  - G) Ishtirokchilar zerikmasligi uchun
3. Nima uchun treningda «muammoli vaziyatlar tahlili» o'tkaziladi?
  - A) Qay yo'l bilan hal qilish yo'llari muhokama qilinadi
  - B) Guruhda mikroguruuhlar tuzish uchun
  - V) \* Muammoli vaziyatlarga nisbatan «immunitet» hosil qilish uchun
  - G) Boshqalar muammosini xal kilish orkali uz muammosini unutadi
4. Psixogimnastik mashq usulining maqsadi-...
  - A) \*Guruhni faolloshtirish
  - B) Guruh motivini aniqlash
  - V) Guruh sardorini aniklash
  - G) Guruh bilimini aniqlash
5. Trener kunni boshida o'tkaziladigan guruhning kayfiyatini ko'taruvchi mashqlarda ishtirok etishi shartmi?
  - A) Hech qachon
  - B) \*Ha, imkon darajasida
  - V) Yo'q, imkon darajasida
  - G) Shart emas
6. Mashq uchun reglament vaqt...
  - A) \*Belgilanmagan
  - B) 20 min 1
  - V) 12-15 min.
  - G) 10 min.
7. Mashq usulini muhokama qilishda asosan qanday savol bilan murojaat etiladi?
  - A) Yana qanday o'yinlar o'ynashni istaysiz
  - B) Charchadingizmi? .
  - V) \*Nimani his qildingiz?
  - G) Qomingiz ochmadimi? .

## VII. TRENING JARAYONIDA O 'YIN USULI.

### 7.1. O'yin haqidagi nazariyalar

Agar qadimgi davr tarixiga nazar tashlansa, diniy nuqtai nazardan o'yin haqida; faqat salbiy qarashlar mavjud bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, xristian dinida ma'lum bir davr mobaynida quyidagi na qarash mavjud bo'lgan: "Qiz bola yoshligida ham o 'yin o 'ynashi mumkin emas, u faqat k o 'proq y ig'lashi va o 'Z gunohlari haqida o'ylashi kerak".

Faqat XVII asrda renessans davriga kelib o'yinga nisbatan qiziqish orta! boshlagan. O 'sha davr olimlari - Fransua Rible v a M ishel de M ontent o 'yinning inson rivojlanishida katta ahamiyatga ega ekanligini ko'ra olgan.

Xorij ilm-fanida O'yingga ilmiy nuqtai nazardan qarash XIX asming ikkinchi yarm iga kelib kuchaya boshladi. O 'yin ilmiy izlanishlam ing predmeti sifatida k a tta 1 rol o'ynay boshladi. Fanda o'yin haqidagi nazariyalar va ulaming asoschilari, quyidagicha yo'naliishlarda namoyon bo'lgan:

1. Fiziologik nazariya (G.Spenser, M.Lasarius)

2. Biogenetik nazariya (G.Xoll, L.Epplton)
3. Ijtimoiy nazariya (K.Reynuoter, D.Rismen, E.Neymer)
4. Biopsixologik nazariya (U.Makdaugoll, G.Merfi)
5. Psixoterapevtik nazariya (Z.Freyd, Ya.Moreno, G.Lemann)
6. Madaniy nazariya (Y.Xayzing)
7. Sintetik nazariya (Jan Piaje)

**Fiziologik yo'nalish** tarafdarlarining fikriga ko'ra, insonlar ham, hayvonlar ham o'zidagi ichki energiyani chiqarib turishi kerak. Va ulaming fikricha, o'yin individlar uchun aynan shu maqsadda xizmat qiladi. Gerbert Spenseming mulohazasiga ko'ra, o'yin faqat hayotiy vaziyatlar yoki ma'lum bir faoliyatni takrorlash uchun foydali bo'lib qolmasdan, balki uning eng foydali va muhim jihatlaridan biri u individga qoniqish ham beradi. Shuning uchun o'yin individning instinktiv istaklarini realizasiya qilish vositasi hamdir. Bundan tashqari, u faqat mstinkt tarzidagi istak emas, balki aql gimnastikasi hamdir.

Haqiqatan ham treninglar jarayonida qoilaniladigan o'yin va mashqlar ishtirokchilarga qniqish berishi bilan birga, ulaming aqlini ham charxlaydi.

Nemis psixolog va filosof olimi Moris Lasariusning fikriga ko'ra, o'yin dam utish va mashq qilish vositasidir. Inson o'z muskul va tana a'zolarining harakati uchun mashq qilgani kabi o'zining ruhiyatini ham haraktini ta'minlashi lozim, buning uchun esa u o'ynaydi. Bundan tashqari o'qish va mehnat faoliyatidan charchash mmjasidagi ichki salbiy enenrgiyalar ham o'yin orqali chiqarib yuboriladi. Shunday iplib, G.Spenser va M.Lasariusning konsepsiyasiga ko'ra, o'yin - insonning atrof- muhitga sof biopsixologik moslashuvi sifatida tushuniladi.

**Biogenetik yo'nalish** tarafdarlaridan Grenvill Stenli Xollning fikriga ko'ra, o'yin - inson faoliyatining rudimentidir. Bolalar o'yini esa instinktiv faoliyat boiib, hola o'z ajodlarining hayotiy faoliyatini takrorlaydi. S.Xolning mulohazasiga ko'ra, o'yinning mohiyati shundaki, u insonlaming avvalgi tajribaiari asosida hozirgi hayotga moslashishlarini ta'minlaydi.

Treninglarda qo'llaniladigan o'yin va mashqlar ishtirokchilaming o'zaro munosabatlarini yaxshilash bilan birga ulaming bir-birlariga moslashuvini ham laminlaydi.

**Sotsiologik yo'nalish** tarafdarlaridan K.Gross o'yinning ijtimoiy mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Uning fikriga ko'ra, o'yin - insonni hayotga i. iyyorlanishini ta'minlaydi. Bolalar o'yinlari esa ularda hayotiy ko'nikmalami sliakllantirish va mustahkamlash vositasi bo'lib, shaxsda psixofiziologik va shaxs sifatiarining rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga egadir. U birinchi bo'lib o'ymmng ijtimoiy ahamiyatini ko'rsatib berdi, ya'ni inson o'yin jarayonida umumiyo qoida va yagona liderga bo'ysunish orqali jamiyatga qo'shilishni o'rganadi. Shuningdek, o ym O'zi uchun, o'zining xatti-harakati uchun javobgarlikni his qilishga o'rgatadi. O z guruhi uchun harakat qilish jarayonida o'z imkoniyatlarini ochish va o'qishm o'rganishga bo'lgan qobiliyatlar shakllanishiga erishiladi. O 'yinda bolaning liderhk qobiliyatları ham namoyon bo'ladi, instinktiv tarzdagi yoqtirish paydo bo'ladi. Kattalar o'yinida 3 ta elementni ajratib ko'rsatadi.

Jismoniy va intellektual rivojlanish

Mustaqillikni his qilish

Insonning dunyo bilan gormonizasiyasini his qilishi.

Treninglarda qo'llaniladigan o'yin va mashqlar orqali ham ishtirokchilarda o'z muammolarini hal etish ko'nikma va malakalari hosil qilinishi maqsad qihb qo yiladi.

**Biopsixologik yo'nalish** tarafdarlarining fikricha, ijtimoiy xulq-atvoming istalgan shaklida o'yin elementlari mavjud. G.Merfming fikricha, o'ym orgamzmning atrof-muhit bilan muvofiqligini ta'minlovchi vositadir. Qachonki, tashqi muhit ta sin ostida muvofiqlik buzilsa, shaxs mhiyatida zo'riqish vujudga keladi, shunga ko'ra, parallel holda va zo'riqishni bartaraf etish maqsadida organizmda o'yin faoliyat shakllanadi.

Treninglar jarayonida o'z muammolari girdobida qolib ketgan ishtirokchilarni o'yin orqali bu girdobdan chiqarib olishga erishiladi va shuningdek, ularga muammolaming yechimi ko'rsatiladi.

**Sotsiologik yo'nalish** tarafdarlarining fikricha, o'yin - mson o'zi mansub boigan gumh yoki guruhlardagi ijtimoiy ustanovkalarm o'zlashtira oladigan alohida faoliyatdir. Guruhiy o'yinlaming xarakteri tadqiqotchilar tomonidan o'r ganilib, quy idagicha j ihatlar ajratilgan:

- Relaksasion (dam olish);
- Musobaqalashish va nizolami hal etish;
- Akkomodasiya (birlashish, hamkorlik qilish);
- Assimilyatsiya (boshqalarga moslashish);
- Ijtimoiylashuv (shaxsning jamiyatga moslashuvi jarayoni).

O 'yining o 'zini namoyon qilish nazariyasi tarafdarlarining fikriga k o 'ra, inson o 'ynar ekan, unda jamiyatda mavjud bo'lgan odatlar, ustanovkalar shakllanadi. Bu yo'nalihsda J.Pyaje ish olib borgan bo'lib, uning fikricha, o'yin inson faoliyatining bir qismi bo'lib, u go'yo xayol va tafakkur o'zaro bog'liq bo'lgani kabi, inson faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun o'yin insonning psixofiziologik rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. O'yin jarayonida inson hayotiy qiyinchiliklami yengib o'tishga o'rganadi. J.Pyaje o'yinnning inson rivojlanishi uchun ahamiyatli jihatlarini quyidagicha talqin etgan:

- A) Mashqli o'yinlar - ancha murakkab bo'lgan ko'nikmalami shakllantirishga, musobaqalashish, hamkorlik va aqliy rivojlanishga yordam beradi;
  - B) Simvolik o'yinlar - oilaviy vazifalarni rivojlantirishga yordam beradi;
  - V) Qoidalı o'yinlar - o'yin qoidalariiga amal qilish jarayonida hayotiy qoida va normalarga rioya qilishning shakllanishiga yordam beradi.
- J.Pyajening umumiy xulosasiga ko'ra, insonning ichki fantaziyasiga bog'liq liolda har qanday faoliyatni o'yinga aylantirish mumkin yoki o'yin sifatida qarash iimmkin.

**Psixoterapeutik nazariya** tarafdarlaridan biri Z.Freydninig fikricha, o'yinning usosiy vazifasi

- hayotiy xoxish-istiklami ta'qiqlash va ulaming qondirilmasligi natijasida yuzaga kelgan qoniqmaslik hislarini chiqarib yuborishdan iborat.

Jaykob Morenening o'yin konsepsiysi amaliy natijalami ko'rsatdi. Uning uaziriyasi Z.Freydning individualistik yo'nalihsini inkor etib, quyidagicha fikr luldiradi: kishilar hayoti davomida yashayotgan kichik guruhlaridagi kclishmovchiliklar unda nevrozlam - ichki nizolami keltirib chiqaruvchi omil luxoblanadi. Va bu nizolar o'yin holati orqali bartaraf etilishi maqsadga muvofikdir.

**Madaniy konsepsiya** tarafdarlaridan biri Yoxann Xayzing quyidagi fikrlami luldiradi: O'yin - hech qanday madaniyat bilan bog'liq bo'lмагan dastlabki hayotiy kategoriyadir. Bunda hech qanday tashqi tomonidan majburlash mavjud bo'lmadsan, u'yin msoniyatda asta-sekin et.ik va estetik tuyg'ulaming rivojlanishiga imkon bergan. Y.Xayzingning fikriga ko'ra, o'yin - hayotimizni bezaydi, uni to'ldiradi, u insonning yoshidan va ijtiraoiy mavqeidan qat'iy nazar har bir kishi uchun hayotiy madaniy ehtiyoj hisoblanadi.

Tarixiy ildizlariga nazar solinsa, afsonalarda ham, marosimlarda ham, bayramlarda ham o'yin elementlarini topish mumkin. Afsona va marosimlarda o yin vositasida madaniy hayotning harakatlantiruvchi kuchlari yuzaga keladi, jumladan, huquq va tartib, muloqot va xususiy mulkka egalik, hunarmandchilik va san'at, she riyat, hatto fan ham insoniyatning o'yin faoliyati mahsuli asosida shakllangan. O yin jiddiylikning chegarasida turadi, ya'ni o'zi ma'lum bir vaqtida jiddiylikka aylanadi, ma'lum bir vaqtida esa jiddiylikni o'yinga aylantirish mumkin.

## 7.2. Trening jarayonida o'yin usulining ahamiyati

Trening mashg'ulotlari jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri o 'y in usulidir. O 'yin usuli — zarur malaka va k o 'nikmalami hosil qilish hamda ulami mustahkamlash uchun nazariy, amaliy bilimlami ongli ravishda, ko'p martalab takrorlashdan iborat bo'lgan usuldir. Bu usulning vazifasi olingen bilimlardan ko'nikma va malakalarga o'tishdir.

O 'yining mazmuni. O 'yinlar bizning hayotimizda ju d a muhim ahamiyat kasb etadi. Kundalik hayotda "O'yin" atamasi ko'pchilik tillarda hazil, kulgu, yengillik, huzur-halovat kabi tushunchalarga mos keladi va ijobiy hissiyotlar bilan bog'liq munosabatlami anglatadi.

Trening jarayonida o'tkazilgan har qanday o'yin o'zida ikki xil mazmunni aks ettiradi: birinchisi, ishtirokchilar uchun ma'lum bo'lgan - dam olish, ko'ngil ochish, hordiq chiqarish, kayfiyatni ko'tarish bo'lsa, ikkinchi ma'nosи, treningni olib boruvchi (trener) uchungina ma'lum bo'lib, bunda guruh bilan ishslash jarayonida trener o'z oldiga qo'ygan muayyan vazifalarni amalgaga

oshirishi ko'zda tutiladi. Shu tariqa trening mashg'ulotida o'yin - faqat ko'ngilxushlik emas, balki guruh yoki biror bir ishtirokchining xulq-atvorini boshqarish, o'zgartirish, shuningdek trener uchun zarur yo'nalishda harakatlanish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

O'yinning belgilari

O'yinning quyidagi belgilari mavjud:

-Chegaralanganlik - har qanday o'yin ma'lum bir davrda va vaqtda o'ynaladi. 88

Demak, trening jarayonida qo'llaniladigan o'yinlarda ham chegaralanganlik holati mavjud bo'lib, har qanday o'yining boshlanish va tugash vaqtini bo'ladi.

-Estetiklik - o'yinga xos belgilardan yana biri shuki, u go'zallik uchun xizmat qiladi, demakki, madaniyat uchun xizmat qiladi. Buni shunday tushunish mumkinki, o'yin o'ynash jarayonida ishtirokchilarda ham jismoniy, ham aqliy, ham ma'naviy qadriyatlar rivojlantiriladi.

-Ixtiyoriylik - o'y inni o'ynash qonun ham, burch ham emas. Unda majburiylik elementlari yo'q, demak o'yinda ixtiyoriylik mavjud. Hech kimni majburlab o'ynatib bo'lmaydi. O'yinda erkinlik mavjud bo'lib, mana shu narsa ishtirokchilami o'zigajalb etadi.

- G'ayritabiyylik - trening jarayonidagi har bir o'yin o'zicha g'ayritabiyyidir. Ya'ni o'yin orqali ishtirokchilar ma'lum bir muddat qandaydir hayvon, o'simlik yoki kundalik hayotda o'zlar ishlatajigan narsalarga aylanib qolishlari va ular nomidan gapirib, ulaming holatini his qilishlari mumkin bo'ladi.

### **O'yindagi o'zarol ta'sir "Aysberg"i**

O'yinning ichki pedagogik-psixologik mohiyatini tushunish uchun uni aysbergga o'xashtish mumkin. Bilamizki, aysberg suvda suzib yuradigan muz tog'i bo'lib, uning faqat 10% i gina suv yuzida ko'rinish turadi, qolgan 90% esa suv ostida yashirin bo'ladi. O'yinda ham xuddi shunaqa holatni kuzatish mumkin. Rossiyadagi "Trening san'ati" kompaniyasi prezidenti, pedagogika fanlari doktori Levanova Yelena Aleksandrova va uning hamkasblari o'yinda mavjud bo'lgan "aysberg"ning o'ziga xos qismlarini ajratib ko'rsatganlar. Quyidagi shu qismlami ko'rib chiqamiz:

1. Funksional qism - o'yindagi o'zarol ta'siming eng yuqori qismi bo'lib, hammaga, jumladan ishtirokchilarga ham ko'rinarli qismdir. Bunda kim qanday o'ynayotganligi, trener va ishtirokchilar o'zini qanday tutayotganligi va h.k.lar barchaga ko'rinish turadi, xuddi aysbergning suv osti qismi kabi.

2. Fiziologik qism - ishtirokchilaming organizmidagi fiziologik jarayonlarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi: harakatli faollik ehtiyojlarini qondiradi, bosh miya funksiyalarining tormozlangan qismlarini rivojlantiradi, organimning kislorod bilan t a 'minlaydi. O'yinning bu ta'siri aksariyat kishilarga ko'rinnmaydi.

3. Psixologik qism — bu qismda o'yinning shaxs psixikkasiga ta sirini 9 ko'rish mumkin: Xotira, Diqqat, Tafakkur, Xayol kabi psixik jarayonlarining rivojlanishi, emotsiyonal holatlaming o'zgarishi, kommunikativ ko'nikmalaming o'zlashtirili va h.k. - bu esa aysbergning haqiqiy suv osti sohasidir.

4. Pedagogik qism - bu shakllantiruvchi qism bo'lib, ishtirokchilarda "biz" pozitsiyasini, kollektivga tegishlilik, kollektiv uchun qayg'urish, atrofdailarga nisbatan tolerantlik kabilalar shakllantiralidi - bu ham aysbergning haqiqiy suv osti sohasidir.

5. Shaxsiy (latent) qism - o'yindagi yashirin qism bo'lib, u 1 ishtirokchilaming shaxsiy rivojlanishiga ta'sir etadi va o'yin tugaganidan so'nggi muhokama jarayonida sodir boiadi - bu aysbergning haqiqiy suv osti sohasi - eng maxfiy qismidir.

**O'yinning vazifalari.** Trening jarayonida o'yin usulini qo'llashning trener va a ishtirokchilar uchun quyidagi ijobiy jihatlari ham mavjud bo'lib, bulami o'yinning vazifalari sifatida ham sanash mumkin:

- Trener uchun zarur yo'nalishda harakatlanish vositasi;
- Guruh yoki biror bir ishtirokchining xulq-atvorini boshqarish;
- Guruh yoki biror bir ishtirokchining xulq-atvorini o'zgartirish;
- Guruh a'zolarini bir-biri bilan tanishtirish va jipslashtirish;
- Guruh a'zolarini faoliyatga moslashtirish;
- Guruh a'zolarini muammolaming yechimini topishga va hal etishga tayyorlash.

O 'y in usuli trening davomida olingan maTumotlami ishtirokchilar qay t ariqa o'zlashtirayotganligini ham ko'rsatadi.

### **7.3. Treningda o'yin orqali erishiladigan natijalar.**

Trening jarayonida qo'llaniladigan o'yinlaming o'ziga xos xususiyatlaridan biri shukifl bitta o'yinni ham u, ham bu maqsadda qo'llasa bo'laveradi. Shunga ko'ra, "Trening 1 jarayonida o'yin orqali qanday natijaga erishiladi?", degan savol tug'iladi. Bu savolga javoblar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. O'yin orqali ishtirokchilarga hamkorlikni his qilishga imkon beriladi, ya'ni o'yin orqali har bir ishtirokchi o'zining bu olamda yolg'iz emasligini anglab yetadi. Bu hdat o'ziga past baho beradigan kishilar bilan o'tkaziladigan treninglarda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

2. O'yin orqali ishtirokchilarga o'z hayotini o'zi boshqarishi mumkinligini his qilishga imkon beriladi, ya'ni o'yin orqali u o'zining hayotini boshqarishi va muvaffaqiyatlarga erishishi mumkinligini anglab yetadi. Bu holat tushkunlikka tushgan kishilar bilan o'tkaziladigan treninglarda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

3. O'yin orqali ishtirokchilarga boshqalar bilan muloqotga kirishish madamyatini his qilishga imkon beriladi, ya'ni o'yin orqali u o'zini va boshqalami hurmat qilish lozimligini anglab yetadi. Bu holat muloqotga kirishuvchanligi past bo'lgan kishilar bilan o'tkaziladigan treninglarda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

4. O'yin orqali ishtirokchilar bir-birlariga yordam berishga o'rganadilar, ya'ni o'yin orqali u o'zi yolg'iz hech narsaga erisha olmasligini anglab yetadi. Bu holat o'ziga past baho beradigan kishilar bilan o'tkaziladigan treninglarda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

5. O'yin orqali ishtirokchilar o'zi uchun, o'zining xatti-harkatlari uchun, xulq-atvori uchun javobgar ekanligini his qiladi, shuningdek boshqalaming xulq-atvori uchun ham qisman javobgar ekanligini anglab yetadi. Bu holat muloqotchanligi past bo'lgan kishilar bilan o'tkaziladigan treninglarda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

6. Va nihoyat, o'yin orqali ishtirokchilar insonlami o'rganish va haqiqatni tahlil qilishga o'rganadilar, aql va hissiyot, yolg'on va haqiqat, yaxshilik va yomonlik o'rtaсидаги farqlами ko'ra olishni o'rganadi. Bu holat har qanday muammosi bo'lgan kishilar bilan o'tkaziladigan treninglarda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

### **7.4. O'yinlarni o'tkazishda trenerga tavsiyalar**

O'yinlami to'xtatish haqida gap borar ekan, aytish lozim mantiqiy yakunga ega bo'lgan o'yinlar ham mavjuddir. Bunday o'yinlar jumlasiga "Buzuq telefon" nomi bilan keng tarqalgan o'yinni misol keltirish mumkin. Bu o'yin ma'lumot oxirgi ishtirokchiga yetib borganda yakunlanadi. Trener bu o'yinda o'yin tugashining shartlarini oldindan aytib qo'yadi. Masalan, agar guruh ishtirokchilaridan birortasi gapirib yuborsa, bunday sharoitda o'yinni to'xtatish kerak bo'ladi.

O'yinni yakunlashda eng oddiy emotsiyonal olqish sifatida qarsak rol o'ynashi mumkin, vaziyatdan kelib chiqqan holda olqishlashning boshqa usullaridan ham i foydalanish mumkin. Har bir o'yin guruh bilan ishiash jarayonida o'z o'miga ega bojadi. Hamma o'yinlar ham barcha guruhlarda muvoffaqiyatli o'tavermaydi. Shuning uchun, trener guruhdagi shart-sharoitlami — masalan, guruh a zolarining yoshini, jinsini, holatini hisobga olishi zarur. Trener guruh bilan ishslashdan oldin o'yinni o'tkazish uchun zarur bo'lgan barcha materiallami va hatti-harakatlami yaxshilab o'ylab olishi kerak. Qatnashchilaming o'yinga qiziqishini oshirish uchun materiallaming yorqinligi, jozibadorligini nazardan qochirmsaslik lozim.

Bundan tashqari, o'yin paytidagi o'zaro munosabatlaming muvaffaqiyatini ta'minlash uchun va o'yindan ko'zlangan maqsadga erishish uchun trener quyidagi holatlami hisobga olishi zarur:

Oyinining mantiqiy murakabiligini - trener o'yinining mantig'ini bilsa, bu uning eng k a tta yutug'idir. O 'yinlar o 'ziga x o s mantiq asosida tashkil qilinishi lozim., Odadta xuddi mashqlarda talab etilgani kabi o'yinlar ham "oddiydan murakkabga" tamoyili asosida tashkil etiladi. Masalan, "taktil to'siqlami bartaraf qilish" borasidagi O'yinlami O'tkazmasdan turib, "ishonchga asoslangan" o'yinlami o'tkazib bo'lmaydi.

"Ismlarm eslab qohsh" o'yini muvaffaqiyatli O'tishi uchun doira shaklida o'tirgan

ishtirokchilar bir-birlarining ismim eshitganligiga, bir-biriga ahamiyat bergenligiga ishonch hosil qilish kerak, chunki bilmagan narsani esda saqlab be'lmaydi.

Trener e'tibor berishi kerak bo'lgan muhim jihatlardan yana bin — guruhning o'yin jarayoniga kirishib ketishi yoki O'yinga bo'Igan wtogdir. Har bir guruh o'ziga xos bo lib, bitta o yinni 10 xil guruhda 10 xilda O'ynash mumkin. Bu, albatta ulamirig Oylnga bo'gan istagiga ham bog'liq bo'iadi. Demnak, trener tomonidan o'ymga bo Igan da'vatning originalligi katta ahamiyatga ega. Yuqorida aytilgidek, ishtirokchiarga shunchaki "kelinglar o'ynaymiz" deb o'yinni bosnlab bo'Tmaydi. Aksanyat hollarda ishtirokchilar (ayniqsa bolalar va o'srnirlar), bunday takhfdan so'ng darhol o'yin boshlashlari qiyinroq kechadi. Demak, ishtirokchilami O'yinga tayyorlash ham o'ziga xos holat hisoblanadi va u har qanday o'yinnrug asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Tayyorgarlik har xil bo'ladi: emotsiyal, jismoniy, aqliy va h.k. Har bir guruh uchun O'yinlar qandaydir yangi va o'ziga xos hodisadir. Ayni hollarda treneming kayfiyatni ko'tarinki bo'lishi va ko'zlangan maqsadga erishishi uchun bu kayfiyatni guruh a'zolariga ham "yuqtirish" kerak. Ishtirokchilami O'yinga jalb etish uchun o'yinmng xulosasiga doir qiziqarli voqeа-hodisalami s o'zlash, ertak yoki atsonalar aytip beiish, maqollami ahvil qilishni so'rash maqsadga muvofiqdir.

Agar guruh o'yinga kirishishni istamasa - cho'chish kerak emas, bu odatlanilmagan holatga nisbatan dastlabki aks ta'sir (reaksiya) bo'lib, tezda o'tib keladi.

O'yin jamg 'armasi (zaxirasi). Trener yetarliehako'p o'yinlami bilishi shart. Bu unga turli vaziyatlarda asqotadi.

To rtinchidan, o yinning ko'rsatmasi qanchalik muhim ahamiyatga egaligini hisobga olishi lozim. Bunda, shuni alohida qayd etish lozimki, universal o'yinlar ho'magarti kabi universal ko'rsatmalar ham bo'lmaydi. Ya'ni bitta o'yinni yosh iihatdan turli xil bo'lgan (bog'cha yoshidagilar, O'smirlar, katta yoshdagilar) yoki mavqe jihatdan turli xil bo'lgan (o'qituvchilar, uy bekalari, rahbarlar) guruhlarda o'tkazish uchun bir xil ko'rsatmadan foydalangan trener eng no'noq trenerdir va bu uning ishiga putur yetkazadi. O'yinlami o'tkazishda trenerning mahorati shundaki, har bir guruhning o'ziga xos va o'ziga mos ko'rsatma bera olishidir.

Shu o'rinda yosh mutaxassislar uchun bir misol keltirib o'tamiz. Tanishuv maqsadida o'tkaziladigan mashhur o'yinlardan biri - "Qor uyumi o yinini mutloqo notanish bo'Iganlar va soni - 10-15 kishidan iborat bo'Igan guruhda o'tkazish jarayonida ularga quyidagicha ko'rsatma beriladi: "Trenerning o'ng tomonidagi ishtirokchi o'z ismini aytadi va ikkinchi ishtirokchi o'z ismini aytishdan awal birinchi ishtirokchining ismini aytadi, uchinchi ishtirokchi ham avval birinchi, so ng ikkinchi ishtirokchining ismini va so'ngra o'z ismini aytishi lozim. Shunday qilib har bir ishtirokchi o'zini tanishtirishni xuddi shu usulda davom ettiradi. Bunday hoi ishtirokchilaming bir-birlarini anib olishlari va ismlarini eslab qolishlari uchun qulay hisoblanadi.

Lekin xuddi shu ko'rsatmani o'zaro bir-biri bilan tanish bo'Tganlar guruhida o'zgartirmasdan o'tkazilsa, zerikarlilik kelib chiqadi. Shuning uchun ko'Tsatmaga quyidagicha o'zgartirish kiritish mumkin bo'tadi: "Hozir har bir ishtirokchi o'z ismini va ismining bosh harfi bilan boshlanuvchi biror ijobjiy sifatni aytadi — masalan, Alisher - aqli, Shoira - shaddod, Gulmira - go'zal va h.k."

Albatta, trening mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonida va bu mashg'ulotlar davomida ko'plab o'yinlami o'tkazish jarayonida trenerda bu boradagi zarur ko'nikma va malakalar shakllanib boradi, biroq muayyan o'yin qoidalarini bajarish, vazifalami tushunish, shart-sharoitlarni hisobga olish natijasida trenerning ishi osonlashadi, eng muhimi — guruhdagi ishning sifati oshadi, trening oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalar yuqori darajada amalga oshiriladi. Shunday ekan, trening jarayonida o'yinlardan unumli foydalanishga harakat qilish zarur.

## 7.5. 0'yinlarning turlari.

O'yinlar o'z maqsadiga ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi. Trening jarayonida o'tkaziladigan o'yinlami ulaming maqsadiga ko'ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- Tanishuv
- Tana (taktil) to'siqlarini bartaraf qiluvchi o'yinlar
- Guruhning kayfiyatini ko'taruvchi o'yinlar
- Kuzatish va eshitish o'yinlari

- Ishonch muxitini xosil kiluvchi o'yinlar
- Ahillashtiruvchi
- Sinchkovlikni oshiruvchi
- Diqqatni jamlovchi

Kuyida biz anashu myin turlarining asosiy jihatlariga to'xtalamiz:

Tanishuv o'yinlari Har bir guruh bilan olib boriladigan mashg'ulot qanday maqsadda o'tkazilishidan qat'iy nazar guruh a'zolari bir-birlarini yaxshiroq bilib olishlari uchun ishtirokchilaming tanishishuvidan boshlanadi. Bu qismni o'yin orqali tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Tanishuv o'yinlarii — guruhning barcha a'zolari o'zlarini har jihatdan qulay, dadil tutishlari, shuningdek, o'zaro ishonch hosil qilishlari uchun birinchi va eng muhim qadam hisoblanadi.

Ishtirokchilar bir-birlariga notanish bo'lgan guruhlarda guruh a'zolari bir-birlari bilan inuloqatga kirishishlari oson boTishi va bir-birlarining ismlarini eslab qolishlari uchun yordam beruvchi o yin o'tkazish lozim. Eng borada keng tarqalgan o 'yin — "Qor uyumi" o'yinidir. Ayniqsa, ishtirokchilar faqat ismlarinigina aytish bilan kifoyalanib qolmasdan, o zining holati, kayfiyati va hatto harakterini ham ifodalay olishiga imkon beruvchi o yinlar o'tkazilsa, bu juda yaxshi samara beradi. Bunday o yinlarga Ismlar fazilatlar", "Men hech qachon ... maganman", "Mening kayfiyatini", "Holatimning rangi" kabi o'yinlami kiritish mumkin Tana (taktil) to'siqlarini bartaraf qiluvchi o'yinlar Odam notanish guruhga tushib qolsa, u albatta o'zini noqulay, siqilib qolganday xis qiladi, uyaladi. Agar biz kimningdir yelkasiga qo'limizni qo'yishga, soch turmagining u yoq bu yog'ini to'g'rilab qo'yishga haddimiz sig'sa, o'sha odam yonida o zimizni dadil va xotirjam his etamiz. Agar odamlar bir-birini yaxshi idnimasa, bilmasa, bunday xatti-harakatlami bajara olmaydilar va o'zaro muloqotda mhiy zo'riqish, noaulaylik kabi hislar paydo bo'ladi. Lekin shunday o'yinlar borki, ular bunday to'siqlami bartaraf etishga yordam beradi. "Tana to'siqlarini bartaraf qjilish" o'yinlarining mohiyati shundaki, guruh a'zolari bir-birlariga tega olish lariga imkon yaratiladi. Guruh a'zolari o'rtasida o'zaro ishonch va ishchaulik muhirim yuzaga keltirish uchun bu o'yinni "Tanishuv o'yinlari" o'tkazilganidan keyinoq boshlash maqsadga muvofiqdir. Bu o'yinning eng oddiy va keng tarqalgan turi "Chigilni yechish"dir.

### **Guruhning kayflyatini ko'taruvchi o'yinlar**

Bu tipdag'i o'yinlarga quvnoq, kayfiyatni ko'tarishga asoslangan hazil-o yinlar kiradi. Shuningdek, ularga guruh a'zolari bir-birlariga roinnatdorchilik bildiradigan, iliq so'zlar aytadigan, tilaklar, komplimentlar ijobiyl psixologik muhit yaratadigan va kayfiyatni ko'taradigan o'yinlarni misol qilib keltirish mumkin. Bu o yinlami uchrashuvning samarali tugashini ta'minlash uchun mashg'ulotning oxirida o tkazish tavsiya etiladi.

### **"Kuzatish va eshitish" o'yinlari**

Bu xil O'yinlar ishtirokchilardan boshqa ishtirokchilaming ko'rinishi, ularning nimalami gapirayotgani, nimani his qilayotganligiga (masalan, qaerda yashashi, qachon tug'ilganligi kabilarga) e'tibor berish talab qilinadi. Ya'ni, bu o'ymlaming qatnashchilari norasmiy sharoitda, norasmiy holatda bir-birlari haqida ko proq ma'lumotga ega boiadilar.

### **Ishonch muhitini hosil qiluvchi o'yinlar**

Bunday o'yinlaming asosiy maqsadi ularning nomlanishidayoq namoyon boTadi. Ular yordamida guruhda o'zaro ishonchli munosabatlami shakllantirish mumkin. Bu o'yinlarni guruh bilan ish boshlagan dastlabki paytda emas, balki boshlovchi va guruh a'zolarida guruhga nisbatan qandaydir ishonch hissi paydo boTishi uchun keyinroq o'tkazish ma'qulroq. Bu o'yinlarda guruh ishtirokchilari o'rtasida taktil aloqalar boTishi natijasida ular orasida o'zaro ishonch, ahillik paydo boTadi. Shuningdek, bunday o'yinlami o'tkazish jarayonida ishtirokchilaming bir- birlariga nisbatan o'zaro mas'uliyat bilan munosabatda bo lishi ham namoyon boTadi. Bunday o'yinlarga "Elkama-yelka" o'yinini misol keltirish mumkin.

Endi esa bo lajak mutaxassislamning o'yinlami adashtirib yubonnasliklari uchun ularining har biriga misollar keltirib o'tamiz:

Tanishuvni amalgal oshirish uchun o'tkaziladigan o'yinlardan birini misol keltiramiz:

### **"Olma(koptok)ni uzat" o'yini**

Qatnashuvchilar davra qurib o'tiradilar. Boshlovchi "Mening ismim... Men ...ni vnxshi ko'raman (xohlagan narsa yoki kishini aytishi mumkin)", — deydi va olma (koptok)ni biron kishiga qarab otadi. Olma (koptok)ni ilib olgan ishtirokchi ham o'z navbatida o'zini shunday tanishtiradi va olma (koptok)ni boshqa ishtirokchiga u/.itadi. O yin barcha ishtirokchilar o'zlarim tanishtirib bo'Tgunlariga qadar davom rлади.

Ishtirokchilar tanishtirish jarayonida aytilishi mumkin bo'lган jumlalar:

- Men ... fazilatga ega boTgan kishilami yaxshi ko aman
- Bolaligimda yaxshi ko'rgan ovqatim (qo'shig'im, kitobim)... edi.
- Men yoqtiradigan rang (gul yoki meva) — ...

Ahillashtiruchi o'yinga misol sifatida "Botqoqlik" o'yinini keltirish mumkin, bu o'yin quyidagicha o'tkaziladi:

**"Botqoqlik" o'yini** Buning uchun kartondan yasalgan o'rtacha kattalikda "likopchalar" kerak bo'ladi. Ularning soni 9 ta boTishi kerak. Guruh a'zolari qator bo Tib, birin-ketin tarelkalarga oyoq qo'yib botqoqlikdan o'ta boshlaydilar, atrofda esa (ikkinchi guruh a'zolari) qaroqchi timsohlar yuradi. Timsohlar likopchami olib qo'yishga shay turadilar, maqsad guruhning har bir a'zosi likoblardan oyoq uzmasligi, hech bo lmaganda bir oyoqning uchi bilan ulami bosib turishi kerak. Agar guruh a zolari ittifoq bo'lib harakat qilsalar, mag'lubiyatsiz botqoqlikdan o'tadilar, biron ta likopchani timsohga bermaydilar.

Ishtirokchilami faollashtiruvchi o'yinlardan biri "Joy almashish" bo'lib, u cijiyidagicha o'tkaziladi:

### **Joy almashish**

Ishtirokchilar doira atrofida o'tiradilar, trener esa doira o'rtasida turadi.

Yo'riqnomasi: "Hozir bizda tanishishni davorn ettirish imkomiyati bo'ladi.

Buni shunday qilamiz: doira markazida turgan kishi (hozircha bu men boiaman) f biror umumiy belgiga ega bo'lган narsani hammaga taklif etadi va kimda shu j belgi bo'lsa u joyini almashadi. Masalan, men shunday deyman: "Singlisi borlar joyingizni almashtiring" va hamma singlisi borlar joylarini almashtirishlari kerak. Bunda doiraning markazida turgan kishi bo'shagan joylardan bmm egallahsga . ulgurishi kerak. Markazda joysiz qolgan ishtirokchi esa o'yinni davorn ettiradi".

Ishtirokchilarda sinchkovlikni oshirish maqsadida ularga quyidagi o yinni taklif v etish mumkin:

### **"Hafta kunlari" o'yini**

Ko'rsatma: trening ishitrokchilari doira bo'lib o'tiradilar, ular hafta kunlarini navbat bilan aytishlari kerak. Shu hafta kunlaridan 2 ta yoki 3 tasini aytish ta'qiqlanadi, masalan, seshanba, payshanba va shanba kunlan. Unmg o'miga haftaning qaysi kuni bo'lsa 3- kun bo'lsa 3 marta mushuk bo'lib, 6-kun I bo'lsa 6 marta bedana, 2-kun bo'lsa 2 marta xo'roz, it va x. bo'lib ovoz chiqarishi kerak. Agar yanglishsa o'yindan chiqariladi va oxirda 2 nafar ishtirokchi qolguncha davorn etishi mumkin.

Ishtirokchilaming diqqatm jamlash maqsadida ham o'yinlar o'tkazish mumkin. Masalan, "Antonimlar" o'yinini o'tkazish:

### **"Antonimlar" o'yini**

Ko'rsatma: Buning uchun qatnashchilar aylana bo'lib o'tiradilar, ularga quyidagicha ko'rsatma beriladi: "Hozir biz bir-birimizga koptok oshiramiz, uni otishdan awal biron bir holat yoki hissyotni aytib boshqa ishtirokchiga otiladi. Koptokni olgan qatnashchi esa, o'sha hissiyat va holatning antonim variantini aytadi, so'ng u ham boshqasiga koptok otadi va o'yin shunday davorn etadi, masalan: "men qayg u deb, koptokni ...ga otaman, u esa koptokni ilib olib, shu so'zga antonim so z quvonch deb koptokni ...ga ya'ni boshqasiga oshiradi va h.k. o'yin davomida koptokni qayta-qayta bitta qatnashchisiga otmaslikka e'tibor bering.

## **VII. BOB BO'YICHA TOPSHIRIQLAR**

Nazorat savollarasi

1. Mashqdan o'yinning farqi nimada?

2. O'yinning treningdagi mazmunini ayting?
3. O'yin haqidagi nazariyalami sanab bering.
4. O'yinlaming qanday turlari bor?

Mustaqil ish mavzulari

1. Turli xil o'yinlarga misollar yozing
2. Shaxsni barkamollashtimvchi treninglarda qo'Uaniladigan o'yinlarga misollar yozing
3. Stressm bartaraf etuvchi treninglarda o'yin usulining qo'llanilishini tahlil qiling

Testlar

1. Curuh bilan ishslash vositasi nima?

A) Sahna kurinishi

B) Trening

V) \* O 'yin

G) Seminar

2. Trening jarayonida o'tkaziladigan har qanday o'yin o'zida 2 xil mazmunni uks ettiradi.

Ushbu mazmunlar to'g'ri ko'rsatilgan qatorni beigilang.

1. O'yinda qatnashuvchilar uchun rnuhim bo'lgan dam olish, kayfiyatni ko'tarish

2. Boshlovchi uchungina ma'lum bo'lib bunda guiuu bilan ishslash jarayonida o'z oldiga qo'ygan muayyan vazifalami amalga oshirish

3. Boshlovchi uchun zarur yo'nalishda harakatlanish ko'zda tutilgan

4. Boshlovchi va ishtirokchilami munosabatini yaxshilash vositasi

A) \*1,2

B) 2, 3

V) 1,3

G) 2,4

3. Agar ishtirokchilar orasida «O'yin»da ishtirok etishni xohlamaslik hollari yuzaga kelsa ularga... deyish kerak.

A) «O'ynasangiz yaxshi boiardi»

B) \*«Albaita o'ynaymiz»

V) «O 'ynamasangiz ertaga kelmang»

G) «Unday holda buni kuzatib turing»

4. Guruhda o'yinni boshlashga bo'lgan xohishni so'rash...

A) \*Tavsiya etilmaydi

B) Vaziyat ko'rsatadi

V) Albatta so'rash kerak

G) So'rab qo'yish lozim

## VIII. R O L L I O 'Y IN L A R

### 8.1. Rolli o'yinlar va ularning o'ziga xosligi

Biz o'z hayotimizda o'zimizga bog'liq bo'imagan holda turli ijtimoiy rollarga! duch kelamiz va o'zimiz ham turli xil ijtimoiy rollami bajarishga majbur bo'lamiz, Masalan, er, xotin, ota, o 'g 'il, ona, qiz, y o 'lovchi, xizmatchi, talaba, do'st, boshliq v a ' h.k. Bular bizning faqat inson ekanligimizni anglatuvchi tushunchalargina emas, balki biz bajaradigan muayyan ijtimoiy rollar hamdir. Ulardan har biri o ziga xos ijtimoiy jihatlarga, xuquq va burchlarga, xulq-atvor qoidalariga va normalariga ega.

Trening jarayonida qo'Tlaniladigan rolli o'yinlar hayotiy vaziyatlar va munosabatlar modellashtiriladigan, maxsus tashkil qilinadigan o'yinlar lnsoblanadi. ularning trening jarayonidagi maqsadi - shaxslararo munosabatlar harakterini anglatish va bu munosabatlami yaxshilash ko'nikmalarini hosil qilishdan iboratdir.

Trening jarayonida rolli o'yinlar ko'pincha turli ijtimoiy rollami bajaruvchi kishilar orasidagi munosabatlami muvofiqlashtirish uchun taklif qilinadi.

Rolli o'yinlarda eng asosiysi - muloqot yoki munosabatdir. Bu jarayonda biz o'z pozitsiyamizni o'zgalamikiga moslashtirish jarayonida munosabatlaming yangi usullarini ishlab

chiqishimiz mumkin: bunda odatlanilgan xulq-atvoming yaxshi va yomon jihatlari yaxshiroq anglanadi yoki boshqa ishtirokchilar bilan bevosita muloqot jarayonida yangi xulq-atvor ko‘rinishlari shakllantiriladi.

Rolli o yinlami o‘tkazish jarayonida ishtirokchilar o‘zlarini yoki boshqalar ijoba cigan rollar asosida xulosa chiqarish, tajriba to‘plash, uni anglash va kundalik hayotga ladbiq etishi juda muhim natijadir. Bundan tashqari rolli O‘yinlaming ishtirokchilar crishadigan natijalariga ko‘ra quyidagi o‘ziga xosligi mavjud:

1. Ishtirokchilarga o‘zining yashirin his va hissiyotlarini bildirish, namoyon qilishga yordam beradi.
2. Ishtirokchilarga o‘zining shaxsiy muammolarini muhokama qilish imkonini beradi.
3. Ishtirokchilarga atrofdagilaming his-tuyg‘ularini chuqur his qilish va ularning motivasiyalarni tushunish imkonini beradi.
4. Xulq-atvoming turli xil shakllarini mashq qilib ko‘rish imkonini beradi.
5. Ishtirokchilaming ustanovkalarini o‘zgartirishga sabab bo‘lishi mumkin.
6. O‘zining his-tuyg‘ularini nazorat qilishga o‘rgatadi.
7. Rolli o‘yinlar: ishtirokchilaming ustanovkalarini va his-tuyg‘ulari bilan ishlashning eng pozitiv va xavfsiz usuldir.

Rolli o yinlar ishtirokchilaming ustanovka va his-tuyg‘ilarini namoyon qilisbida pozitiv va xavfsiz holat yaratadi. Pozitivligi - muhokama va tahlil qilishning qonuniy predmeti sifatida tan olinganligi bo‘lsa, xavfsizligi - ishtirokchining shaxsiy xulq-atvori emas, balki o‘yin jarayoni namoyon etgan xulq-atvori tahlil qilinadi. Trcner tomonidan o‘yin jarayonida ishtirokchilaming hech qachon salbiy jihatlariga urg‘u berilmasligining ta‘kidlanishi hambunga imkonini beradi.

Rolli o‘yinlarda an‘anaviy metodlardan farqli ravishda tashqi muhit bilan bevosita bog‘Tiq bo‘lgan muammolar va vaziyatlar o‘ynaladi. Rolli o‘yinlarda ishtirok etgan ishtirokchi trening tugaganidan so‘ng atrofdagilar bilan munosabatga kirishda imga kerak bo‘lgan xulq-atvor usularini rolli o‘yin orqali ko‘nikma, malaka va tajribalarga ega bo‘lish orqali o‘zlashtiradi.

## **8.2. Rolli o‘yinlarni o‘tkazish bosqichlari**

- Rolli o yinlar o tkazilishi uchun ma’lum bir vaqt belgilanishi kerak, belgilangan vaqt ishtirokchilarga e ion qilinadi va trener tomonidan nazorat qilib boriladi:
  - O‘yin qoidalari o‘yining mohiyati va mazmunini tushuntirmasdan oldin tanishtirish maqsadga muvofiq va bunda eng yaxshi usul — har bir ishtirokchi qoidalarga rioya qilishini og‘zaki tasdiqlashi lozim;
  - Trener o‘yin qoidalardan so‘ng o‘yin maqsadini (nima uchun bu o‘yinni o‘tkazayotganligini) tushuntiradi. O‘yining mazmuni o‘qib beriladi yoki u aks etgan f kartochka ishtirokchilarga tarqatiladi va ularga o‘zini tutishi lozim bo‘lgan ma’lum bir vaziyat yoki holatlar taklif etiladi;
  - Rolli o‘yin tugaganidan so‘ng hosil qilingan tajriba muhokama qilinadi. Trener rolli o‘yin qatnashchilariga fikrlarini bayon qilishlari uchun ko‘maklashadi.
  - Fikrlami bayon etish ham qoida asosida — ma’lum tartib va shaklda amalga oshiriladi, bunda har bir qatnashchining o‘z kechinmalari va fikrlarini bayon qila olishi juda muhimdir, buning uchun trener o‘yin jarayonida qatnashchilarda namoyon bo‘lgan har bir hissiyotning yuzaga chiqishini qo’llab-quvvatlab, rag‘batlantirib borishi zarur;
  - Agar o‘yin qatnashchilaridan birortasi o‘z kechinmalari bilaq o‘rtoqlashishni istamasa, uning bu istagini albatta inobatga olish kerak, lekin o‘yindan« keyingi o‘tkaziladigan psixogimnastik mashqlarda uning bu holatini yo‘qotishga e’tibor berish kerak.

## **8.3. Rolli o‘yinlarni o‘tkazish qoidalari**

Qoidalalar nafaqat o‘yinga, shuningdek uning yakunlarini muhokama qilishga ham tegishlidir. O‘yin qoidalari o‘yining mazmunidan kelib chiqqan holda ishlanadi, bunda o‘yindagi o‘zaro munosabatlar va tajriba almashishga katta ahamiyat berish zarur.

1. O‘yinda qatnashayotganda har bir ishtirokchi o‘zini samimi tutishi va o‘zgalar bilan ham samimi munosabatda bo‘lishi, shuningdek unga taklif qilingan rolga mas’uliyat bilan yondashishi

lozim.

2. Natija va tajribalami o'rtoqlashayotganda ishtirokchilaming likri treneming fikriga mos kelmagan holatlar bo'lganida, trener o'z fikrini o'tkazishga harakat qilmasdan, ulaming nuqtai-nazarini hurmat qilishi zarur.

3. O yin va muhokama jarayonida hamma bir-birining fikrini bo'lmasdan, diqqat bilan eshitib, boshqa ishtirokchilaming o'yin jarayonida nimalami his qilganligini tushunishga harakat qilishi zarur.

4. Muhokamada barcha ishtirokchilar faqatgina o'z kechinma va hissiyotlari liaqida gapirishi, boshqalaming xatti-harakatini taxlil qilmasligi sham Ulaming fikrini, tajribasini o'zidan eshitgan ma'qulroq.

Rolli o'yinlar trening jarayonida eng foydali va asosiy usul ekanligi ma'lum. I.ekin shu bilan birga t a 'kidlab o 'tish lozim, uni o 'tkazish va o 'zlashtirish ham trener uchun, ham ishtirokchilar uchun qiyinroq kechishi tabiiydir. Quyidagi tavsiyalar bu usulning foydalilagini va samarasini oshirishga yordam beradi:

- Treneningni dastlabki kunlarida rolli o'yinlarga ko'ngilli, sergap va faol ishtirokchilami tanlab olish lozim;
- Treneming o'zi ham bosh rollardan birini ijro etishi maqsadga muvofikdir;
- Ishtirokchilarga qaysi yo'naliш bo'yicha harakat qilishlari lozimligini tushuntirish yoki ulaming ishni boshlab olishlari uchun birorta ssenariyni taklif etish kerak;
- Ishtirokchilarga instruksiya berishda turli xil "rekvizit"lar — ro'mol, sharf, do'ppi, ismlar yozilgan kartoclikalar, pariklar va h.k.lardan foydalanishlari mumkinligini aytish kerak;
- Trener imkonni bo'Tsa, vaziyatni humor bilan to'ldirishga harakat qilishi lozim;
- Butun guruhni juftliklarga bo'Tib tashlash va har bir juftlik hayotiy vaziyatlardan kelib chiqib, ma'lum bir sahnani (masalan, ota-o'g'il kabi rollar) ijro etishini so'rash kerak.
- Shu tarzda butun guruh oldida mavjud bo'lgan xijolatpazlik, bir-bindan uyalish kabilar yo'qoladi.

#### **8.4. Treningda "Psixodramma" usulidan foydalanish**

Ijtimoiy-psixologik treningda qo'llaniladigan eng qiziqarli va eng samarali usullardan biri psixodramma hisoblanadi. Psixodramma - bu trener tomonidan ishtirokchilarga biror-bir hayotiy (odatda, nizoli) yoki shartli vaziyatning taqdim etilishi va bu vaziyatlarning 3-4 kishilik guruhlarda o'z rollaridan kelib chiqib ijro etishidir. Psixodramma rolli o'yinlarning murakkabroq shakli hisoblanadi. Ulaming umumiyligi shundaki, har ikkalasida ham rollar ijro etish talab etiladi. Rolli o'yinlardaf rol sifatida turli xil predmetlar (ruchka, chashka, parta), jonzotlar (bo'ri, quyonjning ham ishtiroki mavjud bo Isa, psixodrammada faqat ijtimoiy munosabalar aks etgan' rollar (ota, o'g'il, direktor, psixologning mavjud bo'lishi talab etiladi.

Masalan, psixodrammada oilaviy vaziyatlardan biri sifatida ota-onasi va far: (o'g'il yoki qizjlaming dam olish kunini birgalikda o'tkazishi kerakligining 1 muhokamasi o'ynaladi. Bu vaziyatning murakkabligi va muammoligi shundaki, dam olish kuniga oila har bir a'zosi o'z rejasini belgilab, kimlargadir va'da berib qo'ygan. Ushbu vaziyat muhokamasini tashkil etish psixodramma usulida amalga oshiriladi.

Yoki yana bir vaziyat bir guruh insonlaming kimsasiz orolga tushib qolishlari | va shu orolda ma'lum muddat hayot kechirishini ko'rsatib berish taklif qilinadi. Ishtirokchilarga guruhnинг har bir ishtirokchisi orolga tushib qolguniga qadar kemada ma'lum rolni (kapitan, kapitan yordamchisi, dengizchi, yo'lovchi) bajarib kelganligi izoh sifatida aytildi.

Muammoli holatlar, vaziyatlar va ulami qay tartibda ijro etish kabi jihatlar trener tomonidan guruhning tarkibi va ishtirokchilaming hayotiy muommolaridan kelib chiqqan holda tanlanadi.

Psixodrammani o'tkazishning turli xil modifikasiyalari (turlari) mavjud:

1. Rollami almashish - ishtirokchilar rollami o'ynab bo'lganlaridan so'ng ishtirokchilarga rollarini almashinish taklif etiladi. Buning afzalligi shundaki, ma'lumj pozitsiyada rol ijro etgan ishtirokchi o'yin shartlariga ko'ra, keyinroq kontrpozitsr (akspozitsiya)ni egallahsga majbur boladi va bunda u bir necha daqiqa avvl o'zi aytgan gap-so'zлari yoki xatti-harakatlarini to'g'ri,

noto‘g‘riligini tushunib oladi.

2. Bitta vaziyatning turlicha talqini - psixodrammaning bu.usulida aynan bitta vaziyat ishtirokchilar tomonidan navbatma-navbat va asosiysi boshqacha, turlicha tarzda o ‘ynalishi talab etiladi. Natijada inson aynan b .r vaziyatda o ‘z xarakterining turli tomonlarini namoyon etish hamda o‘z xulq-atvoriga ko‘p narsa bog‘liq!,ligini bilib olishi mumkin.

3. Barcha ishtirokchilaming qatnashuvi - aynan bitta vaziyatda turli ishtirokchilar o ‘z xarakter xususiyatlaridan kelib chiqib rol o ‘ynashlari hisoblanadi. Shundagina inson o‘zi o‘ynagan rolni boshqalar qanday ijro etishini, aynan shu muommoni boshqalar qay tarzda hal qilayotganligim ko‘rad,. Shuningdek, chetdan kuzatganda u yoki bu muloqot usuli qanday ko‘rinishim hamda boshqalar uni qanday t/ubul qilishlanni bilib olishi mumkin.

Psixodrammaning samarali usul ekanligi yana shunda namoyon bo‘ladiki, u orqali ishtirokchilarda real hayotiy vazivatlarda muvaffaqiyatga enshish mumkmhgiga ishonch hosil qilinibgina qolmasdan, shunga mos ko‘mkma va malakalami hosil qilishga ham yordam beradi. Shuningdek, shaxsiy maqsadlarga erishishga, garmonik munosabatlar o‘rnatishga ko‘maklashadi, msonlar bilan muloqotga kirishish uchun maqbul usullami izlashga va topishga undaydi.

Psixodramma fimsional treningdan qaysi jihatlari bilan farq qiladi? - degan savolga javob berish lozim. Bu savolga quyidagicha javob berish mumkin: Birinchidan, improvizasiyalanganligi bilan farq qiladi. Funksional treningda trener tomonidan ijtimoiy xulq-atvomi ,jro etuvchi asosiy shaxs oldiga aniq maqsad qo‘yiladiki, bunda qanday yo‘l bilan bo‘lmasin, albatta natijaga enshish lozim bo‘ladi. Qolgan ishtirokchilar esa to‘sqliami hosil qilishlan kerak bo‘ladi.

Psixodrammada esa qandaydir muammo o‘rtaga tashlanadi va barcha ishtirokchilarga nizoli vaziyatni hal etish yo‘llarini topish vazifasi beriladi va buning uchun ularga to ‘liq imkoniyat beriladi. Har bir ishtirokchi o ‘z shaxsiy tasavvurlari va imkomyatlanga mos holda o‘z sherigiga ta’sir etish usullarini tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shunga mos holda psixodrammada har bir shaxsning o‘ziga xos jihatlari: xarakter xususiyatlari, axloqiy ustakovkali, hayotiy qadriyatlari keng darajada namoyon boiadi.

Psixodrammaning eng ijobjiy jihat shuki, ishtirokchi o‘zining haqligiga ishonadi va o‘z xulq-atvorini shu ishonchga muvofiq holda namoyon qiladi, ya’ni o‘z hayotiy qadriyatlariga tayangan holda o‘zini tutadi va buning ijobjiy samara berishiga ishonadi. Ammo u qandaydir tushunarsiz sabablarga ko‘ra o‘zining hulq-atvori atrofdagi insonlar bilan o‘zaro munosabatlarni yomonlashtirayotganligini anglaydi. Shuningdek, psixodramma ma‘lum bir vaziyatlarda nima qilish kerakligini “umuman bilmay qolgan”lar uchun ham juda foydali.

Bundan tashqari, psixodrammaning oxirida o‘tkaziladigan sahnalashtirilgan vaziyatlarning guruhiy muhokamasi ham foydalidir. Bunday muhokama ishtirokchilarga shaxslararo o‘zaro munosabatlarga salbiy ta’sir etayotgan o‘z xarakteridagi kamchiliklami bilib olishga yordam beradi.

Muhokama psixodramma metodining ikkinchi muhim tamoyili hisoblanadi. Muhokama jarayoni amalga oshirilgan pozitsiyaga nisbatan boshqa ishtirokchilaming reaksiyalarini chuqur bilib olishga yordam beradi. Odatda, ko‘pchilik ishtirokchilar o‘z fikrlarida berilgan rolini qoyilmaqom qilib bajargani va eng zo‘r natijaga erishganiga ishonib, juda xursand bo‘ladi. Ammo muhokama jarayonida ular o‘z hulq-atvorining boshqa insonlarda qandaydir yoqimsiz hislar uyg‘otganligini bilib hayron qoladilar. O ‘zaro fikr almashish jarayonida ishtirokchilar o ‘zlarida paydo bo‘lgan fikrlar va kechinmalami bilan o‘rtoqlashadilar.

Bunday muhokama jarayonida ayrim ishtirokchilar ko‘pincha, o‘zidagi qatiyatilikni atrofdagilar qo‘pollik deb baholab, salbiy munosabat bildirsalar, hayron bo‘lishadi, Aksincha bo‘lishi ham mumkin: qatiyatsizlikni psixodrammadagi sheriklar mulozamatlilik deb qabul qilib, ijobjiy baholaydilar, bu ham insoimi ajablantiradi. Demak, psixodrammaning afzalligi shuki, ushbu metod ishtirokchiga faqat yangi rollami bajarish imkoninigina bermasdan, balki o‘z xarakterini qaytadan baholashga hamda atrofidagi insonlarga munosabatini yangicha tarzda ko‘rib chiqishga ham yordam beradi. Buni quyidagicha izohlash mumkin: inson kundalik hayotda bolalami tarbiyasida turli muommolarga duch keladi, bu muommolami bartaraf etishning eng samarali usullaridan biri bolalaming kundalik tarbiyasini “foydali o‘yinlar” bilan uyg‘unlashtirish hisoblanadi. Masalan, bolani uxlatishdan awai u bilan birgalikda qo‘g‘irchoqni uxlatish mumkin.

Bunda bolaga tarbiyachi yoki ota-onada roldi bo'lib ko'rish imkonini berish kerak. Bu kichik o'yindan so'ng ko'pchilik ota-onalar o'zi ham og'ir-bosiq va muloyim tortib qolganligini qayd etishgan. Kichik maktab yoshidagi bolaning uy vazifasini tekshirayotganda aqlli va mehribon o'qituvchi rolini o'ynab ko'rish yoki bolaning o'zini o'qituvchi qilib qo'yish ham foydali hisoblanadi. O'quvchilar o'mida esa qator terib qo'yilgan o'yinchoqlar tanlanadi. Bola bajonidil ulami doskaga chaqiradi va ulaming o'miga hamma bilganlarini o'zi gapirib beradi. Yoki shifokorga borishdan avval bola bilan "polikiinikaga chiqish" o'yinini o'ynash mumkin. Bu o'yinda bola shifokor o'mida bo'lsa, u mijozni (quyon, ayyiq) qo'rqmaslikka chaqiradi. Ota yoki ona esa unga mijoz o'zini qanday tutishi kerakligini ko'rsatib beradi.

Psixodrammada konkret o'yinli vaziyatlami tanlash trenerning qiziqish va fantaziyasiga hamda mahoratiga bog'liq.

### **VIII BOB BO'YICHA TOPSHIRIQLAR**

N azorat savollari

1. Rolli o'yinlaming o'ziga xosligi nimada?
2. Rolli o'yinlami o'tkazish qoidalarini sanang.
3. Psixodramma bilan rolli o'yining farqi nimada?
4. Psixodrammaning treningdagi ahamiyati nimada?

Mustaqil ish mavzulari

1. Rolli o'yinlarga misollar yozing
2. Shaxsni barkamollashiruvchi treninglarda qo'llaniladigan rolli o'yinlarga misollar yozing
3. Stressni bartaraf etuvchi treninglarda psixodrammaning qo'llanilishini tahlil qiling

Testier

1. Trening jarayonida qo'llaniladigan, hayotiy vaziyatlar va munosabatlar modellashtiriladigan, maxsus tashkil qilinadigan usulning nomini aniqlang

- A) Rolli o'yinlar
  - B) Psixodramma
  - V) Psixogimnastik mashq
  - G) Aqliy hujum
2. Rolli o'yinlarda eng asosiysi nimaligini aniqlang

- A) Muloqot yoki munosabat
- B) Kayfiyatni ko'tarish
- V) Harakat qilish
- G) Rol o'ynash

3. Tashqi muhit bilan bivosita bog'liq bo'lgan muammolar va vaziyatlar qaysi usulda o'ynaladi?

- A) Rolli o'yinlarda
- B) Psixodrammada
- V) Psixogimnastik mashqda
- G) Aqliy hujumda

4. Rolli o'yin tugaganidan so'ng hosil qilingan tajriba muhokama qilmadi -bu rolli o'yining qaysi xususiyatiga tegishli?

- A) Bosqichlariga
  - B) Qoidalariga
  - V) Normalariga
  - G) Tavsiyalariga
5. Rolli o'yin va psixodrammaning umumiyligi nimada?
- A) har ikkalasida ham rollar ijro etish talab etiladi
  - B) har ikkalasida ham hayotiy vaziyatlar o'ynaladi
  - V) Har ikkalasida ham ijtimoiy vaziyatlar o'ynaladi
  - G) har ikkalasida ham kayfiyat ko'tariladi

## **IX. TRENER VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR**

### **9.1.Trener haqida tushuncha**

Hozirgi kunda trening atamasi kabi trener atamasining ham aniq standart va yo'nalishlari bo'Tmaganligi sababli bu mutaxassislarga qo'yiladigan talablar ham aniq tarzda asosla berilmagan. Zamoniyi psixologiyaning yangi atamasi boigan trener fenomeni to'g'risida gapishtidan oldin, trening tushunchasining mohiyatini takrorlab olish maqsadga muvofiqdir. Trening - bu shunday o'quv jarayoniki, bunda materiallaming nazariy bloki kichiklashtirilib, asosiy e'tibor ko'nikma va malakalami hosil qilish amaliyatiga qaratilgan boiadi. Yuqoridagi fikrdan kelib chiqqan holda tahlil qilinsa, trenerga quyidagicha ta'rif berish mumkin boTadi: trener ~ bu trening mavzusida belgilangan nafaqat nazariy bilimlami bilishi, balki shaxsiy va pedagogik tajribaga ega boigan, qatnashchilarga yangi va zarur bilimlami o'rgata oladigan, tayyor qarorlar boTmagan taqdirda tashkiliy faoliyatga o'rgatish qobiliyatiga ega boTgan shaxsdir. Yana bir ta'rif: trener bu - pedagogik qobiliyatlarga ega, tajribali, trening davomida keng majburiyatlar diapozonini amalga oshiruvchi va qo'yilgan vazifalami hal qiluvchi yetakchi shaxsdir.

"Trener" so'zi ingliz tilidan olingen boTib, trainer - mashq qildiruvchi, o'rgatuvchi ma'nolarini anglatadi. Trener - trening guruhini tashkil etuvchi va guruh bilan ishlovchi shaxs hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi - insonlar o'rtasida sogTom munosabatlaming boTishiga erishishdir.

Trening jarayonida trener har bir ishtirokchining psixologiyasi bilan ishlaydi. Inson psixologiyasining barcha jihatni esa juda nozik soha bo'lib, uning qaysidir joyiga noxosdan tegib ketish katta noxushliklarga, muammolarga, hattoki aziyatlarga olib kelishi mumkin. Shuni hisobga olgan holda treneming ishini qimmatbaho olmos (javohir) bilan ishlaydigan mohir zargaming ishiga o'xshatis mukin.

Mutaxassislar o'zaro "Trenerlik vazifasida tunsh osonmi yoki qiyin?" degan savolga javob izlashgan va bu savolga javobni ikki xil oifadagi kiilardan quyidagi ikki xil variantda eshitish mumkinligini qayd etishgan.

Birinchisi - qiyin deydi, trenerlik kasbi bilan shug'ullanib kelayotgan mutaxassilar. Ikkinchisi - oson deydi, trening guruhalarda shunchaki ishtirokchi sifatida qamashgan kishilar. Hozirgi kunda bu kasbning aniq standart va yo'nalishlari bo'Tmaganligi sababli bu soha mutaxassislariga qo'yilayotgan talablar ham tarqoq holdadir. Bu sohada faoliyat yuritgan mutaxassislar ham trener qanday sifatlarga ega boTishi kerakligi haqida turlicha fikr bildiradilar. Quyida shu sohadagi adabiyotlar tahlili asosida trenerlik kasbi uchun zarur bo'igan talablaT qatorini havola etamiz.

### **9.2.Trenerga qo'yiladigan umumiyl talablar**

Trener har doim trening mashg'u!otni o'tkazishga kirishishdan avval o'ziga:

- Men qanday maqsadga erishmoqchiman?
- Men nima uchun shu maqsadga erishmoqchiman?
- Men qanday vositalar bilan unga erishmoqchiman? degan savollarini berishi lozim. Buning uchun u albatta reja va dastur tuzib olishi kerak. Trening uchun reja va dastuming qay darajada ahamiyatliligi va uni tuzishda nimalarga e'tibor berish lozimligi haqida yuqorida so'z yuritganmiz.

Trening mashg'ulotlari samarali o'tishi uchun trenerdan katta mahorat talab etiladi. Trener har tomonlama rivojlangan, rejaiashtirish va tashkillashtirish tajribasiga hamda qobiliyatiga, eng muhim muloqot madaniyatiga ega boTishi talab etiladi. Trener hech qachon trening qatnashchilaridan kam bilimga ega bo'lmasligi kerak. Trener qisqa vaqt ichida qarorlar qabul qilish va qatnashchilaming savollariga javob berish mahoratiga ega bo'lishi kerak.

Bundan tashqari malakali trener uchun quyidagilar xos boiishi, ya'ni u quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- Har qanday vaziyatdan chiqa oladigan;
- Malakali kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan;
- Guruhda terapevtik iqlimi yarata oladigan;
- Muammoli vaziyatlarga aralasha oladigan va undan chiqa oladigan;
- Muammoning yechimini birgalikda topish taktikasiga ega bo'lgan shaxs bo'lishi lozim.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda yana shuni ham hisobga olish kerakki, guruhni boshqarayotgan trener shaxslar bilan ishlaydi, har bir shaxs esa o'ziga xos individuallikka egadir. Shu bilan birga har bir shaxs o'ziga xos qadriyatlar tizimiga ham ega. Tabiiyki ular shu jihatlari bilan bir-biridan hamda trenerdan farq qiladi. Shulami hisobga olgan holda trener quyidagilarga amal qilishi lozim:

- Guruhning har bir a'zosiga individual yondashishi;
- Ishtirokchilarga "bosim" o'tkazmasligi;
- Har bir ishtirokchini qiyinayotgan savolga uning qadriyatlar tizimiga mos keluvchi javobni topishga ko'maklashishi zarur.

Trenerlik ishi bu asta-sekin kasbga aylanadigan, maxsus ko'nikma va malakalarga ega bo'lishdir. Trening jarayonini tashkil qilish va uni ohkazishda trenerdan juda ko'p narsa talab etiladiki, trener bo'Tish istagida bo'lган yoki trenerlik qilayotgan har bir mutaxassis bulami bilishi va amal qilishi zarur. Bu borada trenerlar va bo'lajak mutaxassislar quyidagi tavsiyalami bilishi lozim: ishcht guruh uchun qoidalar ishlab chiq.sh; har btr mashg'ulot uchun o'ziga xos ko'rsatma bera olish; guruh muhokamasini tashkil qilish; qatnashchilaming savollariga javob bensh va ulaming bajarayotgan ishlarini nazorat qilish; ssenariy mazmunini trening maqsadi asosida tahlil qilish; qatnashuvchilaming emotsiyonal holatini nazorat qilish va ularga psixologik yordam berish; har bir mashg'ulotga yakun yasash va uyga vazifa berish; mashg'ulot oxirida ishtirokchilarga trener haqida o'z fikrini bayon etishga imkon berish.

Bundan tashqari ishtirokchilami qiziqtms, ulaming mustaqil ishlashiga imkon yaratish kerak. Hech bir qatnashchini muhokama qilish kerak emas, ishtirokchilarga o'zini bir-birlaridan yuqori tutmasligini tushuntirish, o'zi esa mutaxassis ekanligini ta'kidlayvermasligi kerak.

Eng muhim, trenerlik qilayotganda shuni unutmaslik kerakki, Uener o'qituvchi emas. lining vazifasi - sharoit, vaziyatni yaratish yoki ishtirokchilarga ko'maklashishdan iborat.

Har qanday trener trening mashg'ulotlarini olib borish uchun katta trenerlik tajribasi va mahoratini egallashi kerak. Mashg'ulotlar jarayonida ishtirokchilaming ijodkorligi talab etilgan holatlarda trener quyidagilami yodda tutishi lozim: u gumhga rahbarlik qilmasligi; gumhga tayyor axborotlami bemasligi; gumh nima ish qilishi kerakligi to 'g 'risida maslahat yoki takliflar kiritmasligi kerak.

Mohir trener gumh bilan ishlash jarayonida nafaqat guruhning ahvoli, kayfiyati, muammosiga, balki har bir ishtirokchining ahvoli, kayfiyati, muammosiga ham katta e'tibor bilan qaraydi.

Treneming asosiy vazifasi — guruhning qiziqishini oshirib, ulami yo'naltirib va rag'batlantirib borishdan iborat. Ishtirokchilarning o'zi ishlashi uchun trener ularga faqat sharoit yaratib berishi lozim. Shunday qilinsa ishtirokchilar muammolami tahlil qilish va ma'lum bir xulosalarga kelish jarayonida o'zaro ishonch va hurmat ko'nikmalarini egallab boradi. Ishtirokchilar mustaqil ravishda biror fikrga kelsa, trener uni to'g'ri qaror sifatida qabul qilishi kerak. Trener har bir ishtirokchining ; muvoffaqiyatini rag'batlantirib, ularning yashirin iste dodlarini namoyon qilishlariga imkon yaratishi kerak. (M: ishtirokchi kechikib kelganda chiroyli qo'shiq yoki she'r aytishi; rolli o'yinda yaxshi rol bajarishi jarayonida).

### **9.3.Trener uchun asosiy kasbiy talablar**

Trener shaxsiga qo'yiladigan talablar doirasini kasbiy nuqtai nazardan qo'yiladigan talablar qatori bilan davom ettirish mumkin:

- Trener awalo o'zgalar shaxsiga xos bo'Tgan psixologik xususiyatlami juda yaxshi bilishi kerak (inglizlar aytganidek, "o'zgalar psixologiyasini bilish — ular ustidan hukmronlik qilishning bir shaklidir , degan naqlni esdan chiqarmaslik lozim, lekin bunda pedagogik alturizm, ya'ni o'zgalar manfaatini o'zinikidan ustun qo'yish hislati ham mavjud bo'lishi kerak)
- O'zining shaxsiy fazilatlari va psixologiyasini mukammal bilishi va uni boshqara olish qobiliyatiga ega bo'Tishi zarur.
- Har qanday chigal yoki ziddiyatli vaziyatlardan chiqib ketishni bilishgina emas, balki ularning oldini olishni ham bilishi, vaziyat taqazo qilganda esa uni bartaraf eta olishi kerak.
- Empatiya, ya'ni o'zgalar holatini chuqr his qila olish qobiliyatiga ega bo'Tishi zarur.

- O'zgaruvchanlik, moslashuvchanlik borasida aql sohibi bo lish, kutilmagan holatlarga o'zini oldindan tayyorlash, murakkab vaziyatlarda o'zini yo'qotmaslik xususiyatiga ega bo'lishi kerak.
- Ishtirokchilarning nutqini tinglash, noverbal harakat va mimikalarini anic tushunish, reaksiyalarining mohiyatini to'g'ri talqin eta olishi kerak.
- Ishtirokchilarning ehtiyoj va qiziqishlariga qarshi bonnasligi kerak.
- Rejalashtirish qobiliyatining boTishi, bunda kutilayotgan jarayonning barcha muhim va nomuhim jihatlarini oldindan taxminan bo'lsa ham tasavvur qilib, aniq reja tuza olishi kerak.
- O'ziga nisbatan ishonchning mavjudligi, real tafakkurga va kuchli irodaga ega bo'lishi kerak.
- O'z xatti-harakatlarini doimo m a'lum maromda ushslash, kerak b o 'lsa o'zidagi motorikani rivojlantirgan boTishi kerak.

### **Trenerlik qobiliyatiga oid talablar**

Mashg'ulotlami oiib boruvchi trenerdan quyidagi qobiliyatlar talab etiladi:

1. Maqsadga yo'nalganlik - treningni oxirigacha yetkazish, reglament qoidasiga rioya qilish.
2. Chidamlilik - treneming ushbu sifati guruhsda intizomni saqlashga yordam beradi.
3. Reaksiya tezligi - trening jarayonida yoT qo'yilgan xatolarga operativ holda diqqatni qarata olish.
4. Xanzma - treneming ishtirokchilar uchun qiziqarli boTa olishi, auditoriyani "yondira" olishi.
5. Yumor - trening jarayonida ajablanish, noqulaylik kabi holatlaming namoyon boTmasligiga yordam beradi.
6. Kommunikativ qobiliyat - shaxslararo va guruhlararo nizolarga yoT qo ymaslikni, guruh ishtirokchilariga ta'sir etishning samarali yoTlarini ta'minlab beradi.
7. Moslashuvchanlik - treneming har qanday holatga moslasha olishini ta'minlaydi.
8. Xatolami tuzatish - xatolami ko'ra olish, uni qanday tuzatishni bilish, xato qilib qo'yishdan qo'rmaslik kerak.
9. Shuhrat qozonish - 2-3ta muvaffaqiyat treneming mashhurligini ta'minlaydi.
10. Refleksivlik - bu kasbiy sifatlaming eng ahamiyatlisi bo'lib, anglash qobiliyatini va qanday vaziyatda nimani qoMlay olish keraklidir.

Yuqorida sanab o'tilganlar bilan bir qatorda trener dasturga mos ssenariylar tanlay bilishi, lozim bo'lganda ularni har bir aniq holat va vaziyatga moslashtirishi, mashg'ulotlami tashkil qilishda qatnashchilaming yoshi, jinsi, kasbiy malakalan, madaniyati va ehtiyojlariga mos ravishda dasturlarga o'z vaqtida tuzatishlar kiritish qobiliyatiga ega bo lishi, mashg'ulotlar shakli, vaqt, joyini ham yuqoridagi omillarga mos ravishda tanlashi treningni samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

### **9.4. Mutaxassislar tomonidan trener uchun talablar tahlili**

M.Kubrom tomonidan trenerlik qiluvchi mutaxassisning ishiga nisbatan quyidagi talablar ishlab chiqilgan:

Intellektual qobilivatlar: kuzatuvchanlik, faktlami jamlash, qiyoslash, sog'lom fikrlash, tahil qilish, ijodiy fikrlash, original tafakkur qobiliyatlarining mavjudligi.

Odamlami tushunish va ular bilan ishlav olish qobiliyat: ishtirokchilaming fikrini hurmat qilish, g'aliz va noo'rin bildirilgan fikrlarga nisbatan chidamlilik, yozma va og'zaki muloqotga kirisha olish qobiliyatining mavjudligi, ishontira olish hamda faoliyatga undovchi motivlами yaratish qobiliyatining mavjudligi.

Intellektual va emotsiyal etuklik: faoliyat va xulqdagi barqarorlik, bosim ga qarshilik ko'rsata olish, o'z kuchiga ishonch, har qanday vaziyatda o'zini nazorat qila olish, o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha olish.

Shaxsiv qat'ivatlilik va tashabbuskorlik: o'ziga ishonch, mardlik, tadbirkorlik va tashabbuskorlik.

Etika va rostgo'vlik: boshqalarga yordam berish istagining mayjudligi, rostgo'ylik, shaxsiy kompetentlikning cbegaralarini anglash, xatolami tan olish qobiliyat.

Jismoniv va aqliv sog'lomlik: ishdagi va kundalik hayotdagi zo riqishlami qiyinchiliksiz “ko‘tara olish”.

A.I.Prixojan treneming shaxsiy sifatlarini muhim ahamiyatga ega ekanligini va birinchi navbatda umumiy bo‘lgan insoniy sifatlar uning har bir ishida namoyon bo‘lishi kerakhgim aytib o‘tadi. Uning fikriga ko‘ra, trenerdan talab qilinadigan psixologik professionalizmning asl mohiyati shundaki, u odamlarning ko‘ziga va xatti-harakatiga qarab, ulaming uiyat-istikclarini, treningda ishtirok etish qobiliyatini oldindan taxmin qila olishi va o‘yin davomida mohirlik bilan ulaming xatti- harakatlanm zimdan boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lishi shart. Bundan tashqari, trenerdan fidoyilik, o‘zgalar manfaatini o‘zinikidan yuqori qo‘yish, sabr-toqat, tezkorlik, fahm-farosat kabi sifatlar ham talab etiladi. Bu sifatlar esa faqat nazariy tayyorgarlik asosida emas, balki ko‘proq hayotiy va ijtimoiy faoliyatning murakkab turlarida faol ishtirok etish natijasidagina qo‘lga kiritiladi.

Trenemmg kommunikativligi, liderlik qobiliyati, ishontira olishi, mijozlar bilan munosabatda chidamhiigi, muammoning bir necha tomonlarini ko‘ra bilish, o‘z faoliyatini yo naltirishni bilish va nihoyat eng muhimi o‘z-o‘zini tahlil qilish qobiliyati trenerlik ishining eng muhim jihatlaridandir.

Har bir trener o‘z-o‘zini tahlil qila olishi, o‘z “Men”ini anglashi hamda o‘z kasbt va “Men”i o‘rtasidagi munosabatlar xarakteristikasini anglashi lozim. U har doim o‘ziga “Men kimman?”, “Men qanday mutaxasisman?” kabi savollar bilan murojaat etib turishi kerak. O‘z shaxsiy sifatlarini anglay bilish mijozlar guruhi bilan samarali natijalarga erishishning shartlaridan biridir. O‘zini anglash konsultantga o‘z nuqtai nazariga ko‘ra qaysi shaxsiy sifatlarini rivojlantirishi, shakllantirishi lozimligini aniqlash imkonini beradi.

A.V.Batarshev o‘z-o‘zini anglashni quyidagicha ta’riflaydi: “Individning o‘zi liaqidagi tasavvurlari asosida o‘zi va boshqa odamlar bilan munosabat o‘matishini ta’minlovchi nisbatan barqaror va anglangan tizimdir”. A.Batarshevning fikriga ko‘ra shaxsning Men’ obrazni quyidagi komponentlardan iborat:

- Kognetiv komponent (shaxsiy psixologik sifatlari, qobiliyatlar, tashqi ko‘rinishi, ijtimoiy qimmatiligi);
- Emotsional komponent (o‘z-o‘zini baholashi va o‘zining emotsiyal bahosi)
- Xulq-atvor komponenti (o‘ziga bo‘lgan munosabati, obro‘ qozonishi, o‘ziga faoliyat yurituvchi shaxs sifatida munosabatda bo‘lish)
- O‘z-o‘ziga ishonch - bu avvalo o‘z kuchiga, o‘z pozitsiasiga, qo‘ilay o‘tgan metodlarga bo‘lgan ishoncbdir. O‘z-o‘ziga ishonch ayniqsa, trener o‘z ishida eksperimental metodlardan foydalangan vaziyatlarda juda muhumdir.
- Har bir trener uchun zaruriy sifatlardan yana biri bu - ijodkorlikdir. Bu sifat kreativ tafakkur bilan bevosita bog‘liq, ya’ni noan’anaviy fikrlash, muammolarni tez yechish, nostonart yechimlami topish. Trenerlik ishida hech qanday umumiy retseptlar, sxemalar bo‘lishi mumkin emas. Faqatgina umumiy yondashuv, murakkab, chigal vaziyatlami yechish tajribasi bo‘lishi mumkin xolos. Trener doim nazariy bilimlari, tajribasi, metodikalari, shaxsiy sifatlari va albatta ijodiy energiyasini sarflagan holda ishtirokchilarga yangilik taklif qilishi lozim.

#### **Trener har qanday vaziyatda quyidagilarga amal qilishi kerak**

- Mavzu doirasidan chetga chiqmaslik, muhokama etilayotgan mavzularga nisbatan o‘z fikrini bildirish va mashg‘ulot so‘ngida albatta xulosa yasashi shart.
- Trener har bir ishtirokchini eshitishi, sust ishtirokchilami faollashtinshi va faol qatnashayotgan ishtirokchilami rag‘batlantirishi shart.
- Trener iloji boricha ishtirokchilami yaqindan bilishi, ishni yaxshi tashkil qilishi, guruhda do’stona muhitni tashkil qilishi, ziddiyatli holatlarga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qilishi kerak.

Trenerda fikr almashish malakasi juda yaxshi rivojlangan bo‘lishi kerak. Bu malakanegallash quyidagilarni talab etadi: diqqat bilan eshitish; eshitib bo‘lgach o‘z fikrini bildirish; o‘z hissiyorlarini va kechinmalarini bildirish.

Shuningdek, trener tinglash malakasiga ham ega bo‘lishi lozim, tinglash malakasining asosi quyidagilardan iborat:

- gapirayotgan kishiga qarash, imkon bo‘lsa ko‘zlariga boqib turish;

- gapirayotgan kishining so'zini bo'lmaslik;
- atrofdagi ta'sirlarga chalg'imaslik; - iloji boricha tinchlik saqlashga harakat qilish;
- guruhda ish jarayonida yuzaga keluvchi muammoli vaziyatlami hal etishga tayyor bo'lishi kerak.

### **9.5.Trenerning imidji**

Treneming mashg'ulotni qanday olib borishidan tashqari uning o'zi ham ishtirokchilarga juda katta ta'sir ko'rsatadiki, bunda asosan ikki narsaga e'tibor qaratiladi:

1. Treneming kiyinishi (imidji).
2. Treneming hatti-harakatlari, qiliqlari, odatlari.

Teatr garderobdan boshlangani kabi trening mashg'uloti ham treneming tashqi ko'rinishi, kiyinishi bilan bog'liqdir. Bum qanday tushunish mumkin?

Treneming kiyinishi guruhda u haqdagi dastlabki tasavvuming ijobiy yoki salbiy bo'lishiga, guruh uni qabul qilishi yoki qabul qilmasligiga olib kelishi mumkinki, bu holat trening jarayoniga ham, albatta, o'z ta'sirini ko'rsatishi tabiiy.

Imidj - bu atrofdagilar shaxsni qanday qabul qilishi, qanday ko'ra olishidir. Shu o'nda bir misol keltinb o'tamizki, treneming kiyinishi qanchalik muhim ekanligini bu misoldan keyin osongina tushunib olish mumkin. Faraz qiling qanaqadir fimia yoki davlat muassasiga ishga taklifi o'qigan ikki kishi o'sha joyga bordi. Ulaming bin - kostyum-shimda, oq ko'yak, galstuk, qo'lida portfel bilan kelsa, ikkinchisi egmda futbolka, oyog'ida krassovka, orqasiga ryukzak osib olgan. Bunday holatda birinchi odam atrofdagilarda haqiqiy mutaxassis taassurotini beradi, vaholanki, Iwrasida binnchi odam ikkinchisiga nisbatan katta tajriba va bilimga ega bo'lishi mumkin. Lekin ulaming kiyinishi, tashqi ko'rinishi, imidji kishida qarama-qarshi tasavvurlarm uyg'otadi. Shundan kelib chiqqan holda, treneming kiyinishi ham o'ziga xos va vaziyatga mos bo'lishi talab etiladi.

Trener awalo trening qanaqa gumh uchun mo'ljallanganligini e'tiborga olishi zarur. Lekin imkon darajasida treningga ishchi formada kelish lozim. Bu kiyim awalo mintahtet xususiyatlariga mos kelishi, shuningdek treneming o'zi uchun ham qulay va liarakatlanishga mos bo'lishi lozim.

Treneming bezaklari ham tahlil qilinishga loyiq. Trener uchun haddan ortiq bezaklar bilan bezanish maqsadga muvofiq emas. Jumladan, u qaysi jins vakili bo'lishidan qat'iy nazar ishtirokchilaming diqqatini jalb qiluvchi taqinchoqlar, bezaklar taqishi maqsadga muvofiq emas.

### **Trenerning o'zini tutishi (xulq-atvori)**

Har qanday trening mashg'ulotida trener ishtirokchilar uchun ta sir ko'rsatuvchi shaxs hisoblanadi, garchi u ular bilan o'zini teng tutsa ham. Chunki odatda trenerlar psixologik bilimlarga ega bo'lgan kishilar bo'lganligi bois, bu taxlit kishilarga nisbatan ishtirokchilaming hurmati baland bo'ladi. Shuning uchun ko'pgina treninglarda treneming hatti-xarakatlari va qiliqlarini takrorlash, aynan o'zlashtirib olish kuzatiladi. Demak, treneming nafaqat so'zlari, maslahatlari, balki uning butun harakatlari guruh ishtirokchilariga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun trener o'z hatti-xarakatlariga ham e'htiyyotkor bo'tishi kerakki, uning hatto o'ziga yoqmagan va jamiyat uchun noxolis bo'lgan xatti-harakatlari ham ishtirokchilar tomonidan o'zlashtirilmasligi yoki aksincha ulaming g'ashiga tegmasligi uchun.

### **9.6.Trenerning kompitentligi**

Trener ish jarayonida qanchalik kompitent (etarli ma'lumotga ega bo'lgan, puxta bilimli) boisa, uning ishi shunchalik samarali bo'ladi.

Adabiyotlarda treneming kompetentligi haqida turli xil fikrlar bildirilgan boiib, ulami umumlashtirgan holda trener kompetentligining 3 ta darajasini ko'rsatib o'tamiz:

1. Trenerning kasbiy kompetentligi — mashg'ulot mavzusi yuzasidan yetarlicha chuqur bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'tishi;
2. Treneming metodik (uslubiy) kompetentligi - mashg'ulot jarayonida qo'mlanadigan usul va vositalami tanlay bilishi; tanlangan mashq va o'yinlamning mashg'ulot mavzusiga mosligi; trening ishtirokchilarini jipslashtira olishi; ishtirokchilaming kutuвлarini aniqlab, ulardan foydalana olishi;
3. Treneming ijtimoiy kompetentligi - treneming etik va estetik jihatdan o'mak bo'l la olishi va

turli vaziyatlarda ham etiketga rioya qila bilishi; shaxsiy tajribaga ega boTishi; shaxslararo munosabatlarga kirisha olishi kabilar.

L.Krol va Ye.Mixaylovalar esa treneming kasbiy kompetentligini quyidagilarga ajratib ko'rsatishadi:

Shaxslararo kommunikativ kompetentlik: verbal va noverbal korrmnnikativ malakalarining rivojlangan boTishi, ishtirokchilaming faoliyat motivlarini tushuna olishi, ulaming shaxsiy ustanovkalarini yuqori darajada anglay olishi kabilar;

Texnik kompetentlik: ishtirokchilar bilan birgalikda ishlab chiqilgan maqsadni transformasiya qila olish;

Moslashuvchanlik kompetentligi: o'zgarishlami oldindan ko'ra bilish hamda o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha olish;

Konseptual kompetentlik: amaliyotga asos boTuvchi bilimlami egallagan boTishi;

Integrativ kompetentlik: ma'lum bir asosga ega boTgan qarorlar qabul qilish, yuzaga kelgan muammolami yechish hamda ularga mutaxassis sifatida baho bera olish.

Trening jarayonida trener bir qancha rollami bajarishiga to'g'ri keladi, bular quyidagilardir:

Metodistlik - lug'aviy ma'nosi o'qitish bo'yicha mutaxassis boTib, mashg'ulot materiallarini ishlab chiqish va ulami ishtirokchilarga yetkazib berish;

Instruktorlik - lug'aviy ma'nosi biriktiruvchi shaxs bo'lib, trening davomida yo'riqnomani tushuntirish, guruhchalar tashkil qilish, ularga ko'rsatma berish, to'g'ri yo'l ko'rsatish, sharplash, ulami boshqarish;

Demonstratorlik - lug'aviy ma'nosi namoyish etuvchi bo'lib, trening davomida mashqlami ko'rsatib, namoyish etib berish;

Falisitatorlik - lug'aviy ma'nosi yordam beruvchi bo'lib, treningda ishtirok etuvchilami faollashtirish, guruhda iliq atmosferani yaratish, ishtirokchilarga qo'yilgan maqsadga erishishlariga yordam berish;

Konsultantlik - lug'aviy ma'nosi maslahat beruvchi bo'lib, guruhda muammo va vaziyatlami muhokama qilishni taminlab berish;

Liderlik - lug'aviy ma'nosi yetakchi, raxbar bo'lib, o'quv natijalariga ko'ra trening dasturini belgilash va olib borish;

Inspektorlik - lug'aviy ma'nosi kuzatuvchi bo'lib, trening ishtirokchilarini kuzatish, natijalarini qayd etib borish, trening natijalarini baholash; Marketologlik - lug'aviy ma'nosi bozomi o'rganish bo'yicha mutaxassis bo lib, trening xizmatlarini rivojlantirish; Analistik lug'aviy ma'nosi tadqiqotlarda tahlil qlishi usulidan foydalanuvchi mutaxassis bo'Hb, trening jarayonini tahlil qilish.

Ekspertlik - malumotlar berish, faktlami tasdiqlash, qarorlami yo'naltirish, qat'iy va aniq fikr bildirish.

## **IX BOB BO'YICHA TOPSHIRIQLAR**

### Nazorat savollari

1. Trenerlik haqida umumiyl tushuncha bering
2. Trenerga umumiyl va kasbiy talablami sanang
3. Treneming kompitentligi nima
4. Treneming imidji

### Mustaqil ish topshiriqlari

1. Trenerlik kasbiga oid ma'lumotlami adabiyotlarga asoslanib tahlil qiling
2. Treneming kompitentligi maslasini adabiyotlar asosida tahlil qiling
3. Treneming integrativ kompitentligini kengroq yoriting

### Test

1. "...bu - pedagogik qobiliyatlarga ega, tajribali, trening davomida keng majburiyatlar diapozonini amalga oshiruvchi va qo'yilgan vazifalarni hal qiluvchi yetakchi shaxsdir". Bu ta'rif kimga tegishli

A) Pedagog

B) Trener

V) Psixolog

G) Mutaxassis

2. Treneming ishini qimmatbaho .... bilan ishlaydigan mohir zargarning ishiga o‘xshatish mumkin.

A) \*Olmos (javohir)

B) Oltin

V) Qimmatbaho metal

G) Ruhiyat

3. Trener ega bo‘lishi lozim bo‘igan eng muhim narsa — bn ....

A) \*Tabbassum qila olish

B) Muloqot madaniyatidir

V) Minnatdorchilik bildira olish

G) Chiroli gapira olish

4. Treneming asosiy vazifasi nimadan iborat?

A) \*Guruhning qiziqishini oshirib, ulami yo'naltirib, rag'batlantirib borishdan iborat.

B) Guruhning maqsadini bilishdan iborat

V) Guruhning kayfiyatini ko‘tarib turishdan iborat

G) Guruhdagilami jipslashtirib turishdan iborat

5. O‘zgalar psixologiyasini bilish - ular ustidan hukmronlik qilishning bir shaklidir, degan naqlni qaysi millat vakillari aytishgan?

A) Yunonlar

B) \*Inglizlar

V) O ‘zbeklar

G) Ruslar

6. Trenerga xos bo‘igan empatik qobiiyatning asesini nima tashkil etadi?

A) O‘zgalar bilan chiroli gaplasha olish qobiliyati

B) O‘zgalam i kuldira olish qibiliyati

V) \* O‘zgalar holatini chuqur his qila olish qobiliyati

G) O‘zgalaming fikrini o ‘q iy olish qibiliyati

## X. TRENING JARAYONIDA GURUHLAR BILAN ISHLASH

### 10.1.Trening guruhlari haqida tushuncha

Har bir shaxs o‘z faoliyatini turli guruhrilar sharoitida yoki turli guruhrilar la sirida amalga oshiradi. Chunki jamiyatdan chetda qolgan yoki insonlar guruhiga umuman qo shilmaydigan individning o‘zi yo‘q, inson jamiyatda yashar ekan, u iloimo turli o‘ziga o‘xshash shaxslar bilan muloqotda, o‘zaro ta’sirda bo‘ladi, bu muloqot jarayonlari esa doimo kishilar guruhida ro‘y beradi. Psixologik ma’noda **guru - bu umumiy belgilar, nmumiy fooliyat, muloqot hamda umumiy maqsad asosida birlashgan kishilar uyushmasidir**. Guruhni alohida shaxslar tashkil etadi, lekin har bir guruh psixologiyasi uni tashkil etuvchi alohida shaxslar psixologiyasidan farq qiladi va o‘ziga xos qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Ayni shu qonuniyatami bilish esa turli tipli guruhlami boshqarish va ana shu guruhlami tashkil etuvchilami tarbiyalashning asosiy mezonidir.

Guruhlaming turlari ko‘p, shuning uchun ham ulami turli olimlar turlicha klassifikasiya qiladilar. Bizning nazarimizda, G.M.Andreevanmg “Ijtimoiy psixologiya” darsligidagi klassifikasiya guruhlaming asosiy turlanm o‘z ichiga qamrab olgan. U har qanday kishilar guruhini avvalo shartli va real guruhlarga bo‘ladi. Real guruhrilar aniq tadqiqot maqsadlarda to‘plangan laboratoriya tipidagi hamda tabiiy guruhlarga bo‘linadi. Konkret faoliyat va odamlaming ehtiyojlari asosida tashkil bo‘ladigan bunday tabiiy guruhlaming o‘zi kishilammg somga qarab katta va kichik guruhlarga bo‘linadi. Katta guruhrilar uni tashkil etuvchilaming maqsadlari, fazoviy joylashishlari, psixologik xususiyatlarga qarab uyushgan va uyushmagan turlarga, kichiklari esa o‘z navbatida endi shakllanayotgan - diffuz hamda taraqqiyotning yuksak pog‘onasiga ko‘tarila olgan jamoa turlariga bo‘linadi.

Ma’lumki, guruhda to‘plangan kishilar o‘rtasida doimiy muloqot va munosabatlar mavjud

bo‘ladiki, ulaming mazmuni va yo‘nalishiga ko‘ra, o\*ziga xos ijtimoiy psixologik muhit shakllanadi. Bu muhit guruhning taraqqiyotini ham, undagi turli jarayonlami ham belgilaydi. Guruhning dinamik jarayonlari deganda avvalo uning shakllanish jarayoni, liderlik va guruhda turli qarorlarm qabul qilish jarayom, guruhning har bir shaxsga ta’siri kabilar tushuniladi.

Har qanday trener trening guruhlari bilan ishlash uchun guruh va uning qonuniyatlar haqidagi ma’lumotlami bilishi lozim.

## **10.2.Guruh bilan ishlash borasida tavsiyalar**

Ijtimoiy psixologiyada berilgan ma’lumotga ko‘ra trening guruhlari kichik guruh sanaladi. Biroq trening mashg’ulotlari uchun bu qoida o‘zgaradi, ya’m 20-25 kishidan iborat bo‘lgan trening guruhlari aynan trening mashg’ulotlari jarayonida katta guruh hisoblanadi. Bunday katta guruhlar bilan o‘yin va mashqlar o’tkazish o‘z ishining ustasi bo‘lgan trener uchun ham qiyinchiliklami keltirib chiqarishi mumkin. Shulami hisobga oлган holda trener katta guruh bilan ishlash jarayonida nimalami hisobga olishi lozimligini bilishi kerak.

Trening jarayonida guruhni tez-tez kichik guruhlarga bo‘lib ishlash maqsadga muvofiqdir. Bundan maqsad guruhdagi har bir ishtirokchining mashg’ulotlarda faol qatnashishini ta’minlashdir.

Biror bir mavzu trening guruhida muhokama etilsa, butun guruhning ishtirokini la’mmlab bo‘lmasligi aniq. Bu esa guruhdagi sust ishtirokchilami umuman chetda qolishiga sabab bo‘ladi. Agar guruh kichik guruhlarga bo‘lib ishlansa, bunda ulaming faol ishtiroki talab etiladi va bu har bir ishtirokchining qiziquvchanligini oshiradi.

Bundan tashqari kichik guruhlarda ishlash ishtirokchilar uchun tinch va -shonchli muhitni yaratadi, ulaming bir-birlari bilan tezroq tanishishi va bir-biri bilan kinshishiga imkon yaratadi. Ayniqsa, oilaviy mavzularga doir nozik savollar muhokama etilganda ba’zi ishtirokchilarda noqulaylik, uyalish holatlari vujudga keldi. Kichik guruhlarda ishlash esa ulardag‘i uyalish, noqulaylikni yo‘qotishi mumkin. Guruh soni qancha kichik bo‘lsa, undagi ishtirokchilarda qo‘rquv, noqulaylik, uyalish hislari kamroq namoyon bo‘ladi. Shuning uchun treningdagi katta guruhni doimiy ravishda kichik guruhchalarga bo‘lib ishlash tavsiya etiladi va bunda o‘ziga xos qoidalari mavjud.

### *Kichik guruhlar bilan ishlash qoidalari:*

1. Kichik guruhlarga bo‘lishda o‘yin orqali bo‘lish usulidan foydalanish lozim.
2. Ishni 2 yoki 3 kishidan iborat boigan guruhlar bilan ishlashdan boshlash maqsadga muvofiq. Shu usul bilan ishtirokchilardagi qo‘rquvni yo‘qotish osonroq kechadi.
3. Guruhlarga bajarilishi lozim boigan topshiriqlami aniq va tushunarli qilib berish kerak.
4. Mikroguruhlarga topshiriq berayotganda instruksiyani ulaming hammasiga birvarakayiga tushuntirish kerak. Negaki, agar trener bitta guruhga koisatma berib, qolganlariga ham birma-bir tushuntirmoqchi bois, u holda topshiriqnı oлган guruhlar darhol muhokamani boshlab yuborishadi va xonada shovqm-suron kojariladi, trener esa qolgan guruhlarga koisatma berishga qiynalab qoladi.
5. Topshiriq bajarilgandan keyin uni albatta katta guruhda umumiyl holda muhokama qilish kerak, bunda har bir mikroguruhdan bittadan vakil chiqib, qolganlami o‘z gumhining fikri bilan tanishtiradi.
6. Mikroguruhrar bilan ishlashda vazifa bajaruvchi, kuzatuvchi yoki ekspert rollarini treneming o‘zi taqsimlab berishi kefak.
7. Mikroguruhrar bilan ishlashga haddan tashqari berilib ketish kerak emas, bu narsa treningni samaradorligi va rivojlanishiga xalaqit berishi ham mumkin. Shunmg uchun 2 soatlik treningda 3 kishilik guruhga boiinadigan topshiriqlardan ikkita, 7-8 kishilik guruhga boiinadigan topshiriqlardan bittadan ortiq bajartirmashkka harakat qilish lozim.

Trener mikroguruhrar bilan ishlayotganda ulaming faolligini oshirish uchun quyidagi holatlarga alohida e’tibor berishi va qat’iy rioya qilishi kerak:

- ishtirokchilarga hech qachon kamsituvchi ohangda ogohlantirish bermasligi kerak;
- guruhdagi biror ishtirokchi gapi rayotganda uning so‘zini boimasdan eshitishi va qolganlami ham shunga o‘rgatishi kerak; ishtirokchilardan mavzu doirasidan chetga chiqmasligini so‘rashi va buni nazorat qilishi kerak;

- hammaning so zga chiqishini ta'minlashi va ularga minnatdorchilik bildirishi kerak;
- munozaralarda qaysidir shaxs hayotiga aloqador fikrlar "shu yerda" qolishiga guruhni odatlantirishi kerak.

### **10.3. Guruhda yuzaga keladigan umumiy muammolar va ularni hal etish**

Yuqoridagi tavsiyalarga amal qilinsa, mikroguruhrilar bilan ishslash jarayoni sdliq kechadi, deb o'ylash noto'g'ri albatta. Chunki ish bor joyda muammo mavjud boigani kabi mikroguruhrilar bilan ishslash jarayonida ham o'ziga xos muammoli vaziyatlar yuzaga kelib turadi. Bunday vaziyatlardan eng ko'p kuzatiladiganlarini sanab o'tamiz.

Ba'zida kichik guruhlarda berilayotgan topshiriqlami hamma ishtirokchilar ham bir xilda bajarishni istayvermaydilar. Trener kichik guruhlarda ba'zi ishtirokchilar tomonidan yuzaga keltirilishi mumkin boigan quyidagi ko'rinishdagi muammolarni hal qilishga tayyor turishi kerak:

- ishtirokchi boshqalaming so'ziga aralashaverib, qolganlaming jigelga tegishi mumkin;
- ishtirokchi o'zini ko'rsatish uchun boshqalami tanqid qilishi, noo'rin kamsitishi, ustidan kulishi mumkin;
- ishtirokchi birovlarga mma qilishi kerakligini aytib, aql o'rgatishga harakat qilishi mumkin;
- ishtirokchi gapirayotgan ishtirokchining gapini boiishga harakat qilishi mumkin;
- ishtirokchi guruh ishida qatnashishdan bosh tortishi mumkin;
- ishtirokchi topshiriqqa tegishli bo'limgan narsalar haqida gapirib vaqt o'tkazishga harakat qilishi mumkin.

#### ***Mikroguruxdag'i bunday muammolami hal etish uchun quyidagicha yo'7 tutish mumkin:***

- Agar guruh ishida og'ishlar ro'y bersa, guruhga muloyimlik bilan vaqt behuda ketayotganligini va berilgan topshiriqm bajarish yoki muammom muhokama qilish lozimligini eslatish lozim;
- Muammo tug'diray otgan ishtirokchi bilan alohida gaplashish kerak. Guruh qabul qilgan qoidalarga to'xtalib, keyin bir kishining xulq-atvori qolganlarga ham salbiy ta'sir qilishini tushuntirish lozim va undan keyingi mashg'ulotlarda guruh, bilan hamkorlikda ishslashini so'rash kerak;
- Boshqalaming so'zini boiayotgan ishtirokchiga shunday ogohlantmsh berish mumkin: "Meni kechirasiz, lekin sizga shuni eslatib qo'ymoqchxman — guruhning har bir a'zosi gapirish huquqiga ega va uning so'zini bo'lishga hech kimning haqqi yo'q";
- Agar biror ishtirokchining xulq-atvori va xatti-harakati ishslashga halaqit berayotgan bo'lsa, uni guruhning o'zida ochiqchasiga muhokama qilish kerak. Qilingan harakat yoki aytilgan gapni tanqid qilinadi, uning salbiy tomonini va guruh ishiga halaqit bergenligini ko'rsatib beriladi, lekin hech qachon shu ishni qilgan yoki gapirgan ishtirokchining o'zini tanqid qilinmaydi.

### **10.4. Guruh bilan ishslash jarayonida eng ko'p kuzatiladigan muammoli vaziyatlar va ularning yechimi**

Trener mashg'ulot o'tkazar ekan, har bir guruhning individual jihatlan borhgini bilishi kerak. Shunga mos holda ma'lum bir muammo doirasidagi dastur va rejani turli guruhlarda amalga oshirilishi turlicha kechadi. Qaysidir guruhda treneming ishi silliq kechsa, qay birida o'ziga xos muammolarga duch kelishi mumkin. Shulami hisobga olgan holda mashg'ulotlar davomida eng ko'p kuzatiladigan muammolar ustida to'xtalib o'tamiz:

Guruh ichida kichik guruhchalarning poydo bo'lishi. Guruh faoliyatining binnchi kunidagi boshlang'ich bosqichda ishtirokchilaming o'zaro bir-birlarini hamda trenemi tanimasligi natijasida ularning aksariyatida xavotirlanish hislari paydo bo'lishi kuzatiladi. Buning sababi ba'zi ishtirokchilar guruh uni qabul qilmasligidan xavotirlanadi, natijada aksariyat ishtirokchilar guruh a'zolari orasidan kimningdir qo'llab-quwatlashiga muhtojlik sezadi va o'zlariga yaqinroq tuyulgan ishtirokchilar bilan yaqinlashib oladilar. Oqibatda, mashg'ulot boshlanishi bilanoq guruh ichida kichik guruhchalar paydo bo'ladi. Bu guruhlarda ishtirokchilar o'zaro yaqinlik va o'zaro ishonchni

his etadilar, "sheriklik" hislarini sezadilar. Bu holat trening mashg'ulotlari jarayonida trenerga guruhda o'zaro ishonch, samimiylit muhitini yaratishga hamda guruhni ahillashtirishga halaqit berishi mumkin.

Bunday holda trener nima qilishi kerak: ishtirokchilami "ajratadigan" va aralashtirib yuboradigan o'yinlardan foydalangan holda juftliklar va kichik guruhlardagi ishtirokchilami doimo almashtirib borishi kerak. Ishtirokchilaming bir- birlarini yanada chuqurroq bilishlari va tanishishlariga yordam bemvchi o'yin!ar o'tkazishi kerak.

#### Treneming yoki ishtirokchilaring diqqatini jal etish, ularni chalg'itish.

Psixologiyada shaxs tiplari borasidagi bilimlardan bilamizki, kishilar rasida namoyishkorona tipdagi shaxslar ham mavjud, Xuddi shuningdek har qanday trening guruhlarida ham shunday ishtirokchilar topilib qolishi mumkinki, ular iloji boricha hammaning diqqatini o'zlariga qaratmoqchi bo'lishadi. Buni ular turli xilda amalga oshiradilar: barcha savollarga har doimo o'z fikrlarini bayon etishga intilishadi, boshqalaming gaplarini humatsizlarcha bo'lib qo'yishadi, ishtirokchilar va trener o'rtasida nizo keltirib chiqarishga harakat qilishadi, bema'ni (ba'zida axloqsiz) "hazil- !razul" larga yo'1 qo'yishadi, mashg'ulotlarga qiziqishlari yo'qligini namoyish etishadi yoki har xil qiliqlar chiqarishadi.

Bunday holatda trener nima qilishi kerak: agar bu xil qiliqlar guruhga ishlayotgan bo'lsa, ya'ni guruhni izdan chiqarib, trenerga va mashg'ulotlarga qarshi qo'yayotgan bo'lsa, hech qachon bunday ishtirokchini noverbal ravishda rag'batlantirish kerak emas (tabassum qilish, bosh qimirlatib tasdiqlash va h.k.). Ularga so'zlash uchun beriladigan vaqt ni cheklash kerak, guruhning ishi va diqqati bir xil taqsimlanganligini e'tirof etish kerak: "Men sizning gapingizni bo'lishga majburman, axir boshqalar ham gapirishlari kerak-ku". Boshqa ishtirokchilarga, ayniqsa gapirmasdan o'tirganlarga murojaat etish kerak, "buzg' unchi ishtirokchi bilan mashg'ulotdan bo'sh vaqtida individual tarzda ochiq gaplashib, iming xatti- harakatlariga nisbatan tanqidiy fikrlami bayon qilib, uning ishi noto g'riliqini tushuntirish lozim.

#### Jim o 'tiradigan, indamas ishtirokchilar.

Trening mashg'ulotlarda, ayniqsa muloqotchanlik ko'nikmalarini oshirish yuzasidan o'tkaziladigan treninglarda ayrim ishtirokchilar treneming bergan savollariga javob bermaydilar, baxs-munozaralarda ishtirok etishdan bosh tortadilar, har gal gapirish uchun navbat kelganida "Menda fikr yo'q "Bilmadim kabi boshqalaming g'ashiga tegadigan javoblar beradilar. Bu hoi birinchidari ishtirokchilaming jahlini chiqarishi, ikkinchidan o'sha ishtirokchiga nisbatan salbiy hissiyotlaming paydo bo'lishiga, uchinchidan uning guruhdan ajralib qolishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga trener uchun ham qiyinchilik tug dirishi mumkin, ya'ni ishtirokchilar orasida fikr bildirmaslikka intiluvchilar ko'payishi va mashg'ulot sifati pasayishi ehtimoli ortadi.

Bunday holatda trener nima qilishi kerak: trener ularga qiyin bo'lmagan savollar bilan murojaat qilishi, ulami juftliklardagi mashqlarga ko'proq jalb etishi kerak, rolli o'yinlarda ularga yetakchi rollami berishi kerak, agar ulardan qandaydir tashabbus chiqib qolsa, buni albatta qo'llash kerak, ko'proq "Aqliy hujum usulini qo'llashi va uning qoidalarini ta'kidlab hamma gapirishi kerakligirii ta kidlashi lozim va guruhning hamma a'zolarining fikrini davra bo'ylab so'rab chiqishi kerak.

Qarshilik ko'rsatish — o'zini himova qilish. Ba'zi ishtirokchilar treningga o'zining juda ko'p ichki muammolari bilan tashrif buyuradilar, ulardagi bunday holat ulaming atrofdagi kishilarga nisbatan salbiy munosabining asosi bo'lishi mumkin va ulaming muammosi bunday tipdagi ishtirokchilaming guruh qoidalariga bo'y sunmasligida ko'rinishi mumkin. Masalan, mavzuga tegishli bo'lmagan bahslarga chaqiruv; mashg'ulot va trenerga nisbatan o'z ishonchsizligini ochiq namoyon qilish; trenemi nizolarga undash (bunda ishtirokchi trener o'zini qanday tutishini, jahli chiqishi yoki chiqmasligini tekshirib ko'rmoqchi bo'ladi); agar trener bunday "buzg'unchi" ishtirokchilaming qiliqlariga e'tibor bermasa, ular hech narsa gapirmay jim o'tirish reaksiyasi orqali javob berishlari mumkin. Bunday ishtirokchining qarshiligi u konstruktiv ravishda namoyon eta olmaydigan ichki zo'riqishi bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin.

Bunday holatda trener nima qilishi kerak: ishtirokchi bilan individual tarzda gaplashishga harakat qilishi kerak; agar guruhda bitta shunday ishtirokchi bo'lsa, uning ichidagi gaplami aytta

olishi uchun imkoniyat yaratish kerak; uni nima qiyayotgani, nima uchun g'azabiantirayotgani, odamlarga bo'lgan nafratining asosi nimaligi haqida gaplashish kerak; faol ishslash uslublaridan foydalangan holda, ya'ni zo'riqish, agressiyani susaytiruvchi o'yinlami qo'llab, undagi salbiy hislami susaytirishga yoki chiqarib yuborishga harakat qilish kerak.

#### Guruh a'zolari va trener munosabatlarida nizo navdo bo'lishi.

Ko'pgina trening mashg'ulotlarida kuzatilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, ish jarayonida guruh a'zolari o'rtasida, kichik guruhrular orasida yoki boshlovchi va ishtirokchi munosabatlarida nizolar paydo bo'lishi mumkin. Masalan, ayrim ishtirokchilar o'z shaxs xususiyatlari yoki hayotdagi ijtimoiylashuvining natijasi sifatida bahslarda o'z fikrlarini har doim ham muloyim va chiroyi tarzda bayon eta olmaydilar va natijada guruh a'zolari o'rtasida nizolar paydo bo'lishiga olib kelib qo'yadilar, o'z-o'zidan ular nizolami hal etish yo'l-yo'riqlarini ham bilmaydilar.

Bunday holatda trener nima qilishi kerak: trener bahsni munozaraga aylantirishi, ishtirokchi qo'pol ravishda bayon etgan fikmi qaytadan to'g'riiab aytishi, ishtirokchilardan o'z fikrlarini ochiq, lekin muloqotchanlik madaniyatiga amal qilgan holda bayon etishlarini so'rashi va shundan so'ng boshqalardan qaysidir tomonning fikriga qo'shilishlarini so'rash yoki shaxsiy fikrlarini aytishga undashi kerak.

#### Ishtirokchilaming trenerga nisbatan munosabat bitdirichi

Ishtirokchilar trenerga turli xil chalg'ituvchi savollar berishi mumkin (trenerni uyaltirish, xijolatga qo'yish maqsadida); treneming shaxsiy hayotiga aloqador judayam nozik savollar berishi mumkin. oilaviy hayotning nozik masalalari hakida ochiqdan-ochiq gapirib boshqalaming noroziligi yoki hijolat bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin;

Bunday holatda trener nima qilishi kerak: bu xildagi vaziyatlardan chiqib ketish uchun trener ishtirokchilar bilan birga ishlab chiqilgan, mashg'ulot vaqtida barcha amal qilishi lozim bo'lgan xulq-atvor va xatti-harakat qoidalariga murojaat kilishi lozim, ya'ni ishtirokchilarga yoki aynan o'sha ishtirokchiga qoidalarni yana bir bor takrorlatish kerak.

Qoidalarning ta'sirini oshirish uchun 2 va 3-kun boshlanishida ishtirokchilar bilan roll! o'yinlar tashkil qilish maqsadga muvofiq, har bir guruh pontomima shaklida ko'rsatib bersa yanada yaxshiroq samara beradi.

Agar guruhdagi ishtirokchilar yoki kichik guruhrular o'rtasida o'zaro nizolar kelib chiqsa, nizoni konstruktiv yo'l bilan hal etishi lozim; agar trener va ishtirokchi JI o'rtasida nizo paydo bo'lsa, trener o'z hissiyotlarini bayon etib ishtirokchi bitan Я gaplashishga urinib ko'rishi, kompromissga kelishga urinishi va kezi kelganda o'z ІЦ xatosini tan olishi kerak.

Trener quyidagi qoidani har doim esda tutishi kerak: *Trener hamma ishtirokchilarga albatta yoqishi va o'zi ham hammani yaxshi ko'rishi shart emas, ular bir-hirlarini yaxshi ko'rishga ham majbur emaslar!"*

### **10.5. Trenerning guruhiy dinamikani bilishi**

Dinamika - o'sish, o'zgarish, rivojlanish ma'nolarini ifodalovchi atama hisoblanib, guruhiy dinamika deganda ma'lum bir guruhning tashkil bo'lishidan boshlab toki uning tarqab ketishigacha bo'tgan barcha jarayonlar tushuniladi.

Guruhrular psixologiyasida aytishicha notanish odamlar bir joyga to planganda guruhda ma'tum bir zo'riqish paydo bo'ladi. Bu qonuniyatni trening guruhrulariga tadbiq etilsa, bir-birlariga mutloqo notanish bo'lgan kishilar to plangan joyda albatta o'ziga xos zo'rujish paydo bo'ladi. Trening boshlanishidanoq treneming vazifasi shu zo'riqishni iloji boricha yumshatishga harakat qilishdan iborat. Buning uchun trener guruhda noqulay vaziyatlar vujudga kelmasligi yoki vujudga kelgan noqulay holatlami bartaraf etishga mo'jallangan guruh bilan qay usulda ishslash rejasini puxta o'ylab chiqishi kerak. Shuningdek trener guruhiy dinamikaning o'ziga xos jihatlarini, ya'ni guruhning bir necha rivojlanish bosqichlari borligini bilishi shart. Trening guruhralarida guruhiy dinamikaning quyidagi bosqichlari farqlanadi:

**1. Boshlang'ich bosqich** — notanish muhit va noaniq vaziyatda ishtirokchilar ichki bezovtalikni his qiladi, o'zlariga yaqin sherik izlaydi, har bir ishtirokchini "Men o'zimni qanday tutishim kerak" degan savol o'ylantiradi. Bu bosqich ishtirokchilaming individual xususiyatlariga

qarab 10 minutdan to kunning oxirigacha davom etishi mumkin.

Treneming vazifasi: isbtirokchilami bir-biri bilan tanishtirishda samimiylilik muhitini yarata olish, fikrini ochiq bayon qilgan ishtirokchilami qo'llab-quwatlash, sust ishtirokchilami mashg'ulotga jalg qilishdan iborat.

**2. 0'tish bosqichi** — bunda ishtirokchilar o'tasida ancha yaqinlik paydo bo'la boshlaydi. Endi ular treneming o'zini baholay boshlaydilar, ya'ni uning o'zini tutishi, guruhga aralashib ketishi, guruhni faollashtirishi, hozirjavobligi, bilim doirasini kuzatishadi va o'zaro muhokama qilishadi.

Treneming vazifasi ishtirokchilarda namoyon bo'layotgan hissiyotlami e tibordan chetda qoldirmaslik, guruh erishmoqchi bo'lgan maqsad va kutishlami amqlash, gumh a'zolari o'zlarini qanday his etayotganligiga e'tibor berish. Asosiysi ishtirokchilami qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilish va ulami o'zgartirishga urinmaslikdan iborat.

**3. Ish faoliyat bosqichi** — bu bosqich ishtirokchilaming o'z maqsadlariga erishishida asosiy qism hisoblanadi. Ishtirokchilar gumhda ishlash qoidalariга rioya qilishadi. O'zaro yordam so'rash imkoniyatdan kelib chiqib bir-birlariga ishonch paydo bo'ladi. Natijada treneming ayrim fikrlariga qo'shilmasalar, ular orasida Irenerga nisbatan norozilik, ayrim hollarda asabiylashish, tushkunlik holatlari ham kuzatiladi.

Treneming vazifasi. guruhda ishonchli munosabatlar shakllanishiga yordam berish, guruhdag'i voqealarni e tiborsiz qoldirmaslik, gumh dinamikasini kuzatish, gumhdagi norozilik va asabiylashish holatlarini bartaraf etuvchi o'yinlar o'tkazish, guruhda ishonch munosabatining shakllanishiga yordam berishdan iborat.

**4. Yakunlash bosqichi** — bu bosqich mashg'ulot yakunlanishining mantiqiy nuqtasidir, agar mashg'ulot muvaffaqiyatli tugagan bo'lsa, barcha ishtirokchilarning kayfiyati a'lo darajada bo'ladi. Bu bosqichda ish davornida yo'l qo'yilgan ba'zi kamchiliklami silliqlab ketish imkoniyati tug'iladi. Bosqich puxta o'ylab chiqilib, aniq tashkil etilishi kerak, uni o'z holicha o'tkazish yararnaydi, chunki bunday munosabat olib borilgan ishning ijobiy yoki salbiy baholarini ko'paytirib yuborishi mumkin.

Treneming vazifasi: mashg'ulotni yuqori hissiy kayfiyatda yakunlash tadbirini tayyorlash va o'tkazish, har bir ishtirokchiga qulay sh»roit yaratish, bir-birlariga yoki trenerga tashakkur bildirishlari uchun imkon yaratish, "qayta aloqa ni amalga oshirish, har bir ishtirokchiga o'ziga yarasha minnatdorlik bildirishdan iborat.

## 10.6. Trenerning pozitsiyasi

Treninglaming satnarasi odatda treneming qaysi pozitsiyada turganligiga yoki uning qanaqa pozitsiyani egallaganligiga bog'liq. Trening mashg'ulotlarining o'ziga xosligi shundaki, trener odatda guruhning bir bo'lagi sifatida namoyon bo'ladi, u o'zining usunligini namoyish etmagan holda treningdagi barcha ishtirokchilar bilan teng bo'lgan pozitsiyani egallaydi. Treneming asosiy vazifalaridan biri guruh uchun "o'zimizning odam"ga aylana olishidir, buning uchun u ulaming biror jihatiga aynan o'xshashga harakat qilishi lozim. Trener ishtirokchilarga shuni eslatib tunshi lozimki, har bir odam o'z fikri yoki o'zining nuqtai nazariga ega bo'tishga haqli va bu fikr yoki nuqtai nazar atrofdagilar tomonidan hurmat qilimshi shart. Ular bilan albatta hamfikr bo'lish, ya'ni ulaming fikri noto'g'ri bo'lganda ham ulami qo'tlab- quvvatlashi shart emas, balki ular bilan bahslashish, muhokama qish kerak, lekm ochiqlik, samimiylilik va xushfe'Uikni saqlab qolishi kerak. Bu xildagi munosabat o'zaro hurmat va o'zaro ishonch muhitini yaratadi va muammoning konstmktiv muhokamasini tashkil etishga yordam beradi. Agar trener mashg'ulot jarayomdag'i barcha rnashq va diskussiyalarda ishtirok etsa, o'z fikr-mulohazalarini, g'oyalarni o'rtoqlashsa, ayrim hollarda o'z xatolarim bekitmasa, mashqlarda adashsa bu unga ishtirokchilar bilan teng munosabat o'mata olishiga yordam beradi.

### Ishtirokchilarning pozitsiyasi

Ishtirokchilaming guruhda o'ziga xos turli xil rollari va ijtimoiy pozitsiyalari iiiavjud bo'ladi. Bu borada R. Shindleming (K. Rudestam, 2000) gumhiy rollar klassifikasiyasi keng tarqalgan bo'lib, bu rollami quyidagicha taqsimlash mumkin: 1 ider guruhni harakatga undovchi va o'z ortidan ergashtira oluvchi. Ekspert\_u isliirotkchilami lol qoldiruvchi, ulami xursand qiluvchi,

qolaversa ularning hurmatiga ‘•lib keluvchi o‘ziga xos ko’nikma, malakalarga ega boTadi va har doim ma iumotlami tahlil etish jarayonida o‘zining shaxsiy munosabatlarini bildirib turadi. Konformist — passiv ishtirokchi, javobgarlikdan qochuvchi va imkon darajasida o‘zini borligini bildirmaslikka intiluvchi ishtirokchi. Bundaylar odatda har doim va liamma narsada lideming fikriga qo’shilishadi.

Autsayder — (eng orqada qolgan) - o‘z fikrini bildirishdan qo’rqish yoki qobiliyatlariga ishonchsiziik natijasida guruhdan orqada qolgan ishtirokchi. < Ippozitsioner — har doim lideming fikrlariga qarshi chiquvchi va unga faol qarshilik korsatuvchi ishtirokchi.

Gumhiy jarayonda ishtirokchilar tomonidan namoyish etilayotgan rollar qoidaga ko’ra, ulaming hayotiy real pozitsiyalarini aks ettiradi.

## 10.7. Treningni samarasiga gnruhiy iqlimning ta’siri

**Guruhning hajmi.** Trening mashg’ulotlarining samarasi asosan trenerga bo’g’liq deyilsada, lekin bu jarayonga ta’sir ko’rsatadigan ayrim holatlar ham mavjudki, ulami albatta hisobga olish lozim.

Treninglaming samarali bo’ishida 7-15 nafar ishtirokchidan iborat bo’gan guruhlar optimal hisoblanadi. Agar guruhning hajmi 15 kishidan ortsa, ishtirokchilar uiasidagi munosabatlarda o’zaro ta’sirchanlik kamayadi va ulaming o’zaro hiimkorligi pasayadi. Shuning uchun yodda tutish lozim, guruhda o’zaro ishonch imilutmi yaratish uchun gumh ishtirokchilarining soni 20 kishidan ortmasligi lozim. Agar ishtirokchilar soni 20 kishidan ortsa, bunday holda dasturga asosan guruhiy mashg’ulotlami kiritgan ma’qulroqdir (chunki individual mashg’ulotlar ko’p vaqt ni nladi va guruhning zerikishiga olib keladi).

Trening samarasiga ta’sir ko’rsatuvchi omillardan yana biri ishtirokchilarning mashg’ulotga kirishishga tayyorlik darajasidir. Shuningdek, ishtirokchilami motivasiyasini oshiruvchi omillardan biri mashg’ulot maqsadining aniqligi va ishtirokchilaming maqsadlari bilan uyg'unligidir. Bunmg uchun ularga mashg’ulot yakunida ular aynan qanday natijalarga ega boTishlarini tushuntirish lozim.

Trening samarasiga ta’sir etuvchi omillardan yana biri guruhning ochiqligi yoki yopiqligidir. Yopiq guruh deb toki guruh a’zolarining barchasi o‘z maqsadlariga erishmagunlaricha yangi a’zolaming kirishi mumkin boTmagan guruhlar aytildi. Ochiq guruhlarda esa guruhga yangi a’zolaming kirishiga ruxsat benladi, faqat ayrim hollardagina.

Trening samarasiga ta’sir etuvchi yana bir holat - guruhdagi uygunlik (uyushqoqlik)ning mavjudligidir. Bu ham guruhning o‘ziga xos holatlandan biri bo Tib, bu holat guruhning ma’lum bir natijaga erishuvida muhim rol o’ynaydi, ■ shuningdek uyushqoqlik guruhning emotsiyalik ko’rsatkichi sifatida hamT baholanadi.

Uyushqoqlik - bu atama ostida guruhning ma’lum bir maqsadni anglagan holdq muvaffaqiyatga erishish yoTida motivasiyalaming uyg’unligi asosida hamkorlikdagj faoliyatga intilishi tushuniladi. Bunday universal guruhiy holat barcha trening\* guruhlarida kuzatiladi.

Guruhni uyushqoqligini ta’minalash uchun trenerdan katta mahorat talab etiladiki, bunda u guruhning uyushqoqligi mashg’ulotlaming samarasmi ta’minalovichi omil ekanligini unutmasligi lozim. Uyushqoqlikni oshmsh uchun trener guruh a’zolarining kuchli salbiy va ijobjiy emotsiyalami birgalikda kechirishlanga, his etishlariga olib keluvchi maxsus psixologik usullardan, shuningdek guruhiy birhkni talab etuvchi turli mashqlardan foydalanishi lozim. Uyushqoqlik guruh a zolarida guruhda o‘zini xavfsiz his etishiga, zo’riqishlami chiqarishiga, o‘zaro samimiy va ishonch muhitining yaratilishiga olib keladi.

Treningni samarasiga guruhiy rivojlanish bosqichlari ham o‘ziga xos holda ta’sir ko’rsatadi, shuning uchun trener bu bosqichlarni bilishi va hisobga olishi lozim. Guruhiy faoliyatning rivojlanish bosqichi ishtirokchilaming bir-birlariga bo lg munosabatlaridagi pozitsiya va his-tuyg’ulariga (shuningdek, guruhdagi psixologi muhitga) asosan farqlanadi.

Odatda guruhiy rivojlanishning quyidagi bosqichlari farqlanadi:

1. Tanishuv / birinchi kontakt / shakllanish (guruhning shaklanishi va o’zaro tanishuvim; guruh bilan tanishuvning yakunlanishi kabilami o‘z ichiga oladi).

2. Emotsional silliqlanish / individual maqsadlar bosqichi / jipslashish bosqichi. Ushbu bosqichda har bir ishtirokchining maqsadi o'ziga xos taassurot qoldirishdan iborat boTadi; dastlabki kontakt bosqichida jinsiy mayl va o'zini himoyalash instinktlari sayqallanadi. Bu guruhiy jarayonlarda quyidagilar orqali namoyon boTadi:

- bulay holatni vujudga keltirish - bu kichik guruhchalaming yuzaga keltirilishiga imkon beradi;
- ishtirok uchun guruhning bahosi — bunda trener va guruh a'zolarining chidamliligi, bilimlari darajasi aniqlanadi;
- jmslar orasidagi farq — yoqishga intilishlar — bir-biriga tegishish, o'zaro piching qilish va boshqalar.

3. Agressiya bosqichi /inqiroz/ qarama-qarshilik /guruhiy maqsadni anglash/ tartibsizhk. Ushbu bosqich o'zida har doim ham negativ munosabatlami aks ettirmaydi.

4. Konstruktiv ish bosqichi /yaxlitlik/ uyg'unlik. Ishtirokchilar uchun maqsad: o'zlanm o'zaro yagona birlik sifatida anglash. Bu bosqichda konstruktiv faoliyat boshlanadi va yagona guruhiy maqsad shakllanadi.

5. Tugallash bosqichi /so'nish/ xayrlashuv/yangi bosqichga yakun yasash. Bu bosqichda yangi maqsad paydo boTishi va bu maqsad asosida xuddi shu guruh orasidan yangi guruh paydo boTishi mumkin. 6. Refleksiya bosqichi /xotiralar/ ma'lumotlami egallah.

Qisqa muddatli (8-18 soatga mo'jallangan) guruhlarda guruhiy rivojlanishning ushbu bosqichlari to'liq kechmaydi. Uzoq muddatli guruhlarda esa, ayniqsa ishtirokchilami shaxsiy rivojlanishiga yo'naltirilgan trening gumhlarida bu bosqichlar aniq namoyon bo'ladi.

## TRENINGNI YAKUNIY BOSQICHI

### 10.8. “Qayta aloqa” qismini tashkil etish

Har qanday ishning yakuni boigani kabi trening mashg'ulotlarinmg ham yakuni mavjud. Demak, Treningni yakunlash bosqichida “Qayta aloqa” o'matish lozim. Ya'ni trening ishtirokchilari mashg'ulotdan nima oldi, birinchi kunda kutgan kutuvlari amalga oshdimi-yo'qmi, o'z muamraolarini yechish uchun ko nikma va malakalarni egallay oldimi va shu kabi savollaming javoblari sarhisob qilinadi.

Trening mashg'ulotini yakunlash bosqichi ishtirokchilar va treneming xayrlashuvidangina iborat boTib qolmasligi lozim. Trening mashg'ulotlari trening ishtirokchilarining yodida katta taassurotlar bilan qolishida ushbu bosqichriing o mi katta. Buning uchun trening mashg'ulotlari o'z davomiyligiga ko ra o tkazilib, yakuniga yetganidan solng, trener ishtirokchilar bilan qayta aloqa usulini qo llagan holda aloqa o'matishi va ular o'zlarini kutgan natijani ola oldimi yoki yo'q'mi, shuni aniqlashi va shu asosda oTkazilgan trening samarali yoki samarasiz bo lganligim i aniqlashi lozim.

Trener yoki uning guruhda birga faoliyat yuritayotgan sheri gTuhdagi har bir ishtirokchidan o'z kutishlari amalga oshgan yoki oshmaganligini so'rab chiqadi. Bu suhbatdan maqsad - guruhdagi har bir a'zoning kutishi qay darajada amalga oshganligini bilish va eng asosiysi, trening maqsadiga erishgan yoki erishmagaligini bilishdan iborat. Buning uchun trener tomonidan oldindan tuzilgan anketalar tarqatiladi va ishtirokchilarga bu anketani anonim tarzda to idirilishiga imkon yaratiladi. Chunki ishtirokchi o'z fikr-mulohazalarini aniq va ochiq-oydin yozib berishi uchun u himoyalanganlikni his etishi lozim. Anketada “Sizga mashg'ulot yoqdimi?”, “Mashg'ulotdan o'zingiz uchun qanday foydali jihatlami oldingiz?”, “Mashg'ulotdan olgan bilim, ko'nikama va malakalaringizdan hayotingiz davomida foydalanishingizga ishonasizmi?”, “Mashg'ulot jarayonida Sizga yoqmagan holatlami yozing?”, “Trenerlarga qanday tavsiyalaringiz bor?” kabi savollar bilan murojaat etiladi. Bundan tashqari ishtirokchilaming kutuvlarini aniqlashda anketa savollari quyidagi ko'rinishda boTishi ham mumkin: “Menga treningda yoqqan narsa “Men mashg'ulotda ... lar haqida ma'lumotga ega bo'ldim!”

“Men navbatdagisi uchrashuvda ... ni isbot qilaman.”

Anketalami yig'ib olishda treneming o'zi ulami har bir ishtirokchidan birma- bir, tekshirib qabul qilishi zarur. Bundan maqsad, ishtirokchilaming ayrimlari turli sabablar bilan anketa

savollariga javob yozmagan holda qaytib berishlarining oldini olishdir.

Treningni yakunlash bosqichini tashkil etish trenerdan chuqur bilim va juda katta mahorat talab etadi. Bu jarayonda u ishtirokchilarga nisbatan mehrini va hissiyotlarini ochiq ifodalash imkoniga ega bo‘ladi. Quyida yakunlash bosqichini o tkazishda nimalarga e tibor berish lozimligi haqida ayrim tavsiyalar havola etiladi.

Bu jarayonda treneming vazifasi nimalardan iboratligini ko‘rsatib o‘tish lozim.

- trening yopilishini yuqori hissiy toTqinlarda yakunlash tadbirini tayyorlash va o‘tkazish har bir ishtirokchiga o‘z hissiyotlarini ifodalash uchun qulay sharoit yaratish
- ularga birgalikdagi faoliyatlar uchun o‘zar o tashakkur bildirishlariga imkon berish
- ulardan bo‘lib o‘tgan trening samarasi haqida fikrlarini so‘rash
- hamda ishtirokchilarga nisbatan o‘z moyilligini namoyon etish.

Albatta, har qanday trening mashg‘ulot ishtirokchilarida katta taassurot qoldirishi va ular uchun ma lum bir samaraga ega boTishi mutaxassislarga ma’lum. Lekin treneming o‘zi o‘zidan qoniqish hosil qilishi uchun mashg‘ulotnmg ayrim jihatlarini aniq yakun topganligini bilib olishi zarurki, bu unga keyingi guruhlar bilan ishslash jarayonida asqotadi.

Trener “qayta aloqa”ni amalga oshirishida bir qancha usullar mavjud boTib, ulardan eng asosiyalarini sarrnb o‘tamiz:

Poster - bu juda oddiy texnika boTib, trening mashg‘ulotining boshida trener xonaga 2 - 3ta plakat joylashtiradi va bu plakatlarga ishtirokchilar o‘z kutuvarini yozadilar, treningni yakunida esa trener va ishtirokchilar birgalikda bu kutuvlaming mohiyati hamda ulaming amalga oshganlik darajasini muhokama qiladilar.

Kutuvarlar daraxti - bu juda rang-barang texnika bo‘lib, treneming oldindan tayyorgarlik ko‘rishi talab etiladi, ya’ni trener oldindan turli rangli kartochkalar (stiker), katta vatmanga chizilgan daraxt rasmini tayyorlab qo‘yadi va guruhni 3-4 ta kichik guruhchalarga boiad. Har bir guruh o‘z kutuvarini daraxt barglari shaklida qirilgan kartochkalarga umumlashtirib yozadi va oldindan chizilgan daraxtga yopishtirib chiqadi. Agar ishtirokchilaming soni kam bo‘lsa, u holda har bir ishtirokchiga o‘z kutuvini alohida yozish taklif etiladi. Mashg‘ulotlar yakunlanganidan so‘ng anketa savollari yig‘ib olingach, trener “Kutuvarlar daraxti”ni yana doskaga yoki ko‘rinarli joylashtiradi va ishtirokchilarga turli xil mevalar shaklida qirgilgan stikerlami tarqatadi. Ishtirokchilarga mashg‘ulotlarga kelishdan maqsadlari yoki birinchi kunda o‘zlarini kutgan kutuvarlari mashg‘ulot jarayonida amalga oshgan-oshmaganligini qayd etish so‘raladi. So‘ng bu “mevalar” daraxtning shoxlariga yopishtiriladi. Trener dastlabki kutuvarlar darxt barglari boTgan boTsas, kutuvlaming amalga oshiganligi, erishilgan natijalar go‘yoki daraxt mevalari ekanligiga nisbat beradi va “meva” Targa yozilgan fikrlami o‘qib, guruh bilan birgalikda muhokama etadi.

## X BOB BO‘YICHA TOPSHIR1QLAR

### Nazorat savollari

1. Trener kim?
2. Trenerlik mahorati nimalarga bog‘liq?
3. Treneming imimdji qanday rol o‘ynaydi?
4. Guruh bilan ishslashda trener nimalami hisobga olishi kerak?

### Mustaqil ish mavzulari

1. Adabiyotlar tahlili asosida trenerlik mahorati borasidagi fikrlami yoriting
2. Adabiyotlar tahlili asosida treneming guruh bilan ishlashi borasidagi fikrlami yoriting
3. Adabiyotlar tahlili asosida guruhda yuzaga keladigan muammolami yoriting

### Testlar

1. Kichik guruxlarga bulishda kanday yul tutgan ma’kul?  
A) Ro‘yxat bilan ketma-ketlikda tuzish usulidan foydalanish  
B) O‘zaro yaqin boTib qolganlami bir guruhga joylashtirish  
V) Istagiga qarab bo‘lish  
G) \*Oyin orkali bo‘lish usulidan foydalanish
2. Kichik guruxlarga topshiriq berilayotganda instruksiyani...

- A) Aqliy salohiyatiga qarab tushuntirish kerak  
 B) Individual ravishda tushuntirish kerak  
 V) \*Ulaming hammasiga barobar tushuntirish kerak  
 G) Har bir guruhgaga alohida tushuntirish kerak
3. «...butun guruxning va guruxdagixar bir ishtirokchiningholati o'zgaradi», Ushbu izox trenmgda utkaziladigan kaysi usulni utkazish natijasida vujudga keladigan xolatga tegishli?
- A) \* O 'yin  
 B) Rolli uyin  
 V) Mashq  
 G) Aqliy hujum
4. Guruh ishtirokchisining har birini faol bo'lishiga undash uchun nima qilish kerak?
- A) Faol bo'lmasa guruhdan chetlatishini aytish  
 B) Faol bo'lishi kerakligini qayta-qayta takrorlash  
 V) Pul taklif qilish  
 G) \* Guruhni tez-tez kichik guruhlarga bo'lish
5. Kichik guruxiarda ishslash ishtirokchiilar uchun qanday imkoniyat yaratadi?
- A) Bir-biri bilan tgaplashish  
 B) Muammolarga yechim topish  
 V) Tshonchli muxit yaratish va yakindan tanishish  
 G) Biroz dam olish
6. Trener guruhgaga buyruq berishi kerakmi?
- A) \*Aslo  
 B) Albatta  
 V) Ba'zida  
 G) Vaziyatga karab
7. Guruhga tayyor axborotni berish ...
- A) Kerak bo'lishi mumkin  
 B) \* Kerak emas.  
 V) Aksariyat xollarda kerak  
 G) Judayam kerak
8. Jim o'tirgan indamas ishtirokchini...
- A) Jim o'tirishiga imkon berish kerak  
 B) \*Guruhning ishiga jalb qilish kerak  
 V) Hech bo'lmasa mashqlarda ishtirok etishlari kerakligini ta'kidlash  
 G) Treningdan chetlashtirish kerak

## XI. TRENING TURLARI VA KLASSIFIKASIYASI

### 11.1. Trening turlariga oid nazariy yondoshuvlar

Hozirgi kunga kelib guruhiy treninglar bo'yicha ish olib boruvchi asosiy yo'nalishlar sirasiga quyidagilami kiritish mumkin:

- Gumanistik psixologiya (K.Rodgers, A.X.Maslou, Frankl);
- Bixevoirial yondashuv (V. Bandura);
- Geshtalterapeya (Perlz);
- Pozitiv terapiya (Pezeshkian),
- Psixodinamik yondashuv;
- Umumiyl treninglar;

#### Gumanistik yo'naiishdagi treninglar.

Gumanistik psixologiya terapeutik dunyoqarash nuqtai nazardan faoliyat olib boradi. U insonning ichki potensialini realizasiya qilishga yo'naltirilgandir. Gumanistik psixologiyada K.Rodgersning «Mijozga yo'naltirilgan terapeya» va A.X.Masluning «O'z-o'zini aktuallashtirish» yo'nalishlari keng tarqalgan.

Mijozga yo'naltirilgan terapeya insonning o'sishi va sog'ligiga ko'maklashuvchi ijobjiy

kuchlami topish va uyg'otishga yo'naltirilgandir. Lining asosiy maqsadi - mijoz o'zini o'zi qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilishiga va atrofdagilami ham shundayligicha idrok etishiga ko'maklashuvchi shaxslararo munosabatlami o'rnatishga yordam berishdan iborat. K.Rodjers nazariyasiga ko'ra, mijozning o'zi o'z yo'lini terapevtning yordami bilan aniqlab olishi kerak; terapevt rolida boshqa insonlar ham boiishi mumkin. Bunday treninglarda psixologik xavfsizlik, qabul qilish va tushunish iqlimi saqlab qolinadi.

Psixologik treningda mashhur bo'lган quyidagi gumanistik yo'nalishlami keltirish mumkin: uchrashuv guruhi va senzitivlik treningi (K.Rodjers 1994 y.). Bunday doiradagi treninglar jarayonida ishtirokchilar sheriklarining xatti-harakat va xulq-atvoriga e'tibor beradi, baholaydi va ulami sharhlash orqali o'zini, o'z xatti- harakatlarini ham anglay boradi. Bunday trening guruhlarida ishtirokchilar kutilmagan his-tuyg'u!arni, jahl, o'ziga ishonmaslik, psixologik himoya kabilami namoyish qilish va ko'rsatib berish imkoniga ega bo'ladi\ar. Bunday treningda ishtirokchilarning erkinlik prinsipi talab etiladi. Trener guruh faoliyatini boshqarish va tashkillashtirishdan vozkechadi, shu usul orqali frustrasiyani yuzaga keltiradi.

Natijada ishtirokchilarning o'zi faollashib mashg'ulot davomida kechayotgan barcha jarayonga nisbatan mas'uliyatlari oshadi. Asosiy diqqat bu yerda guruhiy jarayon yoki shaxslararo ta'sir ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoniga emas, balki, autentlikni izlashga va boshqa insonlarga nisbatan ochiqlikka qaratilgan bo'ladi.

K. Rudestam guruhiy uchrashuvning quyidagi maqsad va vazifalarini sanab o'tadi:

- ishtirokchilami shaxslararo xulq-atvorga o'rgatish;
- guruhiy dinamika nazariyasini amaliyatda tasdiqlash;
- ishtirokchilar hayotda to'qnashadigan muammolarga qayta ishlov berish;
- ishtirokchilarga boshqarish ko'nikmasini rivojlantirishga yordam berish;
- olingen bilimlami guruhdan tashqarida ham qo'llay olishga o'rgatish.

Shuningdek, psixologik himoya to'siqlarini kamaytirish va shaxsiy darajadagi nosamimiylikni bartaf etish hisobiga o'z-o'zini anglashni rivojlantirishdan ibomtdir.

Psixodinamik yondashuvga trasaktanaliz, psixodramma va tana tanaterapeyasi kiradi. V.Yu.Bolshakov o'zining «Psixotreninglar» deb nomlangan kitobida transaktanalizni inson o'zini va boshqalaming xulq-atvorini tahlil qilishga ratsional qarashni o'rgatuvchi, o'zini va o'zgalar shaxsi psixologiyasining mohiyatini hamda uning ichki programmalashtirilgan ssenariysini yaxshiroq anglashga yordam beruvchi psixologik metod deb ta'kidlab o'tgan.

E.Bern o'zining «Guruhiy transaktanaliz» kitobida psixologik ta'siming 4 xil ko'rinishini ajratib ko'rsatgan:

- dekontaminasiya;
  - reketektlashtirish;
  - fahmlash;
  - qayta yo'naltirish.
- Dekontaminasiya - bu reaksiya va hissiyotlami n-to'g'ri tushunilishidir.
  - Reketektlashtirish — mijozda o'z tajribasining har xil aspektlarida dunyoqarashning o'zgarishidir.
  - Fahmlash - sodir bo'layotgan voqeа-hodisalaming barchasini mijozning anglashiga yordam berish tushuniladi.
    - Qayta yo'naltirish - mijozning oldingi xatti-harakatlari, reaksiya va maqsadlari konstruktiv yo'nalishga o'zgarishini taqozo qiladi.

Bunday 4 xil ta'sir ko'rinishlari orqali hayot ssenariysiga o'zgartirish kidtish treneming murakkab ish natijasidagina amalga oshadi. Mashg'ulot davomida ishtirokchilarda insaytga ya'ni, haqiqiy xulq-atvor va harakatlarning asl motivlari aniqlanishi, ko'z ochilish daqiqasiga erishiladi.

Insayt jarayonining yuzaga kelishini psixodinamik yondashuvning yana bir yo'nalishi bo'lган psixodrammada ko'rish mumkin. Psixodrammaning asoschisi Yakob Levi Moreno hisoblanadi. Psixodramaning asosiy g'oyasi - mijoz uchun og'riqli va muammo—i vaziyatlami sahnalashtirilgan tomosha sifatida o'tkazishdan iborat. Hozirgi kunda psixodramaning yengilroq ko'rinishi sifatida «Rolli o yinlar» ham juda mashhur bo'lib qoldi (Arnold 1989 y.). Bunda ishtirokchilar

tugallanmagan ssenariylarda emas, balki psixologik rollatda kichik epizodlami o'ynaydilar va o'zini tekshirib ko'radilar. Bu usul ijtimoiylashuvni chuqurlashtirishga va mukammallashtirishga qaratilgan bo lib, ishtirokchilaming qadriyatları va etnik hissiyotlarını korreksiya qilishga mo'ljallangandır.

Bixeरerial yondashuv metodining mohiyati shundan iboratki, inson o'z tajribasini o'zgalardan o'rganish vositasida egallaydi. Noadekvat xulqni tuzatish uchun noeffektiv reaksiyadan voz kechtirish zarur va adaptivroq (ijobiy) reaksiyaga o'rgatishdan iborat. Treningni tipik metodikasi bu - xulqni repetitsiyalashdir. Ish- irokchilarga xulqning muvaffaqiyatl modeli ko'rsatiladi, ular o'z navbatida uni o'zlashtirishlari kerak boiadi. Ishtirokchilaming (omadli) muvaffaqiyatl xarakatlari guruhning ijobiy munosabati bilan qo'llab-quwatlanadi va omadsiz harakat esa salbiy qo'llab-quwatlanadi.

**Ko'nikmalar treningi.** Bu tipdagi treninglar guruhi asosan konkret ko'nikma, malakalami egallahga yo'naltirilgandir, alohida ta'kidlash lozim bunday ko'nikma va malakalar ko'pincha ma'lum bir ish yuzasidan kerak boiadi. Shuning uchun bunday treninglaming asosiy ishtirokchilari rahbarlar, tadbirkorlar, ishbilarmoniar boiadi.

#### **Ko'nikmalar treningining maqsadi quyidagilardan iborat:**

1. Turli hayotiy murakkab vaziyatlarda kerak boladigan ko'nikmalarga o'rgatish; ishtirokchilami real sharoitda to'qnashadigan muammoiaridan xalos etish;
2. Ishtirokchilarga boshqaruv ko'nikmasini rivojlantirishga yordam berish;
3. Olingan bilimlami guruhdan tashkarida ham qollashga o'rgatish.
4. Konkret sharoit va vaziyatlarda boshqalar bilan (effektiv) samarali o'zaro ta'sir uchun kerakli kommunikativ ko'nikmalarni mukammallashtirish.
5. Individual guruhiy tashkiliy diagnostika ko'nikmasini egallah. Guruhda nizoli vaziyat yechimini topish va guruhiy yaqinlik, ahillikni mustahkamlash (Bolshakov 1996 y.).

### **11.2. Zamonaviy psixologiyada trening klassifikasiyalari**

Zamonaviy psixologiyada treninglarga bolgan e'tiborning yanada ortishi barobarida ulami turlarga ajratish yuzasidan ham ishlar olib borilmoqda. Hozirgi vaqtida mutaxassislar tomonidan tashkil etilayotgan va o'tkazilayotgan treninglami turlarga ajratish nihoyatda murakkabligini ta'kidlab o'tish muhimdir. Chunki hozirgacha ham treninglaming yagona klasifikasiysi mavjud emas. Lekin bu muammo bilan shug'ullangan mualliflaming barchasi turli asoslarga ko'ra treninglami o'ziga xos ko'rinishlarda turlarga ajratishgan. Quyida treninglaming muhira jihatlariga ko'ra eng ko'p qo'llanilayotgan klassifikasiyalari keltiriladi.

Hal qilinadigan muammosiga ko'ra:

- Biznes-treninglar;
- Professional treninglar (masalan aktyorlik mahorati treninglari);
- Psixologik treninglar; • Trenerlar uchun treninglar.

Ishtirokchilaming orttiradigan natijalariga ko'ra: • Bilim orttiradigan; • Ko'nikma orttiradigan; • Malaka orttiradigan.

Ishtirokchilaming soniga qarab:

- Individual treninglar;
- Kichik guruhli (15 kishidan ko'p bo'lman) treninglar;
- Katta guruhli (30 kishida va undan ortiq) treninglar.

Ishtirokchilami jalb qilinishiga qarab:

- Ochiq (hamma uchun);
- Yopiq (korporativ).

Ishtirokchilaming yoshi, professional, ijtimoiy mavqeiga qarab:

- Mutaxassislar uchun;
- Rahbarlar uchun;
- Maktab o'quvchilari, talabalar va kattalar uchun.

Psixologik adabiyotlarda yuqorida keltirilgan trening turlaridan tashqari trening mashg'ulotlari davomida hal etiladigan muammolarga ko'ra va yana anchagina soddaroq

ko‘rinishdagi turlarga ham ajratilganligini ko‘rish mumkin. Jumladan.

*1. Trening davomiyligiga ko‘ra*

- bir martalik treninglar: bir kundan yetti kungacha davom etadi;
- doimiy treninglar: bir haftada 1-2 marotabadan bir oyda bir marotabagacha kuniga bir necha soat shug‘ullanishadi.

*2. Guruhdagi ishtirokchilaming soniga ko‘ra:*

- kichik guruhli treninglar - 4-8 ishtirokchi;
- o‘rtacha guruhli treninglar - 8-30 ishtirokchi;
- katta gur-hli treninglar - 30 kishidan ortiq kishidan ortiq ishtirokchilar.

*3. O‘tkazilish usuliga ko‘ra:*

- dressura1 - xulq-atvoming eng “erakli n”munalarini shakllantirish va keraksiz xulq-atvor shakllarini qat iy manipulyativ usullar orqali bartaraf etish;
- trenirovka (mashq qilish, takrorlash) - effektiv xulq-atvor ko‘nikma va malakalarini ishlab chiqish va shakllantirish;
- faol o‘qitish — psixologik bilimlarga ega bo‘lish, shuningdek bir qancha ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish;
- ishtirokchilaming o‘zini namoyon etishlariga imkon yaratish - o‘zidagi psixologik muammolaming yechimini mustaqil hal etish usuli orqali hosil etiladi.

### **11.3. Treninglaming asosiy turlari**

Ho‘zirgi kunda keng ommaga tag‘dim qilinayotgan treninglami umumiy tarzda quyidagi 4 ta asosiy gumhga ajratish mumkin:

**Korreksion treninglar.**

Bunday treninglaming maqsadi murojaat qilgan shaxsning psixologik muammosini hal etish, uning o‘z-o‘zini anglashiga hamda yangi va baxtli bayot boshlashiga ko‘mak berishdan iboratdir. Korreksion trening o‘z ichiga mijoz I’sixodiagnostikasmi ham oladi, lekin psixodiagnostika odatiy (testlar yordamida yoki psixolog bilan uzundan uzoq suhbat) tarzda emas balki o‘zgacha, trening shaklida amalga oshiriladi. Trening davomida diagnostik mashqlами bajarár ekan mijoz heixtiyor o‘zini sozlarda emas, balki amalda, ya’ni ayni jarayonda namoyon qiladi. lining psixologik portreti yuqori aniqlik bilan chiziladi. Keyin esa korreksion ishlar mnalga oshiriladi, bunda mijoz psixolog bilan ishlaydi va ular birgalikda mijoz uchun y<sup>«</sup>ingi hamda maqbul bo‘lgan xulqni ishlab chiqadilar. Bunday xulqni amalga oshirish yo’llari o‘rgatiladi.

Bunday treningni moslashish qismida mijoz o‘z muvafaqqiyatlarini real luyotga ko‘chirish malakasiga ega bo‘lib, u faqat trening doirasidagina omadli va baxtli bo‘lib qolmasdan, balki xuddi shu hislami shaxslararo munosabatlarga ham ko‘chirishni o‘Tganadi. Bunday treninglaming barcha qismlari (diagnostik, korreksion, moslashish)ni bir kunda ham amalga oshirish mumkin, biroq ba’zi hollarda bunday treninglami mijozning istagi va uning muammosining hal etilishiga qarab haftalab va hatto oylab davom ettirish ham mumkin. Bu esa mijoz muammosining murakkablik darajasi va uning bu muammodan qutulishni qanchalik istayotganligiga bog‘liq.

Ko‘pincha korreksion treninglarda eng ko‘p vaqt mijozning psixologik himoyasini yorib kirishga sarflanadi. Chunki bunday treningga murojaat qiluvchilar treneming ularga yordam berishini istaydilar, iekin o‘zlari o‘z ruhiyatidagi ichki o‘zgarishlarga hali tayyor bo‘lmaydilar. Biroq agar mijoz o‘z vaqtini va pullarining qadriga yetsa, o‘z ustida ishlashga tayyor bo‘lsa, u holda korreksion treningning natijasi juda yaxshi bo‘ladi.

**Ta’lim (o‘quv) treninglari.**

Bunday treninglaming asosiy maqsadi - qisqa vaqt ichida shaxsda ma 1—m bir kasbga oid ko‘nikma va malakalami hosil qilishdan iboratdir.

Ta’lim treninglari shaxsni yangi kasbiga moslashtiradi, shu kasbda ishslash uchun uning o‘ziga ishonchini oshiradi, kasbi yuzasidan zarur ko‘nikmalami tarbiyalaydi, raqobatbardosh qiladi, kasbiy rivojlanishga yo‘naltiradi. Bunday treningdan olingan “chiniqish” bir necha yilga yetadi. Keyin esa yangi yuqoriroq darajadagi ta’lim treninglarida qatnashgan ma’qul, chunki rivojlanishda to‘xtab qolish bu nafaqat inson ruhiyatiga, balki shaxsning kasbiy jihatdan o‘sishiga ham halaqit

berishi mumkin.

### **Shaxsni barkamollashtiruvchi treninglar.**

Bunday treninglar yuqoridagi treninglar kabi aniq yo'nalishga ega emas, lekin bu shaxsiy-rivojlantiruvchi treninglaming natijasi unchalik yaxshi boimaydi, degani emas. Bunday shaxsiy-rivojlantiruvchi treninglaming maqsadi qatoriga quyidagilami kiritish mumkin:

- insonning individualligini kashf etish, uning shaxsidagi kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash;

- uning yashashiga xalaqit berayotgan yoki aksincha yordam berayotgan xususiyatlarini aniqlash;

- insonning ichki dunyosini garmoniyaga keltirish, kuchsiz tomonlarini korreksiyalab, kuchli jihatlariga urg'u berish.

Bu jarayonni buyurtmaga kiyim tikish jarayoniga ham o'xshatish mumkin: yaxshi tikuvchi mijozning qomatidagi kamchiliklami yashirib, tanasidagi go'zalliklariga urg'u beradi. Lekin psixologning ishi chuqurroq va nozikroq, u tikuvchidan farqli ravishda qomat bilan emas, balki qalb bilan ishlaydi, bundan tashqari psixolog kamchiliklami berkitmaydi balki ulami yutuqlarga aylantiradi.

Bunday treninglar juda murakkab bo'lganligi uchun uni o'tkazuvchi trener- psixologga ham, mijozga ham bir qator jiddiy talablami qo'yadi. Afsuski, buni liamma ham tushunavermaydi. Biroq oddiydek tuyulgan, ammo psixolog tomonidan yuqori mahorat bilan tashkil etilgan va mijoz tomonidan jiddiy ishlanadigan shaxsni rivojlantiruvchi treninglar shaxsning ichki qadriyatlar tizimini, o'ziga, atrofdagilarga, umuman dunyoga nisbatan dunyoqarashini o'zgartirib yuborishga qodirdir. Shaxsni rivojlantiruvchi (barkamollashtiruvchi) treninglar va korreksion treninglar terapevtik treninglarga nisbatan profilaktik ta'sir ko'rsatish yuzasidan ahamiyatli darajada effektga ega. Bunday treninglarda asosiy qoida quyidagicha: ertaga muammolaring kam bo'lislini istasang o'z ustingda ishslashni bugundan boshla.

### **Biznes treninglar.**

Biznes treninglaming maqsadi shaxsga yoki kishilar guruhi (masalan, korporasiya ishchilariga) biznesda muvafaqqiyatga erishish yo'llarini o'rgatishdan iboratdir. Barchaga ma'lumki, bunday yutuqlarga ijtimoiy hayotning to'g'ri kelgan ishtirokchisi emas, balki o'z oldiga aniq maqsad qo'yan insonlargina erishadi. Agar ulaming psixologik muammolari, xarakter xususiyatlari yoki muloqotchanlik ko'nikmalarining yetishmasligi samarali ishslashga halaqit bersa, u holda bimday insonlar biznes va kasbiy faoliyatda yuqori natijalarga erisha olmaydilar. Shuning uchun ham yuqoridagi trening turlarining uchallasi ham shaxsning ijtimoiy muvafaqqiyatiga ta'sir qiladi. Biroq shunday treninglar guruhi borki ularda ijtimoiy ko'nikmalar alohida ajratib ko'tsatiladi va bunday treninglar biznes treninglar deb nomlanadi.

Yaqin vaqtgacha bu guruhi treninglari orasida samarali savdo (tovar hamda xizmatlar savdosi) treninglari juda mashhur edi. Bunday treninglarda qatnashganidan so'nggi natijalarda mijoz-sotuvchilar iste'molchi (shaxs yoki korporasiya)ga nisbatan psixologik yondashishni o'zgartirganlar, buning natijasida esa ulaming sotuv ko'rsatkichi o'sgan, shuningdek o'zlarinmg daromad darajasini ham oshirishga muvaffaq bo'lganlar.

Biznes-treninglar guruhi ayrim koin kommunikativ treninglami ham kiritish mumkin. Bunday treninglaming maqsadi — insonlaming o'zaro ta'siri va muloqot qobiliyatini mukammallashtirish orqali mijozning ijtimoiy muvafaqqiyatga erishishini ta'minlashdan iboratdir. Bunday treninglar "inson faktori" birinchi masala hisoblanadigan barcha biznes sohalarda samara beradi.

Bundan tashqari, biznes treninglarga taym-menejment treninglarini ham qo'shish mumkin. Bunday treninglarda ish vaqtini, ishdan tashqari dam olish vaqtini rasional rejalashtirish ilmi va san'atini o'rgatiladi.

### **11.4. Psixologik trening turlari**

Shuni alohida qayd etish lozimki, trening jarayonida muammolaming yechimini topish ham, bu boradagi bilim, ko'nikma va malakalami hosil qilish ham treneridan shaxs psixologiyasi, ayniqsa shaxs individual psixologiyasi bilan ishslashni taqozo etadi. Shuning uchun psixologiyada bunday

treninglar psixologik treninglar deb ataladi. Ayrim mutaxassislar hozirgi kunda mavjud bo‘lgan psixologik treninglami quyidagi uchta yirik guruhga ajratish mumkinligini qayd etishadi:

**1. Ijtimoiy-psixologik treninglar** - bu trening ishtirokchilarga o‘zining atrofidagilar, oilasi, yaqinlari va o‘z-o‘zi bilan muloqot san’atiga o‘rgatuvchi treninglardir. Shuningdek, bunday trening guruhlari tarkibiga shaxsda “uxlab yotgan” imkoniyat va qobiliyatami yuzaga chiqarishga ko‘maklashuvchi shaxsni rivojlantiruvchi treninglar ham kiradi.

**2. Kommunikativ treninglar** guruhda va undan tashqari (mijozlar, xaridorlar, hamkorlar, raqobatchilar bilan ishslash)dagи samarali muloqot ko‘nikmalarini egallashga qaratilgan treninglardir. Bunday ko‘nikmalar xuddi xorijiy tillar yoki avtomobilni boshqarish ko‘nikmalari kabi egallanadi. Trening mashg‘ulotlari mobaynida tabiiy holatga mos keluvchi, hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtirilgan amaliyot O‘talishiga ham imkon yaratiladi, bu esa ishtirokchilarga olgan ko‘nikmalarini amalda qo‘llay olish imkonini beradi.

**3. Professional treninglar.** Bunday treninglar juda ko‘p mutaxassisliklarni qamrab oladi, jumladan, hozirgi bozor iqtisodiyoti davrida savdo menejerlari uchun m o l jallangan treninglarga ehtiyoj katta.

Mutaxassislaming ta’kidlashlaricha, bugungi kunda sportchilar va ishchilar jamoasida treninglarga bo‘lgan ehtiyoj juda katta, chunki sportchi va ishchidan bir yoki bir necha faoliyatni birvarakayiga, tez va muvaffaqiyatli bajarish talab etilmoqda. Shuningdek, boshqaruv treninglari ga bo‘lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda. Treninglar boshqaruv sohasiga kirib borar ekan, bunday treninglaming asosiy vazifasi tashkilotni, savdoni va shu kabilami muvaffaqiyatli boshqarishga doir ko‘nikma va malakalami shakllantirishdan iborat bo‘lib qoldi.

Treninglaming turlari haqida gapirilganda uning quyidagi ikki turiga urg‘u berish lozinr. birinchisi, psixologik va psixoterapevtik treninglarga juda yaqin boigan individual rivojlanish va shaxsni barkamollashtiruvchi treninglar ko‘rinishida mavjud. Treningni bunday ko‘rinishlari shaxsiy (jismoniy shaxslar uchun) bo‘lib, shaxsni barkamollashtirish, uni rivojlantirish, unga ruhiy ko‘mak berish, undagi depressiya, stress va shu kabi salbiy ruhiy holatlaming oldini olish bilan bog‘liq muammolarga qaratiladi.

Ikkinchisi, korporativ treninglar ko‘rinishida bo‘lib, bunda gumh ishtirokchilarini oldindan kelishilgan va aniq maqsadga yo‘naltirilgan ko‘nikma, malakalarga o‘rgatiladi.

Korporativ treninglaming o‘zini yana quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Boshqaruv treninglari, ulaming vazifalarini quyidagi shaklda ko‘rsatish mumkin:

- missiyalami shakllantirish va uning realizasiya qilish strategiyasini ishlab chiqish - natijada aniq shakllantirilgan, trening ishtirokchilari tomonidan qabul qilingan va tasdiqlangan missiyaga ega bo‘linadi, shuningdek uning realizasiyasi uchun zarur bo‘lgan konkret rejalgarda ham ega bo‘linadi.

- effektiv qarorlar qabul qilish - natijada ishtirokchilar o‘z oldilariga qo‘yilgan muammolarning hal etilishi yuzasidan tayyor ko‘rsatmalarga ega bo‘lishadi, slmningdek trening ishtirokchilarida muammolami hal etish yuzasidan ko‘nikmalar hosil qilinadi.;

- tashkiliy o‘zgarishlami optimallashtirish - tashkiliy O‘zgarishlaming optimal rejasiga ega boiinadi, ishtirokchilar o‘zgarishlar jarayonini boshqarish yuzasidan ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi; - liderlik ko‘nikmalarini shakllantirish - trening ishtirokchilari liderlik sifatlari va ko‘nikmalariga ega bo‘lishadi;

2. Marketing sohasidagi treninglar.

- tashkilotdagi marketing sohasini boshqarish - ishtirokchilar tashkilotdagi marketing , sohasini boshqarish taktika va strategiyalarini o‘zlashtiradilar;

- sotuvchilik mahorati ortadi; - iste’molchi bilan effektiv qayta aloqa o‘matishga o‘rganadi; - effektiv prezентasiya (mahsulotm tag‘dim etish)ga o‘rganadi; - mijozlar bilan ishslashga o‘rganadi;

- iste’molching ehtiyojlarini o‘rganadi.

3. Kadrlar tayyorlash borasidagi treninglar.

- yangi xodimlami izlashning effektiv usullari;

- lavozimga kirishish;

- o‘zining komanda (jamoa)sini tuzish;

- effektiv muloqotga kirishish;
- shaxslararo o‘zaro ta’sir,
- nizolami hal etish;
- o‘ziga ishonch kabilami shakllantirishga yordam beradi.

#### 4. Xavfsizlik borasidagi treninglar.

- pulli razvedka va kontrrazvedka;
- korporativ xavfsizlikni tashkillashtirish yuzasidan ko‘nikmalar hosil qilinadi.

Psixologik treninglami qaysi muammoni yechishga va qanday maqsaddt tashkil etilishiga qarab, asosan quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

1. Shaxslararo muloqotchanlik ko‘nikmalarini hosil qilish uchun tashkil etiladigan treninglar.
2. Shaxsni rivojlantiruvchi (barkamollashtiruvchi) treninglar
3. Turli xil psixologik muammolardan chiqib ketish uchun ko‘nikmalar hosil qilish maqsadidagi treninglar (Ruhiyatni sog‘lomlashtiruvchi treninglar)

## **XI BOB BO‘YICHA TOPSHIRIQLAR**

### **Nazorat savollari**

1. Zamonaviy trening turlari va klassifikasiyasini sanang
2. Ta’lim treninglarining maqsadi nima?
3. Korporativ treninglar kimlarga mo‘ljallangan?
4. Psixologik treninglaming maqsadi nima?

### **Mustaqil ish mavzulari**

1. O‘zbekistonda ta ’lim treninglari yuzasidan olib borilgan ishlami tahlil qiling
2. O‘zbek tadqiqotchilari tomonidan psixologiyada ta ’lim treninglarining qo’llanilishiga taqrizlar yozing
3. Korporativ treninglaming ahamiyatini ochib beruvchi tahlil yozing

### **Testlar**

1. Gumanistik psixologiya terapevtik dunyoqarash nuqtai nazardan faoliyat olib borgan olimlar qaysi qatorda ko‘rsatilgan

- A) K.Rodjers, A.Maslou\*
- B) A.Maslou, V.Bandura
- V) K.Rodjers, V.Bandura
- G) Ya.Moreno, A.Maslou

2. Senzitivlik treningida eng mhim holat nimadan iborat?

- A) Trener guruh faoliyatini boshqarish va tashkiliashtirishdan voz kechadi
- \* B) Trener boshqalarga yo‘nalishlami ko‘rsatadi
- G) Trener o‘yin va mashg‘ulotlar o’tkazadi
- D) Trener kutuvlami aniqlaydi

3. V.Yu.Bolshakovning treningga oid asari qanday ataladi?

- A) «Psixotreninglar»
- \* B) «Guruhiy transaktanaliz»
- G) Psixologik o‘yinlar
- D) Psixoterapeya

4. Psixodrammaning asoschisi kim?

- A) Yakob Moreno
- \* B) A.Maslou
- G) Ye Bern
- D) K.Rodjers

5. Xulq-atvorning eng kerakli namunalarini shakllantirish va keraksiz xulq-atvor shakllarini

qat'iy manipulyativ usullar orqali bartaraf etish qaysi trening turiga kiradi?

A) dressura\*

B) trenirovka

G) faol o'qitish

D) ishtirokchilanting o'zini namoyon etishlariga imkon yaratish

6. Qaysi trening turida qisqa vaqt ichida shaxsda ma'lum bir kasbga oid konikma va malakalarni hosil qilishga erishiladi?

A) Ta'lim treninglari\*

B) Biznes treinglar

G) Shaxsni rivojlantiruvchi treninglar

D) Korreksion treninglar

## XII. MULOQOT TRENINGLARI

### 12.1 Muloqot treninglari

Muloqot shaxs hayotida muhim o'rin tutadi va shaxsning eng asosiy ehtiyojlaridan bin sifatida psixologiyaning asosiy predmetlaridan birini tashkil etadi. Odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yetakchi o'rinni egallab, u insondagi eng muhim chtiyoj — jarniyatda yashash va o "zini shaxs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojni qondiradi.

Trening jarayonida trener ishtirokchilarga shaxslararo munosabatlami yaxshilash uchun mo'ljalangan o'yin va mashqlar, babs-munozaralami taklif etishi uchun undan psixologik bilimlarga va ayniqsa muloqot haqidagi bilimlarga ega bo'lish talab etiladi. Shaxslararo munosabatlar psixologiyaning eng murakkab va asosiy yo'nalishi bo Tib, buni bilmasdan turib trening jarayonini tashkil etish va uning samarasini ta'minlash mumkin emas.

Shaxslararo muloqotchanlik ko'nikmalarini hosil qilish uchun tashkil etiladigan treninglarning maqsadi - muloqot jarayonida vujudga kel-digan nizoli va muammoli vaziyatlammg oldini olishga yuzaga kelgan vaziyatlami esa yechimini topishga o'rgatishdan iboratdir.

Bu borada olib borilgan treninglar ishtirokchilarga nima beradi? degan savolga quyidagicha javob Berish mumkin:

- Guruh a'zolarining har birida kuzatuvchanlikning oshishiga olib keladi;

- Turli xil vaziyatlarda suhbatdoshi bilan muloqotga kirisha olish yoTlarini egallahga o'rgatadi;

- Muloqotga kirishayotgan sheringining verbal va noverbal muloqotidagi farqni ajrata bilishga o'rgatadi, ya'ni ishtirokchilar muloqotdagi sheringining so'zlari bilan mos kelmayotgan xattiharakati, holati, imo-ishoralarini o'qiy bilishga, ulami tahlil qilishga o'rganadi;

- Nizoli va muammoli vaziyatlarda xulq-atvorini me'yorida ushlab turishga o'rgatadi.

- Muloqot jarayonida boshqalami, o'zini, shuningdek odamlar orasidagi munosabatlami yaxshiroq tushunishga o'rgatadi.

- Shaxsning o'z-o'zini anglash jarayonini tezlashtiradi.

- O'zi va suhbatdoshining emotsiyonal holatini solishtirishga, o'zidagi emotsiyonal zo'riqishni pasaytirishga o'rgatadi.

Muloqot - bu ehtiyoj, ya'ni kishilaming bir-birlari bilan birga bo'lishga, o'z likr-o'ylari, qiziqishlari, e'tiqodlari va shu kabilami o'zaro muhokama qilishga bo lgan juda katta ijtimoiy ehtiyoji hisoblanadi. Bu ehtiyojning qondirilmasligi nafaqat jismoniy, balki ruhiy salomatlikning buzilishiga ham olib keladi.

Shuning uchun jamiyatda yashayotgan har bir shaxs o'z hayotida o zgalar bilan samarali muloqotga kirisha olish uchun muloqotchanlik ko nikmalariga ega bo lishi maqsadga muvofiqdir. Bizga ma'lumki, agar shaxs muloqotchan bo Isa, unda shaxslararo muloqot jarayonida uning boshqalar bilan kelishuvi va muammoli vaziyatlar duch kelmasligi shunchali kafolotlanadi. Xo'sh, muloqotchanlik ko'nikmalarini deganda insondagi qaysi jihatlar tushuniladi? Bu savolga javob berish uchun psixologik adabiyotlarda muloqotchanlik ko'mkmalari sifatida keltirilgan quyidagi jihatlami keltirish mumkin:

➤ chirolyi gapira olish (so'zlar, tonlar)

- o‘zgalami tinglash va fikr bildira olish
- o‘zini va boshqalami tushuna olish
- yuz ifodalarini va xatti-harakatlami o‘qiy olish
- o‘z hissiyotlarini gapira olish
- o‘zgalaming hissiyotlarini tushunib, qabul qila olish
- nizoli vaziyatlarda o‘z xulqini boshqara olish
- samimiy munosabatda bo‘lish
- tolerant bo‘la olish

Shaxslararo muloqotchanlik ko‘nikmalarini shakllantirishga mo‘ljallangan treninglar davomida trener quyidagi bosqichlar asosida muloqotchanlik ko nikmalari shakllantirishi maqsadga muvofiq:

1. Kontakt o‘matish bosqichi
2. Masalani muhokama qilish bosqichi.
3. Yechim izlash bosqichi.
4. Qaror qabul qilish bosqichi.

## **12.2. Muloqot treninglarining bosqichlari**

**Kontakt o‘rnatish bosqichi.** Bunda har bir ishtirokchi Qarshimdagi odam kim?” degan savolga javob bera oladigan savollami bilishi lozim. Umuman shaxs o‘z qarhisidagi odam, ya’ni suhbatdoshi haqida imkon darajasida ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. Psixologik adabiyotlarda ta’kidlanishicha, muloqotga kirishayotgan odam haqida hech boimaganda 5-7 tagacha ma’lumotga ega bo‘lish maqsadga muvofiqliqdir:

**Agar odam suhbatdoshi haqida quyidagilarni bilsa, u bilan kontakt o‘rnatishi oson kechadi:**

- Ismi
- Mutaxasssligi (kasbining o‘ziga yoqadigan va yoqmaydigan tomonlari)
- Oilaviy ahvoli
- U qadrlaydigan insoniy sifatlar
- Qiziqishi yoki xobbisi.
- Sog’ligi haqidagi ma’lumotlar

Bu ma lumotlar qatori qanchalik ko‘p bo‘lsa, shuncha yaxshi, chunki suhbatdoshi haqida ma’lumotlaming ko‘pligi samarali muloqot o‘matishning kafoloti liisoblanadi.

Demak, har qanday odam muvaffaqiyatli muloqotga kirishish uchun suhbatdoshi haqida ko‘proq ma’lumot bilishi talab etiladi. Samarali muloqotni tashkil qilishda c’liborga olinishi lozim bo‘lgan yana bir holat shundan iboratki, bunda trening ishtirokchilari “Qarshimdagi odam qanday holatda”” degan savolga javob bilishi ta ab etiladi. Ma’lumotlar va stereotiplarga nazar tashlasak, semiz odamlar ozg‘in odamlarga nisbatan bag’rikengroq bo‘lishi ta’kidlanadi. Demak, bunday holatlami ham albatta hisobga olish lozim. Bunda kishining salomatligi, kayfiyati, emotsional holati kabilarga e ’tibor berish talab etiladi v a ishtirokchilar ana shular o’rgatiladi.

**Masalani muhokama qilish bosqichi.** Bir dona kishining fikriga ko‘ra, “Eng yaxshi suhbatdosh bu - gapirishni biladigan emas, balki tinglashni biladigan suhbatdoshdir”. Aksariyat kishilar gaplashayotganda sizni eshitayapman, deyishadi. Aslida esa suhbatdoshni suhbatdoshni eshitish emas, tinglash lozim bo‘ladi.

Tinglash 2 xilda amalga oshadi:

Passiv tinglash

Faol tinglash

**Yechim izlash bosqichi.** Bu bosqich muloqot jarayonida murakkab masalalar, muammolar, nizolar yuzaga kelganida zarur bo‘ladigan bosqichdir. Har qanday muammoning yechimi mavjud. Faqat boshqalar muloqot jarayonida muammoli vaziyatga tushib qolingga mana shu ko‘mkmaga ega bo‘lish lozim bo‘ladi. Sunday ko‘nikma hayot jarayonida krossvordlar yechish orqali ham rivojlantiriladi. Lekin trening jarayonida bu ko‘nikmaga o‘rgatish trli muammoli vaziyatlami tahhl etish orqali amalga oshiriladi. Bunda ishtirokchilarga muammoning yoki holatning bir emas, bir

nechta yechimlami o'ylay olish, topish topshirig'i berilidi va shu asosda ko'nikmalar hosil qilinadi.

**Qaror qabul qilish bosqichi.** Bir qancha yechimlar orasidan mosini topib ma'lum bir qarorga kela olish ko'nikmasi shundan iboratki, kishi o'zi qabut qilayotgan qaroming natijasi nima bo'lishini aniq tasavur eta olishi kerak. Shuningdek, bu jarayonda faqat o'z manfaatini emas, boshqalar manfaatini ham hisobga olgan holda qaror qabul qilish lozim.

Bunda muammoli holat muhokama etilayotganda albatta suhbatdoshlar orasidan kimningdir fikri, aniqrog'i qaroriga qolganlar b o'ysunishi kuzatiladi. O 'z sheriklarini o'zining qaroriga bo'ysundira olish hammanmg ham qo'lidan kelavermaydi. Buning uchun muloqot jarayonida psixologik ta'sir masalsiga to'xtab o'tish lozim.

Muloqotda psixologik ta'sir kishilaming birgalikdagi faohyatlarini jarayonida bir-birlariga amaliy jihatdan bevosita ta'sir etishlarini ta'minlaydi. Shu tufayli odamlar hamkorlikda ishlash, bir-birlariga yordam berish, bir-birlaridan o'rgamsh, harakatlar muvofiqligiga erishish kabi qator qobiliyatlarini namoyon qilishlari mumkin. O 'zaro m uloqot jarayonida bir odam ikkinchi odamga psixologik ta sir ko'rsatadi. Bu ta'sir ikkala tomondan ham anglanishi yoki anglanmasligi mumkin. Ya'ni, ba'zan biz nima uchun bir shaxsning bizga naqadar kuchli ta'sirga ega ekanligini, bosliqa biri esa, aksincha, hech qanday ta'sir kuchiga ega emasligini tushunib yetmaymiz.

Muloqot jarayonida psixologik ta'sir ko'rsatishning asosiy omili - bu psixologik obro'dir. Ya'ni agar so'zlayotgan shaxs biz uchun qaystdr mavqedra obro'ga ega bo'lsa, biz uni jon-dilimiz bilan tinglaymiz va uning gaplari orqali o'z , xatti-harakatlarimiz yoki xulq-atvorimizni o'zgartirmiz.

Pedagogik ta'sir Qaysidir o'qituvchinmg odobi, o'z kasbini ustasi ekanligi, talabalar qalbini tushuna olishi, ulaming yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ish tutishi uning talabalar orasida ma'lub bir obro'ga ega ekanligini belgilaydi. Bunday o'qituvchining aytganlarini har bir talaba iloji boricha bajarishga tayyor bo'ladi.

Aksincha qaysidir o'qituvchi talabani tushunishga harakat qilsada, ularga juda odob bilan muomala qilsada, uning obro'si yetarli darajada bo'lmaydi va aytganini talabalarga bajartira olmaydi, ham.

Har bir insonning qadriyatlar tizimi va tasavvur obrazlari mavjud boiib, ma'lum bir inson qaysidir jihatlari bilan shularga mos kelsa, o'sha odam obro'ga ega boiadi. Aksincha uning hurmat qozonishi qiyin kechadi. M, talabalar uchun o'qituvchinmg bilimli va pedagogik mahorati qadriyat. Shunga mos kelgan o'qituvchilar ko'pincha psixologik ta'sir o'tkaza oladi.

### **12.3. Muloqot pozitsiyalarini bilishning ahamiyati**

Ma'lumki, samarasiz muloqot uslublari insonlar o'rtasida nizoli vaziyatlaming kelib chiqishiga olib keladi. Odatta nizo - manfaat, qiziqish va dunyoqarashlaming qarama-qarshiligi sifatida ta'riflanadi. Har bir inson boshqalar bilan munosabatga kirishar ekan, u albatta biron manfaatni, hatto aytish mumkinki, eng awalo o'z manfaatini ko'zlagan holda va masalaga o'z qarashini ifodalab muloqotga kirishadi. Lekin muloqot kamida ikki tomonning o'zaro fikr almashuvidan iborat va ikkala tomon ham muloqot muammosiga nisbatan har xil fikrlami bildirishi mumkin. Natijada fikrlar qarama-qarshiligi, ya'ni nizoli vaziyatlar vujudga kelishi muqarrar.

Odatda nizoli vaziyatlarda bir tomon o'z fikrini to 'g 'ri deb hisoblaydi, ikkinchi tomonning fikrini esa inkor etadi, natijada muloqot jarayonida uzilish va muloqotdan qomqmaslik hissi yuzaga keladi. Bu qoniqmaslik hissi ochiq-oydin ifoda etilsa — tomonlar o'rtasida kellshmovchiliklar kelib chiqadi, hatto o'rtada nizo (janjal) paydo buladi. Lekin ba'zi hollarda biz bunday qoniqmaslik hissini ochiq ifoda eta olmaymiz va ichimizga yutib" ketamiz, natijada tomonf'r o'r"asida yashirin nizo paydo bo'ladi va o'rtadagi davomiy sovuqchilikning asosiga aylanadi.

Demak, aytish mumkinki, birgalikdagi faoliyat va hayotga, ya'ni muloqotga halaqit beruvchi to'siq hamda noxushliklarni o'z vaqtida bartaraf etishga intilish kerak. Buning uchun eng yaxshi usut — unutishdir. Unutish vazifasini esa vaqt bajarishi mumkin, ya'ni vaqt o'tishi bilan biz nizoli vaziyatlami, kim bilandir o'tamiizda paydo bo'lgan noxush vaziyatlami unuta boshlaysiz. Lekin hozirgi jadal taraqqiyot davrida vaqtga ishongandan ko'ra, faol harakat qilib nizoli vaziyatlar natijasi bo'lgan noxushliklarni ixtiyoriy ravishda bartaraf etish samaraliroq natijalar berishi

mumkin. Buning uchun esa shu maqsadda tashkil etiladigan treninglar yaxshi natija bradi.

Odatda o‘zaro munosabatda bo‘layotgan odamlar — muloqot ishtirokchilarini fiifif xfl ‘jybztstyalarclan kelib chiqqan holda o‘zaro munosabatlarda llo‘ladilar. Bu pbzitsiyalar ko‘p jihatdan muloqot ishtirokchilarining o‘zaro holatiga, muloqot natijasiga ta’sir etadi va keying! munosabatlar mazmunini ham belgilab beradi. Insonlar o‘zaro munosabatlarda qanday pozitsiyada turib muloqot o‘matishlariga qarab psixologiyada 5 xil munosabat tiplari farqlanadi:

**I. Raqobat usuli** — muloqot jarayonidagi bir tomonning ikkinchi tomon ustidan hukmronligini namoyon qilgan holda muloqot vaziyatini boshqarishga va butun jarayonni o‘z qo‘liga olishga harakat qilishini anglatadi. Odatda, katta yoshlilar va kichiklar o‘rtasida, rahbar va unga tobe xodim munosabatlarida shunday manzarani kuzatishimiz mumkin. Bunda birinchi tomon o‘z ustunligidan foydalangani holda ikkinchisining ustidan o‘z erkini namoyon etadi. Tabiiyki, muloqotdan muloqotga tomon o‘zini tobe deb his etayotgan odamda ichki noqulaylik va zo‘riqishlar yig‘ilib boradi. Bunday holatni psixologik til bilan ifodalanganda “yashirin nizo yig ilib boradi” deyish mumkin. Bu esa o‘zaro munosabatlarning keskinlashuvi va vaqt kelib kattaroq nizolaming paydo boiishiga olib keladi.

**II. Yon berish** — yuqorida aytilgan holatga o‘xshashroq, biroq undan ko‘ra farqliroq holat hisoblanadi. Bunda shaxs muloqot jarayohida yori berishga majbur emas, lekin u yon berishga burchliman deb hisoblaydi Bunda kishi o‘zidan yoshi, mansabi, mavqeい jihatdan katta kishi oldida o‘z manfaat va istaklarmi to‘la ifoda etolmay o‘zini tobe his etadi. Agar yuqoridagi misolda tobelik o‘zga kishi tazyiqij ostida vujudga kelsa, yon berish pozitsiyasida shaxs o‘z ixtiyori bilan shu xil munosabat tarafdori bo‘ladi. Lekin ma’lum vaqt va natijalardan so‘ng unda ichki qoniqmaslik hislari paydo bo‘la boshlaydi. Bunday qoniqmaslik hislari ortib borishi natijasida esa yon berayotgan kishisiga nisbatan ichki norozilik kelib chiqadi. Yon berish insonni passivlikka undaydi, uning ichki tashabbusini bo‘g‘ib qo‘yadi va erkinligini cheklaydi. Ko‘p jihatdan bu pozitsiya ham muqarrar nizolarga olib keladi.

**III. Passivlik** — biron masalani hal etish lozim bo‘lgan vaziyatlardan shaxsning o‘zini olib qochishi, turli bahonalar bilan qaromi orqaga surishini anglatadi. Ko‘pincha bu xil harakat nizoli vaziyatlami hal etish jarayonida namoyon bo‘lishi mumkin. Aytish mumkinki, passivlik — nizodan qochish emas, balki masalani uzil-kesil hal etishdan qochishdir. Muammoni issig‘ida hal qilish kerak, uni hal qilishni cho‘zib yurish kerak emas. Chunki nizoni hal etishdan qochganimiz bilan nizo o‘z-o‘zidan hal bo‘lib qolmaydi. Bu o‘rinda ishtirokchida “Kelishmasdan qolgan yoki orasid” nizo paydo bo‘lgan ikki kishi vaqt o‘tishi bilan bir-birini kechirib ketishi ham mumkin-ku, buni qanday tushunish mumkin?” kabi e’tiroz tug‘ilishi ham mu”kin. Bu e’tiroz tashqi tomondan qaraganda to‘g’ri, lekin psixologik jihatdan taxlil qilinsa, atrofdagilar nazarida ular bir-birini kechirgandek ko‘rinsalarda, aslida ma’lum muddatgacha bir-birlariga nisbatan ichki norozilik holatida qolaveradilar.

**IV. Kompromiss** — ya’ni kelishuvchanlik. Bahsli vaziyatlarda “Sen ham yutqizma, men ham yutqi“may” qabilida ish tutish, munozaral” vaziyatdan ikkala tomon ham xafa bo‘lmay chiqib ketish imkoniyatini izlashdan iborat bo‘lgan holdir. Albatta, bu yuqorida sanab o‘tilgan munosabat tiplarining orasida eng samaralisi hisoblanadi. Lekin bu xil munosabat vaziyatni aynan hozir hal etishga, “keyin nima bo‘lsa bo‘lar” qabil“da ish tutishga qaratilg”n bo‘ladi. Bunda salbiy jihat shundaki, muammoni oxirigacha hal etilmasa, bora-bora baribir nizo kelib chiqishi mumkin.

**V. Hamkorlik** — bu holat muloqot jarayonda ishtirok etayotgan barcha ishtirokchilaming o‘zaro manfaatlarini hisobga olgan holda muloqotda bo‘lish va muammoli vaziyatni oxirigacha hal etishga intilishdir. Har qanday muloqot jarayonida hamkorlikka erishish uchun erishiladigan oxirgi natija ikkala tomonning xam manfaatlarining qondirilishi va ulaming qiziqishlariga mos kelishi kerak. Oilaviy munosabatlar, ishxonadagi vaziyatlar va turli hollardagi insoniy munosabatlarda bu usul juda ko‘p qo‘llaniladi.

Hayotiy vaziyatlarda faqat o‘zining manfaatinigina emas, balki boshqalaming ham manfaatini o‘ylash, boshqalaming manfaatlari xaqida ham qayg‘urish hamkorlik munosabatlarining garovi hisoblanadi. Zamona viy psixologiya fanida hamkorlik munosabatlarini shakllantirishning qonuniyat va mexanizmlari yetarli darajada to‘la ishlab chiqilgan. Shu ma’lumotlarga tayangan holda hozirgi

paytda maxsus tashkil etiladigan trening mashg'ulotlarida turli xil o'yin va mashqlar yordamida odamlarga hamkorlik munosabatlarining amalga oshirilishi haqida ma'lumotlar berish, insonning hamkorlik pozitsiyasida turib muloqotga kirishishi borasida ko'nikma va malakalami shakllantirish yo'lga qo'yilgan.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, bu jarayonni tashkil kilish va olib borishda nafaqat trening o'tkazish uslubi, balki treneming shaxsiy pozitsiyasi ham yetakchi omillardan bio boiib hisoblanadi. Ya'ni bu xil munosabat uslubi treneming e'tiqodiga aylangan bo'lishi va u har qadamda buni namoyon qilishi kerak.

### **12.5. Mufbqotda noverbal va paralingvistik ta'sirlar**

Mutaxassislamning ta'kidlashlariga ko'ra, muloqot jarayonida kishilar e'tibor bermaydigan ayrim holatlar mavjudki, bular ham muloqotga o'ziga xos ta sir ko'rsatadi. Bularga quyiagilami kiritish mumkin:

- Noverbal harakatlari
- Suhbatdoshlama gavda harakatlari
- Yordamchi vositalar — jinsiy farqlar, kiyim, kosmetika, tatuirovka, ochki, sigareta kabilar
- Nutq bilan bog'liq bo'limgan holatlar - kulgu, yig'i, yo'tal, nafas siqishi, tishlami g'ijirlatish kabilar kiradi.

Kishini sinchkovlik bilan kuzatish natijasida uning harakatlari va so'zlarining ma'nosi orasidagi farqni bilib olish mumkin, deb hisoblashadi, mutaxassislar. Masalan, do'stingizga "Vaqting bormi?" deb murojaat qilganingizda, "Albatta , degan javobni olishingiz mumkin, lekin uning qayta-qayta soatiga qarayotganligi uning vaqt ziqligidan dalolat beradi.

Odam o'zi bilan bir jinsli sherik bilan aksincha sherikka nisbatan samimiyl va ochiqroq muloqotga kirisha oladi. Kishining kiyimi u haqdagi dastlabki taassurotga omil bo'ladi, "Odamni kiyimiga qarab kutib oladilar, lekin aqliga qarab kuzatadilar", degan maqol mavjud bo'lsada, aksariyat kishilarda qimmatbaho kiyimlar kiygan kishilar madaniyatli va mansabdor shaxslardir degan streetip shakllanib qolgan. Bundan tashqari muloqotda ovoz tom ham katta ahamiyatga ega. Birgina "Ahvollaringiz yaxshimi?" degan jumlaning yig'lamsirab, kulib, yo'tal aralish, nafas siqib, tishlami g'ijirlatib aytishini tasawur qilishning o'ziyoq bu fikrimizni asoslab beradi.

Rus psixolog A.N.Melnikova noverbal vositalar shaklini o'rganib quydagilami ta'kidlagan: Suhbatdoshlar o'rtasidagi masofani alohida ajratib ko'rsatadi. Uning ta'kidlashicha, suhbatdoshlar o'rtasidagi masofa muloqot jarayonida katta rol o'ynaydi va bu masofalaming buzilishi muloqotda ham noxushliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Muloqot jarayonida sheriklarning o'zaro fazoviy joylashuvi ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Bu joylashuv interpritasiyasi quydagi holatlarda boiishi kuzatiladi:

- Ommaviy zona - 2m.dan - 7 m.gacha — bunda kishilar o'-a jiddiy bo'lgan mavzular haqida gaplashadilar, bu so'zlashuv jarayonida ular o'rtasida yaqinlik his qilinmaydi.
- Ijtimoiy zona - 0.5m.dan - 2m. — ma'lum bir -asalani hal etishda bu zonada gaplashish kuzatiladi. Tashkilot rahbarlari yoki o'qituvchilaming auditoriya bilan gaplashishi bunga misol bo'ladi.
- Shaxsiy zona - 20sm.dan - 50sm.gacha - suxbatdoshlar (d-'stlar) o'rtasida yaqinlik his etiladi va ular o'zlarini qiziqtirgan masalalar haqida gaplashadilar
- Intim (yaqin) zona — Osm.dan - 15 sm.gacha - shivirlab gaplas-ish, qulog'iga gapirish holatlarida ifodalanadi, bunda yaqin kishilar bir-birlari bilan o'ta sirlar narsalar haqida gaplashadilar, ular o'rtasida samimiy yaqinlik hislari mavjud bo'lishi kuzatiladi.

## **XII BOB BO'YICHA TOPSHIRIQLAR**

### **Nazorat savollari**

1. Psixologik treninglarga misollar keltiring
2. Muloqot treninglari ishtirokchilariga nima beradi?
3. Muloqot treninglarining asosiy maqsadi nima?
4. Muloqot treninglarida nimalarai hisobga olish lozim?

### **Mustaqil ish mavzulari**

1. Muloqotda o'zaro ta'sir jarayoni
2. Muloqot pozitsiyalarini bilishning ahamiyati
3. Muloqotda o'zaro persepsiya
4. Muloqotchanlik ko'nikmalarim shakllantirish

### **Testlar**

1. Lnsondagi eng muhim ehtiyoj — jamiyatda yashash va o‘zini shaxs deb hisoblash bilan bog‘liq ehtiyojni qondiruvchi jarayonni belgilang

- A) Muloqot
- B) O'yin
- V) O ‘qish
- G) Trening

2. Qaysi treningda ishtirokchilarga muloqot jarayonida vujudga keladigan nizoli va muammoli vaziyatlarning oldini olishga yuzaga kelgan vaziyatlarni yechimini topishga o‘rgatiladi.

- A) Muloqot treninglarida
- B) Shaxsni rivojlantiruvchi treninglarda
- V) Ruhiyatni sog‘lomlashtiruvchi treninglarda
- G) Stressni bartraf etuvchi treninglarda

3. Muloqot jarayonida o‘zgalarni tinglash va fikr bildira olish - muloqtning qaysi jihatiga kiradi?

- A) Muloqot ko'nikmalariga
  - B) Muloqot vazifasiga
  - V) Muloqot maqsadiga
  - G) Muloqot jarayoniga
5. Qaror qabul qilish bosqichi muloqotdagi nechanchi bosich hisoblanadi?
- A) 4-bosqich
  - B) 2-bosqich
  - V) 1-bosqich
  - G) 3-bosqich

## **XIII. SHAXSNI RIVOJLANTIRUVCHI (BARKAMOLLASHTIRUVCHI) TRENINGLAR. 13.1. Shaxsni rivojlantiruvchi treninglarning tarixi**

Shaxsni rivojlantiruvchi (barkamollashtiruvchi) treninglarning tarixi XX asming 60-yillari oxiriga borib taqaladi. Aql dinamikasi ("Mind Dynamics") treningi ayni s“u nomdag'i konTaniya tarkibida 1968 yilda AQShning Texas shtatida yuzaga kelgan bo‘lib, uning asoschisi Aleksandr Everettdir. Aleksandr Everettning treningi “Shaxsni barkamollashtiruvchi treninglaridagi turmush tarzidagi haqiqatlami anglash, liderlik tajribalari, guruhiy effektivlik” treninglarining prototipi (timsoli) va darakchisi hisoblanadi.

Biz yuqorida - trening gumhlarining rivojlanish tarixi haqidagi ma'lumotlarda trening guruhlari dastawal AQSh va G'arbiy Yevropada rivojlanganligini va “Shaxsni barkamollashtiruvchi trening”iar dastlab A.Everett tomonidan o'tkazilganligi haqidagi ma'lumotlami tahlil qilgan edik.

A.Everett asli Angliyalik bo‘lib, 1962 yilda AQShga keladi va shu yerda o‘z ishlarini davom ettiradi. Everett o‘zining yetti yillik ish faoliyati davomida “Aql dinamikasi” shiTkatin Fort Uayt maktabiga aylantirdi. A.Everett o‘zining “His qilish”, “Shaxs imkoniyatlarmi ochish” mavzulariga yo'naltirilgan eng samarali treninglami vujudga keltirish bilan o‘z ishini davom ettirdi. Aynan mana shu treninglar keyinchalik “Est”, “Layfspring”, “Aktualizasiya” kabi treninglarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

“Aql dinamikasi” Everettga katta shuhrat olib kelishi bilan bir qatorda, unga omad ham kulib boqqandi. Chunki “Xoliday Medjik” nomli atir-upalar bilan savdo qiluvchi bir qancha do'konlar egasi bo‘lgan Uilyam Penn Patrik A.Everett va uning ishlari bilan qiziqib qolgan edi. Penn Patrik bir qancha do'konlar egasi bo‘ishi bilan bir qatorda “Sardorlik dinamikasi” trening shirkatining

boshlig‘i ham edi. 1970 yilda Uilyam Penn Patrik A.Everettning “Aql dinamikasi” shirkatini sotib oladi va o‘zining trening shirkatiga qo’shadi. Buning natijasida ‘Tansformasion trening’ shirkati rivojlanadi. Biroq Uilyam Penn Patrikning atir-upalar bilan savdo qiluvchi do’konlarining marketing ishlari noqonuniy hisoblanib yopiladi. Bu esa Aql dinamikasi” trening shirkatining ham ish faoliyatni to’xtatishiga olib keladi.

Bu yo’nalishdagi treninglar Rossiya XX asming 90-yillarida O ‘arbdan kirib kelgan. Bizda esa bu yo’nalishdagi treninglar hali yetarli darajada rivojlangani yo‘q va deyarli o’tkazilmaydi, deyish mumkin.

### **13.2. Shaxsni barkamollashtiruvchi treninglarning maqsadi**

Shaxsni barkamollashtiruvchi treninglar — bu asosiy maqsadi shaxs, inson potensialini har tomonlama rivojlantirish, qirralarini ochishga qaratilgan psixologik treninglardir.

“Shaxsni barkamollashtiruvchi treninglar o ‘z ishtirokchilariga nima beradi?”, degan savolga quyidagicha javob berish mumkin:

1. Shaxsni barkamollashtiruvchi treninglar shaxsning o‘ziga nisbatan ishonchini oshirish imkonini beradi.

2. Shaxsni barkamollashtiruvchi treninglar stressli vaziyatlar va krizislardan iloji boricha kamroq yo‘qotishlar bilan chiqib ketishga o’rgatadi.

3. Shaxsni barkamollashtiruvchi treninglar kommunikativ ko’nikmalami yaxshilaydi, muloqot va xulq-atvorda effektiv strategiyasini o’rgatadi.

4. Shaxsni barkamollashtiruvchi treninglar o‘z muammolarini, u qaysi doiraga tegishli bo‘lmashin — mablag‘, mansab, ish, o’zaro munosabatlar, shaxsiy va boshqa masaladagi muammolami yechishga o’rgatadi. Ko‘pchilik kishilar murakkab vaziyatlarga duch kelganida o‘rganib qolangan ma’lum bir qolip asosida muammolani hal etishga kirishadilar. Yaxshi trening - o‘z muammolariga, o‘zining vaziyatiga chetdan va biroz “yuqoriroqdan” qarashni, «eskicha» shablondagi qarashlardan sirg’alib chiqib, yechim topishni eng tez o’rgatadigan usuldir.

5. Shaxsni barkamollashtiruvchi treninglar — shunchaki quruq informasiyalami qabul qilish bilangina emas, zarur hayotiy vaziyatlar “ichida” yashash orqali yangi bilimlar olishdir. O‘qish-o‘rganishning bunday usuli kitob o ‘qish yoki m a’ruza imglashga nisbatan bir necha barobarga ta’sirchanroqdir.

6. Shaxsni barkamollashtiruvchi treninglar o‘zi va dunyo haqidagi tasawurlari vhegarasini kengaytiradi, o‘z maqsad va qadriyatlarini, o‘zining hayotdagi o‘mini unglashga yordam beradi.

7. Shaxsni barkamollashtiruvchi treninglar shaxsdagi tafakkur egiluvchanligini va i jodiy potensialini o‘stiradi.

8. Shaxsni barkamollashtiruvchi treninglar — turli toifadagi, turli qiziqishdagi kishilar bilan tanishish, ulaming tajribalari bilan tanishish, hayotda, ishda, ijodda nsqotadigan yangi g‘oyalar olish imkonini beradi.

9. Ishtirokchilar va treningni o’tkazuvchi trener bilan muloqotda bo‘lish — bu boshqalar shaxsni qanday qabul qilishi, shaxs haqida boshqalaming iikrlari va samimi munosabatlari asosida shaxsiy istaklami o‘zgartirishga imkon beruvchi kamdan-kam uchraydigan va eng qulay usulidir

10. Trening jarayonidagi muloqot — bu yangi do’stlar orttirish, o‘zining ikkinchi lio’lagini topish uchun haiqiqiy real imkondir.

11. Trening jarayonidagi muloqot — bu yolg’izlikdan qutulish, o‘zining ruhiy olamiga yaqin bo‘iganlar orasiga kirish, hayotiy muhim va foydali bo‘lgan kontaktlami kengaytirish imkonini beradi.

12. Shaxsni barkamollashtiruvchi treninglar — bu yaxshi dam olish, kuchli energiya quvvatini olish, yorqin hissiyotlarga ega bo‘tish, emotsiunal holatini yaxshilash imkonini beradi.

13. Shaxsni barkamollashtiruvchi treninglar — bu o‘ziga xos hayotiy lasavvurlami tozalashga yordam beruvchi, kundalik ikir-chikirlar va hovliqishlardan hosil bo‘igan ko‘ngildagi zararli “qatlam” Tami tozalovchi o‘zi xos dash hisoblanib, hayotni go’zallashtirish, qiziqarliroq qilishga imkon beradi.

14 Shaxsni barkamollashtiruvchi treninglar dunyoga nisbatan anchagina ruhiy yaqinlikni,

do'stona munosabatni hosil qilishga yordam beradi.

Umumiy qilib aytganda, ishtirokchilar bunday treninglar yordamida o'z hayoti v:i kasbida yuzaga kelayotgan muammolarni turli xil mashg'ulotlar orqali aniqlab, yechim yo'llarini izlaydi. Har bir ishtirokchi guruhning boshqa a'zosi va trener ko'magida o'zining anglamagan qo'rquvlarini aniqlaydi, ichki to'siqlami yengadi, boshqalar tomonidan qanday qabul qilinayotganini bilib oladi.

### **13.3. Shaxsni rivojlantiruvchi treninglarning mijozlari**

A.Yassaviyning nuqtai nazari bo'yicha, inson hayoti nechog'lik o'tkinchi, kulfat va mashaqqatlarga to'la bo'lmasin, u komillikga intilishi shart. Kamolot yo'liga tushgan insonni vijdon ruhiy og'riqlarga giriftor etib, amalga yuzma-yuz qilib qo'yadi, yurakni qo'rquv va gunoh, shubha va ishonch oralab o'tadi. Uygoq vijdon eng oxirgi cliegaragacha odamni yolg'izlantiradi. Shundan boshlab, o'lim cheklanadi.

Naqshbandiya tariqati asosida esa har bir insonning halol, pok bo'lishi, o'z mehnati bilan hayot kechirishi kerakligi, shuningdek, sabr-qanoatli, kamtar bo'lishi, iymon va e'tiqodini mustahkam tutishi, dilida xudoni jo etib, amalda xalq bilan birga 'bo'lism kabi olijanob xislatlami tarkib toptirish yotadi.

Shaxsni barkamollashiruvchi treninglarning ishtirokchilari kimlar bo'ladi? Bu savolga quyidagicha javob berish mumkin. Shaxsni barkamollashiruvchi treninglarga turli xil toifadagi kishilar buyurtmachi bolishadi yoki tashrif'l buyurishadi.

Aleksandr Everettning ta'kidlashicha, "Aql dinamikasi" treninglari o'z ildizlariga ko'ra ruhiy va shaxsiy barkamollik yo'nalishidagi g'oyalarni o'rganish 1 asosida rivojlangan.

Shaxsni barkamollashiruvchi treninglar shaxsdagi faoliyat mahsuli bo'lgan va hayotiy tajribalardan kelib chiquvchi ichki chuqur ustanovkalami, dunyoqarashlami va munosabatlami o'zgartirishga yordam beruvchi mashg'ulot hisoblanadi. Bunday trening ishtirokchisi bo'lgan shaxsda kuchli ilhomlantiruvchi va shijoathi ustanovkalar paydo boiadiki, u bular yordamida ekstraordinar (o'zi ham kutmagan, g'ayrioddii) natijalarga erishadi.

Hayotiy tajribalardan ma'lumki, yashash davomida ko'p narsaga erishishni istaydigan kishilar o'zini shaxs sifatida rivojlantirish uchun vaqt, pul va ma'lum bir kuchlami sarflashga qizg'onishmaydi, chunki ular o'zları sarflagan investitsiyasi (mablag'i) bir necha barobarga ko'paygan holda o'ziga qaytishini tushunadilar.

Aynan shu tipdag'i kishilar shaxsni barkamollashiruvchi treninglarning ishtirokchilari bo'lismadi. Bu trening ishtirokchilari bo'lgan kishilar — turli xil mutaxassislar, turli yoshdagilar, iqtisodiy jihatdan turli xil darajadagilar bo'lib, ular o'zining turli qirralarini kengaytirishni, hayotiy energiya va zaxiralarni oshirishni, liayotini yorqin voqealar bilan bezashni istaganlardir.

Shaxsni barkamollashiruvchi treninglarning maqsadi — shaxsni psixologik jihatdan barkamollikka erishtirishdir. Boshqacha aytganda, har qanday muammoli vaziyatda shaxsni faqat o'zidan yordam olishga o'rgatishdir. Masalan, talabalar orasidan kimdir o'zini "Talabalikda berilayotgan barcha"bilimlami yaxshi egallayapman, men kelajakda yaxshi mutaxassislardan biri bo'ia olaman" deb hisoblaydi va bunga ishona'i. Kimdir esa butunlay buning aksi, ya'ni bunday gapni aytish uchun o'ziga ishonmaydi.

Hayotda o'ziga 'ishongan odamlar bilan bir qatorda o'ziga unchalik ishonmaydigan, ba'zan o'ziga umuman ishonmaydigan kishilar har doim uchrab turadi. Ular kutilmagan noqulay va noxush vaziyatlarga tez-tez tushib turadilar, shuningdek, bu vaziyatlarda himoyasizlik hamda yordamga muhtojlik holatida bo lishadi. Bunday holatlarda aytish mumkinki, bundaylami, ya'ni bu xil "omadsiz" odamlami (buni ulami "g o'zla"i ko'p ta'kidlashadi va atrofdagilami ham, o'zini ham shunga ishontirishadi) har doim ham atrofidagilar qo'llayvermaydi. Shuning uchun shaxs eng awalo o'zidan yordam olishga o'rganishi — har qanday vaziyatda ham muammoni yechishning biror-bir yoiini izlashi, topishi va uni amalda qo'llay olishi lozimbo'ladi.

Shaxsni barkamollashirishga qaralilgan treninglarning maqsadi hayotda shunaqa holatlarga tushib qolgan odamlami o'ziga ishonmaslik holatidan chiqarish va o'zidan yordam olishga o'rgatish uchun maxsus bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilishdan iborat.

Stenford va Garvard universiteti olimlarining o'tkazgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, shaxsni

barkamollashtiruvchi trening ishtirokchilarining 94% i o‘z qarindoshlari va do’stlariga bunday treninglarga qatnashishini maslahat beradi, 73% ishtirokchilar treningdan so’ng muammoli vaziyatlami ha! qilishda qiyalmayotganligini, 78% ishtirokchilar esa o‘ziga baho berish darajasining oshganligini, 53% ishtirokchilai treningga qatnashgan kunlarini hayotidagi eng esda solarli kunlar sifatida qayd etadi.

#### **13.4. Shaxsni rivojlantiruvchi treninglarning turlari**

Shaxsga yo’naltirilgan treninglami shartli ravishda uch guruhga ajratish raumkin:

1. Psixologik kompetentlikni oshiruvchi treninglar
2. Ko’nikmalar hosil qiluvchi treninglar
3. Shaxsni rivojlantiruvchi (lichnostniy rost) treninglar .

**Psixologik kompetentlikni oshiruvchi treninglarda** guruh ishtirokchilari psixologiya va falsafaning keng olami bilan, odob va axloq borasidagi bilimlar bilan tanishadilar. Bunday treninglar, mohiyatan “nihoyatda yengil” bo’lib, ishtirokchilaming ichki ruhiy olamini kuchli darajada o’zgartirmaydi. Bunday treninglar o‘z ishtirokchilariga mashg’ulotlar jarayonida iliq va samimiy muhitni. hamda ochiq va dildan gaplashish imkonini beradi, shuningdek trening mavzulari yuzasidan guruhiy munozaralaming muvaffaqiyathi kechishini ta’minlaydi. Bulaming natijasida esa shaxs dunyoqarashning rivojlanishi va unda psixologik^ kompetentlikning oshishi kuzatiladi.

**Ko’nikmalar hosil qiluvchi treninglar** - o’zining hayotini o’zgartirmoqchi boiganlar va hayotda nima qilishini aniq biladiganlar uchun tashkil etiladigan juda, keng qamrovli treninglardir. Bunday treninglar o‘z ishtirokchilarida turli xil ko’nikmalami (komunikativ, o‘ziga ishonch, liderlik, o‘zgalar bilan o‘zaro munosabatlarga kirishish ko’nikmalarini) hosil qilishga qaratilgandir.

**Shaxsni rivojlantiruvchi treninglar** guruhini o‘ziga xos holda quyidagi guruhchalarga bo’lish mumkin:

1. MEN va ULAR - jamiyat, jamoa, notanish kishilar bilan o‘zaro munosabatga kirisliish. Bunday guruhchaga “Muloqot mahorati” treninglari kiradi.
2. U (ON) va (J (ONA) - qarama-qarshi jins vakili bilan o‘zaro munosabatga kirishish. Bunga: Oilani yuritish, Sevgi va Do’stlik, Keling do’stlashamiz, Seksologiya va shu kabi muammolarga oid treninglar kiradi.
3. MEN va BIZNES - o‘z ishini, mavqeini, mansabini rivojlantirish va foyda ko’rish maqsadida boshqalar bilan ishga oid (delovoe) o‘zaro munosabatlarni yo’lga qo'yishga o’rgatish. Bunday guruhchaga: Pullar bilan munosabat, Omad va muvaftaqiyat texnologiyasi, Ishbilarmomoniqka oid (Delovoe) hamkoriliklar, Sotish texnikasi, Ishga qanday joylashish mumkin va shu kabi treninglar kiradi.

Shaxsni rivojlantiruvchi treninglar shaxsning ichki rivojlanishiga yo’naltirilgan bo’lib, ulaming ko’nikmalar hosil qiluvchi trcninglardan farqi shundaki, bu treninglarda insomting ichki mohiyatida o’zgarishlar sodir bo’ladi, uning dunyoqarashi kengayadi.

#### **13.5. Shaxsni barkamollashtirishda uning “Men”i bilan ishlash**

Shaxs tushunchasi insonni xarakterlovchi tushunchalardan biri bo’lib, uning xulq-atvori, dunyoqarashi va psixologik jihatlamining yaxlit tizimi sifatida tushuniladi. Shundan kelib chiqib aytilsa, shaxs - alohida inson sifatida ongli faoliyat hamda munosabatlarning ham sub’ekti, ham ob’ektidir. Ushbu ongli faoliyat jarayonida shaxs ijtimoiy borliqni vujudga keltiradi, qayta namoyon qiladi hamda o’zgartiradi.

Psixologiyada “Shaxs” tushunchasi ostida insonning ichki dunyosi (emotsiyalari, chtiyojlar, intilishlari, motivlari)ning tashqi muhit bilan o‘zaro munosabatlari yaxlit tizim sifatida o’rganiladi.

Shaxsning yetukligiga xos bo’lgan xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- O’zini hayot va faoliyatning faol sub’ekti, ma’lum bir tanlovlami amalga oshiruvchi va ular uchun ma’suliyatni his qiluvchi sub’ekt sifatida qabul qiladi;
- Hayot faoliyatining har bir a’zosini o‘ziga xos individullik sohibi sifatida qabul qiladi;
- Olamni doimiy o’zgaruvchi, uning qobiliyatlarini namoyon qilish uchun qulay bo’lgan muhit sifatida qabul qiladi.

Shaxs trening jarayonida muloqot jarayonining va guruhiy jarayonlaming asosiy sub'ekti va ob'ekti sifatida yuzaga chiqadi. Shutting uchun trening jarayonida shaxs muammosini barcha jarayonlaming ishtirokchisi va faol amalga oshiruvchisi sifatida o'rganish tabiiydir. Shaxs muammosi shuning uchun muhintki, u turli guruhlar bilan bo'ladijan turli shakldagi o'zaro munosabatlarning oqibati sifatida ham qaraladi, ya'ni trening guruhining a'zosi hisoblangan shaxsning xulq-atvori qanday qonuniyatlarga bo'y sunishi, boshqalar bilan muloqot jarayonida buni qanday namoyon qilishini o'rganish lozim bo'ladi.

O 'z -o 'zini shaxs sifatida anglash, o 'z xususiyatlarini bilish umuman olganda shaxsning o'z-o 'zini anglashga erishishi shaxsni barkamollashtiruvchi treninglaming asosiy maqsadidir.

Inson toraonidan uning motivlari, qiziqishlari hamda qadriyatlarining anglanishi o'z-o 'zini anglashning mohiyatini tashkil etadi. O 'z-o 'zini anglash negizida «Men obrazi» va «Men konsepsiya»ning shakllanishi yotadi. Ya'ni individ o'zini qanday ko'radi va qanday ko'rishni istaydi.

«Men» obrazi tarkibida shaxsning o'zi haqidagi hamda o'zining jismoniy va psixologik xususiyatlari: tashqi ko'rinishi, qobiliyatlar, qiziqishlari, intilishlari, o'ziga bo'lgan hurmat va o'ziga ishonch xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurlari mavjnd bo'tadi. «Men obrazi» vositasida inson o'zini boshqa odamlardan, tashqi dunyodan farqlaydi. Bundan tashqari, «Men obrazi»ning asosini o'z imkoniyatlariga baho berish va o'z-o 'ziga baho berish tashkil etadi. Negaki, inson o'zining «Men obrazi»ga muvofiq tashqi dunyoga munosabat bildiradi va o'zining xulq-atvorini rejalashtiradi. Shunga ko'ra, shaxsni barkamollashtiruvchi treninglaming asosini shaxsning o'z-o 'ziga adekvat baho berishi va uning «Men obrazbni shakllantirish tashkil etadi.

Inson bildirayotgan hech bir fikmi ob'ektiv deb atash mumkin emas. Negakt, har qanday bildirilgan fikr «Men konsepsiya» tizimidan o'tadi. «Men konsepsiya». Real men, Ideal men, Ijtimoiy men kabi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi. Ushbu uchta tarkibiy qism hech qachon bir xil darajada kuzatilmaydi. Ular doimo o'zaro tafovutda, ziddiyatda bo'ladi. Bu ziddiyat shaxs taraqqiyotining sababi bo'lishi mumkin. Ammo uning og'ir shakllari shaxs deformasiyasiga olib kelishi mumkin. Inson intuitiv ravishda «Men konsepsiya»ning uch tarkibiy qismini yaqinlashtirish imkoniyatini beruvchi rollarni izlaydi. «Men obrazi» nisbatan turg'un psixologik hodisahxisoblansada, uning shakllanishi asosan, insonning ichki o'z-o 'zini rivojlantirish xususiyatiga bog'liq bo'ladi. O 'z-o 'zini rivojlantirish - insonning o'zini shaxs sifatida iloji boricha to'hqroq namoyon qilishga qaratilgan ongli faoliyatdir. U aniq hayotiy maqsad, ideallar, shaxs ustakovkalari mavjudligini taqozo etadi.

Shaxsning «Men obrazi»ning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillardan eng muhim - «ahamiyatli birov»ning ta'siridir. «Ahamiyatli birov» bu inson uchun muhim bo'lgan shaxsning e'tibori. maqtovi yoki salbiy munosabati hisoblanadi. Bu «ahamiyatli birov» shaxsning ota-onasi, do'sti, u faoliyat yuritadigan guruhdagi biror a'zo, taniqli inson, kino qahramoni bo'lishi mumkin.

Shaxsni barkamollashtiruvchi treninglar aynan shu «Men obrazi»ni muvofiqlashtirishni nazarda tutadi.

Bugungi icunda 1 avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko tarilgan ekan, shaxsri rivojlantiruvchi treninglaming ahmiyati ham beqiyos ekanligini tushunish qiyin emas, shunday ekan trening bo'yicha har bir mutaxassis bu yo'nalishdagi treninglami puxta bilishi zarur.

### XIII BOB BO'YICHA TOPSHIRIQLAR

#### Nazorat savollari

1. Shaxsni rivojlantiruvchi treninglaming turlarini sanang.
2. Shaxsni rivojlantiruvchi treninglar ishtirokchilariga nima beradi?
3. Shaxsni barkamollashtiruvchi treninglarda asosiy maqsad nima?
4. Shaxsni rivojlantiruvchi treninglaming mijozlari kim?

#### Mustaqil ish mavzulari

1. Shaxsning o'z-o 'zini anglash jarayoni bilan bog'liq treninglar
2. Treningda shaxsning "Men" i bilan ishslash

3. Treningda ertakterapiyaning ahamiyati
4. O ‘zini baxolash borasidagi treninglar

#### **Testlar**

1. Shaxsni rivojlantiruvchi (barkamollashtiruvchi) treninglarning tarixi qachonga borib taqaladi
  - A) XX asming 60-yillari oxiriga
  - B) XX asming 80-yillari oxiriga
  - V) XIX asming 90-yillari oxiriga
  - G) XIX asming 60-yillari oxiriga
2. Aql dinamikasi treningiga qachon asos solingan?
  - A) 1968 yilda
  - B) 1960yilda
  - V) 1990 yilda
  - G) 1986 yilda
3. Shaxsni rivojlantiruvchi trening asoschisi kim?
  - A) Aleksandr Everett
  - B) Uilyam Penn Patrik
  - V) K.Rodjers
  - G) Dj.Pratt
4. Uilya*«*i, Penn Patrik A.Everettning “Aql dinamikasi” shirkatini qachon sotib oladi?
  - A) 1970 yilda
  - B) 1968 yilda
  - V) 1990 yilda
  - G) 1986 yilda
5. Shaxsga yo‘naltirilgan treninglarni shartli ravishda nechta guruhga ajratilgan?
  - A) 3
  - B) 4
  - V) 5
  - G) 6

## **XIV. RUHIYATNI SOG‘LOMLAShTIRUVCHI TRENINGLAR**

### **14.1. Ruhiyatdagi muammolarga doir treninglar**

Inson ruhiyati shunchalar ko‘p qirrali va murakkabki, lining qirralarin toiiqligicha anglab yetish yoki tadqiq etishga hali hech bir olim yoki mutaxassi erishmagan. Inson mhiyatiga tegishli bo‘lgan jumboqlar sirasiga unda kechadigan bir qancha psixologik muammolami ham kiritish muunkin; jumladan, stress, xavotirlanish, frustrasiya, depressiya, agressiya, egoizm va h.k. Bunday muammolaming asosiy yechim sifatida bugungi kun psixologlari taklif etayotgan usullar orasida eng samarali deb hisoblangani - bu psixologik treninglar bo‘lib, ular insonlarda yuqoridagi psixologik muammolami bartaraf etish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalami shakllantirishga xizmat qiladi.

Insonlardagi asab buzilishlarining sabablari va namoyon boiishi juda ko‘p va turli-tumandir. Shuning uchun insonlami bevosita nevrozga olib keluvchi barcha konfliktlar va ziddiyatlaming oldini olishnigina o‘rganmasdan, balki insonlaming konflikltli vaziyatlarga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga o‘rgatish lozim. Buning uchun esa ulami konfliktlaming natijalarini oldindan ko‘ra olishga, nizoiaming inson jismoniy holatiga ta’siri kabilami ham tahlil qilishga o‘rgatish lozim. Shu bilan birgalikda ijtimoiy hayotda mavjud bo‘lgan insonlaming salomatligini mustahkamlash, ulaming ish bilan ta’minlanganligmi yaxshilash, kasb tanlashi uchun zarur bo‘lgan moddiy-ijtimoiy sharoitlami yaratish, mehnat gigienasi va shaxsiy hayotida sogiom turmush tarziga rioya qilishga o‘rgatish, oila va jamoadagi xulq- atvor me’yorlari hamda boshqa masalalami ham e’tiborga olish lozim.

Nevrotik reaksiyalar natijasi bo‘lgan hissiy zo‘riqishlarning rivojlanishidan saqlanish - sog‘lom insonlar profilaktikas- tizimida birinchi o‘rinda turishi lozim. Bunday munosabatlarda

albatta psixologik savodxonlik va ziddiyatlami yechishga tayorgarlik muhim ahamiyat kasb etadi, bu nday tayyorlik ziddiyatlari vaziyatlarda yuzaga keladigan hissiy kechinmalarini neytrallashtirishga imkon beradi. Bunday vaziyatga tez-tez tushib turadigan va muammoli vaziyatlarda hissiy kechinmalami yengib o'ta olmaydigan insonlar uchun mutaxassis psixologiar quyidagi maslahatlami tavsiya etadilar.

Noxushliklar bilan yolg'iz qolmaslik. Har bir insonda quvonchli kunlar bo'lgani kabi noxush kechinmalar, ziddiyatlari vaziyatlar ham bo'lishi tabiiy holdir. Bunga insonlar turlicha yondashadilar. Agar kechinmalar u darajada og'ir bo'lmasa, kayfiyatga sezilarli ta'sir ko'rsatmasa, u holda ulami mustaqil ravishda yengishga o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bu holatda asosiy da'vo vaqtdir, u o'tkir kechinmalami silliqlaydi.

Biroq, analogik va nisbatan jiddiyroq muammolar ba'zi kishilarda murakkab holatlami, masalan, turg'un depressiyalarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Bunday holda ulaming butun xayoli, fikri-zikri ulami jarohatlagan kechinmalarga qaratiladi, o'zming butun diqqatini o'ziga berilgan og'riqqa jamlaydi. Butun borliq ular uchun qorong'u bo'lib qoladi. Bilamizki, bunday holatda inson yuzaga kelgan qiyinchilikni mustaqil va ob'ektiv ravishda baholay olmaydi. Shunday holatda eng yaxshi yo'l shaxsni jarohatlagan vaziyatni u o'zi ishongan biror-bir boshqa shaxsga so'zlab berishidir. O 'z kechinmalarini so 'zlash va boshqa shaxsdan olingan rasional maslahat insonda hissiy zo'riqish zaryadkasiga olib keladi, muammoli masalaga boshqacha ko'z bilan qarash imkonini beradi. Shuningdek, 'nisbatan to'g'ri va aniq maslahatlami, albatta, maxsus tayorlangan mutaxassis, shifokor - psixonevrolog berishi mumkin. –

#### **14.2. Tanadagi zo'riqishlarni bartaraf etish.**

Psixologlaming ta'kidlashlariga ko'ra, insonning ichki olami uning tana harakatlarida o'z aksini topadi, ya'ni inson tana harakatlarining qay darajada bo'lishi uning ichki hissiyotlari, fikr-o'ylari, dunyoqarashlariga bevosita bogiiq holda kechadi. Hayotda ba'zan shunday odamlami uchratish mumkinki, bunday odamlaming kulishi qiyin. Ular hatto gapirlashayotganlarida ham noverbal muloqot ifodalarini (yuz-ko'z mimikalarini, imo-ishoralarini) juda kam qo'llashadi, ular aksariyat hollarda - ko'pchilikning orasida, ayniqs-, ko'pchilikning diqat-e'tiborida bo'lib qolgan kezlarda erkin harakat qila olmaydilar, o'zlarini ramkaga solingandek sezadilar va odamlar orasida ham o'zini haddan tashqari yolg'iz his qiladilar.

Aytish mumkinki, bunday kishilar odamlar orasida bo'lganida "Noo'rin harakat qilib yoki gap "ytib kulguga qolmay yoki atrofdagilarda o'zim haqimda salbiy fikr uyg'otib qo'yay", degan hadik bilan biror-bir h'rakat qilishga, fikr aytishga ham qo'rqishadi.

Buning sababi — uning ichki dunyosida qandaydir muammoning mavjudligi bo'lishi mumkin. Masalan, kishi o'zini baxtlilar ichida baxtsizligini (otasi, onasi, eri, farzandi yo'qligi)ni bildirib qo'ymaslik uchun nihoyatda ehtiyyotkor boiib qolishi mumkin. Chunki u o'z muammosini boshqalar bilib qolishidan va bu uning jamiyatdagi statusiga, obro'siga putur yetkazishidan cho'chiydi, xuddi shu sabab bilan o'z muammosini boshqalardan yashirib yuradi. Mana shu muammolar uning tana harakatlarida namoyon bo'ladi.

Trening jarayonida uning tanasi bilan ishslash, turli usullar orqali lining muammosini ayttirish, muammoning ob'ektiv va sub'ektiv jihatlarini tahlil qilish orqali uning yechimini ko'rsatishga erishiladi. Alovida ta'kidlash lozim, bunday vo'nalishdagi treninglar juda kam sonli (3-5 nafar) ishtirokchilar bilan o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Aks holda, trening ishtirokchilarida o'z qobig'idan chiga olmaslik, muammosini gapirmaslik va muammoning hal etilmay qolishiga sabab boiish mumkin. Shuningdek, bu sohadagi treninglarda ishtirokchilar o'rtasida jda kuchli ishonch mhitining yaratilishiga va "sir saqlash normasi"ning kuchli darajada amal qilinishiga erishish lozim bo'ladi.

#### **14.3. Emotsional sohadagi treninglar**

Ma'lumki inson ruhiyati juda nozik va unda kechadigan his-tuyg'ular barqaror yoki beqarorligiga muvofiq o'ta murakkabdir. Shaxsning hissiy olamida sodir bo'layotgan o'zgarishlar albatta uning ruhiyatiga yoki ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi aniq. Shaxsning aynan mana shu

sohasiga tegishli muammolar bilan ishlashga yo'naltirilgan treninglar emotsional sohani barqarorlashtirishga yo'naltirilgan treninglar sifatida yuzaga chiqadi. Bunday treninglaming mijozlari kimlar boidi?

Ayrim odamlar o'z hayoti davomida kuchli emotsional-ruhiy kechinmalami boshidan kechirishiga to'g'ri keladi. Masalan, kutilmagan halokatlarga uchrash, hayotda eng yaqin kishisi yo'qotish kabi holatlar kishida kuchli emotsional zo'riqishlami keltirib chiqaradi. Bunday voqeahodisalami boshidan kechirganlaming hammasi ham ulami unutib yubora olmaydilar. Kechinmalami unuta olmaslikdan qiyinalish natijasida ulaming emotsional sohasida zo'riqishlar kelib chiqadi.

Ayrim kishilar nizolashib qolgan yoki hatto yoqtirmagan odamini uchratib qolsa ham, ularda noxush hislar paydo bo'ladi va bilamizki, bunday noxush hislarga berilish ham shaxs psixikasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yoki yana bir holat: shaxs kimgadir nohaq yomonlik qilgan va endilikda bundan uning vijdoni azoblanmoqda, o'zi esa qiyalmokda. Lekin uning o'zi bu noxush hissyotni yengish yo'Uarini bilmaydi. Bu esa kishiga juda katta ichki ruhiy zo'riqish beradi va bunday salbiy hissiyotlami chiqarib yubora olmaganligi natijasida uning rhiyatida ham salbiy o'zgarishlar (nevroz, stress, depressiya kabilar) kelib chiqadi. Kuzatilishicha, bunday kishilar o'sha paytda nimani his qilganlarini gapirib bera olmaydilar.

Emotsional hissiy zo'riqishlami bartaraf etuvchi treninglarda bunday kishilar bilan ishslash yo'llaridan biri — birovga nohaq ozor bergan holatini eslashga, uning ich-ichidan shu holatni his qilishiga va shu jarayonda nimani his qilganligini o'z- o'ziga gapirib berishga, tasvirlab berishga harakat qildirishdan iborat.

Emotsional hissiy zo'riqishlami bartaraf etuvchi treninglar natijasida ishtirokchi quyidagilarga erishadi:

- Shaxsni o'z hayotida sodir bo'lgan noxush, ko'ngilsiz voqealami unutishga yoki buni to'g'ri qabul qilishga o'rgatiladi;
- Shaxsni ichki ruhiy azoblanish jarayonini har bir nuqtasigacha gapira olishga o'rgatiladi, bunda shaxs hujayrasining har bir joyidagi kechinmani, holatni gapirtirishga O'rgatiladi;
- Shaxsni o'z hissiyotlarini tasvirlab, gapirishga o'rgatish orqali undagi salbiy hissiyotlami psixikasidan chiqarib yuborishga o'rgatiladi.

#### **14.4. Insonlarda stressga berilish sabablari**

Bugungi kunda juda ko'p insonlar stress muammosidan, to'g'rirog'i uni kechirish va undan chiqib ketish yoilarini bilmaslikdan azob chekmoqdalar Ma'lumki, inson o'z hayoti davomida turli xil favqulodda vaziyatlarga muammolarga, g'am-tashvishlarga duch keladi. Har qanday inson ham bunday vaziyatlardan tezroq xalos bo'lishni istaydi, albatta. Yana bir toifa kishilar mavjudki, ular hayotiy muammolarga duch kelmaslaridan turib undan qo'rquv va xavotirga tushadilar. Bunday kishilar mutaxassilaming ta'kidlashlariga ko'ra, stress holatlariga tezroq tushadilar va undan chiqib ketishi ham qiyin kechadi.

Aksariyat kishilar esa muammoli vaziyatlarda ni hal etishning turli xil usullarini qo'llashga harakat qiladilar. Mutaxassislaming qayd etishlaricha, individning bunday reaksiysi ma'lum muddatga qadar davom etadi. Ya'ni shaxsning muammo bilan to'qnashuv jarayoni o'ziga xos holatlarda kechsa, u holda istalgan kishida stress yuzaga kelish ehtimoli ortadi. Bunday holatlar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Agar muammoli vaziyat inson hayoti yoki shaxsiyati uchun haddan ortiq xavfli bolsa yoki shaxs tomonidan shunday deb qabul qilinsa;
2. Agarda inson hayoti va shaxsi uchun muhim bo'lgan muammoli vaziyat kutilganidan ko'ra ancha uzoqroq muddatga.cbo'zilsa;
3. Individ bir vaqtning o'zida hayoti uchun jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan bir nechta muammoga duch kelsa.

Stress holati — aksariyat kishilaming nazarida, insonning ruhiy olamida kechadigan tushkunlik holatidir. Lekin mutaxassislar stressning ijobiy jihatlari ham mavjudligini ta kidlashgan.

Shuningdek, G.Selening ta'biri bilan aytganda “inson faqat o limdan keyingina stressni his qilmasligi mumkin”. Ya’ni inson organizmi, aqli va uning ruhiyati tizimida stress holati bo’lmasligi mumkin emas.

Stressning fiziologik va psixologik turlari mayjudligini bilamiz. Fiziologik stress - bu o ta kuchli jismoniy zo’riq-sh, biror og’riq, qo’rquv, kasalliklar natijasida vujudga keladi. Fiziologik stress organizm o’ta zo’riqishi, temperaturaning baland yoki past bo’lishi, nafas olishning qiyinlashishi bilan bog’liq bo’ladi. Masalan, ba zida odam organizmida qattiq og’riq bo’lganda, og’riq nimadan kelib chiqqanligini tushunib yeta olmaslik oqibatida odamda qo’rquv, xavotirlanish paydo bo’ladi va bu stress holatiga olib keladi.

Psixologik stress - kishining ruhiy holatiga tashq- muhitdagi voqealari hodisalamining ta’siri tufayli paydo bo’ladigan stressdir.Psixologik stress informasiy stress va emotsiyal stress turlariga ajratiladi.

Informasiy stress axborotlami haddan tashqari ko’p qabul qilish, faoliyat jarayonida bajariladigan muhim vazifalar nihoyatda ko’payib ketganda ularidan aniq qay birini (anlashda qiyonalish, juda tez fiirsatda mas’uliyatlari qaror qabul qilish kerak bo’lganda ikkilanishlar natijasida kelib chiqishi mumkin.

Emotsional stress - ta’hdid, falokat, hayotiy o’zg-rishlar (oilaviy nizo va janjallar, to’satdan ishdan bo’shatish, yaqin kishisini yo’qotish, uzoq muddatli sevgidan qutila olmaslik) sababli inson shaxsi, to’g’riroq’i uning shaxsiyati xavf ostida qolganda, atrofdagilar tomonidan noto’g’ri munosabat bildirilganda va hokazolarda namoyon bo’ladi.

Olimlarning o’tkazgan tadqiqotlari natijalari shuni ko’rsatadiki, inson hayotidagi kutilmagan falokat va halokatlar ulaming hayotiy o’zgarishlari va kundalik tashvishlariga nisbatan kuchliroq stressogen hisoblanar ekan. Falokatlarga yurtdagi turli xil notinchliklar, urushlar, yer qimirlashi, suv toshqinlari, avto va aviahalokat kabilalar hodislar kiradi.

Bularning hammasi inson ruhiy holatiga juda katta salbiy ta’sir ko’rsatadi. Olimlar shuni ta’kidlashadiki, qattiq yer qimirlashi, suv toshqinlari, yong’in bo’lishi kabi falokatlaming natijasida xavotirlanish darjasini yuqori bo’lganligi uchun ulaming inson ruhiyatiga katta ta’sir ko’rsatishi kuzatiladi.

-Kuzatishlaming ko’rsatishicha, stressning kechishi ayrim odamlarda yengilroq va ayrim odamlarda jiddiyroq, qiyinroq o’tadi. Buning asosiy sabablari sifatida quyidagilami qayd etish mumkin:

- A) Stressli vaziyatga qanday munosabatda bo’lish;
- B) Stressli vaziyat yoki holatni baholash;
- V) Stress bilan kurashish darajalariga bog’liqdir.

-Masalan, optimist odamlar stress holatini taqdiming bir sinovi deb qabul qilsa, pessimist odamlar uning hayotiga xavf-xatar tug’ildi deb qabul qilar ekanlar. Pessimistlarda xavotirlanish darjasini yuqori bo’ladi va ular vaqtida ovqatlanmasalar ham stress holatiga tushib qolaveradilar.

Stressni bartaraf etishga mo’ljallangan trening ishtirokchilari boshqa trening ishtirokchilariga nisbatan emotsiyal jihatdan juda nozik bo’lishadi, shuning uchun ular bilan ishslash jarayonida trener ham o’ta ehtiyojkorlik bilan ish olib borishi lozim. Shuning uchun mashg’lot boshida umumiy normalarga qo’shimcha ravishda quyidag nimalami ishlab chiqishga e’tibor qaratish lozim bo’ladi:

- Sirlilik - treningda bo’lib o’tayotgan ho—isa va aytilayotgan gaplar tashqariga chiqmasligi uchun;
- Tuyg’ular bilan bo’lishish - faqat o’z kechinmalari haqida -apirish;
- Xatolar yo’q - treningda to’g’ri yoki xato de-an tushunchaning boimasligi;
- Javobgarlik - mashg’ulotni qoldirish kerak e-as.

#### **14.5. Stressni bartarf etuvchi treninglar va ulaming turlari**

“Stressni bartaraf etishga qaratilgan treninglar yoki stress-menedjment” hozirgi kunda eng mashhur treninglardan biridir. N. Vodopyanova va Ye.Starchenkovning fikriga ko’ra, stressmenedjmentni menedjmenlning bir boiimi sifatida qarash mumkin hamda uni tashkilotdagি stresslarni boshqarash nazariyasi va amaliyotiga qaratilgan qism sifatida o’rganish maqsadiga

muvofiqdir. Bundan tashqari ular stressmenedjmentning kasbiy stress profilaktikasi va ishchilaming stressga chidamliligin oshirishga qaratilganligini ham alohida qayd etib o'tishgan.

Stress tushunchasining ko'plab ta'riflari bo'lgani kabi u bilan bog'Miq treninglami ham turlicha nomlash mumkin. Treningning asosiy maqsad va vazifalariga muvofiq stressni bartarf etuvchi treninglami umumiy qilib antistressli treninglar deb ham atash mumkin. Antistressli treninglar - amaliy psixologiyaning alohida-sohasi bo'lib, interaktiv, autoaktiv, psixokorreksion metodlarga yondashgan holda shaxsning stressga chidamliligin rivojantirishga qaratilgan treninglardan iboratdir.

Stressni bartaraf etishga qaratilgan treninglaming turli ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular awalo, auditoriyasining maqsadiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

- **Rahbarlar uchun tashkil etiladigan treninglar.** Bu treninglarda tashkilotning bar qanday omadi va omadsizliklariga juda ham emotsiyal tarzda javob qaytaruvchi, o'z ishchilari bilan muloqotda '4ez yonib ketuvchi', ko'pincha jamoa a'zolari hurmat qilmaydigan, lekin qo'rqadigan barcha rahbarlar qatnashishlari kerak. Stress- menedjment treninglari rahbarlarga jamoada sog'lom muhitni tashkil etishga va ish bilan bog'iq har qanday muammolami sovuqqonlik bilan hal etishga o'rgatadi.

- **Ishchilar uchun tashkil etiladigan treninglar.** Bu treninglami doimo ishchilari o'rtasida paydo bo'ladigan nizolar mavjud bo'Tgan tashqilotlarda o'tkazish maqsadga muvofiq, chunki ishchilar o'rtasidagi nizolar tashkilotning umumiy samaraciga putur yetkazadi. Bunday jamoalarda o'tkaziladigan treninglar xodimlarda nizoli vaziyatlaming oldini olish yo'llarini hamda barcha ishchilaming o'z kasbiy burchlariga diqqatlarini qaratishga o'rgatadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, odatiy hollarda treningga murojaat etuvchilar mashg'ulotlarga maxsus trening markazlariga borib qatnashishadi. Lekin biron bir tashkilot rahbari o'z xodimlari uchun trening tashkil qilayotgan bo'lsa uning oldida turgan vazifalardan biri treningni qaerda o'tkazish bilan bog'liq masaladir. Tashkilot rahbari trenemi tashkilot binosiga taklif qilishni yoki xodimlami markazga yuborishni o'ylaydi. Mutaxasslar stressni bartaraf etishga qaratilgan treninglarni ofislarda o'tkazish tavsiya qilinmasligini ta'kidlashadi. Treningga xodimlarini yuborayotgan rahbar o'z xodimlari haqida, ulaming xarakteri, kim ko'proq agressivligini, trening nima sababdan tashkil qilayotganini trenerga bat afsil gapirib berishi lozim, shu bilan birga xodimlaming yoshi va jinsi ham inobatga olinadi.

- **Maktab bitiruvchilari va talabalar uchun tashkil etiladigan treninglar:** Bunday treninglarda yoshlarga imtihonlardan qo'rqmaslik o'rgatiladi, tinglovchilarda imtihonlarga tayyorlanish chog'ida zo'riqishlarini paydo bo'Tish darajasini susaytirish uchun ekstremal topshiriqlar beriladi va ulami bajarishda nimalarga e'tibor qaratish o'rgatiladi. Shu bilan birga imtihonlar paytida o'z-o'zini nazorat qilish, shiddatli (haddan ortiq) o'qishning sog'iqliq negativ ta'sirini profilaktika qilish va yengish usullariga oid ko'nikmalar shakllantiriladi.

- **Ayollar uchun tashkil etiladigan treninglar.** Bunday treninglarda asosan oilaviy ichki stressli vaziyatlarini yengishga, o'ziga bo'Tgan ishonchni shakllantirishga, o'z hissiyotlarini boshqara olish ko'nikmalarini egallashga qaratilgan bo'Tadi.

Istalgan trening turida psixoterapevtik effekt kutiladi. Biroq stressni bartaraf etishga qaratilgan treninglarda psixoterapiyadan ko'proq foydalilanadi, chunki ishtirokchilar tashkiliy, metodik savollardan tashqari shaxsiy muammolarini ham yechishadi.

Ba'zida ayrim ishtirokchilar o'z bayotlarida yuz bcrayotgan stressli vaziyatlardan ma'lum yechimni topmaguncha guruhiy ishga butunlay qo'shila olmaydilar. O'z navbatida bu qaysidir mashqda ishtirokchiga qattiq ta'sir qilgan kuchli emotsiyalami paydo qilishi mumkin. Agar trener bunday vaziyatlarda ishtirokchilarga psixologik yordam ko'Tsatish uchun o'zida yetarli kuch va mahorat borligiga shubhalansa, yaxshisi o'z reja va dasturiga kuchli emotsiyal holatlarga olib keluvchi mashqlami kiritmagani ma'qul.

Ammo ko'pincha neytrai mashqlar ham alohida ishtirokchilarda kuchli emotsiyalami yuzaga keltirishi mumkin va trener bunga tayyor bo'lishi lozim. Bunday muammodan chiqishning yo'llaridan biri bu ko-treneriikdir, ya'ni treningni .kki mutaxassis tomonidan olib borilishidir. Bu trenerlardan birini mashqlarm O'tkazishiga, ikkinchi trenerga esa ishtirokchilaming reaksiyasini

kuzatishga va kerakli vaqtda ularga yordam berish imkonini beradi. Shunday qilib stressni bartaraf etishga qaratilgan treninglaming boshqaruvchisiga talablar alohida ahamiyatlidir.

Avvalo u mutaxassis bo'ishi, maxsus psixologik ma'umotga ega bo'ishi va o'garuvchan sharoitga tez javob qaytaruvchi qobiliyatga ega bo'lib gumhlar bilan ishlashda tajribaga ega bo'ishi lozim.

Stressni bartaraf etuvchi treninglarda eng muhim ahamiyat kasb etadigan usullardan bin - bu psixogimnastik mashqlar hisoblanadi.

Chunki psixogimnastik mashqlarda ishtirokchilaming o'zaro jismomy harakatlar qilishiga imkon yaratiladi va ulardan yurish, yugurish va tananing turli a'zolarining harakati talab etiladi. Bunday harakatlar esa tanada stress tufayli yuzaga kelgan stress gormonlarini chiqarib yuborishda eng muhim omillardan biri sanaladi.

Bunday o'yinlarda ishtirokchilar nafaqat muammolarini hatto o'zlarini ham unutib faqat o'yinga beriladilar, bu holat ham ulaming stress gormonlarini tanadan chiqarib yuborish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun aksariyat ishtirokchilar bunday psixogimnastik mashqlardan so'ng o'zlarini nihoyatda yengil his qiladilar va muamolariga yechim topgandek xush kayfiyatda bo'ladilar.

#### **14.6. Stressni bartaraf etishga oid treninglarda qo'llaniladigan o'yin va mashqlar**

##### **Tanishuv: "Ism va xususiyat" o'yini**

Qatnashuvchilar doira boiib o'tiradilar va bir-biriga koptok uzatishadi. Koptokm olgan ishtirokchi o'z ismini aytadi va o'zining ismi, familiyasi, sharifidagi bosh harridan boshlanadigan o'zining yaxshi xususiyatini aytadi. Har bir qatnashuvchi undan oldingi aytilganlami takrorlab, o'z ismi va xususiyatini qo'sh ib aytadi. O'ym shu zayilda so'nggi ishtirokchiga qadar davom etadi. Trener ushbu jarayonda natijalami sinchkovlik bilan kuzatib, qatnashchilaming har xil xususiyatlari ekanligini va ular bir-biri bilan qanday ishlashi kerakligini tushunishga harakat qilishi kerak.

##### **"Vizitka to'ldirish" mashqi**

Har bir ishtirokchi o'ziga bcrilgan vizitkani quyidagicha to'ldiradi: Boshqa qatnashchilar unga qanday murojaat etishlarini istasa, har bir ishtirokchi qo'liga berilgan vizitkaga shunday ismni yozadi.

##### **Psixogimnastik mashq: "Oynadagi salomlashish"**

Qatnashchilar doira shaklida turib olishadi, bir-birlari bilan so'zlar va harakatlar yordamida salomlashadi. Qarshisidagi ishtirokchi o'zini oyna deb faraz qilib harakatlami takrorlaydi.

##### **Asosiy qism. "Daraxt" o'yini**

##### **Maqsad: Hayotdagi o'z o'rnnini anglashga yordm n berish**

Qatnashchilar tezlik bilan o'zlariga berilgan daraxt nomlari, parodiyalarini aytishadi, ulardagi bir-biriga o'xshashlik (yaprog'i, ildizi), bir-biridan farqi haqida gapiradi. Har bir ishtirokchi "Agar men daraxt bo'lginimda, uning (ildizi, bargi, tanasi)... bo'laredim" jumlasini davomettiradi.

Ishtirokchilar tanloviga qarab (ildizi, yaprog'i, bargi) 3 guruhga bo'linadi. Qog ozga daraxt rasmini chizishadi. Bu rasmga umumiy yoki shaxsiy ta'rif beriladi. Rasmlar doira o'rtasiga qo'yilib, ulaming metaforik ma'nosini tushunishga harakat qilinadi. Qiyinchilik tug'ilsa, trener yordam berishi mumkin: daraxtni hayotdagi o'mim deb qarasa bo'ladi (ildiz-daraxtga ozuqa yetkazadi, tana-daraxtni ushlab turadi, yaproqlar unga nafas olishga imkon beradi).

##### **"Muhim bekat" o'yini**

Maqsad: **Hayotda o'z o'rnnini topish yoilarini izlashga va anglashga o'rgatish** Stullar yordamida xonaning bir cheti avtobus ko'rinishiga keltiriadi. Qatnashchilar tiqilinch paytdagi kabi salonga joylashadilar. Boshqaruvchi o'rtaoqdagi yo'lovchiga qarab bekatga kelganini va tezda avtobusdan tushishi kerakligini ma'lum qiladi. Shunday yo'nalihsda 3-4 kishi qolguncha yoMovchilar avtobusni talk etishadi. Keyin salon yana yo'lovchilarga to\*ladi. 2-etap. Qiziqishni kuchaytirish uchun bekatning nomini qiziqarli nomlash zarur (oldindan kelishib olish lozim): kim hayotda nimaga erishishni istaydi (sevgi, boylik, Ivozim, go'zallik...). Javoblar qog'ozga yozib olinib, yoniga qo'shimchalar kiritish m-n (vafoli sevgi, katta lavozim...) Ishtirokchilar har bir bekatda faqat bir yo'lovchi tushishi mumkinligi, oldindan qaysi bekat kelishi noma'lumligi, chiqish

vaqtin cheklanganligi haqida ogohlantiriladi.

**Yakuniy qism: “Chiroli ta’rif” o‘yini**

**Maqsad: Ishtirokchilar bir-birlariga pozitiv emotsiyalni ta’riflar berishga o‘rganishadi**

Boshlovchi inson o‘ziga nisbatan chiroli so‘zlamasi, ta’riflami eshitish qanchalik yoqimli ekanini aytib o‘tadi. Keyin har bir ishtirokchi o‘zidan keyingi ishtirokchiga chiroli so‘zlar va ta’riflar aytadi. Har bir ishtirokchi o‘zi haqida birorta’rif yoki pozitiv so‘z eshitishi lozim.

**“Emotsional holatimning rangi” o‘yini**

**Maqsad: o‘zining emotsiyalni holatini tushunishga o‘rgatish**

Ishtirokchilar doira shaklida otirib bir-bir\ariga koptoq uzatishadi. Koptokni olgan ishtirokchi hozirgi holatining qaysi ra n g b ila n b o g ‘liqligini aytadi. O ‘yin tugagach, boshlovchi umumiyligida chiqarib, yorqin va ochiq turdagilari ranglar pozitiv xush kayfiyatni bildirishini aytib o‘tadi.

**“Gapni davom ettiring” o‘yini**

**Maqsad: Guruhning hamjihatligini oshirish**

Boshqaruvchi ishtirokchilardan “Men ham xuddi qolganlar singari ... jumlasini davom ettirishini so‘raydi.

Qayta aloqa bosqichida “Bizni nima birlashtirib turadi?” degan savol muhokama etiladi.

## **XIV BOB BO‘YICHA TOPSHIRIQLAR**

**Nazorat savollari**

1. Psixologik treninglarga misollar keltiring
  2. Tanadagi zo‘riqishlami bartaraf etishni qanday tushunasiz?
  3. Stressni bartaraf etuvchi treninglaming asosiy maqsadi nima?
  4. Ruhiyatni sog‘lomlashuvchi treninglaming maqsadi nima?
- Mustaqil ish mavzulari
5. Shaxsnинг o‘z-o‘zini anglash jarayoni bilan bog‘liq treninglar
  6. Agressiyani bartaraf etuvchi treninglar
  7. Treningda ertakterapiyaning ahamiyati
  8. O‘zini baholash borasidagi treninglar

**Testlar**

1. Guruhlarda zo‘riqishlarni va noroziliklarni keltirib chiqaruvchi sabablar?
  - A) Faqat 1 turdagisi mashqlaming o‘tkazilishi
  - B) \*Mashqlaming bevaqt o‘tkazilishi
  - V) Mashqlarda ishtirok etishga buyruq berilishi
  - G) Ishtirokchilarning kayfiyatsizligi
2. Har qanday muammoli vaziyatda shaxsga faqat o‘zidan yordam olishga o‘rgatish qaysi trening turiga xos?
  - A) Muloqotchanlik treningi
  - B) \*Shaxsni barkamollahtirish treningi
  - V) Emotsional sohadagi treninlar
  - G) Tanadagi zo‘riqishlami bartaraf etish treninglari
3. Emotsional sohadagi treninglaming maqsadi nima?
  - A) \*Insonlami ichki salbiy emotsiyalini kechinmalarini gapirtirish yo‘li orqali ularga yordam berish
  - B) Hamisha ijobiy emotsiyalni holatda yurishni o‘rgatish
  - V) Insonlar bilan o‘zaro munasabatga oson kirishishiga o‘rgatish
  - G) Insonlami emotsiyalarini jilovlashni o‘rgatish
4. Muloqot o‘rnatishda 5 xil munosabat tipi farq qiladi. Tiplar kompleksi to‘g‘ri berilgan qatorni aniqlang 1.Raqobat. 2.Yon berish. 3.Aktivlik. 4.Kelishuv. 5.Passivlik. fi.Hamkorlik
  - A) \*1,2,5,4,6
  - B) 1,2,4,5,6
  - V) 2,3,4,5,6
  - G) 1,3,4,5,6

5. “Har 2 tomon ham o‘zaro manfaatlarini hisobga olgan holda muammoni hal qilishga harakat qiladi”. Ushbu tarif 5 xil pozitsiyaning qaysi biriga tegishli?

- A) \*Hamkorlik
- B) Yon berish
- V) Passivlik
- G) Kompromiss

6. “Har 2 tomon ham o‘zaro manfaatlarini hisobga olgan holda muammoni hal qilishga harakat qiladi» Ushbu tarif 5 xil pozitsiyaning qaysi biriga tegishli?

- A) Yonberish
- B) Passivlik
- V) Hamkorlik
- G) \*Kompromiss

7. ... bunday bolat kishiga juda katta ichki ruhiy zo‘riqish beradi va buni chiqarib yubora olmaganligi natijasida salbiy o‘zgarishlar kelib chiqadi. Qaysi trening turi haqida gap ketyapti?

- A) \*Emotsional sohadagi
- B) Muloqotchanlik
- V) Biznes trening
- G) Shaxsni barkamollashtirish

8. Ichki zo‘riqishlarni yengmaslik va uni chiqarib yubormashk trening ishtirokchilari uchun qanday muammoga olib kejadi

- A) \*Stressga
- B) Insultga
- V) Nevrozga
- G) Depressiyaga

9. “Shaxsni barkamollashtiruvchi treninglar - bn psixologik ta’sirnmg ma’lum bir yo‘naiishi b«lib, guruhiy ishning faol usullarini qo‘l!ash asosida o4kaziladi”.

Bu ta’riff imga tegishli.

- A) G.A.Kovalev
- B) \*I.Vachkov
- V) G.I.Makshanov
- G) S.V. Petrushina

10. Treningni “ijtimoiy psixologik o‘qitishning ijtimoiy didaktik aktiv yo‘naiishidir”, deb ta’riflagan olimni belgilang

- A) I.Vachkov
- B) \*G.A.Kovalev
- V) G.I.Makshanov
- G) S.V. Petrushina

11. Trening atamasiga quyidagicha tavsif berifni kim bergan: “Trening -ijtimoiy-psixologik kompitentlikni rivojlanishiga qaratilgan guruhiy amaliy psixologiya sohasidir”

- A) I.Vachkov
- B) \*G.A.Kovaiev
- V) G.I.Makshanov
- G) S.V. Petrushina

12. Trening - bu shaxsni o‘zgartirishga qaratilgan va hissiyotiarga boy bo‘igan mashg‘ulot ekanligini ta’kidlagan olim - ...

- A) I.Vachkov
- B) \*G.A.Kovalev
- V) G.I.Makshanov
- G) S.V. Petrushina

## XV. NIZONIBARTARAF ETISH TRENINGLARI

### 15.1. Shaxslararo nizo tushunchasi va nizolarning tuzilishi

A.Olkott «Bahslashish ko'plaming qo'lidan keiadi, oddiygina suhbatlashishni esa kamdan-kam kishi uddalaydi» degan fikmi aytganida qanchalar haq bo'Igan.

Har bir inson o'z hayoti davomida bir necha bor nizo bilan lo'qnash keiadi va hech bir inson o'zini nizoli vaziyatlardan muhofaza qilinganman deb ayta olmaydi. Shunday ekan, aytish mumkinki nizolar inson hayotining ajralmas qismidir. Bo'lajak mutaxassis sifatida talaba shaxslararo munosabatlarda sodir bo'ladigan nizo tushunchasining mohiyatini chuqurroq bilishi lozimligini inobatga olgan holda quyidagi ma'lumotlami havola etish maqsadga muvofiq.

**NIZO - shaxslararo munosabatlar jarayonida o'zaro qarama-qarshi bo'lgan ziddiyatli manfaatlar va munosabatlaming to'qnashuvindir.**

Nizo deganda (lot. conflictus — to'qnashuv) o'zaro Munosabatlar jarayonida yuzaga keladigan qarshiliklami hal etishning anchagina keskin usuli tushuniladi. Bu jarayonda odatda nizo sub'ektlarining o'zaro qarshilik ko'rsatishlari va negativ emotsiyalar bilan kechadi. Agar nizo sub'ektlari o'zaro tortishsa, lekin bu jarayonda neggativ emotsiyalarni boshdan kechirmasa yoki aksincha, tortishmasalar u negativ emotsiyalami boshdan kechirsa, bu holat nizo oldi vaziyati hisoblanadi.

Nizo sub'ektlarining tortishuvi uch xil doirada namoyon bo'lishi mumkin: muloqotda, xulq-atvorda, faoliyatda. Har qanday nizoning asosida tomonlaming qandaydir voqe-hodisaga nisbatan qarama-qarshilik pozitsiyasi yoki ma'lum bir sharoitda ulaming maqsadga erishishidagi qarama-qarshiliklari yoki qiziqishlari, istaklari, intilishlarining bir-biriga mos kelmasligi kabilar yotadi.

Ko'pchilik insonlar nizoni negativ va buzg'unchi xarakterga ega deb tushunadilar. Lekin, o'zaro munosabatlarda yoki tashkilotlarda nizoning boimasligi o'sha munosabatlaming yoki o'sha tashkilotning "so'lish"ga olib keladi. Nizolar javobgarlik, manfaatdorlik, qat'iylik kabilarni rivojlantiradi. Shuningdek, anglangan nizolar kishilar orasidagi munosabatlaming yaxshilanishi va yangilanishiga olib keladi. Nizolar bo'limganda kishilaming o'z muammolarini anglashi va ulaming yechimini topishga harakat qilishi kamdan-kam holatlarda sodir bo'ladi. Tinchlik - tomonlaming ular uchun mutloqo yechimi yo'qdek tuyulgan muammolami birlgilikda yengib o'tib, ma'lum bir yechimga kelishlaridir.

*Destruktiv nizo* - Tomonlardan binning manfaatla-i ustun qo'yilganda yuzaga keladi. Bunda quyidagi holatlar kuzatiladi:

- Nizoning yechimi topilmaydi va uni boshqarish imkoniyati boy beriladi;
- G'azab, jahl, dilsiyohlik, hafagarchilik, nafrat va qasos xislarining kelib chiqishiga sabab bo'ladi;
- Juda kuchli stressga olib kelishi mmkin;
- Odamlar o'rtasida uzoq muddatli nizo va ixtilofni vujudga keltiradi.

*Konstruktiv nizo* - Tomonlaming ikkalasi uchun ha— teng manfaatga ega bo'tgan yechim topiladi va buning natijasida:

- Yashirin imkoniyatlar va muammoning yangi qirralarining ochiladi;
- Muammo yechimining yangi yo'llari, imkoniyat va usullari kashf etiladi;
- Ishonch, samimiylilik, hamkorlik va haqiqatni tan olishga qaratilgan yangi munosabatlar o'matiladi, tomonlami birlashtiradi.

Aksariyat hollarda adabiyotlarda "nizo" tushunchasi bilan birlgilikda "nizoli vaziyat" tushunchasi ham qo'tlaniladi va bu tushuncha aynan nizo bilan bir xilda 188

tushuniladi. Shunga ko'ra nizoning tuzilishi haqida gap ketganda aynan nizoli vaziyatning tuzilishini ko'rib chiqish mumkin bo'ladi. Har bir nizoli vaziyat o'zining ob'ektiv mazmuni va sub'ektiv ahamiyatiga egadir.

Ob'ektiv tomonlarga:

- nizoning ishtiroychilari (tomonlari);
- nizoning predmeti;
- nizoning ob'ekti;
- nizoning mikro va makromuhiti.

Subektiv mazmun tomonlaming motivlari, nizoli xulq-atvor, informasion model kabi elementlami o'z ichiga oladi. Ushbu elementlami chuqurroq ko'rib chiqamiz.

Nizoning ishtirokchilari. Har qanday nizoda ham asosiy harakatlantiruvchi kuch - odamlar bo‘ladi. Ular shaxsiy, rasmiy va yuridik shaxslar sifatida harakat qiladi yoki gumhga birlashadi. Nizoning ishtirokchilariga bog‘iq holda nizoning quyidagi turlari ajratiladi:

1. Shaxsning ichki nizosi — shaxsning tashqi muhitdan noroziligini va qaror qabul qila olmay qiynalishi bilan bog‘liq ichki kurashlar natijasida kelib chiquvchi kcskin negativ kechinmalardan iborat bo‘gan nizo.

2. Shaxslararo nizo - ikki yoki undan ortiq alohida shaxslar o‘rtasida yuzaga keladi. Bunda ulaming ehtiyojlari, motivlari, maqsadlari, qadriyatları, ustanovkalari va e’tiqodi kabilaming o‘zaro mos kelmasligi kuzatiladi.

3. Shaxsiy—guruhiy nizo - ayrim holatlarda shaxsning xulq-atvori yoki xatti-harakati guruhiy normalar va guruhning kutishlariga mos kelmaganda yuzaga keladi.

4. Guruhlararo nizo. Bu holatda turli guruhlaming xulq-atvor, norma, maqsad, qadriyatlarga nisbatan stereotiplarining o‘zaro to‘quashuvi yuz beradi.

Nizoda ishtirok etishiga ko‘ra quyidagilami tahlil qilish (ajratish) mumkin:

- nizoning asosiy ishtirokchilari (yoki qarama-qarshi tomonlar) — bir-birlariga qarshi faol harakatlami amalga oshiruvchi kishilar, ulaming faol harakati qarshilik ko‘rsatish yoki himoya reaksiyasi ko‘rinishlarida namoyon bo‘tadi;

- qo’llab-quwatlovchilar (tarafkashlar) guruhi — o‘zining faol harakati yoki ishtiroki orqali nizoning rivojlanishi yoki barham topishiga olib keluvchi kuchlar;

- boshqa ishtirokchilar — nizoning rivojlanishi va natijasiga epizodik ta sir ko‘rsatuvchi sub’ektlar (masalan, g’alamis fitnachilar; raediatorlar, ya’ni orada turuvchilar va hakamlik qiluvchilar; nizoni keltirib chiqaruvchilar).

*Nizoli xulq-atvor (xatti-harakat).* U nizo ishtirokchilarining qarama-qarshi harakatlaridan tashkil topadi. Nizoli xulq-atvomi strategiya va taktikaga bo‘lish mumkin. Strategiya nizoga nisbatan va nizoni hal etish shakllariga ko‘ra (masalan, o‘zini chetga olish yoki passivlik, kelishuv, raqobat, hamkorlik). shaxsning o‘z yo‘nalishini, ustanovkalarini belgilab olishi sifatida qaraladi.

## 15.2. Nizo strategiyasining klassifikasiysi

Nizo strategiyasining klassifikasiysi asosida quyidagi omillar yotadi:

1) xatti-harakatning xarakteri (hujumkorlik, himoyalanish va neytral);

2) bu harakatlami amalga oshirishning faollik darajasi (faol — passiv);

3) bu harakatlaming yo‘nalganligi (opponent - muxolifjga, uchinchi bir kishi-a, o‘z- o‘ziga).

Tanlangan strategiya ma’lum bir taktika orqali realizasiya qilinadi. *Xatti-harakat taktikasi* — opponent (qarama-qarshi tomonjiga qaratilgan ta’sir ko‘rsatish strategiyalaming amalga oshirilish usullari. A.Ya.AnSUPOV va A.I.Shipilovlar opponentga qarshi ta’sir ko‘rsatishning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatishgan:

a) qat’iy:

- hokimlikni mutloq qo‘lga olish (nizo ob’ektini hamma narsadan mahrum qilish - erkinlikdan, puldan);

- fiziologik zo‘ravonlik qilish (jismoniy tan jarohati yetkazish, faoliyatini cheklab qo‘yish);

- psixologik zo‘ravonlik qilish (haqorat qilish, qo‘polik qilish, shaxsiyatiga tegish, g‘iybat-bo‘hton uyuşdırish, aldash, y o lg ‘on xabarlar tarqatish, yerga urish, xo‘rlash va h.k.);

- bosim o‘tkazish (talab qo‘yish, buyruq berish, do‘q-po‘pisa qilish, shantaj qilish, obro‘sini to‘kish); b) neytral (betaraf):

- demonstrativ harakatlar (o‘zining salomatligi yomonlashganligini hammaning oldida arzdod qilgan holda o‘z shaxsiga nisbatan diqqatning jalb etilishi, ishga chiqmaslik, suitsidal harakatlami ko‘z-ko‘zlab amalga oshirish);

- sanksiyalar berish (opponentga jazo berish orqali ta’sir o‘tkazish, xodimning ish yuklamalarini oshirish, talabalami bajarishdan bosh tortish kabilar);

• v) yumshoq:

- o‘z pozitsiyasini qayd etish taktikasi (o‘z fikrlarini tasdiqlash uchun mantiqiy va faktik ma’lumotlardan foydalangan holda muhokama, taklif va tanqidlarda ishtirok etish);

• do stona munosabat taktikasi (umumiylukka asoslanib muammoni yechishga tayyorlikni ifodalash, zarur ma'lumotni topib berish, yordam taklif etish va h.k.);

• bitim tuzish taktikasi (bir-birga o'zaro yaxshilik qilish, va'dalar berish, yon berish, uzr so'rash).

Nizoning kechishi va ishtirokchilarining tavsifi o'rtasida o'ziga xos zanjir vazifasini o'taydigan holat mavjud bo'lib, u bir tomondan nizoli xulq-atvor, ikkinchi tomondan nizoli vaziyatning quyidagi elementlami o'z ichiga olgan obrazlari ga bog'liq::

1) nizo ishtirokchilarining o'zi haqidagi qarama-qarshiliklar (o'z ehtiyojlari, imkoniyatlari, qadriyatlar, maqsadlari va h.k.);

2) nizo ishtirokchilarining qarama-qarshi tomonlar haqidagi tasavvurlari (ulaming ehtiyojlari, imkoniyatlari, qadriyatlar, maqsadlari va h.k.);

3) nizoning har bir ishtirokchisining qarama-qarshi tomon uni qanday qabul qilayotganligi haqidagi tasavvurlari;

4) nizolashuvchi tomonlaming nizo yuz bergen muhit va sharoitiar haqidagi tasavvurlari.

Nizoli vaziyatning obrazini tahlil qilish nima uchun zarur? Nizoli xulqnini nizoning qarama-qarshiliklaming mavjudligi emas, aynan nizoning sub'ektiv kartinasi belgilab beradi, ya'ni nizoli vaziyatning buzib, noto'g'ri idrok etilishi quyidagilarda namoyon bo'lishi mumkin:

1) butun bir vaziyatni noto'g'ri talqin etish — vaziyaiga yuzaki qarash, faqat oq-qora tarzida baho berish, informasiyani o'z foydasiga filtrlash, uni n o to 'g'ri qabul qilish va h.k.;

2) nizodagi xatti-harakat motivlarini nito'g'ri idrok etish — masalan, o'z foydasiga ijobiy motivlami, qarshi tomonga esa eng qabih, tuban motivlami qo'shib-chatish;

3) harakatlar, fikr-mulohazalar, xulq-atvor kabilaming buzib talqin etilishi — o'ziga nisbatan quyidagi tarzdan ishlatalishi smumkin: «men to'g'ri qidim», «men shunday qilishga majbur bo'tdim», «uning o'zi aybdor, chunik meni shunga uning o'zi majburiadi», «hamma shunday qiladi»; va qarshi tomonga nisbatan: «u menga qasdma-qasd shunday qilyapti», «u ataylab shunday qilyapti» va h.k.;

1972 yilda K. Tomas va R. Kilmenn nizoli vaziyatlarda namoyon bo'tadigan xulq-atvoming 5 xil shakli (stili)ni ajratib ko'rsatgan:

**1. Hamkorlik** — barcha tomonlaming manfaatlarini hisobga olgan holda birgalikda bir qarorga kelish. Hamkorlik quyidagi jihatlari bilan foydali bo'tadi:

• taraflar o'z pozitsiyalarini saqlab qolishlar va sabab va oqibatlami chuqur tahlil qilishlari uchun ularda imkoniyat (vaqt va istak) bo'tadi;

• kelishmovchilikning o'mini to'tdiruvchi elementlarini topish imkon bo'tadi;

• qaror yoki yechimning bir nechta variantlari ishlab chiqish mumkin bo'tadi;

• yuzaga kelgan qarama-qarshiliklami, tushunmovchiliklami konstruktiv hal etish imkon bo'tadi;

• tomonlar nizodan chiqish variantlarini tahlil etishga tayyor bo'tishadi

**2. Konkurensiya, raqobat** — nizoli vaziyatni hal etishning anchagina keskin usuli bo'tib, o'z pozitsiyasini saqlab qolish istagida g'alaba qozonish maqsadida har qanday vositadan foydalanish va istagan usuida kurashish. Bu usuldan foydalanishda quyidagi holatlar namoyon bo'tadi:

• o'z pozitsiyasining to'g'riliqi va haqligiga ishonch va uni himoya qilish uchun zarur vositalar borligi;

• nizo uning prinsip va e'tiqodlari doirasidagi izzat-nafsiga tegib ketsa;

• o'zining ustunligini namoyon qilish jarayonida adekvat munosabat bildirmasa, o'z avtoriteti va do'stlarini yo'qotadi. 3. Bosh tortish, mensimaslik — nizodan o'zini olib ochish orqali vaziyatni hal etishga harakat qilish. Xavfli strategiya. Undan quyidagi holatlarda foydalanish mumkin:

• nizoning manbasi shunchalik tuturiqsiz, oqibatlari esa shunchalik ahamiyatsizki, ularga e'tibor qaratmasa ham bo'tadi;

• nizolashuvchi tom onlar boshqalaming aralashuvlisiz ham kelishib olishlari m u m k i n ;

• vaqt o'tishi bilan nizoli vaziyat yumshab, hammasi o'z o'rniga tushib ketishiga bo'tgan

ishonch;

- nizo ishlab chiqarish bilan bogTiq muammolarga ta'sir ko'rsatmaydi;
- nizoni mensimaslik uning beixtiyor rivojlanishiga olib kelishi ham mumkin.

4. Ko'nikish — bunda qarama-qaishilikni sillqlashga intilish ko'pincha o'z pozitsiyasini o'zgartirish hisobiga amalga oshadi. Bu esa quyidagi holatlarda foydali boTadi, agar:

- nizoni qanday qilib boTsa ham hal qilish uchun istak boTganida;
- nizo va uning natijalari shaxsiy qiziqish va manfaatlarga daxl qilmasa;
- bir yoqlama yon berishga rozilikning mavjudligi;
- o'z pozitsiyasini himoya qilish ko'p vaqt va kuch talab qilsa.

5. Kompromiss (murosasozlik) — nizoni o'zaro kelishuv, murosa qilish orqali hal etish. Bu usul quyidagi holatlarda effektiv boTadi, agar:

- nizolashuvchi tomonlaming dalillari ishonchli, ob'ektiv va haqqoniy boTsa;
- vaqt yetishmovchiligi bois nizoni tomonlar uchun maqbul keladigan qaror qabul qilish yoTi bilan yechish talab etilsa;
- tomonlar nizoni muammoning bir qismini yechish barobarida hal etishga tayyor boTishsa;
- yon berish orqali muhim ishga aloqador va shaxsiy munosabatlami saqlab qolish mumkin boTsa.

Kompromiss nizoning boshqacharoq shaklda davom etishini inkor etmaydi, ya'ni nizo boshqacharoq ko'rinishda yana davom etaverishi mumkin.

Shunday qilib, har qanday nizoli harakat 4 xil asosiy choraga ega:

- 1) ikkinchi tomonning toTiq yoki qisman yon berishi;
- 2) kompromiss (murosasozlik);
- 3) nizoli harakatlami to'xtatish;
- 4) integrasiya.

### 15.3. Nizo dinamikasi

Nizo rivojlanishi uchun tomonlardan birining ikkinchi tomonning qiziqishlarini cheklab qo'yishga harakat qilishi bilan bog'liq mojaro bo'lishi shart. Agar qarama- qarshi tomon ham xudda shu taxlitda javob qaytarsa, u holda nizo yashirin holatda eng muhim holat (daraja)ga o'tadi.

Nizo qanchalik murakkab yoki sodda boiishidan qat'iy nazar har doim uning ikki tomoni - buzg'unchilik va yaratuvchanlik tomonlari mavjud bo'ladi. "Qars ikki qo'ldan chiqadi" deganlaridek nizoning kelib chiqishi va rivojlanishiga har doim ikki tomon sabab bo'ladi.

1. Ikkala tomon ham nizo yuzaga kelganda ziddiyatni kuchaytirishga harakat qilishi va shaxslararo munosabatlarda buzg'unchilikka olib kelishi mumkin.

2. Ikkala tomon ham nizo yuzaga kelganda ziddiyatni pasaytirishga harakat qiladi va shaxslararo munosabatlarda murosaga va osoyishtalikka olib kelishi mumkin.

3. Ikkala tomondan biri nizoni kuchaytirishga, ikkinchisi esa pasaytirishga harakat qiladi. Bunday vaziyatda shaxslararo munosabatlarda osoyishtalik yuzaga kelshi yoki yangi ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin.

Nizoning dinamikasida quyidagi asosiy davrlar ajratiladi:

**Latent davr** (nizo oldi davri). Bu davming mohiyati shundaki, ob'ektiv qarama-qarshiliklaming vujudga kelishi nizo ishtirokchilarining motiv va qiziqishlari bilan belgilanadi. Reallikning muammo sifatida qaralishi o'zaro munosabatga kirishayotgan ishtirokchilami qarama-qarshiliklami (nizo boiishi shart emas) hal etish uchun harakat qilishga undaydi. Biroq bu jarayonda muammoli vaziyat va opponentning harakatlari sub'ektning qiziqishlariga nisbatan bevosita tahdid, xavf- xatar sifatida qabul qilinadi.

**Ochiq davr.** Nizo anglanganidan so'ng tomonlar qarama-qarshi tomonning maqsadi, intilishi, o'ylari va yutuqlarga erishish yo'llarini to'sib qo'yishga yo'nalgan nizoli muomalaga o'tishadi. Muhimi shuki, tomonlar o'zlarining muomalasi yoki xulqi nizoga olib kelishini tushunib yetishlavi lozim. Ochiq davr o'z ichiga 194

quyidagilarni oladi; to'qnashuv (janjal, mojaro), nizoning eskalasiyasi (o'sishi), balansli (mos keluvchi) qarshilik, nizoning yakunlanishi.

Insident (janjal) - tomonlaming birinchi to'qnashuvi, kuch sinashishi, muammoni o'z foydasiga hal etish uchun harkati bilan ifodalanadi.

Eskalasiya — bu opponentlaming kurashi keskin tus olishidir. Eskalasiya quyidagi belgilar bilan ifodalanadi: partnyorlami adekvat idrok etishning o'rinni almashuvi; emotsiyalarning o'sishi; dalillardan e'tiroz va shaxsiy qarshiliklar k o 'rsatishga o 'tish; buzilgan qiziqishlam ingierarxik darajasining o 'sishi; zo'ravonlik ishlatalish; dastlabki ziddiyat predmetining yo'qolishi; nizo chegarasining kengayishi; ishtirokchilar sonining ortishi.

Balansli qarshilik - shu bilan tavsiflanadiki, tomonlar qarshilik ko'rsatishda davom etadilar, lekin kurashning shiddati pasayadi. Biroq kelishishga harakat qilinmaydi.

Nizoning yakunlanishi va nizodan so'nggi davr - bu davr ni/olashish holaliui tugatib, muammoning ycchimini izlashga va nizoni Uigitishgu bo'lgan liuiiknUln namoyon boMadi. Nizoni tugatishning asosiy shuklhiri: ziddiyatni hal rush, hissiyotiaming so 'nishi, munosabatlarni yo 'Iga qo 'yish, kamrhlklarni hartarafti.sh yoki boshqa nizogao'tilishi.

Ziddiyatni hal etish - quyidagicha bo'lishi mumkin: qisman (nizoli hnrnkiilliiigii imkon bermaslik, lekin nizoga bo'lgan istakning so'nmasligi); to'liq (nizo tashqi munosabatlarda ham, ichki hissiyotlarda ham barham topadi).

#### **15.4. Hissiyotlarni boshqarish va nizoni yechishga tayyorlik**

Nizo haqida gapirliganda uning oldini olish, nizoli vaziyatlarga yechim topish va bartaraft etish borasida bilimlarga ega boiish lozim.

Ijtimoiy hayot va ijtimoiy munosabatlar shunchalik murakkabki, odamlar orasida ob'ektiv ziddiyatli, qarama-qarshiliklarga ega bo'lgan vaziyatlarga duch kelmasdan shunchaki yashashning iloji yo'q. "Nizolarsiz" muloqotlarda nizolar shunchaki oshkor etilmaydi, ichga yutiladi va oqibat munosabatlami ichdan yemirib boradi. Xolbuki, agar munosabatlarga aniqlik kiritib olimmasa, ular tugaydi, tugaganda ham tinchlik va osoyishtalikni istagan ishtirokchilar uchun kutilmagan va hatto fojiali tarzda tugashi mumkin.

Yana bir yanglish fikr mavjud? Go'yoki nizo — bu albatta salbiy emotsiyalaming kuchayishidan iborat bo'lgan urush, janjaldir. Albatta, rivojlantiruvchi munosabatlar kamdan kam holatlardagina sokinlik xarakteriga ega bo'ladi, ular ko'pincba bir ko'tarilib, bir tushib, yaqinlashish va uzoqlashish nuqtalariga ega bo'ladi. Lekin bu munosabatlar jonli bo'lib, ular insonlaming kechinmalari bilan bog'liq va har doim o'z yechimiga ega bo'ladi.

Mutaxassislar izoni hal etishning quyidagi variantlari mavjudligini qayd etishgan:

- 1) ob'ektiv darajadagi to'liq hal etish;
- 2) ob'ektiv darajadagi qisman hal etish;
- 3) sub'ektiv darajadagi to'liq hal etish;
- 4) sub'ektiv darajadagi qisman hal etish.

Nizodan keyingi davr ikki etapga bo'linadi: opponentlaming munosabatlari qisman yoki to'liq normallashadi.

Qisman nonnallashish negativ emotsiyalar yo'qolib ketmasligi natijasidagi turli kechinmalar bilan tavsiflanadi. To'liq normallashish esa tomonlar keyingi konstruktiv munosabatlaming muhimligi anglab yetganidagina boshlanadi. Bu bilan negativ ustakovkalami bartaraft etish, birgalikdagi faoliyatda produktiv ishtirok etish, ishonchning o'matilishi sodir bo'ladi.

Shaxslararo munosabatlarda nizolaming oldini olish uchun nimalarga e'tibor berish lozim? degan savolga psixolog mutaxassislar quyidagi tavsiyalami berishadi:

- Shaxslararo munosabatlar jarayonida konfliktogenlardan foydalanmang, ulami o'z vaqtida, ildiz otib ketmasidan yo'qotishga harakat qiling
- Konfliktogen bilan to'qnashganda unga o'zingizdagi konfliktogen bilaii javob qaytarmang
- Konfliktogen bilan munosabat bildirayotgan odamga, shuningdek umuman har qanday suhbatdoshga empatik (birovning xis-tuyg'ularini anglasli asosida) munosabat bildiring. Empatik munosabat o'matish uchut suhbatdoshingizga xush keladigan mavzulami tanlang, unga komplimentla aying, kulib gaplasting, uning so'zlarini diqqat bilan eshititing v.h.

- Imkon qadar ko'proq ijobjiy xis-tuyg'ular ulashing. Korifliktogenlar maxsus garmonlar natijasi hisoblanadi. Agar o'zingizning kayfiyatizingizni yaxshilik sari yo'naltirsangiz, konfliktogenlami yengishga imkon tug'iladi.

- Konfliktogenlar insonni kurash, ziddiyat va nizoga yo'naltiradi. Bu esa organizmda adrenalinning ko'payishiga olib keladi. Adrenalin konfliktgen bilan qo'shib, g'azab, jahl, agressiyaning kuchayishiga sabab bo'ladi. Odamning qattiq g'azablanishi noradrenalinni keltirib chiqaradi. Uning inson salomatligiga bo'lgan juda katta salbiy ta'siri mavjud.

- Ammo chiroyli suhbat inson organizmida endorfin, ya'ni "baxt garmonlarini" yuzaga keltiradi.

Nizoning yechimini topish - nizoli vaziyatni yo'qotish hamda uning oqibalida yuzaga kelgan munosabatlami to'g'ri yo'Iga solish uchun zarur bo'lgan bilim, ko nikma va malakalar majmuidan iboratdir. Bulling uchun iivnlo nuiomnla madaniyatiga ega bo'lish lozim. Shuningdek quyidagi Imlnlliii limn Im luitmla ahamiyatga ega: suhbat uchun qulay, tinch va to'g'ri joy tunliiNh, hmiiinilibiilnlg gaplarini bo lmaslik, sabr — qanoatli bo'lish, tana zabonign iuloi Nullah, p'liboi hilnn tinglash, ma ruza o'qimaslik, ochiq va aniq savollardan foydlnnnish, hech nnixn Ink III qilmaslik, o'z emotsiyalarini nazorat qilish, birovning nafsoniyatiga tegmaslik.

Mutaxassislar muloqot jarayonida nizolami bartaraf etuvchi omillar sirasign quyidagilami kiritadilar: suhbatdoshlarning bii-biriga nisbatan samimiyligiva ochiqligi; o'z fikrlarini bir-biridan yashirmasligi; bir-biriga nisbatn o'zaro ishonchi; suhbatdoshlarning qarashlaridagi yakdilligi; o'z muammolami ochiq ayta olishga imkon yaratishlari; bir-biridan vaqt ayamasligi; bir-biriga hamdardlik bildira olishi.

### **15.5. Agressiya haqida tushuncha**

Shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'lувчи xulq-atvor tiplaridan biri bu agressiyadir. Inson agressiyasini o'rganish, darhaqiqat, serqirra mavzu bo'lib, ushbu fenomenning asl mohiyatini olib berishga urinayotgan olimlaming diqqatini hozirgacha o'ziga tortib keladi.

Oddiy kundalik hayotda agressiya - zo'vavonlik yoki raqibni yengi—h uchun qo'llaniladigan vosita sifatida tavsiflanadi. Agressiya - kishilar o'rtasidagi turli kel-shmovchilik oqibatida kelib chiqadigan har qanday xulq-atvor modellaridan bin bo'lib, u shunday atamaki, unga oid mulohazalar nafaqat psixologlami, balki sotsioiog, huquqshunos, pedagog, faylasuf, qisqasi, ijtimoiy soha xodimlarining barchasini birdek qiziqtiradi. Agressiya tusbunchasining o'ziga izoh berish qator qiyinchiliklami tug'diradi, chunki bu termin ko'plab xatti-harakat shakllarini o'zida qamrab oladi. Odamlar biron bir kimsani agressiv shaxs sifatida tavsiflaganlarida, uni "...boshqalami haqorat qiluvchi, badfe'l, barcha narsani o'zi istaganidek qilishni istaydigan, o'z g'oyalarini qat'iy himoya qiladigan, yechimi yo'q muammolar girdobiga o'zini giriftor qiladigan inson", deb ta'riflashlari mumkin. Agressiyaga nisbatan berilgan bunday ta'rif to'g'ri yo noto'g'riligini biHsh uchun bu tushunchaga oydinlik kiritish lozim.

Agressiyaga aloqador eng birinchi va balki eng mashhur nazariy tushunchaga asosan bunday fel-atvor o'z tabiatiga ko'ra ko'p jihatdan instinkтивdir. Bu yondashuv juda keng tarqalgan bo'lib, unga ko'ra, insonda genetik va konstitutsional jihatdan shunday harakatlar «programmalashtirilgan»ligi tufayli uning xulq-atvorida agressiya sodir boiadi.

Insonning agressiv xatti-harakatlarga moyilligini turlicha tushuntirishga qaratilgan nuqtai nazarlar ichida eng mashhuri U.Makdaugoll, Z.Freyd, G.Marrey va boshqa olimlaming "inson va hayvonlarda agressiyaning tug'ma instinkti mavjud boiadi" degan qarashlaridir. Agressiv xulq-atvor haqidagi fikr- mulohazalar XX asr boshlarida yuzaga keldi. Bu nazariya agressiya haqidagi dastlabki nazariya boiib, unda agressiyaning sababi frustrasiya nazariyasi bilan bogiiq ravishda tahlil etilgan. Unga ko'ra agressivlik frustrasiyaning oqibatidir. Bunday qarash birinchi marta Dj.Dollard tomonidan ilgari surilgan. Ammo ushbu nuqtai nazar amaliyotda o'z tasdigini topmadi.

Agressiv xulq-atvor xususidagi ikkinchi nuqtai nazar L.Berkovichning ijtimoiy bilish nazariyasida keltiriladi. Unga ko'ra, maqsadga yo'naltirilgan faoliyat davomida vujudga keladigan to'siq shaxsda agressiv xatti-harakatlami hosil qiladi. Nihoyat, agressiv xulq-atvoming kelib chiqish sabablari haqidagi eng zarnonaviy nuqtai nazai bilishning kognitiv nazariyasi bilan bogiiq holda

ifodalanadi.

R.Kratchild va N.Livson agressiyaning bir-birini inkor etmaydigan ikki xil tavsifini ishlab chiqqanlar. Birinchisi, xulq-atvoming tashqi alomatlariga asoslanadi va unga ko'ra "Agressiya - kimgadir ziyon yetkazuvchi xul—atvoming har qanday ko'rinishidir". Ikkinchisi, odamning ichki niyatları bilan bogiiq boib, insonni harakatga undovchi kuchlami oiganish orqali anglash mumkin boigan holatlar bilan mushtarakdir, ya'ni, "Agressiya - boshqa bir insonga ziyon yetka - ishni maqsad qilib olgan har qanday xatti-harakatdir". Agressiyaning yuqorida zikr etilgan tavsiflariga monand tushunchalarga tayangan ko'plab psixologlar agressiyani jonli olamning yashash uchun kurash bilan bogiiq uzviy xarakteristikasi deb hisoblaydilar.

Jozef Bass tomonidan taklif etilgan mulohazalardan biriga asosan, agressiya - boshqalar uchun xavf tug'diru~chi va ularga ziyon yetkazuvchi har qanday fei-atvor ko'rinishidir.

Bir qancha taniqli tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan agressiyaning ikkinchi ma'nosi esa quyidagilami o'z ichiga oladi: "u yoki bu harakatlar agressiya sifatida kvalifikasiyalanishi uchun ular kimnidir oxir-oqibat xafa qilish yoki haqoratlashga olib kelishi shart emas, balki xafa qilish va xaqratlasbni maqsad qilib qo'yish ham agressiyadir". Va nihoyat uchinchi nuqtai nazar N.Zilman tomonidan bildirilib, unga ko'ra agressiya - boshqalarga tan jarohati va ji-moniy jarohatlar yetkazish demakdir.

### **15.6. Agressiyaning frustasion nazariyasি**

Djon Dollard tomonidan taklif etilgan bu nazariya yuqorida keltirilgan yondoshuvlarga qarama-qarshi qo'yildi. Unda agressivlik evolyusion emas, balki situativ jarayon sifatida qaraladi. Bu nazariyaning asoschisi D.Dollard va uning hamkasbleri - "frustrasiya doimo agressiyaga olib keladi" degan fikmi ilgari suradilar (Jon Dollard, 1939). Masalan, faraz qiling, talaba bugun darsga kech qolmaslik uchun nonushta qilmasdan keldi. Uch para dars tugagunicha uning qorni och qolib ketdi. Talaba darsdan so'ng mazza qilib ovqatlanishni mo'ljallagan edi. Mana qo'ng'iroq ham chalindi. Lekin guruh murabbiysi kirib guruh yarim soatga qolshi lozimligini, shoshilinch muhokama qilinishi lozim bo'lgan masala borligini aytди. Talaba sabr bilan guruh yig'ilishining tugashini kutdi, ovqatlanish uchun oshxonaga borganida, oshpazlar talabaga bugun xo'randa ko'p bo'lganligini, shuning uchun tayyorlangan ovqatlar tugaganligini aytishdi... Ovqatlanish ehtiyojini qondira olmasdan o'rtog'iga bergen va'dasini bajarish uchun, o'rtog'i bilan kutubxonaga qaytgan talabaning ahvolini tasawur qilish qiyin emas.

Aytingchi, talabaning o'rtog'i undan ehtiyyot bo'lgani yaxshimikan? Uning o'rtog'iga biror yomon gap aytishga boigan ehtimol ortadimi?

**Frustrasiya** - bu maqsadga erishishga xalaqit qiluvchi barcha to'siqlardir (shu jumladan, ovqati tugagan oshxona ham). Agar shaxsning maqsadi kuchli motivasiyalangan bo'lsa va u maqsadining amalga oshishidan qoniqish olishni kutayotgan bo'lsayu, uning bu istagi to'siqli uchrasha, bunday holatda frustrasiya yanada kuchayishi mumkin.

Frustrasiya agressiyaning paydo bo'lishi uchun motivasiya hosil qiladi. D.Dollard va M.Milleming ftkriga ko'ra, frustrasiyani keltirib chiqaruvchi sababga nisbatan agressiyani namoyon qilish jamiyat yoki jamoatchilik tomonidan jazolanishi yoki kamida muhokama qilinishi mumkin. Bunday jazodan qo'rqish esa agressiyani boshqa nishonga, ob'ektga (eshikni qarsillatib yopish, aybsiz b o 'lgan shaxsga ja h l qilish) yoki shaxsning o 'z -o 'ziga qaratilishi (suitsid sodir qilishi)ga sabab bo'lishi mumkin (Dollard, 1939; Miller, 1941) Frustrasiya va agressiya nazariyasi borasida o'tkazilgan labaratoriya tadqiqotlari ikki xil natija berganligini ko'rish mumkin: frustrasiya ba'zan agressiyani kuchaytirgan bo'lsa, ba'zan aksincha, susaytirgan. Masalan, Yudjin Bemstayn va Filip Uorchel o'tkazgan tajriba bunga yaqqol dalildir: eksperimentatoming assistenti eshitish apparati ishlamay qolayotganligi tufayli hadeb guruhiy qaror qabul qilishga xalal beraveradi, bu hoi majlis ishtirokchilarida frustrasiyani keltirib chiqazgan, lekin hech qanday agressiyaga olib kelмаган. Tadqiqotchilaming fikricha bu yerda frustrasiya agressiyaga sabab bo'limganimng sababi frustrasiyani keltirib chiqazgan manba aniq va yctarlicha tushunarli boiganidir.

Frustrasiya va agressiyaning aloqadorligi ilk nazariyalarda oshirib talqin qilinganligini payqagan Leonard Berkovis bu nazariyani qayta ko'rib chiqdi. U quyidagi taxminni ilgari surdi:

frustrasiya jahl va agressiv harakat qilishga emotsiyal keltirib chiqaradi (frustrasiya agressiyani emas, balki agressiv harakat qilishga tayyorlikni keltirib chiqazadi). Har qanday inson atrofidagilardan uning istaklariga mos harakatlami kutadi, agar uning bu kutuvlari amalga oshmasa yoki kutilgan harakatni bajarishiga imkon bo'la turib, buni bajarmasa, bu hoi frustrasiyani keltirib chiqaradi va o'z-o'zidan insonning jahli chiqishiga sabab bo'ladi (Averill, 1983; Weiner, 1981). Frustrasiyani his qilgan odam qachon dilozorga tashlanadi, qachonki uni bunga majbur qilishsa. Agressiya kelib chiqishi uchun, albatta va har doim ham frustrasiya boiishi shart emas, lekin frustrasiya bilan assosasiyalahadigan stimullar doimo agressiyani kuchaytiradi (Carlson & Oters, 1990).

Bu nazariyaning asosiy jihatlari quydagicha ifodalanadi:

- Frustasiya har doim biror-bir shakldagi agressiyaga olib keladi.

- Agressiyani chorlovchi masalalarda doimo uchta omil hal qiluvchi uluuniyatga ega bo'ladi:

1. Sub'ekt tomonidan kutilayotgan bo'lg'usida erishiladigan mnqsudgn crishisli darajasi - agar shaxs o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishi anchii vaqtgu cho'zilib ketsa, bunday holat albatta agressiyani chaqiradi;

2. Maqsadga erishish yo'lidagi to'siq kuchi - shaxsning o'z oldiga qo'ygan maqsadi yo'lida uchragan to'siq yengib bo'lmas darajada bo'lsa yoki shaxs tomonidan shunday deb tushunilsa, agressiya vujudga keladi.

3. Ketma-ket ffustasiyalar soni - agar maqsad yo'lida bir-to'siq ortidan ikkinchisi, uning ortidan uchinchisi kelaversa va bu ketma-ketlik davom etaversa, bu albatta shaxsda agressiyani keltirib chiqaradi.

Yuqoridagi uch holatni quyidagicha tushuntirish mumkin: sub'ekt o'z oldiga qo'ygan maqsadidan qoniqishni qay darajada ko'p kutsa, bu yo'lida to'siqlar qay darajada kuchli bo'lsa va to'siqlar qay darajada ko'p blokirovka qilinsa, agressiv xulq-atvorga turtki shuncha kuchli bo'ladi.

Frustasiyalar ketma-ket sodir bo'lganda ulaming kuchi bir-biri bilan qo'shilib, katta kuchdag'i agressiv reaksiyani tug'dirishi mumkin.

Bundan tashqari organizmdagi og'riq va frustrasiya (maqsadga erishish yo'lida to'siq paydo boiishi) ko'pincha tushkunlik va adovat hissini keltirib chiqarishi va buning ortidan agressiya yuzaga kelishi olimlar tomonidan tasdiqlangan. Agar frustrasiya qo'rquv yoki ikkilanish tufayli kelib chiqqan bo'lsa, shaxs alamini (agressiyasini) ko'pincha boshqalardan oladi. Bu holat fanda "agressiyani chiqarib yuborish" fenomeni deb ataladi.

O 'z agressiyasini chiqarib yuborish uchun shaxs turli xil nishoniami topadilar. Misol sifatida quyidagi tarixiy holatni keltirish o'rqli. Germaniya Birinchi jahon urushida mag'lubiyatga uchragach, bu davlatga iqtisodiy tartibsizlik, inqiroz kirib keldi va ko'pchiik nemislar buning alamini olish uchun yevreylami tanlashdi va ularga nisbatan yovuzlikni his qila boshlashdi. A.Gitler hokimiyat tepasiga kelishidan ancha oldin, bir nemis lideri shunday degan edi: "Evreylar - bu bizning agressiyamizni chiqarishimiz uchun juda qulay ob'ektdir. Agar yevreylar bo'lmanida edi, ulami o'ylab topishga to'g'ri kelgan bo'lardi" (G.W.Allport. 1958). O'rta asrlarda odamlar o'zidagi qo'rqinch va agressiyani jodugarlarga ko'chirishgan, vaqt-vaqt bilan ulami gulganda kuydirib, alamini chiqarib yuborganlar.

Hozirgi kunda agressiyani chiqarib yuborilishi yuzasidan quyidagi holatlami kuzatish mumkin:

1. Oila muhiti - ba'zi oilalarda ota-onan o'z agressiyasini o'z juftiga yoki farzandlariga namoyon qiladi. Bu psixologik jihatdan katta xato hisoblanadi, chunki bunday xatti-harakat bolada agressiv xulqning shakllanishiga olib keladi.

2. Ijtimoiy muhit - ayrim kishilar o'z agressiyasini oiladan tashqarida - o'z tengqurlari, hamkasblari b lan bo'lgan munosabatlarda namoyon qilishga harakat qiladilar. Bu ham o'ziga yarasha muammolami keltirib chiqarishi mumkin, ya ni agressiv shaxsni o'sha guruhdagilar orasidan siqib chiqarilishi o'sha shaxs uchun yolg'izlanib qolish hissini keltirib chiqaradi. Bu esa muammo ustiga muammo tug'dirmasdan qolmaydi.

3. Ommaviy axborot vositalari - bugungi kunda aksariyat kishil—r o'z agrcssiyalarini kompyuter va uyali telefon vositalaridagi o'yinlar orqali bartaraf etishga urunayotganligi haqidagi

fikr keyingi paytlarda ko‘pchilik tomonidan e’tirof etilmoqda. Bu ham o‘ziga xos muammoni yuzaga keltirmoqda, ya’ni bunday kishilar aksariyat hollarda agressiv o‘yinlar bilan mashg’ul bolishadi va bunday o‘yinlar ularda agressiv hulq-atvomi yanada kuchaytiradi.

### **15.7. Agressiyani bartaraf etuvchi mashq va o‘yinlar**

Agressiyani bartaraf etishni maqsad qilgan trening mashg’ulotlari asosan shaxsda frustratsion tolerantlikni shakllantirishga yo‘nalgan boladi. Chunki, mutaxassislaming fikriga ko‘ra, frustratsiyalar sonining ko‘pligi va ahamiyatlilik darajasi insonda agressiyani chaqiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shuni hisobga olgan holda quyida shu yo‘nalishdagi mashqlar turkumi beriladi.

#### **«Xavfli yo‘l» mashqi**

**Mashq maqsadi:** jamoada bir-biriga nisbatan o‘zaro yordam va o‘zaro qo‘tUli quvvatlashni mustahkamlashdan iborat.

Guruh ishtirokchilari bir-birlariga orqama-orqa holda yelkalatl blr blrlga teglli turadi. Psixolog bo‘r bilan chiziq chizadi va shunday deydi: «Bu chlzlq ko‘p qavatll uyning balkonidagi chegara chiziq. Guruhdagi biror kishi o‘z xohlshlga ko‘ra, pasgga tushib ketmasdan chiziq bo‘ylab o‘tishi zarur. Guruhning vazifasl esa unga yordamlashishdir. Qisqa gaplashishlar va jismoniy turdagи turli qo‘llab-quvvatlashlarga ruxsat etiladi, bu jarayonda eng muhimi balkondan tushib ketmaslik.

Bu o‘yinni bajargandan so‘ng ishtirokchilar o‘z taassurotlari haqida fikr almashadilar. Bunda ayniqsa, chiziqdan o‘tgan ishtirokchi yo‘lning qaysi qismida qo‘llab-quvvatlashni sezdi, qaerda o‘yinning qoidalarini bajarishi kiyin bo‘ldi, nima uchun? kabi holatlar muhokama etiladi. Guruh ishtirokchilari nima uchun bir gal qollab-quvvatlash muvaffaqiyatli chiqqani, boshqa gal esa samarasiz bo‘lganligi haqida fikr almashadilar.

#### **Navbatsiz xaridor” mashqi**

**Mashq maqsadi:** guruh a’zolarida tolerant xulq-atvomi rivojlantirishdan iborat. **Mashqning borishi:** Yetti kishi do‘konda navbatga turgandek ketma-ket turib olishadi, sakkizinch kishi esa do‘konga navbatsiz keladi. Uning maqsadi do‘kondan navbatsiz xarid qilish. Shu maqsadiga erishish uchun u har bir ishtirokchi bilan gaplashadi. Navbatda turganlar uning xarid qilishiga qarshilik bildirishlari va o‘z agressiv xulqlarini namoyon etishlari zarur. Asosiy ishtirokchi esa ularga o‘zining xushmuomalaligi bilan tolerant munosabatni targ‘ib etishi va o‘z maqsadiga erishishi lozim.

Bu vaziyat o‘ynalayotganda guruhning boshqa a’zolari kuzatuvchi boiadilar. Keyin umumiy muhokama o‘tkaziladi, o‘yining har bir daqiqasi tahlil qilinadi. Navbatda turganlardan kim navbatsiz odamni o‘tkazib yubordi, kim o‘tishiga yo‘l qo‘ymadi, qanday vositalar qoilanildi (masalan, iltimos qilish, yalinish va hokazo) kabi masalalar muhokama qilinadi.

#### **«Akvarium» mashqi**

**Mashq maqsadi:** hayotiy jarayonlarda yuz beradigan va agressiyani chaqiruvchi vaziyatlarga nisbatan munosabat bildirishning maxsuldar individual uslub va vositalarini izlash.

Guruh teng ikkiga boinadi. Ulaming birinchisi aylana markazida joylashadi, ikkinchisi esa ulaming atrofida. Xuddi shunday holatda ikkita - ichki va tashqi aylana hosil b - ‘ladi. Aylananing ichkarisida joylashgan ishtirokchilar trenerdan munozara uchun ma’lum bir mavzuni oladilar. Masalan, pedagogik hayotdan olingan va ishtirokchilar uchun dolzarb boigan mavzular berilishi mumkin: «Litsey yoki kollej o‘quvchisi darsni buzishga harakat qilyapti», «Auditoriyada tartib saqlash qiyin», «Bolalar ketma-ket seminar darsiga tayyorlanmasdan kelishyapti» va hokozo. Mavzu «Bu yerda va xozir» printsipi byicha muxokama ilinadi. Bunda fakat aylana ichidan ishtirokchilar muxokamada ishtirok ladi. Aylana tashkarisida girdan ishtirokchilaming vazifasi hech narsa demay, ikki aylanada tirkun bir kishini kuzatishdan iborat. Ularkuzatish ob‘ekti o‘zini qanday tutishi, qanday kommunikativ vositalardan foydalanishi, muloqat bo‘yicha shcriklariui qo‘llab - quvvatlashlari faollgi va sus-ligi, peshqadamlilikka intilishini kuzatib, ta‘kidlaydilar.

Taxminan, 15-20 daqiqadan so‘ng ishtirokchilar o‘rinlarini almashtiradilar. Psixolog yangi mavzuni tavsiya etishi yoki qiziqarli va mazmunli bahs yuzaga kelgan bo‘lsa shu mavzuni davom

yettirishi mumkin.

Umumiy muokamada barcha ishtirokchilar aylana blib tiradi va ishtirokchilar xulk- atvorining turli shakllarini taxlil kiladilar, maxsuldor kommunikativ vositalami ajratib krsatadilar.

### **Atmosfera mashi**

**Mash maqsadi** - kommunikativ vositalarni rivoj-antirish sinfda yemodionat iliqlik va ijobiy muitni shakllantirish. Guruh ishgirokchilar o'tirg'ichlarga qulay joylashadi, ko llarini erkin tytadi va ko'zlarini berkitadilar. Psixolog sokin va pastro ovozda shunday deydi. «Hozir siz bilan yaqin orada bo'lgan yoqimli voqeani eslang».

Siz nimani his qilyapsiz? O'zingizda bu voqeа-hodisadagi xissiyotlaringizni aniqroq namoyon qiling: quvonchmi, konikish.

Hozir o'zingizni ichki quvonch holatingizni saqlashga harakat qiling va men hozir so'zma-so'z tasvirlaydigan har bir kartinkani ijobiy hissiyotlar bilan to'ldiring.

Siz sinfga kirasisz: o'zingizda tetiklik va ishonch hosi! qilasiz. Sinfga kirib, bolalar bilan so'rashgach, ularga kulib qarang, ichki shunday holat topingki, bu holag katiqqa'llik va muloyimlik o'rtasida bo'lsin. Siz o'zingizning stolingiz yoniga kelasiz, qaysi holatni o'zingizga tuyyapsiz. Tasavvur qiling, siz o'zingiz uchun qulay holatgda tirib darsni boshlaysiz. Endi esa o'zingizni tasavvuringizda bo'shashib, yuring, ulay yurishning tezligini topishga harakat iling, juda tez va juda sekin bo'lmasin. O'zingizda ichki temperamentni topishga harakat qilingki, u sizni sinf oldida mohir pedagogligingizni, obro'yingizni, o'zingizga ishonchingizni namoyon qilsin. Qanday yurayotganingizni tasavvur iling? Qo'llaringiz orqadami yoki qo llaringizni qovishtirilgan holda turibsizmi? O'zingiza shunday qulay joyni tanlangki, bu sizda erkinlik va Ishonch uyg'otsin.

Yodingizda saqlang, siz taniagan holat sizni harakatlaringizga va muomala usullaringizga mos tushadimi hamda o'zingizni yaxshi his kilishingizga va sinfda qulay ijodiy muhitni hosil qilishga sharoit yaratadi.

Bu mashqni bajargandan so'ng isbtirokchilar bilan psixotexnik tajribalari haqida guruhiy bahs-munozara o'tkaziladi, ularning har bin o'ziga qanday qilib xulq- atvoming qulay shaklini topganligi haqida suhbatlashish lozim.

## **XV BOB BO'YICHA TOPSHIRIQLAR**

### **Nazorat savollari:**

1. Nizo tushunchasiga izoh bering.
2. Nizoning tuzilishi qanday elementlardan iborat?
3. Nizoning fanday turlari mavjud?
4. Nizoli vaziyat nima va uning tuzilishi qanaqa?
5. Agressiya nima?
6. Agressiv xulq-atvor haqidagi fikr-mulohazalar qaysi asrdan boshlab o'rganila boshlandi?
7. Dj .Dollard tomonidan birinchi marta ilgari surilgan nazariyani izohlab bering
8. E.Banduraning sotsial o'rganish nazariyasi haqida nimalar bilasiz?
9. Agressiv xulq-atvoming shakllanishida ijtimoiy muhitning roli qanday?

### **Mustaqil ish mavzulari**

1. D. Mayersning "Sotsialnaya psixologiya" kitobidan «Konflikt» (632 — 651 betlar) va «Yarashish» bo'limini (652-67 lbetlar) o'qing.
2. Dj.Dollardning aggressiyaning frustrasion nazariyasining mohiyati.
3. Agressiyani tushuntirishda psixoanalitik yondashuv va Z.Freydning tadqiqot ishlari.
4. Agressiya borasida O'rta Osyo mutafakkirlarining qarashlari
5. Televideniening aggressiv xulqga ta'siri

### **Test savollari:**

1. "Inson va hayvonlarda aggressiyaning tug'ma instinkti mavjud bo'ladi" degan qarash mualliflarini aniqlang.
  - a) U.Makdaugoll, Z.Freyd, G.Marrey
  - b) Z.Freyd, G.Marrey
  - c) I.S.Kon va Kupershmidt

d) L.Berkovis va K.Lorens

2. L.Berkovichning ijtimoiy bilish nazariyasiga ko'ra,

a) Maqsadga yo'naltirilgan faoliyat davomida vujudga keladigan to'siq shaxsda agressiv xatti-harakatlami hosil qiladi

b) Inson va hayvonlarda agressiyaning tug'ma instinkti mavjud boidi

c) Agressivlik frustrasiyaning oqibatidir

d) Agressiya - kimgadir ziyon yetkazuvchi xul—atvoming har qanday ko'rinishidir

3. Agressiya ...

a) Inson va hayvonlarda agressiyaning tug'ma instinkti mavjud bo'ladi '

b) boshqa tirik jonzotga u bimi istamagan vaziyuldu huqoral yoki ziyon yetkazishni maqsad qilib qo'ygan fe'l-atvorning har qanday slutkli

c) maqsadga yo'naltirilgan fuoliyat duvomidi vujudga kaludlgan lii'nlq

d) maqsadga yo'naltirilgan faoliyat davomida vqiudga keladigan loilq iliamda agressiv xatti-harakatlami hosil qiladi

4. Bass tomonidan takiif etilgan agressiv hnarakatlarni uchta thkalaga asoslangan holda tasvirlash mumkin. Bular:

a) jismoni - verbal, aktiv - passiv va to'g'ri - egri

b) jism oniy, passiv va to 'g 'r i - e g r i

c) verbal, passiv va jismoni

d) jismoni - verbal, to'g'ri, egri

5. KXorens ta'llimotiga ko'ra:

a) maqsadga yo'naltirilgan faoliyat davomida vujudga keladigan to'siq shaxsda agressiv xatti-harakatlami hosil qiladi

b) agressiya insonlarga va boshqa tirik jonzotlarga xos bo'lgan hayot uchun kurash tug'ma instinktidan kelib chiqqan

c) boshqa tirik jonzotga u buni istamagan vaziyatda haqorat yoki ziyon yetkazishni maqsad qilib qo'ygan fe'l-atvorning har qanday shakli

d) maqsadga yo'naltirilgan faoliyat davomida vujudga keladigan to'siq

6. Qaysi nazariya tarafdorlari "agressivlik - individlarning mavjud resurlardan o'z hissasini olish vositasi bo'lib, o'z o'rnida bu resurslar tabiiy tanlashda (asosan genetik darajada) omad olib keladi" degan g'oyani ilgari surganlar?

a) Psixogenetik nazariya tarafdorlari

b) Etiologik nazariya tarafdorlari

c) Frustration nazariya tarafdorlari

d) Sotsiologik nazariya tarafdorlari

7. Quyida fanda "agressiyani chlqarib yuborish" fenomeni deb nom olgan holatni aniqlang.

a) agar shaxs o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishi ancha vaqtga cho zilib ketsa, bunday holat albatta agressiyani chaqiradi

b) shaxsnинг o'z oldiga qo'ygan maqsadi yo'lida uchragan to'siq yengib bo'lmash darajada bo'lsa yoki shaxs tomonidan shunday deb tushunilsa, agressiya vujudga keladi.

c) Agar frustrasiya qo'rquv yoki ikkilanish tufayli kelib chiqqan bo Isa, shaxs alamin (agressiyasini) ko'pincha boshqalardan oladi.

d) Ketma-ket frustasiyalar soni - agar maqsad yo'lida bir-to'siq ortidan ikkinchisi, lining ortidan uchinchisi va bu davomiylik davom etaveradi

8. Qaysi olimning fikriga ko'ra, kichkina qotillar "tartibsizlik, bir-birining his tuyg'ulariga befarqlik, jismoniy zo'ravonlik, bir-birini qo'mlamaslik va bir-birining taqdiri bilan qiziqmaslik hukm surgan oilalarda" ulg'ayadilar?

a) Mak-Kartining

b) U.Makdaugoll, Z.Freyd

c) Z.Freyd, G.Marrey

d) I.S.Kon va Kupershmidt

9. Dj.Pattersonning fikricha...

a) odatda kichkina qotillar tartibsizlik va sukonat hukm surgan, bir-birining bis-tuyg‘ulariga befarqlik, jismoniy zo'ravonlik, bir-birini qo'llamaslik va bir- birining taqdiri bilan qiziqmaslik hukm surgan oilalarda sodir boiadи

b) Agar frustrasiya qo‘rquv yoki ikkilanish tufayli kelib chiqqan bolsa, shaxs alamini (agressiyasini) ko‘pincha boshqalardan oladi

c) “aka-uka va opa-singillar ulaming hayotlarini buzuvchi jarayonda bir-biriga o‘qituvchidirlar” .

d) agressivlik - individlarning mavjud resurlardan o‘z hissasini olish vositasi bo lib, o z o mida bu resurslar tabiiy tanlashda (asosan genetik darajada) omad olib keladi

## XVI. TRENINGLARDA QO'LLANILADIGAN MASHQ VA O 'YINLAR

### 16.1.Treningda foydalanafigan tanishuv o'yinlari

#### “Intervyu”

**Ko‘rsatma:** ishtirokchilar trncr (omonidnn julUiklarn Im‘lih dilqlmli Juftliklarga bo‘linganlaridan so‘ng ular bir-birlaridun intervyu oliuliltir, I Inning udiim ularga 10-15 minut vaqt beriladi. Bu vaqt davomida ular Im-birluridun qimadty m a’lumotlarni so'rashlari lozimligi trener tomonidan tavsiyu clilgim savolliu in Ida b o 'h sh i ham yoki ishtirokchilaming o ‘z ixtiyoriga, istagiga huvvolu clilishi li/nn mumkin.

Sheriklar bir-birlari to‘g‘risida ma’lumot to’plab bo‘lganlaridan so‘ng bar bit juftlikni navbat bilan maxsus joyga taklif etiladi va har bir ishtirokchi o‘zining shergini guruh a’zolariga iloji boricha batafsilroq tarzda tanishtirishi lozim bo‘ladi.

#### “Qop yig‘imi” o‘yini

**Ko‘rsatma:** renerning k”rsatmasiga binoan uning o‘ng yoki chap tomonida turgan ishtirokchilardan bittasi o‘z ismini aytadi. Ikkinchisi esa birinchi ishtirokchihing va o‘zining ismini aytadi. Uchinchi ishtirokchi esa birinchi, ikkinchi ishtirokchining va o‘zining ismini aytadi. Shu tariqa oxirigacha davom etadi. Oxirgi ishtirokchi birinchi ishtirokchidan boshlab to guruh a’zolarining hammasini va o‘zining ismini aytadi.

Agarda ishtirokchilar bir-birlari bilan yaxshi tanish bo‘lsalar ularga boshqacharoq usul taklif etish mumkin. Bunda har bir ishtirokchi o‘ziga taxallus (gul, meva, badiiy qahramon, planetalar nomi kabi) o‘ylab topadi, keyin o‘sha taxallus bo‘yicha o‘zini tanishtiradi. Tkrorlash xuddi yuqorida kabi amalga oshiriladi.

#### “Eqimli ism”

**Ko‘rsatma:** guruh ishtirokchilari tanishuv bosqichida aylana shaklida o‘tirib bir boshdan o’zlarining ismlarini so‘ngra ulaming qanday atalishini, ya’ni o‘z ismini yoqtirgan shaklida aytishini aytadi.

#### “Salomlashish”

**Ko‘rsatma:** guruh a’zolari davra bo‘lib o‘tiradilar. Trener ularga 3 minut vaqt ichida kim ko‘proq odam bilan qo‘shqo’llab ko‘rishib chiqishini aytadi. Biror kishi bilan 2-3 marta ko‘rishish mumkinligi aytildi.

Bu mashq bajarilgandan keyin davrada turiladi va trener guruh a’zolariga savol beradi. “Qani diqqat bilan qarangchi, hamma bir-biri bilan salomlashib, ko‘rishib chiqdimi? Agarda kimda-kim biron kishi bilan, ko‘rishishni esidan chiqargan bo‘lsa, ko‘rishib olishi mumkin”. Bu mashq ishtirokchilaming ishchanlik samaradorligini oshiradi va guruh a’zolari o’rtasida taranglikni yumshatadi.

#### “Ismlar - fazilatlar”

**Ko‘rsatma:** Har bir-ishtirokchi ismini aytadi, so‘ng ismining birinchi harfi bilan boshlanadigan ijobiy sifatlardan birini aytadi, masalan, Rashid — rostgo‘ylik, Murod — mardlik, Gulbahor - go‘zallik, Dildora - donolik kabi.

#### “Olma”

**Ko'rsatma:** Qatnashchilar "avra" qurib o'tiradilar. Trener "Mening ismim... Men ...ni yaxsh" ko'raman (xohlagan narsa yoki kishini aytishi mumkin)", - deydi va olma (koptok)ni bi"on kishiga qarab otadi. Olma (koptok)ni ilib olgan ishtirokchi ham o'z navbatida o'zini shunday tanishtiradi va koptokni boshqa ishtirokchiga uzatadi. O 'yin barcha ishtirokchilar o'zlarini tanishtirib bo'Tgunlariga qadar davom etadi.

Ishtirokchilar tanishtirish jarayonida aytilishi mumkin bo'Tgan jumlalar: Men ... yaxshi ko'raman (kishini ismi xam bo'hshi mumkin).

Bolaligimda yaxshi ko'rgan ovqatim ... (kasha) edi.

Men yoqtiradigan rang (gul yoki meva) -...

#### **"Mening sifatlarim"**

**Ko'rsatma:** Hozir har bir ishtirokchi o'zining ismini va o'zining bitta ijobiy, bitta salbiy xususiyatini aytadi. Keyingi ishtirokchi a w a l o 'zid an oldingi 2 ta ishtirokchining ismi va uning xususiyatlarini aytadi. "Ismlar tarixi" Ko'rsatma: Har bir ishtirokchi ismini aytadi, so'ng bu ismni kim qo'yanligi, nima uchun aynan shu ismni qo'yanligi, uning ma'nosini nimaligini aytib chiqadi.

#### **«Koptokcha».**

**Ko'rsatma:** Guruh a'zolaridan biri o'z ismini va o'zining xobbisini aytib, koptokchani gunth a'zolaridan biriga otadi. Koptokchini ilib olgan ishtirokchi hum o'z ismi va xobbisini aytib yana biror kishiga koptokchani otadi. O'yin shu Inr/da butun guruh a'zolari o'z xobbisini aytib chiqqunlaricha davom ctiriladi, O'yin oxirida qanday hislar paydo bo'lganligi muhokama qilinadi. "Mening tug'ulgan kunim" Ko'rsatma: Guruh a'zolari treneming o'ng tomonidan boshlab o'zining ismini, tug'ulgan kunini va tug'ulgan kunida qanday sovg'a olishni istashini aytib chiqadi.

#### **"Diqqat markazida"**

**Ko'rsatma :** Guruh a 'zolari aylana bo Tib o'tirishadi. Har bir ishtirokchi navbat bilan doira markazidagi stulga kelib o'tiradi va atrofdagilar u haqda qanday ma'lumotni bilmoxchi bo'lishiga qarab savollar beradilar. Har bir kishiga 5tadan ortiq savol berilmasligi lozim, mashg'ulotning vaqtiga qarab savollar sonini qisqartirish ham mumkin.

Mashg'ulot so'ngida har bir ishtirokchidan nimani his qilganligi so'raladi.

#### **"Men hech qachon ...maganmian"**

**Ko'rsatma:** ishtirokchilar navbatma-navbat "Men hech qachon ...maganman" de"an jumladan iborat gap aysi"hlari lozim (masalan, "Men hech qachon parashyutdan sa"ramaganman", "Men hech qachon dengizda cho"mi"maganman", "Men hech qachon sigaret chek"ag"nman" va h.k.). Qolgan ishtirokchila" esa, aytilayotgan gaplar, agar ular uchun noto'g'ri (bu ishni qilgan) boiishsa, barmoqlarini bukib boradilar. Masalan, biror ishtirokchi parashyutdan sakragan bo'lsa, bitta barmog'ini bukadi, keyingi ishtirokchi tomonidan aytilgan gap ham uning uchun noto'g'ri bo'Tsa (ya'ni u dengizda cho'milgan bo'Tsa) yana bitta barmog'ini bukadi va h.k.

Trener ishtirokchilami oldindan aytilayotgan gaplar hayotiy bo'lishi lozimligi va barmoqlami adolatli bukish lozimligi haqida ogohlantirishi kerak. Jins xususiyatlarini e'tiborga olmasdan gap aytgan ishtirokchi yutqazadi. Bir xil hayot tarziga ega bo'lgan odam (bukilmagan barmoqlari qancha ko'p bo'Isa) yutadi, aksincha boy hayotiy tajribaga ega bo'lgan odam (barcha barmoqlari bukilgan) yutqizadi. O'yin shu tarzda barcha ishtirokchilar bittadan gap aytgunlaricha davom ettiriladi.

## **16.2. Ishtirokchilarning kayfiyatini ko'taruvchi o'yinlar**

#### **«Mevali salat».**

**Ko'rsatma:** guruh ishtirokchilari aylana bo'lib o'tirib olishadi va ularga to'rt xal meva nomi ketma-ketlikda aytildi. Har bir o'rtadagi boshlovchi turli xil mevani nomini aytganda o'sha meva nomi ostidagi ishtirokchilar (olma, anor, banan, shafkoli) ishtirokchilar o'midan turib o'rinn almashtirishadi. O 'rtada qolib ketgan ishtirokchi boshlovchi rolini amalga oshiradi va u mevalar nomini aytadi, shu tariqa har bir meva nomi aytiganda ishtirokchilar o'rinn almashtirishadi. Har bir ishtirokchidan nimani his qilganligi so'raladi.

#### **«Uy, zilzila, odam».**

**K o 'r s a t m a :** guruh ishtirokchilari uchtadan b o 'lib ajralib olishadi. Ikkita ishtirokchi

qo'lini ko'tarib uycha yasaydi, uchinchi ishtirokchi shu uychaga kirib

yashovchi rolini bajaradi. Trener "odam" deganda har bitta uydagi yashovchi ishtirokchi o'z uyini almashtiradi. Trener "uy" deganda uy boTgan ishtirokchilar boshqa ishtirokchilar bilan birlashib boshqa uycha yasaydi. Trener "zilzila" deganda yashovchilar ham, uylar ham buziladi va boshqatdan yashovchi va uy boTib quriladi.

Har bir ishtirokchidan nimani his qilganligi so'raladi.

#### «Karikatura».

**Ko'rsatma:** Guruh a'zolari 2 yoki 3 guruhga bo'linadi. Har bir guruh 7-10 minut ichida o'z ishtirokchilari bilan xayolan ma'lum bir narsa (uy kitob, fil, daraxt)ning karikaturasiga o'xshatib shaklga kirishi lozim. Qolgan guruhlar ulaming nimaga o'xshashini topishlari lozim.

#### «Stulsiz»

**Ko'rsatma:** guruh a zolari aylana bo'lib o'tirishadi, boshlovchining stul olib qo'yiladi va u o'rtada turadi. U nima qilib ho'lsa ham odamlarni turg'azib, o'shalardan birini o'rniga o'tishi kerak. Bunda boshlovchi ishtirokchilarni fiziologik belgilari, tashqi ko'rinishi, kiyim kechagiga qara joy almashishlarinin taklif etadi. O'zi esa b o'sh stullardan biriga o'tirib oladi.

O'rtada stulsiz qolgan ishtirokchi ham xuddi shu usul orqali boshqalarni almashishga undaydi va o'zi o'tirib oladi. Qarab odamlarni to'rg'azish mumkin Har bir ishtirokchidan nimani his qilganligi so'raladi. "Qaerga, qaerga"

Ko'rsatma: guruh a'zolarining "ar biri raqam bilan nomlanadi. Ishtirokchilar o'z raqamlarini eslab qolishlari kerak. Shundan so'ng ular aralashib ketishadi. Boshlovchi o'rtada turib ikkita sonni aytadi. Shu raqamlar bilan nomlangan ishtirokchilar "qaerga, qaerga" deb bir-birlari "mg o'rinlarig" o'tib olishlari zarur. Boshlovchi ham bu orada ochiq qolgan joyni egallashga urinadi. Joysiz qolgan ishtirokchi o'yinni davom ettiradi.

Har bir ishtirokchidan nimani his qilganligi so'raladi.

#### «O'ziga xos o'tirish»

**Ko'rsatma:** Har bir ishtirokchi birin-ketin o'zi uchun qulay boTgan o'tirishni ko'rsatadi, qolganlar esa uni takrorlaydilar.

Ishtirokchilar bilan har bir o'tirishning qulay va noqulaylik jihatlari muhokama etiladi.

#### Hayvonot olami

**Ko'rsatma:** ishtirokchilar doira bo'lib turishadi, ular hayvonlaming nomi yozilgan kartochkalarni tanlashadi. 18 kishidan iborat guruh uchun 6 ta hayvonning nomi yetarli. Bir xildagi hayvonlaming nomi qog'ozga sonlar bilan yozilib, ularga shulardan birini olish taklif etiladi.

Ishtirokchilar ma'lum bir hayvoniami tanlab boiganlaridan so'ng ko'zlarini yumib, atrofda aylanib yuradilar va o'zları mansub bo'lgan turdag'i sheriklarini izlaydilar. Bunda hamma o'ziga xos ovoz bilan bir-birini chorlashi kerak (masalan, "ba-a-ba-a", "myov-myov", "vov-v" va h.k"). "Ikkita bi" xil "hayvon" bir-birini topib olsa, "lar qo'llarini mahkam ushlagancha keyingi sheringini izlashga tusha omplia barcha sheringini topib, toki alohida guruhlar tuzilmaguncha davom etaveradi.

#### Missis Mamblili

**Ko'rsatma:** guruh a'zolari aylana bo'lib o'tirishadi, treneming yonidagi ishtirokchi o'zining o'ng tomonidagi ishtirokchiga quyidagi savolni beradi: «Kechirasiz, Siz missis Mamblining yo'qolgan mushugini ko'rmadingizmi?». Savol berilgan ishtirokchi quyidagicha javob berishi kerak: «Yo'q, ko'rmadim, lekin qo'shnimdan so'rab berishim mumkin». Savol-javob shu tarzda davom etadi. Bu o'yinda yagona shart gapirayotganda tishlami ko'rsatish mumkin emas, aynan shu holat o'yining quvnoqligini ta'minlaydi va ishtirokchilarga xush kayfiyat bag'ishlaydi.

### 16.3. Ishtirokchilarni ahilashtiruvchi o'yinlar

#### "Botqoqlik"

**Ko'rsatma:** Trener to "onidan ka" tondan yasalgan o'rtacha kattalikda 9 ta "likopcha" yerga yoyib qo'yiladi. Guruh a'zolari qator boiib, birin-ketin "likopcha" larga oyoq qo'yib botq "qlikdan" "ta boshlaydilar, atrofda esa (ikkinci guruh a'zolari) qaroqchi timsohlar yuradi, Timsohlar "likopcha" lami olib qo'yishga shay turadilar, maqsad har bir gumh a'zosi "likopcha" lardan oyoq uzmasligi, hech bo'lmaganda bir oyoqning uchi bilan ulami bosib turishi kerak. Agar gumh a'zolari

ittifoq boiib harakat qilsalar, magiubiyatsiz botqoqlikdan o‘tadilar, bironata likopchani timsohlarga bermaydilar.

Ishtirokchilardan nimani his qilganligi soialadi.

### **“G‘aram, tepalik, so‘qmoq”**

**Ko‘rsatma:** ishtirokchilar 6-10 kishiiik gumhga boiinadilar. Har bir gumh a ’zolari bir-birlarining q o ila rid a n ushlab, davra quradilar. O ‘yin ishtirokchilarning o‘ng tomonga qarab aylanishi bilan boshlanadi. Boshlovchi tomonidan "So‘qmoq" deyilganda ishtirokchi“ar bir ”ator boiib o‘tirib olishlari kerak. “G‘aram” deyilganda har bir gumh 2 kic”ik gumhga boiinadi va bir-biriga yuzma-yuz boiib, qoilarini birlashtirib yuqoriga ko’taradilar. "Tepalik" deyilganda esa, ishtir“kchilar”yana bir qator boiadilar, biroq bunda gumhdagi bir ishtirokchi tursa, ikkinchisi o‘tirib oladi, natijada tepaliklar ko’rinishini aks ettiradilar.

Vazifani boshqalardan oldin va yaxshi bajargan gumhga 1 ball beriladi. Shunday qilib eng ko‘p ball jamg‘argan guruh g’olib deb topiladi.

### **“Qayta tuzilish”**

**Ko‘rsatma:** isht“rokchilar 2 gu”uhga boiinadilar va treneming ishorasi bilan turli belgilarga ko‘ra tezroq safga tizilishga harakat qiladilar (masalan, oyoq kiyimining oichami, tugilgan kuni va h.k.lar hisobiga olinishi mumkin).

### **“Ishonch paravozi”**

**Ko‘rsatma:** is”tirokchilar bir ”atorga tizilishadi. Birinchi ishtirokchidan tashqari guruh a’zolarining hammasi ko‘zlarini yumishadi va bir-birlarining belidan ushlab olishadi. Birinchi ishtirokchining vazifasi — ”paravoz”ni xona bo ‘ y lab to siql’T (yoi”ar) orasidan olib yurish, qolganlar esa oldindagi ishtirokchining harakatlariga mos ravishda to’siqlar orasidan urinmay-surinmay itishlari darkor.

### **“Yomg‘ir”**

**Ko‘rsatma:** ishtirokchi”ar ayla”a koiinishida turib olishadi Bunda juml hukm surishi kerak. Trener ularga “Hozir siz yomg‘ir tovushini eshitasiz, lekin buning uchun mening harakatlarimni takrorlappingiz kerak”, - deydi. Boshlovchi o‘rtada t’rib har bir ishtirokchining oldiga keladi va uning ko‘ziga qarab, muayyan harakatlami bajarib ko‘rsatadi. Har bir ishtirokchi toki boshlovchi butun davrani aylanib kelib boshqa harakatni ko‘rsatmagunicha shu harakatni bajarib turishi zarur.

Harakatlar:

- Kaftlamli bir-biriga ishqalash;
- Bannoqlami qirsillatish;
- Tizzalamli shapatilash;
- Tizzalamli shapatilab, oyoqlami do‘pillatish;
- Tizzalamli shapatilash;
- Barmoqlami qirsillatish.

### **“Ko‘rinmas sovg‘a”**

**Ko‘rsatma:** is”tirokchilar davr” qurib olishadi. Boshlovchi qoTida narsani yasash mumkin boTgan ko‘rinmas loy borligini va ishtirokchilar undan sovg‘a yasab, o‘ng tomonidagi ishtirokchiga uzatishlari lozimligini aytadi. Sovg‘a yasaladi va qabul qilib olingach, yana boshqatdan sqvg‘a yasalib, navbatdagi ishtirokchiga taqdim etiladi. Shu tariqa barcha "sovg‘a" olmagunicha bu harakatl“r takr”rlanadi. Olyin oxirida kimning nima sovg‘a qilgani va sababi so‘raladi.

### **“Yashirin lider”**

**Ko‘rsatma:** guru” a’zolaridan b”ri xonadan chiqib turadi. Qolganlardan birini "lider" sifatida tanlashadi. Qol“an is”tirokchilaming vazifasi: lider muayyan harakatlami bajarganda ular ham bu harakatlami takrorlashi kerak. Xonadan chiqarib yuborilgan ishtirokchini xonaga taklif qiladilar, uning vazifasi: "lider" kimligini aniqlashi kera”. Aga” to‘g‘ri topsa, lider bilan o‘rin almashadi.

### **“Sakrash”**

**Ko‘rsatma:** gumh ishtirokchilari yuzlarini bir tomonga o‘girgan holda bir qator turadilar. Trener "bir, ikki, uch" deb sanashi aso“ida, har "uch""deyilganda ular quyidagich“ ho”atlarda sakrashingiz mumkin:

1. Joyida turgan holda.
2. Sakrab o'ng tomonga o'girilish.
3. Sakrab chap tomonga o'girilish.

Topshiriqni bir-biri bilan gaplashmasdan, jimlikda bajarish lozim. Mashq hamma ishtirokchilar bir tomonga qarab turmagunlaricha davom etaveradi. Mashqni bajarishda o'zaro ko'rsatmalar berilmasligiga, ayrim ishtirokchilaming kelishib olmasliklariga va bir ishtirokchining buyrug'i bilan biror tomonni tanlamaslikka e tibor berish kerak. Mashq gumhni jipslashtiradi, kayfiyatni ko'taradi, qizg'inlikni, tanglikni yumshatadi. Shuningdek, guruh qatnashchilarining birgalikdagi faoliyatda kelishib olishlariga va umumiy qarorga kelishlariga imkon beradi.

O yin oxirida guruhga beriladigan savollar: "Gumhning oldiga qo'yan vazifa"i bajarishda nima yordam berdi?", "Vazifani tezroq bajarishga n'ma"xalaqit berdi?", "Vazifani tezroq bajarishga ri'ma"ar yordam bcrishi mumkin edi?" va h.k.

#### **"Ikki qo'llab ku'rishish"**

**Ko'rsatma:** ishtirokchilarning hammasi doira shaklda o'tirishadi. Qollar bir biriga birlashtirilgan bo'ladi. Ishtirokchilar trening ko'rsatmasi bilan birvarakayiga xohlagan tomonidagi (chap yoki o'ng yonidagi) kishiga salomlashish uclurn qo'sh qo'llab qo'l uzatadi. Unisi esa qo'llarini yonidagisiga uzatishi mumkin va birinchi ishtirokchiga navbat yetgunicha shu holda davom etadi. Shuniday qilib bir nechta mos kelmaslik holati kuzatilishi tabiiy.

Taassurotlami o'rtoqlashish ijobiy natija beradi.

#### **"Barmoq tashlash"**

**Ko'rsatma:** ishtirokchilar doira shaklida o'tiradilar. Trener "bir, ikki, uch" deb sanaganida "amma tezlik bi"an, bir vaqtning o'zida bir-biri bilan kelishmasdan, gaplashmasdan, xohlagan miqdorda barmoqlarini tashlaydi. Mashq hamma bir xilda barmoq tashlamaguncha davom etaveradi. Davraning hamma ishtirokchilar bir xildagi barmoqlar sonini tashlaganda mashq tugagan hisoblanadi.

Mashqlar turlicha o'tishi mumkin. Ba'zan gumhga vazifa yechilmaguncha o'ttiz martagacha takrorlash talab qilinadi, ba'zan to'rt-besh marta yetarli bo'adi. Har qanday holatda ham, mashq muhokama qilish uchun boy ma'lumotlar beradi.

#### **"Rangli kaftlar".**

**Ko'rsatma:** Trener uch xil (qizil, sariq va ko'k) "rangli kaff'lar yasab, ulami ishtirokchilarga ko'rsatadi va ulaming har biriga mos ko'rish (salomlashish) harakatlami o'zaro aniqlashtirib oladi. Har bir kaft ko'rsatilganda ishtirokchilar bir- birlari bilan unga mos tarzda ko'rishishlari kerak. Masalan: qizil kaft - qo'llami siqib, sariq kaft - -rqaga qoqib, ko'k kaft - oyoq-ami bilan.

#### **"Quvlashmachoq"**

**Ko'rsatma:** Bu mashq noananaviy tarzda o'tadi. Quvlashmachoq o'yinini odatiy tarzda emas balki ishtirokchilar bir-birlarini quvlashganlarida boshlovchi berayotgan kmrsatmaga amal qilishlari kerak bo'ladi. Ya'ni boshlovchi "bir-- biringizni qulqlaringizni tuting, bir-biringizni barmoqlaringizdan yoki oyoqlaringizni tuting" degan kmrsatmani berishi mumkin.

#### **"Ranglar olami"**

**Ko'rsatma:** Boshlovchi "Xozir sizlarga kartochkalar tarqatiladi. Bu kartochkalarda ranglar yozilgan va bu ranglar ikkitadan ya'ni agar sizga "qizil" rang tushgan bois bo'lingki shu rang yana bitta boshqa ishtirokchida ham bor. Qolizdag'i kartochkalami hech kimga ko'rsatmang. Men sizlarga meva va sabzavotning nomlarini aytib o'taman, kimda kimning rangi aytilgan meva - sabzavotning rangiga mos kelsa o'mida turish kerak bo'ladi. Agar men biror bir predmetning nomini aytam o'mingizdan" turmasligingiz kerak.

O'yin davomida boshqa ishtirokchilaming harakatini kuzatib borishga va ularga qays: rang tushganini topishga harakat qiling. Mashq oxirida trener bir xil rang tushgan ishtirokchilami gapirmasdan xech qanday ishorasiz birlashishlarini suraydi va hamma birlashib bo'lgandan so'ng guruhchalardan kimga qanday rang tushgani so'raladi.

#### **"Razvedkachi"**

**Ko'rsatma:** Boshlovchi "Orangizdan bir kishini xonadan chiqib turishini surayman. Bu orada

qolgan ishtirokchilar umumiy belgi (Masalan, sochlaming rangi yoki uzunligiga qarab) ostida ikki guruhga bo'linishingiz kerak. Lekin tanlagan umumiy belgimizni xonadan chiqib turgan "razvedkachimiz" bilmasligi kerak". "Razvedkachi" xonaga kirgandan so'ng ishtirokchilami ikkiga ajratgan belgini lopishi kerak. Topgandan so'ng boshqa ishtirokchi xonadan chiqib turadi, o'yin shu lariqa davom etadi. O'yin oxirida uchragan qiyinchiliklar xaqida so'ridi.

#### **"Tashabbuschini top"**

**Ko'rsatma :** Ishtirokchilar aylana shaklida o'tirishadi. Boshlovchi "Hozir kimdir xonadan chiqib turishi kerak bo'ladi. Endi esa oramizdan tashabbuschini (boshlab beruvchi) saylaymiz. Xonadan chiqib turgan ishtirokchi tashabbuskor kimligini bilmasligi kerak.

Tashabbuskoming vazifasi biror xarakatlar ketma - ketligini bajarishi kerak", qolganlar esa uning xarakatlarini bajarishlari lozim.

Mashq qoidasi shundan iboratki ishtirokchilar xonadan chiqib turgan kishiga tashabbuskomi ko'z qarashlari bilan bildirb qo'ymasligi kerak bo'ladi. Xonadan chiqib turgan ishtirokchi diqqat bilan qolganlami kuzatib tashabbuschini aniqlashi kerak" mashqni boshqalar ham xoxishiga qarab ishtirok etishlari mumkin.

#### **«Bil” mashqi.**

**Ko'rsatma.** Gurux ishtirokchilaridan ixtiyoriy bittasi tashqariga chiqariladi. Qolgan gurux ishtirokchilari esa doira bo'lib, stul yoki kreslolarda o'tirishadi. Topuvchi ko'zi bog'liq xolda doira ichiga kiradi. U o'tirganlami qo'l bilan ushlab ko'rishi mumkin emas. Stulda o'tirgan odam "bil" deydi iloji boricha ushlab ko'rish mumkin emas hamda boshqacharoq ovozda bo'lishi kerak.

Topuvchi kishi ishtirokchini ovozini tanisa, o'sha topilgan ishtirokchini o'zi topuvchi bo'ladi.

#### **"Chigilni yechish”**

**Ko'rsatma :** qatnashchilar doira shaklida turadilar. Ishtirokchilar bir-birlariga yaqinroq turib oladilar, kichikroq doira hosil qilib, hamma qo'llarmi doira o'ttasiga cho'zamiz. Treneming ishorasi bilan hamma bir vaqtda bir-birining qo'llarini ushlaydi, Bunda yonidagi kishining qo'ini emas, keyingi odamning qo'ini ushlashga harakat qilish kerak. Bir ishtirokchi bir qoii bilan bir ishtirokchining, ikkinchi qoii bilan esa ikkinchi ishtirokchining qo'ini ushlashi lozim. Trener barcha qo'Tlar bir- birini ushslashganiga ishonch hosil qilganidan so'ng, guruh qatnashchilariga qoilarini qo'yib yubormay, mashqni boshlash, ya'ni "chigalni yozishni" taklif qilad“.

Mashq bajarish" davomida, guruhda mashqni yechish qiyinligi yoki mumkinmasligi to'g'risida turli fikrlar tutiladi. Bunday paytda trener xotirjamlik bilan, bu hal qilinishi mumkin bo'Tgan vazifa ekanligini, chigal yechilishi mumkinligini ta'kidlashi kerak. Mashq uch variantning biror ko'rinishida ijro etilishi mumkin: Guruhning barcha qatnashilarini bir doira ichida turadilar. Bu paytda kimdir orqasiga, yana kimdir yoniga qarab turishi mumkin, asosiyasi doira holati saqlanib qolishi kerak.

Agar guruh katta bo'lsa, unda ikki yoki undan ortiq mustaqil doiralar tashkil qilinishi mumkin.

Guruh qatnashchilar zanjir bo'lib, bir-birlariga bog'lanib doira hosil qiladilar. Bu mashqni bajarish uchun guruh qatnashchilariga vaqtini 3-5 minutdan 20 minutgacha belgilash mumkin. Ba'zan guruhlar zanjimi yechishdan bosh tortishlari mumkin.

Mashq yakunlangandan sung, guruhga quyidagicha savollar bilan murojaat qilinadi: "Mashqni bajarishga nima yordam "erdi?", "Mashqni tezroq bajarish uchu" y"na nima qilsa bo'Tardi?", "Bu mashqni tezroq bajarish u"hu" nima xalaqit berdi?".

Odatda ishtirokchilar, o'yin"muxokamasida shunday fikrga keladilar: "bunday mashqni muvaffaqiyatli ha'l etish uchun hamkorlik, bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo'lish, barcha o'zini erkin his etishi, barcha kishini fikrlarini inobatga olish va mashq jarayonini diqqat bilan kuzatib borish kerak ekan". Bu mashq guruhni biriktirishg", shuningdek og'ir kechgan kunni maroqli yakunlash imkonini beradi. Mashqni ehtiyyotkorlik bilan bajarish talab qilinadi, chunki u ishtirokchilar orasida jismoniy bog'lanishni taqozo etadi. Agar trener o'yin davomida biror qatnashchining toliqkanini sezsa, uni o'yindan ozod qilishi mumkin.

#### **"O'tirib turish”**

**Ko'rsatma:** ishtirokchilar doira shaklida o'tiradilar. Trener ularga quyidagicha ko'rsatma

beradi: "Men sizlarga u yoki bu panja)ar“sonini ko'rsataman. Ba'zan bir qoTda, ba'zan ikki qo'lida, men qo'limni ko'tarishim bilan, shuncha ishtirokchilar o'rinalidan turishlari kerak, nechta ekanligini men ko'rsataman. (ko'p ham, oz ham emas) Masalan: agar men qoTimni ko'rsatib to'rtta panjamni ko'rsatsam (ko'taradi va koTsatadi) unda mumkin qadar tezroq sizlardan to'rt kishi turadi. Qachonki, men kaftimni tushirsam, ular o'tirishlari mumkin".

Trener guruhga bir necha mart" u yoki bu panjalarining sonini ko'hrsatadi. Mashq boshlanishida 5-7 panjani ko'rsatish yaxshiroq bo'ladi, oxiriga borib esa 1-2 ta panjalami. Mashqning bajarilishi jarayonida trener guruh ishtirokchilarinnig vazifani bajarishga boTgan intilishlari haqida muloxaza yuritadi va taalluqli xulosalar chiqaradi.

Muhokama vaqtida trener guruhga bir necha savollar berishi mumkin: "Biz oldimizga qo'yilgan vazifan“ bajarishimizda nima yordam berdi, yoki uning bajarilishini nima qiyinlashtirdi?", "Siz turishga qaror qilganingizda“ nimani nazarda tutdingiz?", "Agar bizda bu vazifani oldindan muhokama qilish, qaror qilish imkoniyati boTganda, ishni qanday tashkil etgan boTardik?".

### **"Yelkama-yelka"**

**Ko'rsatma:** "shtirokchilar jufitliklarga boTinishadi, har bir juftlik doira markaziga chiqib bir-birlariga orqa o'girib turishadi, so'ng sekin-astalik bilan oyoqlarini oldinga uzatdilar va ogirliklarini bir-birlariga tashlashga harakat qiladilar. Ishtirokchilar orasida o'zaro ishonch qanchalik kuc'nli bo'lsa, ular orasidagi masofa shunchalik katta bo'ladi.

## **16.3. Ishtirokchilarning sinchkovligini oshiruvchi o'yinlar**

### **"Kimning qo'li"**

Guruh qatnashchilari aylana shaklida o'tirishadi.

**Ko'rsatma.** Markazda bo'sh stul qo'yiladi. Trener quyidagicha ko'rsatma beradi: "Hozir sizlardan biringiz aylana markaziga stulga o'tirasiz, qo'llaringizni tizzangizga, kaftlaringizni yuqoriga qaragan holda qo'yasiz va ko'zingizni yumasiz. Qolganlar navbat bilan ixtiyoriy ravishda unga yaqinlashib kaftlarini uning kaftlari ustiga qo'yadi. Stulda o'tirgan kishi bular kimning qo'llari ekanini aniqlashi zarur". Har gal agar javob to'g'ri bo'lsa, trener "ha" deydi, aks holda "yo'q" deydi.

E'tiborga olish lozim bo'lgan holat: Ishtirokchilar ixtiyoriy ravishda stulda o'tirgan kishiga yaqinlashadi va shunday holat bodishi mumkin-ki, bir kishi 2 marta shu ishni bajarishi, boshqa kishi esa umuman bajarmasligi mumkin.

O'rtada o'tirgan qatnashchining maqsadi - bu kimning qoTi ekanligini to-ishdir. Har bir to'g'ri topilgan qo'lidan so'ng o'yin qaytadan boshlanadi.

O'z xohishi bilan o'rtaga chiqqan qatnashchi ko'zini yumib stulga o'tirgandan so'ng, trener kim unga yaqinlashishini ko'rsatadi. Mashq davomida aylana markazida 3-4 kishi bo'lishi mumkin. Bu mashq tashqi muhitdan olinayotgan yangilikdan foydalananayotgan holda ta'sirchanlikni oshiradi.

Muhokama jarayoning kechishi: tortishuv davomida har xil g'oyalari tugdlishi mumkin. Misol tariqasida, qatnashchilar o'yin davomida duch kelgan qiyinchiliklami muxokama qilishlari mumkin. Ko'pchilik uchun bu kutilmagan bodishi mumkin. Qatnashchilar bir yo'nalishdan 2-yo'nalishga o'tish qiyinroq kechadi, deb o'ylaydilar. Mana ularning fikrlaridan biri: "Men birinchi o'yin boshlanganida qatnashchining qodlariga qarab eslab qolaman deb o'yagan edim O'yab qarasam, bu unchalik oson ish emas ekan. Men qatnashchilaming timoqlarining uzunligidan ham eslab qolaman deb o'yagan edim, lekin guruximizda hammasi ayollar bodganligi uchun ko'zimni yunganididan keyin umuman boshqacha holatni xis qildim".

Shuning uchun ham bu mashq davomida qatnashchilarda zehnlilik, smchkovlik bilan birgalikda his qilish va eslab qolish kabi qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

O'yin oxirida trener to'g'ri topgan qatnashchilardan qanday qilib to'g'ri topganini sababini so'rashi lozim, bunda ular asosan, qodning yumshoq yoki dag'alligiga, qodlarmng issiq yoki muzdayligiga qarab ajratganini aytadilar.

### **"Qol va barmoqlar soni"**

**Ko'rsatma.** Ishtirokchilar yarim aylana shaklida joylashadilar. Ishtirokchilardan biri

o'rtadagi stulga o'tiradi va uning ko'zлari yumiladi. Treneming ko'rsatmasi bilan bir nechta odamni chaqiriladi. Ular o'rtadagi ishtirokchining yelkasiga qod va barmoqlarini qo'yishadi. Har safar barmoqlar har xil bodadi. Ishtirokchilar nechta qod va nechta barmoq qo'yishlarini trener ko'rsatib turadi. O'rtadagi ko'zi yumilgan ishtirokchining vazifasi - uning orqasiga nechta barmoq v - nechta qod tekkanini bilishdan iborat.

Bu mashqni bir necha marta bir ishtirokchi bilan qaytarish mumkin, asosan xohlovchilami taklif qilinadi. Ishtirokchilaming faolligini oshirish uchun guruhda bu mashqni xohlovchilar bilan odkazish maqsadga muvofiq. Asosan, o'z fikrini aniq bayon eta oladigan odamlar o'rtasida odkaziladi.

### **“Qanday harf yozildi”**

**Ko'rsatma.** Guruh ishtirokchilari 2 ta juftliklar ajralishadi. Bir ishtirokchi ikkinchi ishtirochini orqasiga turadi va uni orqasiga barmogdga harf yozadi. Mashqning maqsadi - ishtirokchilar qanday harf yoz-iganligini aniqlashdan iborat. 2 minutdan so'ng ishtirokchilar o'rinn almashadilar.

### **“Emotsiyalar olami”**

**Ko'rsatma:** qatnashchilar aylana bodib odiradilar.

“Men hozir ba'zi birlaringizga ruhiy holatlami tasvirlangan kartochkalarni tarqataman. Olingan kartochkalarni faqat o'zingiz o'qing, lekin shunday o'qingki, yozuvni guruhdagi qolgan a'zolari ko'rmasin. Sizning vazifangiz kartochchadagi holatni ifodalab berishdan iborat. Biz hammamiz qanday holatlar ifodalanganini ko'rib, tushunishga harakat qilamiz”

Mashq davomida trener ishtirokchilarga ifodalangan mazkur holatlar nimani anglatishini so'zlashlariga imkon beradi, shundan keyin ishtirokchining o'zi ifodalangan holatni aytadi. Har safar, holat ifodalangandan keyin to'g'ri javob bergan qatnashchidan awal esa qolganlardan ulardan qanday holatni to'g'ri deb to'xtamga kelganlari so'raladi. Tortishuv davomida ba'zi bir holatlar osonlik bilan ba'zilari esa qiyinroq topilganini bilishimiz mumkin. Aksariyat holatlarda, emotsiyal holatlarda

- quvonch, xafalik, hayron boli - h , jahl, qayg'u kabi holatlar oson tushunilishi kuzatiladi.

Trener: “Siz xolatni qanday belgilarga qarab aniqladingiz va shu to'xtamga keldingiz?” deb savol berishi mumkin.

Ushbu mashq tortishuv pantomimik va jestkulyatorlik xolatga ega bolgan “bank” ni to'plashga yordamberadi.

### **“Ranglar olami”**

Guruh qatnashchilar aylana bo'lib o'tiradilar.

**Ko'rsatma:** Bugungi kun mashg'ulotlarining shartlaridan bid siz o'zingizm biror bit rang deb tasavvur qilasiz. Rang deganimizda libosingiz rangi haqida emas, balki ruhiy holatingizning rangini tushunamiz. O'ylashga fursat beriladi. Keyin qatnashchilar qanday RANG EKANLIGINI aytadilar.

Endi marhamat qilib, aytinchchi, uyg'onganirigizda kayfiyatizingiz qanday, o'zgardi? Agar o'zgargan bo'lsa, uning sabablari ko'rsating. Hikoyangizning oxirida hozirgi holatingizni so'zlang va nimaga aynan shu rangm o'zmgizga o'xshatganiningizga izohlab bering. Bu mashq shaxsni holatini nazorat qilishni o'rgatishga yo'naltirilgan. Aytishlaricha, yapon bolalari qora rangni 10 xil turini, I qizii rangni esa 300 xil turing nomlab bera olar ekan.

### **“Telefondagi so'zlashuv”**

**Ko'rsatma:** guruh qatnashchilar yarim aylana bo'lib o'tiradilar. O'rtaga stul qo'yiladi. Stulga navbat bilan o'tiradilar va stulga o'tirgan ishtirokchining vazifasi - telefonda gaplashadi. Trener o-dinroq 3 yoki 4 qatnashchi bilan kelishib oladi. Bunda trener qatnashchilardan telefonda bolasি, boshlig'i, dugonasi va hokazolar bilan “gaplashishni” so'raydi. Qolganlarning vazifasi - so'zlashuv kim bilan va nima h - qida ketayotganini tushunishga harakat qilishdir. Har bir so'zlashuv 1 daqiqa davom etadi. Shundan so'ng, trener kuzatuvchilardan kim bilan va nima haqida suhbat bo'lgani haqida so'raydi. Tortishuv davomida, qatnashchining kim bilan gaplashganini uning yuz-qiyofasida aks etgan mimikali harakatini kuzatishdan ham bilib olish mumkin. ;

### **“Rangni toping”**

**Ko'rsatma:** qatnashchilar aylana shaklida o'tiradilar. Ulardan bid (albatta, xohlovchi)

xonadan tashqariga chiqadi, qolganlar esa biron-bir rangni tanlaydi. Xonaga qaytib kirgan qatnashchi tanlangan rangni topish kerak bo'ladi. Buning uchun u istagan qatnashchidan so'rashi mumkin. So'ralgan qatnashchi esa o'sha rangni qo'l harakatlari bilan tushuntirib berish kerak bo'ladi. Agar rang to'g'ri topilmasa, "rang topuvchi" keyingi qatnashchidan so'raydi va h.k. rang topilmaguncha bu hoi davom etadi.

Rangni ifodalayotganda rang ma'naviy aloqasi bo'lgan, misol ko'k rangni olsak, osmon yoki kiyimni ifoda qilmasligi kerak.

#### **16.4. Muloqotga doir treninglar (noverbal va verbal).**

##### **«Izhor»**

**Ko'rsatma:** guruh ishtirokchilari sherik-sherik bo'lib guruhalarga bo'linadi. ufami oldiga quyidagicha vazifalar yuklatiladi:

- a) sheringiga shirin so'z aytish;
- b) sheringiga sevgi izhor qilish;
- v) stieigiga kompliment qilish;

**natija:** guruh omplimentan bir-birini tanimaydigan ishtirokchilar orasida iliq munosabatlami uyg'otish, kommunikativ hususiyatlarini shakllantirishdan iborat.

##### **«Koptok va nasos».**

**Ko'rsatma.** bu trening noverbal muloqot ya'ni mimika jestlar orqali amalga oshadi.

Ishtirokchilar juft-juftlarga bo'linishadi. Ulardan bid koptok, bid esa nasos bo'ladi. Koptok bo'lgan ishtirokchi mimika va jestlar orqali bo'sh koptokni ifoda etadi va nasos bo'layotgan ishtirokchi nasosni tasavvur qilib undan foydalanishni boshlaydi, ya'ni nasos orqali koptokka dam solib uni ishirishni boshlaydi. Birinchi (eng faol) juftlik buni ko'rsatib beriganidan so'ng barcha juftliklar bu mashg'ulotni bajarishlari lozim.

Koptok roldagi ishtirokchilar haqiqiy koptokdek bo'lganlaridan so'ng nasos bo'lgan ishtirokchi nasosni olib tashlaydi va koptok bo'shashisha boshlaydi va asl holiga qaytadi. Oxirida ularning taassurotlari bilan o'rtoqlashish kerak.

##### **«Quduq»**

**Ko'rsatina:** Ishtirokchilar juftliklarga bo'linadi. Har bir ishtirokchi navbat bilan o'z sheringiga ko'nglida armon bo'lib qolgan gaplami aytishi kerak. Bu treningni o'tkazishdan maqsad har bir ishtirokchi ichki tayg'ularini muloqot orqali yuzaga chiqarish va guruhdagi ishonch muhitini yaratish.

##### **«Qattiq tosh».**

**Ko'rsatma:** 5 ta xodim bitta rahbar. rahbar juda yomon kayfiyatda. Xodimlar navbat bilan qanday qilib bo'lmasm rahbar bilan kontakt o'matish xerak va uni gapirtirishi kerak,

**Maqsad:** shaxslararo munosabatlarda va muloqotda yuzaga keladigan to siqlami shirin muomala va ongli tafakkur orqali yengishga o'rgatish, shu bilan birga ichki his-tuyg'u (qo'rquv, noqulaylik, vaxima, uyatchanlik kabi)lami yengib o'tib, qo'yilgan maqsadga erishish qobiliyatini rivojlantirish.

## **IZOHLI LUG'AT**

Agressiya- odamiarga, odamlar guruhiga nisbatan jismoniy yoki ruhiy zarar yetkazishga qaratilgan xatti -harakat.

Agressiv hulq- inson bilan vaziyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’siri natijasida vujudga keluvchi aggressiv jarayon.

Asabiylashish - odain organizmining barcha funksiyalarini o‘zaro hamda tashqi muhit bilan aloqasidagi nerv psixik zo’riqish.

Aqliy xujum - muhokama qilinayotgan mavzu yuzasidan ishtirokchilarining aytgan fikriga hech bir shubha qilmaslik, aksincha har qanday ftkrni bildirishda to‘la erkinlik yaratib berishga qaratilgan interfaol usul.

Barkamollik- insonning har tamonlama yetuklik darajasi.

Bahs- munozara- bu faoliyatning diologik shakli bo‘lib, turli fikrlar orasida boradigan shiddatli kurashni, suhbatni yuzaga keltirishdir.

Birgalikda aziyat chekmoq - birovning xislari, fikrlarini tushungan holda unga ma’naviy dalda berish turi.

Bosqich - biror bir faoliyatni bajarish ketma - ketligi.

Guruh - odamlaming birgalikkagi faoliyat mazmuni yoki muloqotda bo‘lish harakteriga asoslangan ijtimoiy jamoa.

Guruhiy norma - odamlami birgalikkagi faoliyat mazmuni yoki muloqotda bo‘lishi xarakteriga asoslangan ijtimoiy qonun qoidalar tizimi.

Yon berish - muloqot jarayonida shaxs o‘z ixtiyori bilan tobeklik tarafdoi bo‘ladi. Ishonchli hulq - o‘zgalar huquqini poymol qilmagan holda o‘z huquqlarini himoya qila olishga qaratilgan huquq.

Yo‘riqnama - mashq haqida aniq, qisqa, tushunarli axborotni berish.

Kichik gruh - a’zolari birgalikkagi faoliyat bilan shugullanuvchi va bevosita shaxsiy munosabatlarda bo‘luvchi kishilaming kichik guruhi.

Kuzatuvchanlik - shaxs hususiyatlaridan biri u kishining idrok qilish jarayonida narsalami kamdan-kam uchraydigan, ammo muhim tomonlarini payqab olishida namoyon bo‘ladi.

Kompromiss - bu kelishuvchanlik, ya’ni “sen ham yutqizma, men ham yutqizmay” qabilida ish tutish, munozarali vaziyatdan kelishilgan holda chiqib ketish imkoniyatini izlashdan iborat holatdir.

Konformlik - individning guruh fikrlariga tashqi tomondangina qo’shib, ichki tomonidan qo‘shtimay o‘z fikrida qolishlik.

Konflikt - kishilar va gunuhlar orasidagi kuchli salbiy hissiy kechinmalami keltirib chiqaruvchi to‘qnashuv.

Kayfiyat - birorta emotsiyaning barqaror kechishi.

Kinova - ma’qullashning yolg‘on ustidan kulishning bir ko’rinishi. «Maxfiylik» - trening jarayonida biror - bir guruh a’zosining hayotiga oid hissiyot, filer, axborotlar trening doirasidan chetga chiqmasligi.

Mashq - o’zlashtirish maqsadida qayta-qayta bajaridigan harakatlar.

Mashq qilish - ma’lum ko’nikma va malakalami hosil qilishga, takomillashtirishga qaratilganjarayon.

Mashq qilish usuli - zarur ko’nikma va malakalami hosil qilishga, takomillashtirishga qaratilgan jarayonning samaradorligini oshirish usuli.

Mimika — noverbal muloqot vositasi bo‘lib, o‘z fikr-mulohazalarini yuz ifodasi orqali ifodalash.

Muammoli vaziyat — bilish ehtiyojini qondirishda tafakkur qilish sharti bo lgan psixologik vaziyat.

Muloqot - ikki yoki undan ortiq odamlarning o‘zaro bir-biriga ta’sir etishi, axborot almashishi.

Muloqatchanlik - kishilaming boshqalar bilan muloqotga tez kirishuvehanlik qobiliyati.

Nizo — o‘zaro muloqotga kirishayotgan tomonlaming qarashlari, manfaatlarining mos kelmasligi natijsidagi to‘qnashuv.

Negativ munosabat - o‘azro muloqotdagi kishilaming bir-birlariga nisbatan salbiy hisiyotlar bilan munosabatda bo‘lishi Nizoli vaziyat — o‘zaro ta’sir ko‘rsatayotgan kishilaming qarama-qarshi fikrlarini to‘qnashuv vaziyati.

Prognoz qilish — treningdan kelib chiqqan holda uning samarasini oldindan ko ra bilish.

Psixologik zo‘riqish - insonning ruhiy jihatdan azoblanishi.

Psixologik muammo - bu fikrlashni kengaytirishga, hayotga ijodiy yondashuvni shakllantimvchi vaziyat.

Psixogimnastik mashqlar — kishini barkamollashtirishga, emotsiyal zo‘riqishlami bartaraf etishga qaratilgan mashqlar majmui.

Raqobat usuli — muloqot jarayonidagi bir kishining ikkinchi kishi ustidan hukmron boiishi va butunlay vaziyatni boshqarishi.

Reaksiya — (lot. re — qarshi, action — harakat) psixologiya va fiziologiyada ichki va tashqi muhitning turli ta’sirlariga a’zolaming javob qaytarishi.

Reiaksasiya - odamdagи jismoniy zo‘riqishning psixik keskinligi tugashi natijasida bo‘ladigan tinchlik, osoyishtalik holati.

Rolli o‘yin — turli ijtimoiy rollami bajaruvchi kishilar orasidagi munosabatlami muvofiqlashtirishga qaratilgan mashqlar majmuasidir.

Sust hulq — o‘z huquqlarini himoya qilmaydigan, o‘zgalar fikriga yon bemvchi va ulami yuqori qo‘yuvchi hulq - atvor. “Tanishuv” o‘yini - gumhning barcha a‘zolarini har jihatdan qulay, dadil tutishlari va o‘zaro ishonch hosil qilishga qaratilgan mashq.

Trening - shaxsda mavjud bo‘lgan yoki vujudga keladigan muammolami hal qilish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalami hosil qilish maqsadida bahs- munozara, o‘yin, mashqlar orqali o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar yig‘indisi.

Trening guruh — shaxslararo munosabatlar tizimida uning a‘zolariga ta’sir ko‘rsatib, ularda muloqot malakasini va o‘zaro ta’sirini rivojlantirishga qaratilgan qisqa muddatli mashq turi.

Trener — trening mashg‘ulotlarini tashkil etib, bu jarayonni boshqamvchi shaxs.

Usui - biror - bir faoliyatni bajarishning yo‘l-yo‘rig‘i.

Faollik - tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak - atrofdagi muxit bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lishida namoyon bo‘ladi.

Flipchart qog‘ozi - trening jarayonida qo‘llaniladigan maxsus qog‘oz.

Frustratsiya — ma‘lum bir maqsadga erishish yo‘lida shaxs uchraydigan to‘sinq yoki o’siqlar

Frustratsion holat - inaqsadga erishish yo‘lida to‘sqliarga duch kelganida shaxs bpshidan kechiradigan holat

Frustratsion tolerantlik - frustratsiya yuzaga kelganida uni tabiiy hoi sifatida qabul qilib, to‘sinqi yengib o‘tishga boigan harakatga undovchi xulq

Shaxs - ijtimoiy munosabatlarga kirishuvchi va ongli faoliyat bilan shug ullanuvchi odam.

“Shu yerda va hozir” - guruhdagi muomala - munosabat mashg‘ulot jarayoniga bevosita aloqador, ya’ni hozirgi zamonga bog‘liq bo‘lishi lozim.

Emotsiya - (lot.emovek - uyg‘otish, to‘lqinlantirish) odamlarning sub’ektiv ifodalangan ichki yoki tashqi qo‘zg‘atuvchilar ta’siriga javob reaksiyasi.

Emotsional ta’sirchanlik - o‘yinni boshlash uchun qilib qilib qilib, quvnoq tarzda aytishi va ishtiropchilami harakatlarga keltirish jarayoni.

Empatiya - (yunon yempatia - birgalikda dardlashmoq) boshqa-odamlaming psixik holatlarini tushunish va ularga hamdardlik qilish qobiliyati.

“Yagona mikrofon” - bir ishtiropchi so‘zlaganda, boshqalar unga diqqat bilan qulop solishi va gapini bo‘lmasligi, birg‘birining shaxsini hurmat qilishi.

O‘yin - kishilarning ishlash - harakatlarini, odamlar o‘rtasidagi a‘zaro munosabatlarni aks ettirishda ifodalangan va tevarak - atrofdagi borliqni bilishga qaratilgan faoliyat.

O‘yining jadalligi — o‘yinning etish tezligi.

O ‘z — o ‘zini anglash — individning o ‘zi haqida n isb a ta n b arq a ro r anglangan tasavvurlar tizimi.

Qo‘rquv - odamning o‘ziga yoki yaqin kishilariga taalluqli bo‘lgan haqiqiy yoki hayoliy xavf-hatarga nisbatan yuzaga kelgan emotsiyal holat.

Hamkorlik - bu holat barcha ishtirokchilaming o‘zaro manfaatlarini hisobga olgan holda muloqotda bo‘lish va muammoli vaziyatni oxirigacha hal etishga intilishdir.

Hissiyot - odamning yuksak ehtiyojlarini qondirish yoki qondirmaslik qobiliyatining mavjudligi va psixik obraz yarata olish natijasida uning tevarak - atrofdagi olamga bo‘lgan munosabatlarining ongda aks ettiriishidan iborat jarayon.

Hulq - atvor normalari - jamiyat tomonidan qabul qilingan ahloqiy me yorlarga asoslangan hulq-atvor.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati**

1. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: «Ma'naviyat», 2008
2. Арнольд О.Р. Ролевой тренинг: Методическое пособие. М., 1992.
3. Бакли Р., Дж. Кэйпл «Теория и практика тренинга». 2003.
4. Baratov Sh.B., Olimov Ya.L. Sotsial trening va amaliyot.
5. Берн Э. Игры, в которые играют люди: Психология человеческих взаимоотношений. Люди, которые играют в игры: Психология человеческой судьбы / Пер. с англ. М., 1998.
6. Берн Э. Транзактный анализ в группе / Пер. с англ. М., 1994.
7. Большаков В.Ю. Психологический тренинг. СПб., 1996.
8. Бачков И. «Основы технологии группового тренинга». СПб. Речь, 2001
9. Гиппиус С.В. Тренинг развития креативности. СП. 2001
10. Девид Ли. Практика группового тренинга. СП. 2010
11. Жуков Ю.М., Петровская Л.А., Растворников П.В. Диагностика и развитие компетенций в общении. М., 1991.
12. Евтихов О. В. «Практика психологического тренинга». Спб, Речь. 2005.
13. Зайцева Т. В. «Теория психологического тренинга : психологический тренинг как инструментальное действие». Спб.:Речь, М.: Смысл, 2002.
14. Захаров В.П., Хрящева Н.Ю. Социально-психологический тренинг: Учебное пособие. Л., 1999.
15. Ismoilova N.Z., Abdullaeva D.U. Trening o'tkazish metodikasi. Toshkent - 2009.
16. Ismoilova N.Z., Abdulla-va D.U. Ijtimoiy psixologiya. Toshkent - 2013.
17. Ismoilova N.Z., Fayzulla-va O. Psixologik treningdan laboratoriya mashg'ulotlari. Toshkent - 2013.
18. Исурина И.Г. Групповая -инамика в тренинговых группах // Журнал практического психолога. 1998. №1. С. 31-44.
19. Костина Г.Д., Пискунова Н.Н. Сборник деловых игр по курсу "Организационное поведение". М.,«1998.
20. Костецкий В.Э. Динамика общения в условиях групповой дискуссии: Автодиф. дис.... канд. психол. наук. М., 1991.
21. Кочюнас Р. Психотерапевтические группы: теория и практика. М., 2000.
22. Кузнецова Е.В. Развитие межличностной невербальной коммуникации средствами социально-психологического тренинга: Автодиф. дис.... канд. психол. наук. М., 1996.
23. Литvak М. Е., Мирович М. О., Золотухина- Аболинна Е. В. «Бинтование душевных ран или психотерапия?». Ростов-на-Дону Феникс 2006.
24. Лидере А.Г. Психологический тренинг с подростками. М., 2003.
25. Макшанов С.И. Принцип психологического тренинга // Журнал практического психолога. 1999. №3. С. 13-38.
26. Методы практической психологии общения: Сб. статей. М., 1997.
27. Никольская Н.И. Опыт проведения ролевых игр в процессе подготовки профконсультантов службы занятости // Психол. журн. 1998. №2. Т. 19. С. 97 105.
28. Немиринский О.В. Личностный рост в терапевтической группе. М., 1999.
29. Петровская Л.А. Теоретические и методические проблемы социально-психологического тренинга. М., 1992.
30. Петровская Л.А. Компетентность в общении. Социально-психологический тренинг. М., 1993.
31. Райх В. Системы телесно-ориентированной психотерапии и психологии тела // Хрестоматия по телесно-ориентированной психотерапии и психотехнике / Под ред. В.Ю.Баскакова. М., 1993.
32. Взгляд на психотерапию. Становление человека. М., 1994.
33. Рудестам К. Групповая психотерапия. М., 1993.
34. Сартон Г.Н. Тренинг самостоятельности у детей. Москва 2001
35. Самоухина Н.В. Первые шаги школьного психолога: психологический тренинг.

Финке 2002

36. Семенова М. Тренинг эмоциональной устойчивости педагога. М., 2007
37. Шевцова И.Г. Тренинг тренеров. М., 2006.
38. Хрящева Н.Ю. Психогимнастика в тренинге. М., 2001

## MUNDARIJA

I BOB.	KIRISH PSIXOLOGIK TRENING ASOSLARI FANI HAQIDA	3 4
	TUSHUNCHA.....	
1&	Psixologik trening haqida tushuncha, maqsad va vazifalari	4
2-&	Trening guruhlarining rivojlanish tarixi.....	11
II BOB.	TRENING BOSQICHLARI.....	29
3-&	Treningni tashkiliy bosqichi.....	29
4-&	Treningni boshlang'ich bosqichi.....	40
5-&	Teningni asosiy bosqichi.....	47
6-&	Treningdapsixogimnastik mashqlardan foydalananish.....	62
7-&	Trening jarayonida o'yin usuli.....	69
8-&	Rolli o'yinlar.....	84
III BOB.	TRENERGA QO'YILADIGAN TALABLAR.....	95
9-&	Trener va unga qo'yiladigan talablar.....	95
10- &	Trening jarayonida guruhlar bilan ishlash.....	105
11- &	Guruhiy dinamika va uning bosqichlari.....	111
12- &	Treningni yakuniy bosqichi.....	118
IV BOB.	TRENING TURLARI .....	124
13-&	Trening turlari va klassifikatsiyasi.....	124
14-&	Muloqot treninglari.....	134
15-&	Shaxsni rivojlantiruvchi treninglar.....	150
16-&	Ruhiyatni sog'lomlashtirish va stressni bartaraf etishtreninglari.....	164
17-&.	Treningda nizoli va agressiv holatlar bilan ishlash.....	181
Илова	TRENINGLARDA QO'LLANILADIGAN MASHQ VA O'YINLAR.....	235
	Izohli lug'at.....	239
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	